

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTLARI

ILMIY-NAZARIY JURNALI № 1 (14) 2018 й.

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК**
ТАШКЕНТСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО
УНИВЕРСИТЕТА

**SCIENTIFIC
BULLETIN**
OF THE TASHKENT
STATE PEDAGOGICAL
UNIVERSITY

MUHARRIR
Xolsaidov F.B.

Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2014- yil 30- iyulda ro'yxatga olingan. Guvohnoma №02-00175. Har uch oyda bir marta nashr etiladi.

Manzil: 10100, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27-uy. Tel.: 276-75-26
e-mail: tdpuilm@gmail.com

Buyurtma № 99. Adadi 100 nusxa. Hajmi 14,75 b/t. Bichimi 60x84 1/8 Nizomiy nomidagi TDPU "Tahrir va nashr" bo'limida chop etildi. Toshkent Yusuf Xos Hojib -103.

BOSH MUHARRIR

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR MUOVINI

Abdullayeva B. – pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI

- Asqarov A. – tarix fanlari doktori, akademik
Inoyatov U. – pedagogika fanlari doktori, professor
Begimqulov U. – pedagogika fanlari doktori, professor
Beshimov R. – fizika - matematika fanlari doktori, dotsent
Djoraev M. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mirkomilov Sh. – texnika fanlari doktori, professor
Saparov Q. – biologiya fanlari doktori
Shaxmurova G. – biologiya fanlari doktori
Mamatqulov D. – biologiya fanlari nomzodi
Alimqulov N. – geografiya fanlari nomzodi
Muslimov N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mo'minova L. – pedagogika fanlari doktori, professor
Tolipov O'. – pedagogika fanlari doktori, professor
Yuzlikayeva E. – pedagogika fanlari doktori, professor
Nensi Askles – falsafa doktori, Azusa Pacific universiteti professori, Kaliforniya
- Yumi LI – falsafa doktori, professor
Isyanov R. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Xoliqov A. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Sadikova A. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Mamadazimov M. – pedagogika fanlari doktori, professor
Abduqodirov A. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kozlov V. – psixologiya fanlari doktori, Yaroslavl davlat universiteti professori
Mazilov V. – psixologiya fanlari doktori, Yaroslavl davlat universiteti professori
Safaev N. – psixologiya fanlari doktori, professor
Nishonova Z. – psixologiya fanlari doktori, professor
Muxamedova D. – psixologiya fanlari doktori
Qahramonov Q. – filologiya fanlari doktori, professor
Jalolov J. – pedagogika fanlari nomzodi, professor
Azimov I. – filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Matenova Yu. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Nuriddinov E. – tarix fanlari doktori, professor
Qirg'izboyev A. – tarix fanlari doktori, professor
Qahhorova M. – falsafa fanlari doktori
Maxmudova G. – falsafa fanlari doktori, professor
Ismoilov O. – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Bulatov S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Panjiyev Q. – san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent
Ergashov M. – texnika fanlari doktori, professor
Rixsiboyev T. – texnika fanlari nomzodi, dotsent

TEZLATKICHLARSIZ ASTROZARRALAR FIZIKASI

Komiljon NASRIDDINOV – TDPU “Fizika-astronomiya va uni o‘qitish metodikasi” kafedrası professorı, fizika-matematika fanlari doktori

Ushbu maqolada tezlatgichlarsiz astrozarralar fizikasining ahamiyati, tadqiqot yo‘nalishlari, olib borilayotgan izlanishlari, erishilgan yutuqlari va muammolari bayon qilingan.

В данной статье излагаются значение, исследовательские направления, проводимые исследования, достижения и проблемы физики не ускорительных астрочастиц.

In this paper the role, research directions, carried out studies, developments, and problems of non-acceleratory astroparticles physics are described.

Kalit so‘zlar: koinot nurlari, Quyosh neytrinosi, qora materiya, neytrino xossalari, nuklon stabiligi, o‘ta yangi yulduzlar, gamma nurlar va neytrino astronomiyasi, astrofizika, kosmologiya, zarralar fizikasi.

Ключевые слова: космические лучи, солнечное нейтрино, темная материя, свойства нейтрино, стабильность нуклона, сверхновые звезды, астрономия гамма лучей и нейтрино, астрофизика, космология, физика частиц.

Key words: cosmic rays, solar neutrino, dark matter, properties of neutrinos, stability of the nucleon, supernova, astronomy of gamma rays and neutrinos, astrophysics, cosmology, particle physics.

Tezlatkichlarsiz astrozarralar fizikasi katta sohani o‘z ichiga oladi. Bu sohaga Koinot nurlari fizikasi, Quyosh neytrinosi fizikasi, qora materiya, neytrino xossalari, nuklon stabiligi, o‘ta yangi yulduzlar, gamma nurlar va neytrino astronomiyasi, astrofizika, kosmologiya va zarralar fizikasi kabi bo‘limlar kiradi. Tezlatkichlarsiz astrozarralar fizikasi uchun umumiy xususiyat shundan iboratki, bu soha koinotdagi tabiiy jarayonlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Tezlatgichlarsiz astrozarralar fizikasining ahamiyati shundan iboratki, unda zarralarning tabiiy holdagi xususiyatlari o‘rganiladi, Tezlatgichlarda esa sun‘iy sharoitdagi xususiyatlar o‘rganiladi. Lekin bu xususiyatlar tabiiy jarayonlardagiga qaraganda aniq bo‘lmaydi. Bundan, ya‘ni zarralarning tabiiy holatdagi xususiyatlarini o‘rganishdan asosiy maqsad bu jarayonlarning umuman Olam va Yerdagi hayot evolyusiyasidagi o‘rni va rolini aniqlash, hamda keyingi taraqqiyotni istiqbollashdan iborat deb qarashimiz mumkin. Albatta, mikroolam xususiyatlari, ya‘ni zarralar, ularning xususiyatlarini zamonaviy tezlatgichlarda o‘rganish ancha qulay, o‘rganilayotgan jarayon uchun zarur statistik “voqealar” to‘plamini juda qisqa vaqt ichida yig‘ib olish mumkin. Lekin bu statistik ma‘lumot, ta‘kidlab o‘tganimizdek, sun‘iy sharoit, ya‘ni o‘ta past bosim va zarralar dastasining o‘ta zich holatida olinadi, tabiiy sharoitlarda emas. Shu sababli ham tezlatgichlarsiz astrozarralar fizikasining ahamiyati va olingan natijalarning ilmiy qiymati o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai - nazardan ham dunyo miqiyosida, ya‘ni jahondagi tezlatgichlarsiz astrozarralar fizikasi sohasida faoliyat olib boruvchi ilmiy markazlarda hozirda olib borilayotgan ilmiy -tadqiqot ishlari, soha muammolari va istiqbolda rejalashtirilayotgan tadqiqotlar to‘g‘risida ma‘lumot berish, olingan natijalarni muhokama qilish katta ahamiyat kasb etadi.

Shu sohadagi muhim yo‘nalishlardan biri - bu Quyosh neytrinosi tabiatini o‘rganish hisoblanadi. Hozirda Gran Sasso yer osti laboratoriyasi (Gran

Sasso Underground Laboratory, Rim shahridan 100 km janubda joylashgan) da Quyosh neytrinosini o‘rganish bo‘yicha 2 ta eksperiment o‘tkazilmoqda: bular Boreksino (Borexino) va IKARUS (ICARUS) eksperimentlaridir. Boreksino MeV energiyadan past energiyalarda Quyosh neytrinosini o‘rganadigan ssintillyatsion detektordir. Qayd qilish reaksiyasi neytrino-elektron sochilishi bo‘lib uning qayd qilish energiyasi 250 keV dan boshlanadi. Boreksino detektorining asosiy maqsadi real vaqt rejimida 862 keV energiyali berilliy Quyosh neytrinosi oqimini o‘lchashdan iborat. Detektor 2200 fotokuchaytirgichlar bilan o‘ralgan diametri 8.5 metrga teng neylon sferik idishga solingan 300 tonna suyuq ssintillyatordan iborat. Boreksinoning prototipi – Sanovchi Test Mashinasi (Counting Test Facility (CTF)) bo‘lib eng past o‘lchashlarni ham qayd qilishni namoyish qilish maqsadida qurilgan edi. Bu detektorda Quyosh neytrinosidan tashqari o‘ta yangi yulduzlar va Yerdan kelayotgan (geoneytrinolar) neytrinolar ham o‘rganiladi. Bu detektor Gran Sasso laboratoriyasining S zalida joylashtirilgan. IKARUS esa suyuq argonli vaqt-proeksion kamera (Time Projection Chamber (TPC)) bo‘lib ionlashtiruvchi zarralarning 3 o‘lchovli tasvirini va ajralib chiqadigan energiyasini aniqlashga imkon beradi. Detektor har bir voqeaning 3 o‘lchovli tasvirini tiklashga imkon beradi va dE/dx energiya yo‘qotishni katta aniqlikda ifodalaydi. Bu detektor $p \rightarrow \pi + \dots + \nu$ kabi nuklon parchalanishlarini ham qayd qilishga, ya‘ni proton parchalanishini qayd qilishga yoki proton (nuklon) stabiligiini isbotlashga ham mo‘ljallangan.

Ma‘lumki, hozirda uch turdagi neytrinolar massalarining yuqori chegaralarigina ma‘lum va ular massalarini yuqori aniqlikda aniqlash muhim ahamiyatga ega. Beta-parchalanish spektrini oxirgi holatdagi zarralar holatida aniqlash kinematik jihatdan neytrino massasini aniqlashga imkon beradi. Shu maqsadda hozirda KATRIN betta-spektrometrining sezgirligini bir tartibga oshirish,

ya'ni 0.2 eV/c² darajaga erishish ustida ish olib borilmoqda.

Bolometrlar sezgirliги ham ular erishishi mumkin bo'lgan texnologik chegaraga hali yetib borgani yo'q va vaqti kelib KATRIN betta-spektrometri sezgirligidan ham yaxshi darajaga erishishi mumkin. Ularning imkoniyatini oshirish ishlari hozirda keng darajada olib borilmoqda.

Ma'lumki, hozirda neytrino tabiati to'g'risida ikki xil qarash mavjud, ya'ni Veyl tipidagi va Mayorano tipidagi neytrinolar to'g'risidagi bashoratlar ilgari surilgan. Lekin tajribada biror - bir qarash uzul-kesil tasdiqlangan emas. Neytrinosiz ikkilamchi betta parchalanishning aniq signali neytrinoning Mayorana tipidagi neytrino, ya'ni haqiqiy neytral zarra, ekanligini isbotlaydi va uning massasi massatibini aniqlashtiradi. Hozirda neytrinoning 3 ta massa kengligi mavjud. Hozirda mavjud CUORICINO va NEMO-3 eksperimentlarida neytrino massasi ≥ 500 MeV oraliqda izlanmoqda. Bu tajriba 1-kenglikka tegishli.

Yaqin 5 yil ichida ishga tushushirilishi rejalashtirilayotgan Yevropa detektorlari - GERDA, CUORE, Super-NEMO va COBRAning massa kengligi 50-100 MeV ni tashkil qiladi. Bu detektorlar bilan Yevropa tadqiqot markazlari neytrino massasini aniqlash sohasida oldingi o'rinlarni egallashadi va natijaga erishishga yaqin turishibdi.

Yangi avlod detektorlari, 1 tonna faol massaga, yaxshi ajratish qobiliyatiga va past fonga ega yangi avlod detektorlari massa kengligini 20-50 MeV ga yetkazishi mumkin. Va nihoyat turli yadro izotoplari hamda turli eksperimental texnika zarur effekt orqali neytrino massasini aniqlashga imkon berishi mumkin. Keyinchalik 20 MeV dan past kenglikka ega detektorlarni yaratish ustida ham ishlanmoqda. Keyingi o'n yil mobaynida bunga erishish kutilmoqda.

Neytrino aralashish parametrlarini tadqiq qilish ham neytrino fizikasining muhim muammolaridan biridir. Neytrino massasi matritsasida, ya'ni turli avlod neytrinolarining aralashishini bayon qiluvchi matritsa strukturasi zarralar fizikasi va kosmologiya uchun katta ahamiyat kasb etadi. Quyosh, o'ta yangi yulduzlar va boshqa astrofizik ob'ektlardan kelayotgan neytrinolar bilan o'tkazilgan tajribalar ularning aynan qaysi manbalardan kelayotganini aniqlashga imkon bermaydi. Lekin neytrino tabiati va neytrino aralashish parametri to'g'risida qimmatli ma'lumotlar olish mumkin bo'ladi. Shu sababli aralashish parametrini reaktor va tezlatgich neytrinolarini o'rganish orqali topish ahamiyat kasb etadi.

Quyosh, o'ta yangi yulduz va Yerdan kelayotgan past energiyali neytrinolarini o'rganish ham muhim muammolardan biri sanaladi. Past energiyali neytrinolar turli tabiiy manbalar tomonidan hosil qilinadi. Bular - Quyosh yadrosi, o'ta yangi yulduzlar portlashi va Yerning ichidagi radioaktiv moddalar betta- parchalanishidan hosil bo'lgan neytrinolardir. Ularni o'rganish ular hosil bo'lgan manbalar dinamikasini o'rganishga imkon beradi. Ikkinchi

tomonidan sun'iy manbalardan olingan natijalarni solishtirish orqali neytrino tabiatini aniqlashga imkon beradi. GALLEX va GNO eksperimentlari neytrino ossilyatsiyasini o'rganishda katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga past energiyali neytrinolar tabiati ham shu eksperimentlarda o'rganiladi. Neytrino tabiati LVD (Gran Sasso), IceCube/AMANDA (Janubiy kutb), Super-Kamiokande (Yaponiya) va SNO (Kanada) eksperimentlarida ham o'rganilmoqda.

Yuqori energiyali neytrinolarini o'rganish ham muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Yuqori energiyali neytrinolarini o'rganish ishlari eng yirik neytrino teleskopi NT200 (Baykal ko'lida, Rossiya) va AMANDA teleskoplari (Janubiy kutbda joylashtirilgan) yordamida olib boriladi. Bundan tashqari shu maqsadda ANTARES, NEMO va NESTOR loyihalari doirasida O'rta yer dengizi suv ostida katta suv osti teleskopi qurish rejalashtirilgan.

Eng yosh va istiqbolli yo'nalishlardan biri qora materiyani o'rganish sohasidir. Kosmologik va Galaktik qora materiyani tabiatini tushunish muammosi bizning zarralar fizikasini va bizni o'rab turgan Koinotni tushunishimiz uchun katta ahamiyat kasb etadi. Qora materiya muammosining oddiy yechimi kuchsiz o'zaro ta'sirlashuvchi massiv zarralar - vimplar (Weak Interactive Massive Particles - WIMP) Koinot paydo bo'lishining dastlabki bosqichlarida paydo bo'lgan, va eng yengil super-simmetrik zarra-neytralino mavjudligini ko'rsatadi. Bu zarralar mavjudligi Katta adron kollyayderi (KAK) tajribalarida kuzatilishi mumkin. Lekin super-simmetrik zarralarning tezlatgichlarda kuzatilishi ularning qora materiyaga tegishiligi bildirmaydi. Super-simmetrik zarralarning Samon yo'li galosi asosiy komponentasi sifatida mavjudligi turli yo'llar bilan qayd qilinishi mumkin. Bu tadqiqotlar natijasida super-simmetrik zarralar - neytralinar mavjudligini ko'rsatuvchi signallar DAMA va CDMS guruhlar tomonidan e'lon qilingan.

So'nggi bir necha yil mobaynida vimplarni qidirish bo'yicha bajarilgan ishlar katta natija bermadi. Lekin keyingi 10 yil mobaynida ularni kuzatish mumkinligi taxmin qilinmoqda.

Qora materiyani to'g'ridan to'g'ri kuzatish ishlari Qora materiyani bilvosita qidirish ishlari dasturining bir qismi sifatida olib borilmoqda. Bunda gamma va neytrino teleskoplari, uchar sharlar va Yerning sun'iy yo'ldoshlariga o'rnatilgan detektorlar keng qo'llanilmoqda. Shu maqsadda yaratilgan AMS detektor eng so'nggi klass detektor hisoblanadi va u Halqaro kosmik stansiyada 3 yil mobaynida tadqiqot olib borishga mo'ljallangan.

Nazariy yo'l bilan mavjudligi yuqori darajada asoslangan sovuq qora materiyaga nomzod aksiondir. Galaktik aksionlarni izlash AQSh va Yaponiyada olib borilmoqda. Yevropada esa Quyosh aksionlarini izlash SERN dagi CAST eksperimentida olib borilmoqda. Bu eksperimentda aksion parametrlari keng tanlab olingan va natija issiq qora materiyani ham qamrab oladi. Shu sababli CAST eksperimenti AQSh va Yaponiyada olib borilayotgan

eksperimentlarni to'ldiruvchi eksperiment hisoblanadi.

Materiyaning qora materiyaga o'xshash yangi shakllaridan biri qora energiya hisoblanadi. Bugungi kunda qora energiya tabiatini o'rganish fizika va kosmologiyaning eng muhim muammolaridan biridir. Qora energiya o'zining kosmos evolyusiyasiga ta'siri orqali tadqiq qilinishi mumkin. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar an'anaviy astronomik texnikalar yordamida olib boriladi. Lekin zarralar tabiatini o'rganuvchi fiziklar, ham nazariyotchilar va ham eksperimentatorlar bunday loyihalar doirasidagi tadqiqot ishlariga qabul qilinadilar. Hozirda AQSh da fiziklarni katta DE loyahasiga kirgan SNAP va LSST eksperimentlariga jalb qilish ishlari olib borilmoqda. Shu ma'noda Yevropadagi astrozarralar fizikasi jamiyatining ham faoliyati faollashgan.


Proton parchalanishini qayd qilish zarralar fizikasi va kosmologiyaning eng muhim kashfiyotlaridan biri bo'lar edi. Protonning stabil emasligi Standart

modelning kengaytirilgan ko'rinishlaridan kelib chiqadi. Eksperiment aniqligini bir tartib oshirish bu hodisaning sodir bo'lish yoki bo'lmasligini aniqlashga imkon berar edi.

Kelajakda 105-106 hajmdagi protonli suyuqlikli detektorlar yaratish bu masalani hal qilishga va astrofizik tabiatga ega past energiyali neytrinolarni qayd qilishga imkon bergan bo'lar edi. Shu maqsadda MEMPHYS –suv-Cherenkov, LENA – suyuq ssintillyatsion va GLACIER – suyuq argonli detektorlar takomillashtirilishi ko'zda tutilgan.

Yuqori energiyali koinot nurlari keng atmosfera jalalari, (KASCADE-Grande, Tunka va IceTop eksperimentlari), sharlar yordamida atmosferadan tashqarida (TRACER va CREAM eksperimentlari) va Yerning sun'iy yo'ldoshlariga o'rnatilgan (Pamela and AMS eksperimentlari) detektorlar yordamida o'rganib kelingan.

Hozirda bu sohadagi tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda.



Koinot nularini qayd qilish mexanizmi

Yuqori energiyali gamma nurlarni o'rganishda Yerdan o'rnatilgan gamma nur observatoriyalari yetakchi o'rinni egallaydi. Kuzatuvlar, asosan, H.E.S.S. va MAGIC eksperimentlari, Koinotda yuqori energiyali gamma nur manbalari ko'pligini ko'rsatdi. Bu manbalarning ayrimlari gamma nurlar diapazonida eng ko'p energiya chiqarib, ko'rinadigan nur va boshqa to'liq uzunliklar diapazonida kam energiya chiqarishi ma'lum bo'ldi. Lekin bu yo'nalishdagi ishlarni yanada yaxshilash uchun yuqori sezgirlikka ega yangi avlod detektorlari zarurligi talab qilinmoqda.

Galaktik va galaktikadan tashqaridagi yuqori energiyali gamma nur manbalarini o'rganish uchun

yangi avlod detektorlarini yaratish (masalan, CTA – Cherenkov Telescope Array teleskopi) va bundan tashqari ularning sezgirliги bir tartib yuqori bo'lishi va energiya oralig'i katta bo'lishi talab qilinadi. Shundagina olingan natijalar ishnchiligi va aniqligi jihatdan zamon talabiga javob beradi. Bu maqsadda Cherenkov nurlanishlarini qayd qiluvchi teleskoplar tizimini yaratish maqsadga muvofiq deb qaralmoqda.

Bunday teleskoplar tizimini shimoliy va janubiy yarim sharlarda o'rnatish va ularning tizimli ishlashini yo'lga qo'yish yuqori energiyali gamma nurlar tabiatini, ular manbalarini, bunday manbalar xaritasini tuzishni sistemali amalga oshirishga imkon bergan bo'lar edi.



H.E.S.S. teleskopi tizimi


Gravitatsion to'liqlar katta qayd qilinish ehtimoligiga ega bo'lishiga qaramasdan yaqin kunlarga ularni qayd qilish amalga oshmadi. Bu maqsaddagi urinishlar kuzatuvlarni davomli amalga oshirish bilan bir qatorda mavjud detektorlar sezgirligini oshirishga qaratilishi kerak.

LIGO va VIRGO kollaboratsiyalari tomonidan 2016 yil 11 fevralda gravitatsion to'liqlarning

tajribada kuzatilganligi e'lon qilindi. Bu gravitatsion to'liq 29 va 36 Quyosh massasiga teng ikkita qora tuynikning birlashishi natijasida sodir bo'lgani va manbagacha bo'lgan masofa 1,3 mlrd yorug'lik yiliga tengligi xabar qilindi. Gravitatsion to'liqlarga keyinroq alohida batafsil to'xtalamiz.



Virgo interferometrining yuqoridan ko'rinishi



Gravitatsion to'liq detektorlarining hozirgi va kelajakda kutilayotgan sezgirliklari. Uzlaksiz chiziqlar mavjud detektorlar sezgirligi. Nuqtali chiziqlar yangi detektorlar sezgirligi.

Tezlatgichsiz astrozarralar fizikasi insoniyat, asosan, yoshlar dunyoqarashi kengayishida katta rol o'ynaydi. Bu soha keng va turli muammolarni o'zida

qamrab olishi bilan ajralib turadi. Bu esa sohaga qiziqqan yoshlarning fikrlash doirasini kengaytirishi bilan birga, ularni keng va qiziqarli sohaga olib kirishi bilan ham ahamiyatlidir. Shu sababli ham bu sohaga kirgan tadqiqot yo'nalishlarini yanada batafsil qarab chiqish keyingi izlanishlarimiz asosini tashkil qiladi va ularga kengroq to'xtalamiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. [MiniBooNE results suggest antineutrinos act differently // FermiLab Today, 10.06.2010](#)
2. [A.A.Aguilar-Arevalo et al. \(MiniBooNE collaboration\) Unexplained Excess of Electron-Like Events From a 1-GeV Neutrino Beam \(angl.\) // Phys.Rev.Lett.-2009. — Vol. 102. -P. 101802. -DOI: 10.1103/PhysRevLett.102.101802.](#)

3. A.A.Aguilar-Arevalo et al. (MiniBooNE collaboration) [Event Excess in the MiniBooNE Search for \$\bar{\nu}_\mu \rightarrow \bar{\nu}_e\$ Oscillations](#) (angl.) // Phys.Rev.Lett.. — 2010. — Vol. 105. — P. 181801. — DOI:[10.1103/PhysRevLett.105.181801](#).
4. [A luminous future for the LHC](#), CERN Courier, Feb 23, 2015.
5. [The Future Circular Collider study](#), CERN Courier, Mar 28, 2014.
6. LHCb Collaboration. First observation of $B_0 \rightarrow J/\psi f_0(980)$ decays // Physics Letters B. — 2011. — T. 698, № 2. — S. 115—122. — DOI:[10.1016/j.physletb.2011.03.006](#). — arXiv:[1102.0206](#).
7. LHCb Collaboration. First observation of $B_s \rightarrow D_{s1}^{*+} X \mu \nu$ decays // Physics Letters B. — 2011. — T. 698, № 1. — S. 14-20.

IZCHILLIK TAMOYILINING FIZIK NAZARIYALAR RIVOJLANISHIDA NAMOYON BO'LISH

Muhammadrasul DJO'RAYEV – TDPU “Ffizika-astronomiya va uni o`qitish metodikasi” kafedrası professorı, pedagogika fanları doktori
Sherali BABAEV – TDPU mustaqil izlanuvchisi

Ushbu maqolada izchillik tamoyili fizik nazariyalarnıg rivojlanishida namoyon bo'lishi hamda metodologik asoslari bayon etilgan.

В данной статье изложены специфика проявления принципа преемственности в развитии физических теорий и его методологические методические предпосылки.

The formation and development of consistency principle and its, methodological foundations are given in the current paper.

Tayanch so'zlar: *Izchillik tamoyili, moslik prinsipi, fizik nazariyalar, klassik va kvant nazariyasi, fizika o'qitish metodikasi, didaktika, nisbiylik nazariyasi.*

Ключевые слова: *Принцип преемственности, принцип соответствие, методология, классическая и квантовая теория, методика преподавания физики, дидактика, теория относительности.*

Key words: *Consistency principles, correspondence principles, classic and quant theory, methodology of teaching physics, didactics, theory of relativity.*

Izchillik tamoyilining fizik nazariyalarini rivojlanishiga qo'shgan hissasi juda katta bo'lib, jumladan har qanday nazariyaning fundamenti bo'lib empirik dalillar, kuzatish va tajriba natijalari hisoblanib, ular ob'ektiv hodisalarni to'g'ri aks ettiradi. Dalillar doirasidagi izchillik, ularning to'planish yo'nalishida borib, yanada aniqlik darajasi ortadi, qayta kuzatishlar asosida tekshiriladi. Yangi, haqiqiy bilimlarning mazmuni to'g'risida gapirganda shuni aytish lozimki, gap ularning oddiy arifmetik yig'indisi ustida ketmasligi kerak. Bunday jarayon tufayli turli fizik parametrlar va doimiyliklar yanada aniqroq topiladi.

Nazariya va dalillar orasida teskari aloqa ham mavjud. Nazariyaning mazmunini empirik dalillarga bog'liqligiga hech qanday shubha yo'q. Ammo, dalillarni tushunish darajasi nazariyaga bog'liq bo'lib, unga diqqatni va qabul qilishga tayyorgarlikni shakllantiradi. Agar nazariy yo'nalishlar bo'lmasa, empirik natijalar dalil sifatida qabul qilinmasligi ham mumkin. Ushbu fikrni tarixiy dalillar isbotlaydi, chunki noto'g'ri nazariy kotsepsiyalarini tasdiqlaydigan dalillar ham uchraydi.

Empirik umumlashirish, hali nazariya degani emas. Chunki dalillar dastlab bayon qilinishi,

so'ngra ular nazariy jihatdan tushuntirilishi tufayli, yuqori darajadagi umumlashirishga erishiladi.

Bir qator fanlarda empirik dalillarni to'plash uchun fundamental nazariyalar jalb qilinadi. Ko'p hollarda, fizik nazariyalar asosida ximiyaviy, biologik va boshqa hodisalar nazariy jihatdan tushuntiriladi. Bunga o'xshash jarayonlar ilmiy bilimlarni rivojlanishidagi izchillikni ko'rsatib, hodisalarni asoslashga va tushuntirishga xizmat qiladi.

Nazariyaning asosiy prinsiplarini metodologik rolini ham ko'rsatish kerak. Prinsip - ilmiy qonuni metodologik jihatdan qayta ta'riflash hisoblanadi. U, ayrim hodisani qayta tushunishni, uni o'rganishga qanday yondoshishni, ishlatilayotgan qonunning mazmuniga asoslanishni ko'rsatadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ayrim hollarda qonuni qayta ta'riflash, taqqoslash prinsipi sifatida namoyon bo'ladi. Bunga misol qilib I va II tur abadiy dvigatel yaratishni, energiyaning saqlanish va aylanish qonuni hamda termodinamikaning ikkinchi qonuni taqiqlashini ko'rsatish mumkin[1, 185].

Ilmiy bilimning rivojlanishidagi izchillikni amalga oshirishni, ilmiy prinsiplarning mazmunini aniqlashdagi izchillik misolida ko'rsatish mumkin Bu holda nazariy qonunlar, ularni ob'ektiv haqiqatga yaqinlashirish yo'nalishida ta'riflanadi. Nazariy

qonunlarning haqiqiylik mezoni sifatida ularni hodisalarni to'g'ri tushuntirish qobilyati, oldindan aytib berish jihati hamda ularni amalda tasdiqlanishi qatnashadi. Fanning taraqqiyoti va nazariyalarning almashinishi tufayli hodisalarni tushuntirishdagi haqqoniylik saqlanib qoladi. Nazariyaning haqiqiylik mezoni sifatida, faqatgina undan kelib chiqadigan natijalarning tasdiqlanishigina emas, uning amalda qo'llanishining turli shakllarining samaradorligi xizmat qiladi.

Ishonchli empirik dalillar, qonunlar prinsiplar, gipotezalar va ishlatiladigan modellar nazariyaning muhim elementlari bo'lib hisoblanadi, ammo bular nazariyaning mazmunini to'la qamrab ola olmaydi. Nazariya ma'lum bir mantiqiy tarkibga ega bo'lib, u uning elementlarini bog'lanishida hamda ularning ketma-ketligida namoyon bo'ladi. Nazariyaning mantiqiy tarkibidagi izchillik, ob'ektiv haqiqatni har tomonlama tushuntirishda, unga yaqinlashishda va uni amalda qo'llanishini samaradorligida namoyon bo'ladi.

Bilimlarni rivojlanishidagi izchillikni muhokama qilishda, nazariyaning falsafiy asoslari to'g'risidagi gapirish o'rinlidir. Ular o'zida mos ravishda dunyoqarash, metodologik va ijtimoiy jihatlarni qamrab oladi. Ularni qat'iyli va nazariyaga aynan mosligi shunda ko'rinadiki, ularni teskari fikrlarga almashtirish, nazariyani yo'qqa chiqaradi. Zamonaviy fanda yuqorida aytilgan jihatlari, dialektik materializmning muhim jihatlari aks ettiradi. Shu bilan birga, falsafiy asoslarning tarkibiga ilmiy nazariyaning elementlari, fundamental qonunlari kiradi[2,64].

Nazariyaning falsafiy asoslarini rivojlanishi tashqi dunyoga aynan mos kelish yo'nalishida borib, nazariyaning ichki mazmunini rivojlanishi, undagi bo'rtirma va noto'g'ri fikrlardan qutilish yo'nalishida boradi.

Fanning taraqqiyoti bilan turli tabiiy va gumanitar fanlarning falsafiy asosidagi umumiy dialektik - materialistik mazmun o'sib boradi. Ushbu mazmunning to'planishi va qayta ishlanishi, dialektik - materialistik dunyoqarashni yanada rivojlantirib, turli fanlarning tarkibiga chuqurroq kirib boradi va ularning integratsiyasiga tegishli muhim omil bo'lib hisoblanadi, Ko'rsatilgan jarayonlarning ta'sirida, asta-sekin bilimlarning integratsiyasi ularning differentsiyasidan ustun keladi.

Bilimlarning rivojlanishiga tegishli yuqorida aytilgan fikrlarga asoslanib, umumiy xulosalar chiqarish mumkin. Bizningcha, bilimlarning integratsiyasi bilan fanlarning sintezi va nazariyalarning qo'shilishini farqlash kerak. Qandaydir elementlarni sistemaga sintez qilinishi, ularning nisbiy mustaqilligini yo'qotadi, natijada boshqa sifatli yaxlit sistema yuzaga keladi. Bunga misol qilib, ximiyaviy va biologik sintezni ko'rsatish mumkin. Fanlarning o'zaro ta'sirida esa ahvol boshqacha. Biofizika, bioximiya fizik ximiyasi kabi «gibrid» fanlar yuzaga kelganda esa, ularni tashkil qilgan fanlar qo'shib ketmaydi, balki yanada

rivojlanadi. Natijada fanlarning soni kamaymasdan, yanada ortadi. Boshqacha aytganda, kelajakda integratsiya tufayli fanlarning soni yanada xam ortib boradi. Kelajakda, turli integratsion jarayonlar tufayli, fanlarning sonini ortishi stabilashgan holda ham, fanlar soni baribir ko'p bo'ladi.

Biz hozircha ayrim fan sohalariga va ayrim nazariyalarga tegishli izchillik to'g'risida gapirib, uni ularning integratsiyasi sifatida qaradik. Shunga qaramasdan, shuni ta'kidlash lozimki, hozircha fanlarning differentsiyasi ularning integratsiyasidan ustun kelmoqda. Chunki, fundamental fanlardan tashqari, ko'plab amaliy fanlar ham mavjud bo'lib, ularni soni ortib bormoqda. Endi biz, differentsiyalashgan fanlardagi izchillikni ko'rib chiqaylik. Ular nisbatan mustaqil bo'lishiga qaramasdan, har biri boshqa fanlarga ta'lim tizimi orqali kompleks tadqiqotlar tufayli, murakkab texnik tizimlar va texnologik jarayonlarni birgalikda ishlab chiqish orqali, hamda ilmiy texnik taraqqiyot va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish rejalarini tuzish orqali ta'sir qiladi.

Umumilmiy bilish vositalarining itegrativ roli juda katta. Odatdagi tadqiqot metodlarini (kuzatish, eksperiment, analiz, sintez, induksiya, deduksiya, analogiya va boshqalar) takomillashishi bilan bir qatorda yangi metodlar-matematik modellashtirish, ehtimolli-statistik metodlar keng qo'llanilmoqda. Qo'llanilayotgan tadqiqot metodlar kompleksini umumilmiy ahamiyatini ortishi va ular bilan bog'liq umumilmiy tushunchalar, fanlarning izchilligi va integratsiyasi jarayonining muhim belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Bunday jarayonning keng tarqalgan shakllaridan biri, turli fanlarda matematikaning qo'llanishidir. Bu jarayon bir necha bosqichda o'tadi. Dastlab fanda o'rganilayotgan ob'ektlar ajratib olinadi, ularning xossalari, elementlari miqdoriy jihatdan aniqlanadi. So'ngra ob'ektlarning o'zgarish qonunlari topiladi. Keyin esa, ularni, umumiy bo'lgan miqdoriy qonunlardan keltirib chiqarish orqali asoslanadi. Bu bosqichlarning barchasida, hisoblash texnikasi ishlatilib, u fanlarning integratsiyasini va matematikalashtirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. O'rganilayotgan qonunlarning aniq miqdoriy ta'rifi, ularni ko'p hodisalarni tushuntirishga va qonundan kelib chiqadigan natijalarni tahlil qilishga imkoniyat yaratadi. Matematikalashtirishning keyingi bosqichi, ta'riflangan miqdoriy qonunlarni asoslash jarayoni bilan, hamda ularni umumiy qonuniyat va tenglamalardan keltirib chiqarish bilan bog'lik. Bu jarayon ko'p bosqichli bo'lib, olam yaxlitligining turli shakllarini yanada chuqurroq o'rganishga imkon yaratadi. Bunday umumlashtirish jarayonida, ilmiy qonunlarning axborot ko'lami ortadi, ulardan ko'plab mazmunli natijalar olinadi. Materiya tuzilishining yangi darajalariga o'tish, ya'ni mikroolamdan megaolamga o'tish. materiya shakli va harakatini sifat jihatdan o'zgarishiga olib keladi. Harakat qonunlari ham sifat jihatdan turlicha bo'ladi[3,98]

Ilmiy bilimni izchillik bilan bog'liq rivojlanishi kelajakda qanday bo'ladi? degan savol tug'iladi. Ma'lumki, insoniyatning intellektual imkoniyati chegaralangan bo'lib, axborotni qayta ishlash tezligi cheklangan, ammo fan va texnikaning rivojlanishi esa katta tezlik bilan yuz bermoqda. Bu narsa kelajakda insonlarni ilmiy tadqiqot ishlarga qiziqishini pasayishiga olib kelmaydimi - degan xavotirga soladi. D. Prays oltmishinchi yillarda «fanning eksponensial o'sish qonunini» ta'rifladi. 'Ilmiy axborotning o'sishi muqarardir, uning hajmi har 10-15 yilda ikki baravardan ortib boradi. Ammo hech qanday sistema eksponensial o'sishga dosh bermaydi. Bunday o'sishda ma'lum vaqtdan keyin nashr qmlingan ishlarning massasi Yer sharining massasidan ham ortib ketadi. Bunga o'xshagan tanqidni hisobga olib, Prays o'zining fikrini o'zgartirdi. Uning o'zgartirgan fikriga ko'ra, bunday keskin o'sish kelajaqda sekinlashadi deb, fanning rivojlanishini soxtalashtiradi, bu esa noto'g'ridir.

Fanning eksponensial o'sishi to'g'risidagi fikrda ilmiy tadqiqotlarning mazmunli, natijali tomonlari, ularni haqiqatga yanada yaqinlashishi, bilimlarning rivojlanishida izchillikning mavjudligi hisobga olinmaydi. Albatta, nashr qilinayotgan ishlarning soni eksponensial o'sishga to'g'ri keladi. Bu degani, bilimlar ham ushbu qonuniyat bo'yicha o'sadi degani emas, ularning evolyusiyasi asta sekinlik bilan yuz berib, bu ayniqsa, fundamental nazariyalarga tegishli[4,49].

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, moslik prinsipini fizikaning rivojlanishida tutgan o'rni va rolini yaqqol ko'rsatadigan ko'plab misollarni keltirish mumkin. Jumladan, molekulyar fizika, statistik fizika va termodinamikaga kelsak, ular ko'p ishlatiladigan model-ideal gaz modelidir. Uning holat tenglamasi hamda turli izojarayonlarga tadbiqu, issiqlik sig'imiga tadbiqu qulay bo'lib, klassik statistik fizikaning asosiy natijalarini topishga imkon beradi. Yana bir muhim tomoni, ushbu model asosida ko'p zarrali sistemalar uchun stastik metodni qo'llashning qulayligidir, chunki ideal gaz uchun holat integralini osongina

hisoblash mumkin. Bu orqali esa statistik termodinamikaning asosiy natijalari topiladi.

Agar real gazlar va suyuqliklarga kelsak, ular uchun hozirda 200 dan ortiq holat tenglamalari taklif qilingan. Moslik prinsipiga asosan, agar zarralar orasidagi o'zaro ta'sir hisobga olinmasa, taklif qilingan holat tenglamalardan ideal gazning holat tenglamasi, ya'ni $PV=RT$ Mendeleev-Klapeyron tenglamasi kelib chiqishi kerak[5,44]. Bunga yaqqol

$$\left(P + \frac{a}{V^2}\right)(V - b) = RT$$

misol qilib Van-der-Vials tenglamasini olish mumkin. Haqiqatda, real gaz malekulalari orasidagi o'zaro ta'sirini tavsiflovchi a va b kattaliklar nolga teng deyilsa, Ushbu tenglama 1 mol ideal gazning holat tenglamasiga o'tadi.

Xuddi shunga o'xshash, $v \ll c$ shart bajarilsa, nisbiylik nazariyasining barcha tenglamalar klassik mexanika tenglamalariga o'tadi, jumladan

$$m = \frac{m_0}{\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}}$$

ifodada $m=m_0$ ekanligi

kelib chiqadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ilmiy bilimlarning o'sishidagi izchillik ko'p qirrali bo'lib, bir vaqtning o'zida u fanlar integratsiyasining muhim shakli, uning o'tmishi va hozirgi holatining birligi, yangi hodisalarni tushuntirishda axborot almashinishi, fanlar metodologiyasining dialektik - materialistik tizimida yagona samarali tadqiqot metodlarini ishlab chiqish kabi jihatida namoyon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bilish nazariyasi yoki falsafada, izchillik tamoyilini "izchillik qonuni" deb ham ataladi. Fizikaning rivojlanishida esa ushbu prinsip "moslik prinsipi" ko'rinishida nomoyon bo'lib, mazkur nomni N.Bor taklif qilgan va qanday qilib qo'llashni 1918 yili ko'rsatib bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 Джораев М. "Формирование вероятностно-статистических идей и понятий при подготовке учителя физики". Ош: "КУУ"-2003.
2. Кун Т. "Структура научных революций". М.: "Наука"-1975.
3. Баллер Э.А. "Преемственность в развитии культуры". М.: "Наука"-1969.
4. Поппер К. "Логика и рост научного знания". М.: "Наука"- 1983.
5. Бор Н. "Избранные научные труды". М.: "Наука"-1972.

АБСОЛЮТНЫЕ ЭКСТЕНЗОРЫ КЛАССА $AE(0)$

Турсунбой ДЖУРАЕВ – доцент кафедры общей математики ТГПУ, кандидат физико-математических наук

Жамшид РУЗИЕВ – Преподаватель математики ТГТУ

Bu maqolada $AE(0)$ oilaga mansub topologik fazolarning kompakt bo'lmagan sinflari o'rganiladi.

В этой статье исследуются не компактный аналог топологических пространств класса $AE(0)$.

In this article studied non compact analogies topological spaces at the class $AE(0)$.

Kalit so'zlar. Dugundji kompakti, Tixonov fazosi, n – o'lchamli absolyut ekstenzorlar, Milyutin fazosi, Maykl fazosi, chiziqli operator, tenglashtiruvchi va davomlashtiruvchi operatorlar.

Ключевые слова: Компакт Дугунджи, тихоновские пространство, абсолютные экстензоры размерности n , пространство Милютина, пространство Майкла, линейный оператор, оператор продолжения и оператор усреднения.

Keywords. spaces, compact Dugundji, Tychonov spaces, absolute extensors, dimensions n , spaces Milutins, spaces Maikls, linear operators, operators exactly and operators extenstions.

MSC: 54B15, 54B30, 54B35, 54C15, 54C60, 54D30

В данной заметке рассматриваются пространства Милютина, Дугунджи, Майкла и исследуются геометрические, топологические свойства при действии некоторых функторов в категории *Tych* – тихоновских пространств и непрерывных отображений в себя. Понятие компакта Дугунджи, введенное А.Пелчинским [1], оказалось весьма плодотворным и привело к созданию важных новых методов в общей топологии. Отвечая на вопрос Пелчинского, Р. Хэйдон показал [2], что всякий компакт Дугунджи диадичен [3] т.е. непрерывный образ

обобщенного канторова дисконтинуума D^r . С другой стороны компакты Дугунджи- это в точности компакты класса $AE(0)$. Теория

$AE(0)$ компактов была распространена А.Н. Дранишниковым [4] на абсолютные экстензоры в размерности n . Так же в этой работе определены некомпактные аналогии пространства Дугунджи, пространства Милютина, Майкла. Изучены их топологические свойства и геометрические свойства с применением некоторых ковариантных функторов. Терминология и обозначение, не разъясняемые ниже, такие же, как в книгах [1,3,5].

Для тихоновского пространства X через $C(X)$ обозначим пространство непрерывных функций определенных на X с компактно-открытой топологией.

Линейный оператор $u : C(X) \rightarrow C(Y)$ назовем регулярным, если выполнено следующие условия:

отображение $u : C(X) \rightarrow C(Y)$ - непрерывно;

если $\varphi \geq 0$, то $u(\varphi) \geq 0$ (т.е. оператор положителен);

$u(1_X) = 1_Y$, где $1_X : X \rightarrow \{1\} \subset R$ - постоянная функция. т.е. оператор переводит постоянные функций в постоянные. Каждое непрерывное отображение $f : X \rightarrow Y$ порождает регулярный оператор $f^* : C(Y) \rightarrow C(X)$ по формуле $f^*(\varphi) = \varphi \circ f$, где $\varphi \in C(Y)$.

Если X замкнуто в Y и для всякого $\varphi \in C(X)$ сужение функции $u(\varphi)$ на X совпадает с φ , то оператор u называется оператором продолжения.

Если отображение $f : X \rightarrow Y$ сюръективно, то регулярный оператор $u : C(X) \rightarrow C(Y)$ называется регулярным оператором усреднения.

Определение [4]. R – компактное пространство X (или, R -компакт) назовем пространством Дугунджи, если любое C – вложение $f : X \rightarrow Y$ на тихоновское пространство Y , имеет регулярной оператор продолжения $u : C(X) \rightarrow C(Y)$.

Определение [1]. Совершенный эпиморфизм $f : X \rightarrow Y$ называется милютинским, если он допускает регулярный оператор усреднения $u : C(X) \rightarrow C(Y)$.

Тихоновское пространство X называется пространством Милютина, если существует

милютинский эпиморфизм $f : N^\tau \rightarrow X$, где N – множество натуральных чисел.

Назовем вложение R^A в I^A , где A – произвольное индексное множество, стандартным, если для любого $B \subset A$ выполнены следующие соотношения: $t_B(R^A) = R^B$ и $t_B(R^A) = \pi_B$, где через $t_B : I^A \rightarrow I^B$ и $\pi_B : R^A \rightarrow R^B$ – соответствующие проектирования.

Теорема 1. Если X есть $AE(o)$ пространство, то X является и пространством Дугунджи и пространством Милютина.

Доказательство. В дальнейшем предположим, что R^A стандартно вложено в I^A , где $R = (0,1)$ и $I = [0,1]$. Пусть $u : C(X) \rightarrow C(Y)$ регулярный оператор. В этом случае регулярный оператор u порождает отображение $u^\circ : Y \rightarrow P_\beta(X)$ по формуле

$$u^\circ(y)(\psi) = u(\psi)(y) \text{ для каждого } y \in Y \text{ и } \psi \in C(X),$$

$$P_\beta(X) = \{a \in P(\beta X) : \text{supp } a \subset X\}.$$

Для $X \subset Y$ пусть $C(Y)|_X = \{f \in C(X) : f = g|_X \text{ для некоторого } g \in C(Y)\}$. Говорят, множество $X \subset Y$ C –вложено в Y , если $C(X) = C(Y)|_X$ т.е. любое отображение $f : X \rightarrow R$ продолжается до Y . Тихоновское пространство X назовем $AE(o)$ -пространством, если для каждого нульмерного пространства Z и его подпространства $Z_0 \subset Z$ каждое отображение $f : Z_0 \rightarrow X$ удовлетворяющее $f^\circ(C(X)) \subset C(Z)|_{Z_0}$ имеет непрерывное продолжение на все Z .

Заметим, что для каждого $u \in f(X) \subset Y$ имеет место $u^\circ(y) \in P_\beta(f^{-1}(y)) \subset P_\beta(X)$, где $f : X \rightarrow Y$.

Пусть теперь $X \in AE(0)$. Будем считать, что пространство X C –вложено в R^τ (для подходящего τ). В силу предложения 3.3.25 [5] существует функционально замкнутое совершенное и 0–обратимое отображение $g : N^\tau \rightarrow R^\tau$ обладающее регулярным

оператором усреднения $u : C(N^\tau) \rightarrow C(R^\tau)$. Тогда имеется такое отображение $u^\circ : R^\tau \rightarrow P_\beta(N^\tau)$, что $P_\beta(g) \circ u^\circ = \delta(R^\tau)$. В силу нульмерности N^τ и из того, что $X \in AE(o)$ существует такое отображение $\psi|_{g^{-1}[X]} = g|_{g^{-1}[X]}$. Заметим, что $[X] = X$ так как каждое $AE(o)$ пространство R – компактно.

Следовательно, X замкнуто в R^τ . В этом случае имеет место равенство $P_\beta(\psi)|_{P_\beta(g^{-1}(X))} = P_\beta(g)|_{P_\beta(g^{-1}(X))}$ и $P_\beta(\psi) \circ u^\circ|_X = \delta X$

Поскольку носитель u°_x есть $g^{-1}(x)$ для каждого $x \in X$. Для совершенной сюръекции $\psi : N^\tau \rightarrow X$ сопряженное отображение к $\psi^\circ_x : X \rightarrow P_\beta(N^\tau)$ будет регулярным оператором усреднения т.е. Пространство X есть пространство Милютина. Если мы определим отображение $\sigma : R^\tau \rightarrow P_\beta(X)$ полагая $\sigma = P_\beta(\psi) \circ u^\circ$, Тогда $\sigma|_X = \delta_X$. В этом случае отображение σ^0 сопряженное к отображению σ будет регулярным оператором продолжения т.е. $\sigma^\circ : C(X) \rightarrow C(R^\tau)$. Значит, X есть пространство Дугунджи. Теорема 1 доказана.

Пусть $X - R$ – компактно и C – вложено в R^A (в качестве A можно взять множество $|C(X)|$). Рассмотрим стандартный факторизующий ω – спектр $S = \{R^B : \pi_C^B, \exp_\omega A\}$, ассоциированный со степен R^A (напомним, что через $\exp_\omega A$ обозначены ω – полное множество всех счетных (ординалов) подмножеств A , а через $\pi_B : R^A \rightarrow R^B$ и $\pi^B : R^B \rightarrow R^C, C \subseteq B \subseteq A$, обозначены естественные проектирования на соответствующие подпроизведения).

Положим $X_B = [\pi_B(X)]_{R^B}, B \in \exp_\omega A$ и $P_C^B = \pi_C^B|_B, C \subseteq B, C \in \exp_\omega A$. Тем самым мы определим спектр $S_X = \{X_B, P_C^B, \exp_\omega A\}$, состоящий, как легко видеть из польских пространств $X_B, B \in \exp_\omega A$. Непрерывность

этого спектра очевидна. Поскольку пространство $X - R$ — компактно и C — вложено в R^A , постольку оно в силу предложения 3.2.5[5] замкнуто в R^A . Из факторизуемости спектра S и C — вложенности пространства X в R^A вытекает факторизуемость спектра S_X . Следовательно, предельное пространство спектра S_X совпадает с X т.е. $\lim_{\leftarrow} S_X = X$.

Это означает, что R компактные пространства, и только они, могут быть представлены в виде предельных пространств факторизующих строгих ω -спектров [5].

Теорема 2. Если X пространство Дугунджи. Тогда X есть $AE(o)$ пространство.

Доказательство. Через τ обозначим R вес пространства X . Если $R - \omega(X) = \omega$, тогда X замкнуто в R^ω . Следовательно, X польское пространство. В силу Предложения 1.1.4[5] пространство X есть $AE(o)$ пространство.

Пусть $X - R$ — компактно и C — вложено в R^A и $u : C(X) \rightarrow C(R^A)$ регулярный оператор продолжения. В этом случае пространство X является обратным пределом факторизующего строго ω спектра $S_X = \{X_B, P_C^B, \exp_\omega A\}$. Через $A(\alpha)$ обозначим подмножества индексного множества A ординал которого $\alpha < \tau$. Отображение $P_\alpha : X \rightarrow X_\alpha$ определим полагая $t_{A(\alpha)}|_X = P_\alpha$ и $P_\alpha^\beta : X_\beta \rightarrow X_\alpha$ есть ограничение отображения $P_{C(\alpha)}^{B(\alpha)} = P_C^B$.

Пусть теперь построены системы $A(\alpha)$ обладающие следующими условиями (свойствами):

$A(o)$ -точка;

Если γ предельный ординал $< \tau$, то

$$A(\gamma) = \bigcup_{\alpha < \gamma} A(\alpha);$$

Для каждого α разность $A(\alpha + 1) \setminus A(\alpha)$ — счетно;

Для каждого α и для всех $f \in C(X_\alpha)$ отображение $u(f \circ P_\alpha)$ согласовано с отображением $(f \circ \pi_{A(\alpha)})$ на подпространстве $X_\alpha \times R^{A \setminus A(\alpha)}$ пространство R^A ;

Для всех α и любого $f \in C(X_{\alpha+1})$ ограничение и $(f \circ P_{\alpha+1})|_{X_\alpha \times R^{A \setminus A(\alpha)}}$ является фактором сквозного отображения $\pi_{A(\alpha+1)}$.

Из условия iii) вытекает, что отображение (соседние проекции) $P_{\alpha+1}^\alpha$ имеет польское ядро т.е. имеет место следующая диаграмма

$$\begin{array}{ccc} X_{\alpha+1} & \xrightarrow{i} & X_\alpha \times R^{A(\alpha+1) \setminus A(\alpha)} \\ \square_{P_\alpha^{\alpha+1}} & & \square_{\pi_\alpha} \\ & & X_\alpha \end{array}$$

В силу условий (V) определяем регулярный оператор продолжения

$u_{\alpha+1} : C(X_{\alpha+1}) \rightarrow C(X_\alpha \times R^{A(\alpha+1) \setminus A(\alpha)})$ полагая $u_{\alpha+1}(f) \circ \pi_{A(\alpha+1)} = u(f \circ P_{\alpha+1})$, где

$f \in C(X_{\alpha+1})$. Из свойства (IV) вытекает, что имеет место равенство $u_{\alpha+1}(f \circ P_\alpha^{\alpha+1}) = f \circ \pi_\alpha$, где $f \in C(X_\alpha)$. Очевидно, что отображение

$\pi_\alpha : X_\alpha \times R^{A(\alpha+1) \setminus A(\alpha)} \rightarrow X_\alpha$ — открыто.

*Докажем, что отображение

$P_\alpha^{\alpha+1} : X_{\alpha+1} \rightarrow X_\alpha$ тоже открыто.

Доказательство. В данном случае имеем следующую диаграмму

$$\begin{array}{ccc} \delta(X_{\alpha+1}) \subset P_\beta(X_{\alpha+1}) & & \\ \cdot \cdot \cdot 4 \delta \downarrow 3 \square \theta \uparrow \aleph & & \\ X \xrightarrow{P_{\alpha+1}} X_{\alpha+1} \xrightarrow{i} X_\alpha \times R^{A(\alpha+1) \setminus A(\alpha)} & & \\ \square_{P_\alpha} \quad 1 \downarrow P_\alpha^{\alpha+1} \quad 2 \square_{\pi_\alpha} & & \\ & & X_\alpha \end{array}$$

$$A(\alpha + 1) \setminus A(\alpha) = A(\omega)$$

где $\aleph : X_\alpha \times R^{A(\omega)} \rightarrow P_\beta(X_{\alpha+1})$

непрерывное отображение порожденное регулярным оператором продолжения

$$u_{\alpha+1} : C(X_{\alpha+1}) \rightarrow C(X_\alpha \times R^{A(\omega)}),$$

$$\theta = \aleph|_{i(X_{\alpha+1})} : i(X_{\alpha+1}) \rightarrow \delta(X_{\alpha+1}), i(X_{\alpha+1}) \subset X_\alpha \times R^{A(\omega)}$$

Пусть $x_{\alpha+1}^o \in X_{\alpha+1}$, $P_\alpha^{\alpha+1}(x_{\alpha+1}^o) = x_\alpha^o$. В силу коммутативности диаграммы (1) существует точка $x^o \in X$ такая, что $P_{\alpha+1}(x^o) = x_\alpha^o$, $P_\alpha(x_0) = x_\alpha^o$ известно, что для каждого $\alpha \in A$, пространства X_α есть польское пространство.

Рассмотрим последовательность точек $x_\alpha^n \in X_\alpha$ сходящихся к точке x_α^o т.е. $\lim_{n \rightarrow \infty} \rho_\alpha(x_\alpha^n; x_\alpha^o) = 0$, где ρ_α метрика в X_α

Покажем, что существует последовательность точек $x_{\alpha+1}^n$ в пространстве $X_{\alpha+1}$ сходящихся к точке $x_{\alpha+1}^o$ таких, что $P_\alpha^{\alpha+1}(x_{\alpha+1}^n) = x_\alpha^n$.

Положим

$$B_n(x_{\alpha+1}^0, n) = \{x \in X_{\alpha+1} : \rho_{\alpha+1}(x, x_{\alpha+1}^0) \leq \frac{1}{n}\}$$

$$x_\alpha^n \times R^{A(\omega)} \cap i(X_{\alpha+1}) = A(x_{\alpha+1})$$

$$\delta \circ \theta(A(x_{\alpha+1}^n)) \cap i^{-1}(A(x_{\alpha+1}^n)) = C(x_{\alpha+1}^n)$$

$$B_n(x_{\alpha+1}^0, n) \cap C(x_{\alpha+1}^n) = D(x_{\alpha+1}^n).$$

Очевидно, что для каждого $n \in N$ множества $D(x_{\alpha+1}^n)$ непусто. Теперь для каждого $n \in N$ выберем по точки $x_{\alpha+1}^n \in D(x_{\alpha+1}^n)$ так, чтобы диаграммы (2),(3),(4) были коммутативны.

Последовательность точек $x_{\alpha+1}^1, x_{\alpha+1}^2, \dots, x_{\alpha+1}^n, \dots$ сходится к точке $x_{\alpha+1}^o$ и $P_\alpha^{\alpha+1}(x_{\alpha+1}^n) = x_\alpha^n$.

Значит, отображение $P_\alpha^{\alpha+1} : X_{\alpha+1} \rightarrow X_\alpha$ открыто.

Систему множеств $A(\alpha)$ построим по трансфинитной индукции.

Пусть $A(0) = \emptyset$, то X_0 - есть точка.

Семейство $(f_\zeta)_{\zeta < \tau}$ в $C(X)$ отделяет точки пространства X от множества.

Допустим множества $A(\alpha)$ определены для всех ординалов $\beta < \tau$ и удовлетворяют условиям (ii), (iii), (iv) и (v). Пусть ζ первый ординал для которого f_ζ не является факторизацией сквозного отображения P_β . В силу теоремы 6.27 (или следствия 6.28[3]) для функции f_ζ определенный на R^A существует счетное подмножество $C \subset A$, что $f_\zeta = g \circ P_C$ т.е. f_ζ - зависит от счетного числа координат или же f является фактором сквозного отображения P_C .

В дальнейшем рассуждая так же в доказательстве теоремы 3[2] выбираем индексное множество B .

Теперь определяем $A(\beta+1) = A(\beta) \cup B$.
Имеем следующего диаграмму

$$\begin{array}{ccc} X & \rightarrow & X_\beta \times R^{A \setminus A(\beta)} \\ \downarrow P_\beta & & \downarrow i_{A(\beta)} \\ & & X_\beta \end{array} \quad (2)$$

Регулярный оператор продолжения $\nu : C(X) \rightarrow C(X_\beta \times R^{A \setminus A(\beta)})$ определяем

полагая $\nu(f) = u(f)|_{X_\beta \times R^{A \setminus A(\beta)}}$. Так как при

$\alpha = \beta$ положим $\nu(f \circ P_\alpha) = f \circ \pi_{A(\beta)}$, $f \in C(X_\beta)$.

Заметим, что

а) для каждого α , пространства $X_{\alpha+1}$. С-вложено в $X_\alpha \times R^A$ и имеет регулярный оператор $u_{\alpha+1}$ продолжения (диаграмма 1). Отметим, что $X_{\alpha+1}$ польское пространство. Следовательно, $X_{\alpha+1}$ есть пространство Дугунджи и $X_{\alpha+1} \in AE(0)$;

б) Спектр $S_X = \{X_\alpha, P_{\alpha\beta}, \alpha\}$ вполне упорядочен и ω -полно, соседнее проекции $P_\alpha^{\alpha+1}$ открыты и имеют польское ядро;

в) X_0 - является польским $AE(0)$ пространством;

г) В силу открытости соседних проекцией $P_\alpha^{\alpha+1}$ по следствию 3.3.27 [5] $P_\alpha^{\alpha+1}$ -0-мякко.

д) В силу R - компактности пространства X по теореме 3.2.17 [5] спектр S_X факторизующий строгий ω -спектр.

е) $\lim S_X$ - гомеоморфен пространству X .

Теперь в силу предложения 3.5.4. [5] пространство X является $AE(0)$ пространством. Теорема 2 доказана.

В силу теоремы 1-2 имеем

Теорема 3. Класс $AE(0)$ пространств совпадает классом пространств Дугунджи.

Следствие 1. Каждое польское пространство есть пространство Дугунджи.

Из С-вложенности и R - компактности пространств Дугунджи, пространства Дугунджи замкнуты в R^τ .

Легко доказывается следующее

Предложение 1. Произведение любого семейства пространств Дугунджи является пространством Дугунджи

Известно, что замкнутые подмножества нульмерных полных метрических пространств являются их ретрактом.

Отсюда получаем.

Предложение 2. Каждое полное метрическое пространство является пространством Дугунджи.

Следствие 2. Пусть $f : X \rightarrow Y$ непрерывное отображение между пространствами Дугунджи имеющее польское ядро. Тогда следующие условия эквивалентны:

- а) f – 0-мягко;
- б) f – функционально открыто;
- в) f – открыто;

В силу теоремы 3 и теоремы 3.6.2. [5] имеем

Теорема 4. Класс пространств Дугунджи веса $\leq \tau$ ($\tau \geq \omega$) совпадает с классом 0-мягких

образов N^τ .

Из предложения 3.3.21 [5] и теоремы 2 вытекает

Следствие 3. Для 0-мягкого отображения $f : X \rightarrow Y$ следующие условия эквивалентны:

- X – пространство Дугунджи;
- Y – пространство Дугунджи;

Предложение 3. Отображение $\psi : S \rightarrow T$ является 0-обратимым. Тогда ψ обладает регулярным оператором усреднения.

Доказательство. Считаем, что пространство T C – вложено в R^τ . По предложению 3.3.25 [5] существует функционально замкнутое, совершенное и 0-обратимое отображение $g : N^\tau \rightarrow R^\tau$ обладающее регулярным оператором усреднения $u : C(N^\tau) \rightarrow C(R^\tau)$ (на $C(X)$ и $C(Y)$ рассматривается компактно-открытая топология).

Рассмотрим множество

$$R = g^{-1}(T) \subset N^\tau. \dim R = 0 \quad g_0 = g|_R : R \rightarrow T$$

. В силу 0-обратимости отображения $\varphi : S \rightarrow T$, существует отображение $\theta : R \rightarrow S$ такое, что $\psi \circ \theta \rightarrow g_0$. Тогда искомую оператор

усреднения $u : C(S) \rightarrow C(T)$ для отображения $\psi : S \rightarrow T$ построим полагая $u(f) = u(f \circ \theta)$, где $f \in C(S)$.

Предложение 3 доказано.

Предложение 4. Пусть $\psi : S \rightarrow T$ непрерывная сюръекция между метрическими пространствами обладающими регулярными

операторами усреднения. Тогда $\psi : S \rightarrow T$ является 0-обратимым.

Доказательство. Пусть $u : C(S) \rightarrow C(T)$ регулярные оператор усреднения для отображения $\psi : S \rightarrow T$ и S и T метрические пространства. Тогда существует непрерывное отображение $\mu_t : T \rightarrow P_\beta(S)$, носитель $\text{supp}(\mu_t)$ лежит в $\psi(t)$ и $\text{supp}(\mu_t)$ – метрический компакт. Пусть R нульмерное метрическое пространство и $\phi : R \rightarrow T$ непрерывно. Для каждого $z \in R$ положим $\phi(z) = \text{supp}(\mu_t(\phi(z)))$. Носитель

$\text{supp}(\mu_t(\phi(z)))$ есть компакт в метрическом пространстве S т.е. Отображение $\phi : Z \rightarrow \text{exp } S$ полунепрерывно снизу. В силу теоремы Майкла о селекции имеет непрерывную селекцию $\theta : R \rightarrow S$ и $\theta(z) \in \psi^{-1}(\phi(z))$ для каждого $z \in R$. т.е. $\phi = \psi \circ \theta$. Предложение 4 доказано.

Из предложений 3-4 вытекает

Следствие 4. Для сюръективного отображения $f : X \rightarrow Y$ между метрическими пространствами следующие условия эквивалентны:

f – обладает регулярным оператором усреднения;

f – 0-обратимо;

Определение. R – компактное пространство M называется пространством Майкла, если существует 0-обратимая сюръекция $\varphi : N^A \rightarrow M$, для некоторого A .

Теорема 5. Класс пространств Майкла совпадает классом пространств Дугунджи.

Доказательство. Пусть X пространство Майкла и $\psi : N^A \rightarrow X$ обратимая сюръекция. Пусть T нульмерное R – компактное пространство, S – замкнуто в T и $\phi : S \rightarrow X$

$$N^A \xrightarrow{\psi} X \rightarrow R^\tau, \quad X - C\text{-вложено в } R^\tau$$

$$\theta' \uparrow \quad \square \quad \theta \uparrow \phi$$

$$T \xrightarrow{i} S$$

В силу 0-обратимости отображения ψ существует $\theta : S \rightarrow N^A$, что $\psi \circ \theta = \phi$.

Очевидно, что $N^A \in AE(0)$. В силу нульмерности R – компакта T и $N^A \in AE(0)$

существует отображение $\theta': T \rightarrow N^A$ такое, что $\theta' \circ i = \theta$. Рассмотрим отображение $\bar{\theta} = \psi \circ \theta': T \rightarrow X$. Отображение $\bar{\theta}$ является продолжением отображения ϕ т.е. $\bar{\theta}|_S = \phi$. т.е. $X \in AE(0)$. Значит, X есть пространство Дугунджи.

Обратное утверждение очевидно, так, как каждое $AE(0)$ пространство 0-мягкий образ некоторой степени N^τ . (нуль мягкие отображения 0-обратимы). Теорема 5 доказана.

Из этой теоремы 6, в частности, вытекает **Следствие 5.** Каждое пространство Майкла является пространством Милютинана.

Так как замкнутые подмножества полных нульмерных метрических пространств являются его ретрактом.

Поэтому имеет место следующее.

Следствие 6. Каждое полное метрическое пространство является пространством Дугунджи.

Из теоремы 3 и предложения 3.3.8 [5] имеем.

Следствие 7. Каждое пространство Дугунджи совершенно, \aleph -нормально и имеет счетное число Суслина.

Из теоремы 3 и следствие 3.5.8 [5] вытекает.

Следствие 8. Вес недискретного пространство Дугунджи совпадает с его R -весом.

Известно, что произведение отображений $\psi = \{\psi_\alpha : \alpha \in A\} : \prod_\alpha S_\alpha : \alpha \in A \rightarrow \prod_\alpha \{T_\alpha : \alpha \in A\}$

, ставившее точку $(S_\alpha)_{\alpha \in A}$ в точку $(\psi_\alpha(S_\alpha))_{\alpha \in A}$ 0-обратно, если для каждого $\alpha \in A$ отображение $\psi_\alpha : S_\alpha \rightarrow T_\alpha$ 0-обратно.

Верно следующая

Лемма 1. 0-обратимый образ произвольного произведения польских (полных) метрических пространств является пространством Майкла..

Из предложения 3.6.9 [5] вытекает

Следствие 9. Каждое подпространство представленное в виде счетных пересечений функционально открытых множеств пространства Дугунджи, является пространством Дугунджи.

В силу предложения 3.6.17 [5] имеем **Следствие 10.** Если X — неметризуемое $AE(0)$ пространство, то $\dim X \geq 0$.

Из предложения 3.6.12 [5] следует

Следствие 11. Каждое R — компактное G_δ — подпространство пространства Дугунджи является пространством Дугунджи.

Пусть X тихоновское пространство и $F : Comp \rightarrow Comp$ нормальный функтор. Для пространства X и $F : Comp \rightarrow Comp$ положим

$$F_\beta(X) = \{a \in F(\beta X) : \text{supp} a \subset X\}.$$

Определение. Отображение $f : Y \rightarrow F_\beta(X)$ называется F_β — значным ретрактом, если $f|_X = id_{F_\beta}^X$, где $X \subset Y$.

R — компакт X называется F_β — инъективным, если для любого C — вложения X в Y , существует F_β значная ретракция $r : Y \rightarrow F_\beta(X)$.

Теорема 6. Класс P_β — инъективных пространств совпадает классом пространств Дугунджи.

Доказательство. Пусть X пространство Дугунджи. Пусть X C -вложено в R^τ $u : C(X) \rightarrow C(R^\tau)$ регулярный оператор продолжения. Тогда существует отображение $\mu_{R^\tau} : R^\tau \rightarrow P_\beta(X)$, что $\mu_{R^\tau}|_X = id_{P_\beta}^{\delta(X)}$. т.е. X есть P_β — инъективно.

Обратно. Пусть R — компакт $X - P_\beta$ — инъективно и $f : X \rightarrow R^\tau$ произвольное C — вложение. В силу P_β инъективности существует $r : R^\tau \rightarrow P_\beta(X)$, где $r|_X = id_X$. Тогда $r^0 : C(X) \rightarrow C(Y)$ является регулярным оператором продолжения. Теорема 6 доказана.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

- 1.Пелчинский А. “Линейные продолжения, линейные усреднения и их приложения”. М.:”Мир”-1970, 160-с.
- 2.Haydon B. “On problem of Pelezynski spaces, Dugundji spaces and AR (dim0), Studia Math”. 1974, V.52, N1, P.23-31.
- 3.Федорчук В., Филиппов В. “Общая топология. Основные конструкции”. М.:”МГУ”-1988, 288-с.
- 4.Дранишников А. “Абсолютные F — значные ретракты и пространстве функций в топологии поточечной сходимости”. Сиб.: “Мат.журнал”, Т.ХХVII, №3, с.74-86.
- 5.Федорчук В., Чигогидзе А. “Абсолютные ретракты и бесконечномерные многообразия”. М.:”Наука”-1992, 232-с.

TABIY-MATEMATIK TA'LIM JARAYONINI INSONPARVARLASHTIRISH – BARKAMOL INSONNI SHAKLLANTIRISHNING OMILI

Lolaxon O'RINBOYEVA – TDPU “Matematika o'qitish metodikasi” kafedrasida katta o'qituvchisi

Maqolada insoniy lashtirish va insonparvarlikning shaxs kamolotidagi o'rni, uni amalga oshirish imkoniyatlari tabiiy-matematika yo'nalishlar bo'yicha pedagogik kadrlar tayyorlash misolida ochib berilgan

В статье раскрывается роль гуманизации и гуманитаризации совершенствованию личности и возможности их осуществления на примере подготовки педагогических кадров естественно-математических направлений

This article explores the role of humanization and humanity of the person and the possibility of improving their implementation on the example of teachers training course in the Natural-mathematical directions.

Kalit so'zlar: ta'lim, ta'lim jarayoni, insoniy lashtirish, insonparvarlik, ta'lim jarayonini insoniy lashtirish va insonparvarlashtirish, shaxs, barkamol shaxs

Ключевые слова: образование, учебный процесс, гуманизация, гуманитаризация, гуманизация и гуманитаризация учебного процесса, личность, всесторонне развитая личность

Keywords: education, educational process, humanization, humanity, humanization and humanity of educational process, person, perfect person.

XXI asrga kelib dunyo hamjamiyatida kuchli qadriyat egasi, yuksak darajada o'zligini anglaydigan, qobiliyatiga yarasha mehnat qila oladigan insonlarga bo'lgan talab oshib bormoqda. Chunki, bunday insonlar - mustaqil fikrlovchi, erksevar, ishbilarmon, shaxsiy yaratuvchilik faolligiga ega, mehr-oqibatli va boshqa xislatlarni o'zida mujassamlagan insonlar hisoblanadi.

Ma'lumki, jamiyatning erkinlashuvi o'zaro insoniy xislatlar, hurmat va ishonch, yangilik va tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlashda to'laroq namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida zamonaviy hayotning barcha jabhalarini insoniy lashtirish, yangi fikrlashni uyg'otish, har bir insonning kamol topishida unga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

Ta'lim sohasining islohotlarida asosiy yo'nalishlardan biri insoniy lashtirish (gumanizatsiya) va insonparvarlashtirish (gumanitarizatsiya) hisoblanadi.

Insoniy lashtirish - bu ta'lim jarayonida shaxsni har tomonlama tarbiyalash, uning ijodiy muloqotga kirishish imkoniyatlarini oshirish, dunyo va boshqa insonlarga nisbatan ijtimoiy-ruhiy munosabatda bo'lishga qaratilgan ketma-ketlikdir.

Insonparvarlashtirish esa tub islohotlarni talab qiluvchi, insoniy usullarni targ'ib etuvchi bilim, ko'nikma, malaka va o'qitiladigan fanlarga alohida e'tibor qaratish demakdir. Bu bilimlar insonda o'z fikrida turish va atrof-muhit ta'siriga qarshi tura olish kabi fazilatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligi, tushunish uchun qulayligi, o'quvchi-talaba dunyoqarashini kengaytirish va mavzu bo'yicha bilimlarni egallashda yangi qirralarni shakllanishida namoyon bo'ladi.

Hozirgi kundagi insonparvarlashtirish jarayoni milliy va jahon madaniyatini chuqur o'rganish, ta'lim jarayoniga bo'lgan talablar darajasini oshirishga qaratilgan bo'lib, u har bir mutaxassis, fuqaro va qolaversa insonning bilishi zarur bo'lgan siyosiy madaniyatni shakllanish va rivojlanishiga xizmat

qiladi. U ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan holda bizgacha yetib kelgan, biz davom ettirishimiz zarur bo'lgan ishlarni eslatib turuvchi va zamonlarni bir-biri bilan bog'lab turuvchi faxrimiz bo'lgan bebaho tarixiy yodgorliklarimizga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni o'rgatishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, insonparvarlashtirish kasbiy mahorati nuqtai nazaridan qarash va bu borada shaxsiy ko'nikmalarni hosil bo'lishiga ham ijobiy ma'noda o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Shuningdek, ta'limni insonparvarlashtirish inson va tabiat, jamiyat va ishlab chiqarish, madaniyat va san'at to'g'risidagi bilimlarni egallashga, dunyo ilmiy xaritasini anglashga, dialektikaning asosiy qonunlarini o'rganishga, moddiy dunyoqarash va tarixan ishlab chiqilgan insoniy faoliyatni anglashga yordam beradi. U faqatgina o'quv materialidan kelib chiqmasdan, balki ta'limning tashkiliy metodlarini tanlashda, o'quvchi-talabalarda hamkorlikda ishlash malakalarini shakllantirishda, o'qituvchining shaxsiyatida, dinamik jarayonning qatnashchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatda, ijtimoiy sohada, fanlarning mantiqiy tomonlariga nazar tashlashda, tarixiylik elementlarini o'rgatib borishda, dars o'tishning insoniy yo'nalishida va fanni umummadaniy darajada o'rganishda o'z aksini topadi. Ta'limni insonparvarlashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri fan yutuqlari va imkoniyatlarini ijodiy qo'llash bo'lib, zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi sinfdan tashqari ta'lim va tarbiya bilan, ijtimoiy muhitning tarbiyaviy imkoniyatlari va jamiyat uchun foydali mehnat tizimi bilan chambarchas bog'liqligida namoyon bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan asosiy yo'nalish (fan yutuqlari va imkoniyatlarini ijodiy qo'llash) avvalambor gumanitar va tabiiy- matematik fanlarda o'z aksini topadi. Gumanitar fanlar majmui dunyoning yaralishi, uning tarixi va paydo bo'lishi, falsafa asoslarini o'rganishga imkon beradi. Jumladan, adabiyot bilimlarni oshirib, so'z san'ati

imkoniyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatsa, musiqa, tasviriy san'at esa o'quvchi-talabalarda so'zsiz ahloqiy-estetik didni tarbiyalab, ularga atrof-muhit va tabiatni o'zicha qabul qilish va ifodalashga imkon beradi.

Matematika o'quvchi-talabalarda hisob malakalarini hosil qilish, mantiqiy fikrlash va fazoviy tasavvurlarini rivojlantirib, boshqa fanlarni o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Sonlar va algebraik ifodalar, mulohazalar algebra bilan ishlash, tenglama va tengsizliklar, funksiya va ularning grafiklari, matematik analiz elementlari, geometrik figuralar va ularning xossalari, koordinata va vektorlar, matematik usul va ayniyatlarni yechish muhim gumanitar-ta'limiy ma'no kasb etadi. Matematika mohiyatiga ko'ra insoniy (gumanitar) fan hamdir, chunki u o'ziga xos leksika va grammatikaga ega bo'lgan bir tilni tashkil etadi. Matematik g'oya va usullar doimo gumanitar fanlarga kirib borib, ularga qat'iy fikrlash yo'nalishini singdiradi.

Matematik ta'limning insonparvarlashtirilishi insoniyashtirish bilan bog'liq bo'lib, u ta'lim jarayonini tabaqalashtirish va individualashtirish tamoyiliga asoslanadi. Ma'lumki, ta'lim jarayonini tabaqalashtirish ikki xil ko'rinishga ega: darajasiga ko'ra va alohida fanlarni chuqur o'qitish (profil differentsiatsiya)ga yo'naltirilgan. Bunda ta'lim jarayonida tabaqalashtirishning u yoki bu o'quvchiga tegishli tomonlari bor - yo'qligini aniqlash muhimdir.

Ta'lim jarayonining asosiy ob'ektlaridan biri bo'lgan o'qituvchini zamon talablari darajasida tayyorlash yuqorida qayd etib o'tilgan maqsadlarga erishishda asosiy o'rin tutadi. Buning uchun pedagogik kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonini insonparvarlashtirish talab etilib, u malakali va yuksak salohiyatli, har tomonlama yetuk, zamon talablariga javob bera oladigan o'qituvchilarni tayyorlashga imkon beradi. Mazkur jarayon nafaqat gumanitar yo'nalishlarni, balki tabiiy-matematik yo'nalishlarni ham qamrab olishi talab etiladi. Dunyo iqtisodiyotini inqirozga olib keladigan, ilmiy-texnik taraqqiyotga jiddiy ziyon keltiradigan sharoitlarda insoniy omillar muammosining bartaraf etilishida tabiiy-matematik fanlarni insonparvarlashtirish imkoniyatlari yuqoridir.

Ma'lumki, insonning chap va o'ng miya yarim sharlari fikrlash jarayonida turli funksiyalarni bajaradi:

Miyaning chap yarim shari – lug'aviy-mantiqiy va mavhum fikrlashga;

o'ng yarim shar - aniq va shakliy fikrlashga javob beradi.

Chap miya yarim shari faol bo'lgan inson mantiqiy operatsiyalar, tahlil, umumlashtirish, mavhumiylik kabi xususiyatlarga ega bo'lib, uning so'z boyligi juda katta. Ammo u shakliy, hissiy, aniq va amaliy fikrlashda faol emas.

O'ng miya yarim shari faol insonlar esa hayotni yorqin ranglarda va hissiyotlar bilan qabul qiladilar. Ular boyluk va tashqi hayotning taassurotlari uchun «ochiq»dirlar.

Bu yarim sharlar ichida qaysi biri asosiy hisoblanadi, degan savol tug'iladi.

Ruhiyatni to'laqonli rivojlanishi va boyishi uchun ikki yarim sharlarning o'zaro birdamligi hamda ularning uyg'unlashgan muvozanati bo'lishi lozim. Ikki yarim sharlari baravar rivojlangan insonlar (uyg'unlashgan yoki biron biri ustunroq bo'lganlar) tug'ma qobiliyat egalari bo'ladilar yoki bu ta'lim va tarbiyaning natijasi bo'lishi ham mumkin.

Albatta, bu yarim sharlarni alohida ajratish yoki biron biri ikkinchisidan ustun deb aytish noto'g'ri bo'lar edi. Ular – ikki mustaqil, bir-biriga nisbatan o'zaro teng huquqli bo'lgan idrok shakllaridir. Muammoning yechimi har bir individ idroki uchun ham intellektual-nazariy, ham badiiy-estetik rivojlanish shart-sharoitlarini va imkoniyatlarini yaratishdan iborat.

Insoniyashtirish shaxsning intellektual-nazariy, badiiy-estetik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatib, go'zallik his-tuyg'ularini paydo qiladi. Agar insonda go'zallik tuyg'usi bo'lmasa, u na texnik sohada, na boshqa sohada o'z ishining ustasi bo'la oladi, unda kamolot hissi, mukammallikni tushunish va unga intilish tuyg'usi bo'lmaydi.

Go'zallik hissiga ega bo'lmagan o'qituvchi bu kasbning to'laqonli egasi bo'la olmaydi. Go'zallik hissi, hissiy tasavvur ham gumanitar, ham aniq-tabiiy fan egalari uchun zaruriy hisoblanadi. Bu xislatlarning yetishmovchiligi o'quv jarayonining qiyinlashishiga olib keladi. Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy shart-sharoitlarida uyg'un rivojlangan "ikki miya yarim shari" shaxslarni shakllantirish maqsadi tabiiy-matematik o'quv jarayonini insonparvarlashtirishni talab qiladi.

Tabiiy-matematik fanlar juda ham katta insoniylik salohiyatiga ega. Bu fanning mantiqiy tuzilishida, ilmiy faktlarning aniq isbotida, tabiat, san'at va dunyo bilan bog'liqligida namoyon bo'ladi. Bu fanlarning insoniylik xususiyatlari ularning insoniy yo'naltirilganligini va tuzilmasini kuchaytiradi. Insoniy yo'naltirilganligi esa o'z yo'lida talabada bu fanlarga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Aniq fanlar yo'nalishlarida insonparvarlashtirish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u *o'quv-tarbiya jarayoni, bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zini boshqarish faoliyati va auditoriyadan tashqari* faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

O'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish talabalarining mustaqil ta'lim, mehnat, ilmiy-tadqiqot va jamoatchilik faoliyatlari bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy faollik uchun zamin yaratib, uning quyidagi shakllari mavjud:

Amaliy va laboratoriya darslari, pedagogik amaliyot, munozara va muhokama jarayonida turlicha qiziqarli usullarini qo'llash;

talabani qiziqishlaridan kelib chiqib fanlar bo'yicha vazifalarni individualashtirish;

talabani butun semestr bo'yicha individual yutuqlarini hisobga olib borgan holda uni baholash mezonlarini ishlab chiqish va h.z.

O'z-o'zini boshqarish usuli tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishning samarali usullaridan biri bo'lib, undan tarbiya jarayonida samarali foydalanish shaxsni jamiyat hayotidan o'ziga o'tishga imkon beradi. Buning natijasi esa shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yangicha ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Auditoriyadan tashqari faoliyatning tuzilishi shaxs insoniyatiga qaratilgan bo'lishi barobarida, u auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda aniq matematik yo'nalish bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarni

gumanitar tayyorlash masalalarini yecha olish imkoniyatiga ega.

Xulosa qilib aytganda, tabiiy-matematik fanlarni insonparvarlashtirish pedagogik ta'limning bosh maqsadi bo'lgan har tomonlama rivojlangan, ma'naviy, axloqiy va jismoniy kamolotga erishgan barkamol shaxsni shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlari, imkoniyatlari va moyilliklarini rivojlantirishda muhim tamoyil hisoblanib, insonni faoliyat sub'ekti sifatida aniq maqsadga yo'naltirilgan holda muntazam rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi". T.: -1997.
2. Семенов Е.Е., Малиновский В.В. "Дифференцирование обучение математике с позиции гуманизма". "Математика в школе" jurnali-1991, 6-son, 3-6-bet.
3. Кац М., Улам С. "Математика и логика". М.: "Мир"-1997.

MULTIMEDIALI ELEKTRON O'QUV QO'LLANMA YARATISHDA ISPRING SUITE 8 DASTURNI QO'LLASH

Davron ZIYADULLAYEV – TATU ATT kafedrasini mudiri, texnika fanlari nomzodi, dotsent

Mirzoxid RAXMONOV – AnDU "Axborot texnologiyalari" kafedrasini katta o'qituvchisi

Gulruh TEMIROVA – AnDU "Axborot texnologiyalari" kafedrasini katta o'qituvchisi

Ushbu maqolada iSpring Suite 8 dasturiy vositasi yordamida trenajorlar, nostandart testlar, masofaviy kurslar ishlab chiqish uchun eng yaxshi vosita ekanligi bayon etilgan. Maqolada interaktiv va multimediyaga o'quv materiallari tayyorlash uchun dasturning imkoniyatlari tahlil qilingan. Zamonaviy ta'limda interaktiv, multimediyali materiallarning muhimligi ta'kidlab o'tilgan.

В этой статье рассказывается о программном обеспечении iSpring Suite8, а также о преимуществах создания, обучения, различных тестов, онлайн-курсов. В этой статье обсуждаются возможности программного обеспечения для разработки интерактивных учебных материалов. Важность интерактивных и мультимедийных материалов также подчеркивается в этой статье.

This article is about the software iSpring Suite8 and it is benefits to create, trainings, different tests, online courses. This article discusses about the opportunities of the software to develop interactive study materials. The importance of interactive and multimedia materials are also emphasized in this article.

Kalit so'zlar: interaktiv, komponent, internet-translatsiya, xronologik, Articulate Storyline, Adobe Presenter.

Ключевые слова: интерактивный, компонентный, интернет-перевод, хроматический, Articulate Storyline, Adobe Presenter.

Key words: interactive, component, internet-translation, chromatic, Articulate Storyline, Adobe Presenter.

Mamlakatimizda ham bir necha yillardan buyon ta'lim tizimining yangi avlodi bo'lgan multimediali, interaktiv o'quv materiallar tayyorlash va ta'limga tatbiq etish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Xuddi shu mazmunda zamonaviy o'quv materiallari uchun maxsus talablar ham qo'yilmoqda:

- o'quv materiallar o'ziga jalb eta oluvchi;
- o'quvchilar qiziqishlarini uyg'ota oluvchi;
- o'quv amaliyotini faollashtiruvchi;
- o'quv materiallardan mobil qurilmalar orqali foydalanish imkoniyati;
- o'quv materiallarda multimedia, animatsiya, ovoz, grafika uyg'unlashuvi;

-masofaviy ta'lim bera olish imkoniyati va boshqalar.

Bu maqsadlarga interaktiv va multimediali mobil elektron ob'ekt kurslari mazmunida amalga oshirish mumkin. Bizning tajribalarimizdan ma'lumki, bu muammolarni yechishda pedagog o'qituvchilar bir muncha yengil, arzon, qulay bo'lgan dasturlar, ulardagi vositalar bilan tanishishlari zarur bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog o'qituvchilar hozirgi kunda turli servislarda, dasturlarda ishlash bilim, ko'nikmalariga ega bo'lishlari shart bo'lib qolmoqda. Chunki shiddat bilan rivojlanib borayotgan ta'lim metodlari, ta'lim berish usullari, mobil qurilmalar, dasturiy vositalar, interaktiv

ta'lim o'quv materiallari, multimediyali dasturiy vositalar kabi ko'plab sohalar bilan birgalikda qadam tashlab borishlari davr talabiga aylanib borayotgani hech kimga sir emas. Xuddi shu ma'noda bizning ta'lim muassamizda test nazoratlari o'tkazish, interaktiv, multimediyali o'quv mashg'ulotlar tayyorlash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu o'quv materiallarini tayyorlash uchun AutoPlay Media

Studio 8, iSpring Suite, Camtasia Studio 8 dasturiy vositalari keng qo'llanilmoqda.

iSpring Suite dasturiy vositasi rossiyaning iSpring (OOO «Richmedia») firmasi tomonidan trial versiyasi ishlab chiqilgan. Bu mahsulotni <http://www.ispring.ru/ispring-suite> internet manzildan yuklab olish mumkin.

Dastur o'rnatilgandan so'ng Power Point dasturiga yangi qo'shimcha lenta qatori qo'shiladi.



Bu lenta qatorlarida ishlash pedagog o'qituvchilar uchun juda qulay vosita hisoblanadi. Bu bo'limlardagi interaktiv komponentalar, flesh-animatsiyalar, audio-video yozuv orqali ijro etish va boshqalar yordamida oddiy prezentatsiya darajasidan professional o'quv kursi darajasiga yetkazish mumkin.

iSpring Suite 8 dastur imkoniyatlari

iSpring Suite 8 dasturiy ta'minoti - yagona birlashgan interfeysga ega bo'lgan maxsus

bo'limlardan tarkib topgan. Bu tarkibga quyidagilar kiradi (1-rasm):

- iSpring QuizMaker 8 (so'rovnomalar, testlar moduli);
- iSpring Visuals 8 (interaktivlik yaratish moduli);
- iSpring Cam 8 (ekran video yozuv moduli);
- iSpring TalkMaster 8 (dialog trenajerlar yaratish moduli);
- iSpring Audio-Video Editor 8 (audio va video yozuvlarni taxrirlash moduli).



1-rasm. iSpring Suite 8 dastur tarkibiy bo'limlari.

Power Point prezentatsiya slaydlarida interaktiv va multimediali ob'ektlar yaratishni ko'rib chiqamiz. *Audio/videoli jo'rlukda bajarib borish.*

Odatda elektron kurslar haqiqiy jonli, tabiiy chiqishi uchun o'qituvchining mavjudligi muhimdir.

iSpring Suite 8 dasturi taqdimotlarni o'tkazayotgan (pedagog) muallif ovozini yozish yoki videokamera yordamida olingan video izohlarni taqdimotlarda kuzatib ijro qilish mumkin (2-rasm).



2-rasm. iSpring Suite 8 dastur interfeysi

Yangi versiya iSpring Suite 8 da yangi funksiya "Zapisi ekrana" paydo bo'ldi, shu sababli foydalanuvchilar qo'shimcha ravishda boshqa dasturlarni qo'llashiga ehtiyoj qolmaydi. Bu yangi funksiya kompyuter ekran yozuvi, ovoz ijro yozuvini, sichqon ko'rsatkichi rangli ajratilishi kabilarga imkon beradi. Yozilgan video yozuvni birdaniga ko'rish, tahrirlash, *.mp4 formatida saqlash va shuningdek uni taqdimotga qo'yish yoki YouTube saytiga yuklash mumkin bo'ladi. Xususan informatika, axborot texnologiyalari fan o'qituvchilari "Zapisi ekrana"ni qo'llash orqali ofis paketlarini namoyishi,

imkoniyatlarini ham ko'rsatib beradi. Undan tashqari multimediyali ma'ruzalar, internet-translatsiyalar ham amalga oshirish imkoniyati ochiladi.

iSpring Audio-Video Editor 8 moduli audio - video fayllar yozuvi, importlash, animatsiyali sinxronizatsiyalash va tahrirlash uchun xizmat qiladi. Ushbu redaktor taqdimotlar ijro vaqtini ko'rish, effektli o'tishlar, yo'laklarni boshi va oxirini qirqish, ovoz balandligini tahrirlash va shovqinlarni o'chirishga ruxsat beradi (3-rasm). Fayllarni qayta ishlashdagi sifat jihatidan boshqa professional redaktorlardagi kabi sifatli, aniq va tez amalga oshira oladi.



3-rasm. iSpring Narration Editor redaktor interfeysi.

Multimediya fayllarni qo'yish (audio, video, YouTube dagi video, flash-animatsiya)

O'quv materialni vizuallasuvi va yaxshilanishi uchun multimediyali materiallar qo'yiladi: audio (*.wav, *.mp3, *.wma), video (*.avi, *.wmv, *.mpg, *.mp4, *.mkv), YouTube dagi video, flash-animatsiya (*.swf, *.flv). iSpring Suite 8 dasturi boshqa fayllarga murojaat qilishga zarurat qoldirmasdan yuqoridagi fayllarni sichqonchani bir chertish bilan ularni loyihaga qo'sha oladi.

Taqdimotga qo'yilgan YouTube dagi video taqdimotga salbiy ta'sir qilmaydi. Faqat taqdimotga shu videoning ssilkasi joylashadi. Shu ma'noda

taqdimot qo'yilayotganda internet tarmog'i yoqilgan bo'lishi zarur bo'ladi.

Videoma'ruzalar uchun 50/50 pleer usuli.

iSpring Suite 8 dasturida o'quv kursni ko'rishda qulay usul paydo bo'ldi. Slayd oynasida bir vaqtning o'zida 50/50 munosabat moslikda video va taqdimotni uyg'unlashtiradi. Ekranning 50 foizida taqdimot, 50 foizida videoma'ruza aks ettiriladi. Bu vaziyat turli parametrlarda sozlash ham mumkin. Undan tashqari foydalanuvchi pleer oynasi nisbatlarini ixtiyoriga ko'ra o'zgartirishi mumkin: ma'ruza video yoki o'quv kurs materiali.




4-rasm. O'quv kursiga tayyorlangan 50/50 pleerga misol.

Interaktiv ob'ektlar qo'yish:

iSpring Suite 8 dasturida yaratilgan interaktiv kontentlar - testlar, so'rovlar, effektli kitoblar, alfavitli katalog, dialog trenajyorlar, ba'zida beriladigan savollardan iborat bo'ladi. Hodisalarni xronologik tartibda joylash va aks ettirish uchun "Vremennaya shkala" interaktivligi qo'llaniladi. Dasturdagi multimedialilik shunisi bilan e'tiborliki, unda animatsiya, grafika, video, audio ob'ektlar hisobiga tayyorlangan loyiha darajasi yuqori saviyada bo'ladi. Bu esa o'quvchilarga turli xil shakldagi axborot turlaridan foydalanish, o'rganilayotgan mavzuni qulay tushunish va puxta bilim egallashlariga imkoniyatlar ochib beradi.

Interaktiv testlar

iSpring QuizMaker moduli yordamida 11 xil turdagi test va 12 xil turdagi anketa savolnomalar tayyorlash imkonini beradi. Shu jumladan to'g'ri javobni tanlash, ketma - ketlikda javoblarni o'rnatish, mos jumalarni to'g'rilash, satr kiritish, tushgan so'zlarni qo'yish, rasmdan tanlash va boshqa testlar tuziladi. Undan tashqari ko'rgazmali bo'lishi uchun testlarga videoqismlar, formulalar, grafiklar va boshqa rasmlar qo'yish mumkin. Ayniqsa bu qulayliklar matematika, informatika, fizika, kimyo fanlari uchun testlar tayyorlashda juda dolzarb hisoblanadi (5-rasm).



5-рasm. "Informatika va AT" kursida "Elektron jadvallar" mavzusi bo'yicha testga misol

Test jarayonini samarali tashkil etish uchun tasodifiy savollar tanlanishi, ssenariylar tarmoqlashuvini dastur amalga oshirib beradi.

Shuningdek, testni nashr etishda uning vaqti, urinishlar soni, o'tish bali, bal birliklari, natijalar elektron pochtaga yuborilishi kabi ko'plab sozlashlar mavjud bo'lib, u testni sifatli amalga oshirishga xizmat qiladi.

iSpring QuizMaker moduli ikkita formatda testni nashr etishga tayyorlab beradi: HTML 5 va Flash. Shu sababli testni kompyuterda yoki ixtiyoriy mobil qurilmalarda ko'rish imkoni beriladi. Testni mustaqil ravishda ta'lim resurslar saytiga joylash yoki masofaviy ta'lim tizim bloklariga qo'yib ham foydalanish mumkin bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, iSpring Suite 8 dasturi multimediyali, interaktiv kontentlar

yaratish uchun eng kuchli vosita hisoblanadi. Shu bilan birga bu dastur modullarini o'rganish unchalik ko'p vaqt va mehnat talab etilmaydi. U sodda, chiroyli, lokal, tushunarli, jahon standarga mos interfeysga egaligi bilan boshqa vositalardan ajralib turadi.

iSpring Suite 8 dasturiga Articulate Storyline, Adobe Presenter ishlab chiquvchilar kuchli raqobatchi hisoblanadi. Biroq bizning nazarimizda "narx-sifat" ko'rsatkichlar bo'yicha iSpring Suite 8 dasturi ma'qulroq bo'ladi. O'quvchilar e'tirof etishicha bu dasturiy vositada tayyorlangan o'quv materiallar o'quvchilarga tushunarli, qiziqarli bo'lmoqda va shu bilan birga o'qishga qiziqishlari ortishiga ham xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бараханова Е.А. "Научно-методическое сопровождение основной образовательной программы для аспирантов посредством кейс-технологии". Электронный ресурс. Режим доступа:

http://www.sibran.ru/upload/iblock/3b9/3b95dd305_134c26568ecdffec766271f.pdf

2. Власова Е.З. "Электронное обучение в современном вузе: проблемы, перспективы и опыт использования". Вестник Герценовского университета – 2014, №2.

3. Осипов М.Ю. "Сравнительная характеристика систем дистанционного обучения Moodle и Efront". Дистанционное и виртуальное обучение – 2014, №3. Электронный ресурс. Режим доступа:

<http://www.ispring.ru/ispring-suite>

4. www.YouTube.com

IQTISODIYOT SOHASIDAGI OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIGA MATEMATIKA O'QITISH JARAYONIDA MATEMATIK BILIMLAR INTEGRATSIYASI

Gullola XO`JANIYOZOVA – TMI "Oliy va amaliy matematika" kafedrasida katta o'qituvchisi

Ushbu maqolada matematika va moliyaviy-iqtisodiy sikldagi fanlar integratsiyasini amalga oshirish ko'rib chiqilgan. Matematika o'qitish jarayonida talabalar bilimlarini takomillashtirish imkoniyatlari ochib berildi.

В статье рассматривается реализация интеграции математики и дисциплин финансово-экономического цикла. Открыты возможности совершенствования интегрированных знаний студентов в процессе обучения математики.

The article examines the integration of mathematics and disciplines of the financial and economic cycle. Opportunities to improve the integrated knowledge of students in the process of teaching mathematics are opened.

Tayanch so'zlar: integratsiya, fanlar integratsiyasi, ta'lim integratsiyasi, integrativ bilim, iqtisodiy jarayonlarning matematik modeli.

Ключевые слова: интеграция, интеграция наук, интеграция образования, интегрированных знаний, математическое моделирование экономических процессов.

Key words: *integration, integration of sciences, integration of education, integrative knowledge, mathematical modeling of economic processes.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi (2017- yil 20- aprel) Qarorida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash, oliy ta'limda ilm - fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm – fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish lozimligi ta'kidlangan. Ushbu qaror ijrosi iqtisodiyot sohasidagi oliy ta'lim muassasalarida ham matematik ta'limning integrativ yo'naltirilgan mazmunini belgilashning asosiy parametrlarini aniqlashni talab qiladi.

Matematika o'qitishda integrativ yo'naltirilganlikning asosiy maqsadi – bu matematik bilimlar yaxlitligi va birligi asosida iqtisodiyot sohasidagi oliy ta'lim muassasalarida bitiruvchilarning kasbiy faoliyatiga oid tayyorgarligini matematik nuqtai nazardan shakllantirish.

Masala, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi bilan bog'liq, mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi darajasini oshirishni talab qiladi. Bu aloqa oliy ta'lim muassasalarida iqtisodchilarning matematik tayyorgarligi sifatini oshirish muammosi bilan dolzarb va zamonaviy iqtisodiy fanlarda matematikaning keng qo'llanilishi bilan tushuntiriladi.

Biroq zamonaviy bosqichda oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak iqtisodchilarning matematik ta'limidagi mavjud muammolar ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan iqtisodchi kadrlarni tayyorlashga to'la imkon bermaydi.

Bular:

Akademik va oliy ta'limda matematik fanlar orasidagi uzilish. Bugun matematika fani o'qituvchilari zamonaviy matematik nazariyalarni biladi, ammo aniq iqtisodiy tadqiqotlarda undan foydalanishda faollik qila olmaydi.

Malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi.

Amaldagi o'quv qo'llanmalarda matematik bilimlar integratsiyasining mazmuni to'la ishlab chiqilmaganligi.

O'quv faoliyatini tashkil qilishning eskirgan shakllari. O'qitishning barcha darajalarida "ma'ruza - amaliy mashg'ulot" shakli keng qo'llaniladi va matematika o'qitishda talabaning mustaqil ishiga yetarlicha e'tibor berilmaydi.

Matematik fanlarni o'qitishda kasbiy yo'naltirilganlik tamoyiliga yetarli ahamiyat berilmaydi.

Bo'lajak iqtisodchilar uchun iqtisodiy mazmundagi amaliy masalalarni yechishga imkon beruvchi, matematika bo'yicha o'quv - metodik adabiyotlarning yetishmasligi.

Kadrlar tayyorlashning zamonaviy talablarini qanoatlantiradigan, iqtisodiy hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali matematika kursini o'qitishda

integrativ yo'naltirilganlikni amalga oshirish shakllari va metodlari puxta ishlab chiqilmaganligi.

Ta'limda integratsiya hodisasi ko'p qirrali, modomiki u mazmun, metod, vosita va o'qitishni tashkil qilish shakllari doirasida chegaralanmagan.

O'quv jarayonida integratsiyani amalga oshirish uchun foydalaniladigan o'qitishning muhim vositasi o'quv-metodik ta'minot hisoblanadi.

Vatanimiz mustaqillikka erishgach iqtisodiyotni rivojlantirishning bozor modeli bilan bog'liq, O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida keskin o'zgarishlar bo'ldi. *Iqtisodiy ta'limni qayta qurish bo'lg'usi iqtisodchilarning matematik tayyorgarligi mazmuni va strukturasi o'zgartirdi, yangi o'quv-metodik ta'minotni talab qildi.*

Iqtisodiyot sohasidagi oliy ta'lim muassasalarida talabalar uchun matematikadan 1991 yildan hozirgi davrgacha nashr qilingan darslik va o'quv qo'llanma [5,6,11,13] larning tahlili mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos, yuqori malakali kadrlar tayyorlashning zamonaviy talablarini qanoatlantiradigan, matematik ta'lim integratsiyasining mazmuni to'la ishlab chiqilmaganini ko'rsatadi.

Bu davrdagi o'quv adabiyotlarida asosan quyidagi iqtisodiy masalalarni yechishning matematik metodlari qaralgan:

ishlab chiqarish-boshqarishga oid masalalar (ishlab chiqarish resurslaridan optimal foydalanish masalasi, transport taqsimoti masalasi, ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasi masalalari, tarmoqlararo rejalashtirish masalasi, zahiralarni optimal boshqarish masalasi va hokozolar);

axborotni to'plash va ularni statistik qayta ishlash masalasi.

Iqtisodiyot mutaxassisligidagi talabalar uchun matematika bo'yicha adabiyotlar[3,4,8,10] da asosiy e'tibor chiziqli algebra, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, matematik programlashtirish bo'limlarini ko'rsatishga qaratildi. Bu davrda matematik analizning "Bir va ko'p o'zgaruvchili funksiya", "Bir va ko'p o'zgaruvchili funksiyaning differensial hisobi", "Integral hisob", "Differensial tenglamalar", "Qatorlar nazariyasi" kabi bo'limlariga ko'proq umumta'limiy ahamiyat berildi. Matematik apparatdan foydalangan holda iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tadqiq etish masalalari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu esa talabaning yaxlit fikrlashiga imkon bermaydi.

Iqtisodiyot sohasidagi bo'lajak mutaxassis bu bo'limlarning integrativ yo'naltirilganligi va amaliy ahamiyatini bilishlari nihoyatda zarur.

Shuning uchun "yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayoniga keng tadbiiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv, o'quv – metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, shu jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlar sotib olish va tarjima qilish,

axborot – resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish” maqsadida xorijiy klassik adabiyotlarni o‘rganish, xorijiy tajribalarga asoslangan yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish muhim bo‘ldi.

Matematik ta‘lim integratsiyasini takomillashtirish, matematika kursining amaliy yo‘naltirilganligini kuchaytirish, uning doirasida yangi iqtisodiy - mazmunli-metodik yo‘nalishni ko‘rib chiqish va “matematika kursining iqtisodiy tarkibini” tuzish imkonini beradi.

Matematika kursining iqtisodiy tarkibi deganda oddiy iqtisodiy tushunchalarning umumlashmasini, ularning xossalarini va real iqtisodiy mazmunga ega bo‘lgan, o‘quv dasturining matematik mazmuni asosida yechiladigan maxsus tuzilgan masalalar sistemasini nazarda tutamiz. Mazkur strukturalar oliy

ta‘lim matematikasida uzluksiz iqtisodiy yo‘nalishni ta‘minlaydi.

Bunday yondashuv matematikani o‘rganish doirasida matematik faoliyat ob‘ektlarini tadqiq qilish metod va usullarini o‘zgarishsiz qoldirgan holda, ularni faqat modifikatsiyalash imkonini beradi, xolos.

Matematik va iqtisodiy bilimlar integratsiyasini takomillashtirish uchun avvalambor iqtisodiy tushunchalar majmuasining tanlanishi, so‘ngra bu tushunchalarni uzluksiz, sistemali ravishda talabalar ongida shakllantiruvchi tizimning tanlanishi, uning to‘laqonli amalga oshirilishini ta‘minlovchi matematik tushunchalar sistemasining ajratilishi va metodik nuqtai nazardan muvofiqlashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Quyidagi jadvalda “Iqtisodchilar uchun matematika” kursi bo‘limlari va mos iqtisodiy bilimlarni keltiramiz:

“Iqtisodchilar uchun matematika” kursining bo‘limlari	Iqtisodiy bilimlar
Chiziqli algebra	Iqtisodiy jarayonlarning matematik modeli elementlarini kompakt ko‘rinishda yozish (texnologik matritsa, risk matritsasi, narx vektori va chiziqli tenglamalar sistemasi va hokazo); Leontev modeli; Savdoning chiziqli modeli.
Analitik geometriya elementlari	Talab va taklif funksiyalari.
Matematik analizga kirish	Bank krediti va foizi. Oddiy foizlar usuli bilan foiz to‘lovini hisoblash; Qarz amortizatsiyasi. Kredit foizini hisoblashda murakkab foizlar usuli; Umumiy xarajat funksiyasi. Yalpi daromad va foyda funksiyalari; Ishlab chiqarish funksiyalari; Talab va taklif funksiyasi; Bozor (muvozanat) narxini topish. Yalpi talab va taklif; Foizlarning uzluksiz qo‘shilishi masalasi.
Differensial hisob	Mehnat unumdorligi; Marjinal mahsulot; Talab va taklif egiluvchanligi; Marjinal miqdorlar; Iqtisodda xarajatlarni minimallashtirish va foydani maksimallashtirishga doir masalalar. Korxonalariga soliq solishni optimallashtirish masalasi.
Integral hisob	Marjinal daromad, xarajat va foyda funksiyasiga ko‘ra yalpi daromad, umumiy xarajat va yalpi foyda funksiyalarning topish; Talab va taklif egiluvchanlik funksiyalariga ko‘ra talab va taklif funksiyalarini topish; Iste‘molchining va ta‘minotchining ortiqcha foydasi; Kobb-Duglas funksiyasi asosida ishlab chiqarish hajmini aniqlash; Daromadni aholi o‘rtasidagi taqsimotining notekislik darajasini (Jini koeffitsientini) aniqlash; Vaqtning ma‘lum oralig‘ida jamg‘arma bankiga tushgan pul miqdori; Vaqtning ma‘lum oralig‘ida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi; Moddiy xarajatlarni prognozlashtirish; Elektr energiyani iste‘mol qilish hajmlarini prognozlashtirish; Pul oqimini diskontlash masalasi.
	Tovar va materiallar zahirasi hisobga olinadigan narx moslashuvchanligi modeli; Valrasa narx moslashuvchanligi modeli; Inflyatsiya modeli (Keygen modeli); Samuelson-Xiks modeli; Reklamaning effektivligi;

Differensial va chekli ayirmali tenglamalar	Bozorga moslashish modeli; Xavel'mo modeli (siklik o'sish modeli); IS-LM modeli; Neoklassik iqtisodiy o'sish (Solou) modeli; Yirtgich va o'lja modeli.
---	--

Matematik ta'lim integratsiyasini takomillashtirish masalasini asosan quyidagi uchta yo'nalishda ko'ramiz:

umumkasbiy fanlar bilan fanlararo integratsiya asosida matematik fanlar mazmunini tanlash;

matematik tayyorgarlik mazmunida kasbiy-amaliy masalalar tizimini yaratish, uning metodik va didaktik ta'minoti;

kasbiy faoliyatdagi jarayonlarni modellashtirishga asoslangan matematika o'qitishning metodik ishlanmasi.

Jamiyatda keng ko'lamlı iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda matematik ta'limda iqtisodiy - mazmunli-metodik yo'nalishning kiritilishi, iqtisodiy mazmundagi masalalarni darsliklarning yangi avlodlarida ko'paytirish; modellashtirish ko'nikmasi talabalarning matematik-iqtisodiy bilimlari rivojlanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7 -fevraldagi Farmoni.
2. Ахтямов А. М. "Математический анализ для социально – экономических специальностей". Уфа: "Изд. Башкирск. университета"- 2001, 194-, 199-b.
3. Бабаджанов Ш.Ш. "Высшая математика". Часть I. Т.: «Iqtisod - moliya»-2008, 336-b.
4. Бабаджанов Ш.Ш. "Высшая математика". Часть II. Т.: «Iqtisod - moliya»-2008, 288-b.
5. Бабаджанов Ш.Ш. «Математическое программирование». Т.: «Iqtisod-moliya»-2006.
6. Бабаджанов Ш. Ш. "Теория вероятностей и математическая статистика". Курс лекции. Т.: ТМИ-2004, 152-b.
7. "Высшая математика для экономистов". Под редакцией профессора Н.Ш. Кремера. М.: ЮНИТИ-2002, 471-b.
8. Karimov M., Abdugarimov R. "Oliy matematika". Т.: «Iqtisod - moliya»-2009, 204-b.
9. Красс М.С., Чупрынов Б.П. "Основы математики и ее приложения в экономическом образовании". М.: "Дело"- 2008, 720-b.
10. Raximov D.G., Roishev A.R. "Oliy matematika". Т.: «Iqtisod - moliya»-2008, 120-b.
11. Safayeva Q. "Matematik dasturlash". Т.: «Iqtisod-moliya»- 2008.
12. M. Hoy, J.Livernois et.al. "Mathematics for Economics". The MIT Press, London & Cambridge- 2011.
13. Xashimov A.R., Ma'murov I., Adirov T. "Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika". "Iqtisod-moliya"- 2013, 168-b.
14. Mike Rosser. Basic Mathematics for Economists. Taylor & Francis group, London and New York 2003. Vassilis C. Mavron and Timothy N. Phillips. Elements of 15. Mathematics for Economics and Finance. Springer, London-2007.
16. M.Harrison and P."Waldron Mathematics for economics and finance". London and New York -2011.

O'RTA ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA YASHAGAN MUTAFAKKIRLARNING TABIATSHUNOSLIK RIVOJIGA QO'SHGAN HISSALARI VA DUNYOQARASHLARI

Atanazar RAHIMOV - TDPU doktoranti

Maqolada O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan mutafakkirlarning jahon tabiatshunoslik fanlari rivojiga qo'shgan katta hissalari yoritilgan. Hamda kelajakda ushbu boy ilmiy meroslarni to'liq o'rganish, biologiya, qishloq xo'jaligi, tibbiyot fanlari sohalarida ulkan yutuqlarga erishishda asos bo'lishligi keltirilgan.

В статье изложены большой вклад мыслителей, живших и творивших в средние века в Центральной Азии, в развитие мировых наук естествоведения. А также приведено полное изучение этих богатых научных наследий в будущем, явление базой для достижения огромных успехов в сфере биологии, сельского хозяйства и медицинских наук.

In this article the big contribution of thinkers who lived in the middle Ages in Central Asia for the development of world natural science was expressed. Furthermore, learning these rich scientific heritages completely in the future, being a principle to great achievements in our independent country for the fields of biology, agriculture and medicine were also shown.

Kalit so'zlar: tabiatshunoslik, dunyoqarash, organizm, o'simlik, hayvon, odam, irsiyat, tabiiy va sun'iy tanlash, evolyutsiya.

Ключевые слова: естествоведение, мировоззрение, организм, растение, животное, человек, наследственность, естественный и искусственный отбор, эволюция.

Key words: natural science, outlook, organism, plant, animal, human being, heredity, natural and artificial selection, evolution.

Qaysi davrga mansub bo'lmasin har bir millatning, har bir yurtning faxri va iftixori uning olimlari-yu, jahon ilm-fani va madaniyati ravnaqiga qo'shgan hissasi bilan o'lchanadi va qadrlanadi. Mana shu mezonga tayanib adolat ko'zi bilan qaraydigan bo'lsak, ko'hna Markaziy Osiyo zaminimiz hech bir mubolag'asiz, dunyoda eng ilg'or, oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Masalan, ilm-fanning qaysi bir jabhasini olmaylik —u aniq fanlar bo'ladimi, tabiiy fanlar yoki ijtimoiy fanlar deysizmi, Markaziy Osiyolik olimlarning xizmatlari beqiyosdir. Ayniqsa o'rta asrlarda 9-12 asrlarda yashagan buyuk allomalarimizning bu boradagi ulushlari dunyo miqyosida salmoqlikdir. Markaziy Osiyo olimlarining tabiatni o'rganishga bag'ishlangan asarlarini chuqur o'rganar ekanmiz, hozirgi zamon biologiyasining negizi hisoblangan yerda hayotning paydo bo'lishi va rivojlanishi, tabiiy va sun'iy tanlash, birlamchi va ikkilamchi signal sistemasi, tirik mavjudotlarning evolyutsion rivojlanishi, tabiatni muhofaza qilish kabi muammolarni Yevropa olimlarigacha 900-1000 yillar ilgari hal qilinganligining guvohi bo'lamiz. Biroq, Yevropada Aristotel zamonida bo'lgani kabi, Markaziy Osiyoda ham tabiiy fanlarda hali mukammal kategoriyalar mavjud emas edi. Mazkur muammolar olimlarning asarlaridan asarlariga, mamlakatlardan mamlakatlarga, zamonlardan zamonlarga ko'chib, rivojlanib, takomillashib bordi va bizgacha yetib keldi. Diyorimizdan chiqqan Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Burhoniddin al-Marg'iloniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Nasr al-Forobiy, Axmad Abu Rayxon al-Beruniy, Abu Ali Ibn Sino Bahouddin al-Naqshband, biroz keyinroq yashab o'tgan, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek kabi yuzlab buyuk siymolarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Bu daholar yaratib ketgan o'lmas asarlar, buyuk

kashfiyotlar jahon ilm-fani va madaniyati ravnaqiga qo'shilgan ulkan hissa bo'lishi bilan birga ayni chog'da ma'lum darajada ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga ham xizmat qiladi. Bu taraqqiyotning ildizi antik dunyoga borib taqaladi.

Antik dunyoning qadimgi muqaddas kitoblaridan biri bu "Avesto" hisoblanib, u O'rta Osiyoda, xususan, Xorazmda miloddan avvalgi birinchi ming yillikning birinchi yarmida vujudga kelgan. Unda keltirilgan ma'lumotlarning eng qadimgi qismlari miloddan avvalgi ikki ming yillikning oxiriga oid. Avestoda bayon etilgan g'oyalarga ko'ra olam ikki asosning, ikki ibtidoning, ya'ni yorug'lik bilan zulmatning, yaxshilik bilan yomonlikning to'xtovsiz kurashidan iborat. Yaxshilik va ezgulik xudosi Ahuramazda yer, o'simlik va boshqa hamma tabiat boyliklarini yaratgan. Ahuramazda ta'limotiga ko'ra Avestoning axloqiy-falsafiy mohiyati "ezgu fikr", "ezgu so'z", "ezgu amal" kabi muqaddas uchlikda o'z ifodasini topadi. Xorazmda miloddan bir necha ming yillar avval ovchilik, chorvachilik va sug'orma dehqonchilik vujudga kelgan, yirik irrigatsiya inshootlari qurilgan va o'ziga xos tasviriy san'at rivojlangan. Muallif "Avesto"dagi tarixiy ma'lumotlarni biologiya nuqtai nazardan tahlil qilishga harakat qilgan. A.Raximovning "Avesto"da Biologik va genetik muammolar" deb nomlangan maqolasida quyidagilar keltirilgan: Xorazm xalqlarining hayotiy va kundalik turmushida asosiy o'rinni egallovchi chorvachilik va dehqonchilik bosh olov — Quyoshning yorug'ligi va issiqligi bilan bog'liq bo'lgan. Tabiat kuchlari oldida ojiz bo'lgan insonlar quyoshga, ob-havoga, suv va olovga, hosildor yerga umid bog'lagan, ularni ilohiylashtirib, madad so'rab iltijo qilganlar. Yaxshilik undovchi bosh xudo Axura-Mazdaning ko'rgazmasiga binoan "erga yaxshi va kuchli urug'

sepmoq" dunyodagi eng zarur qonun hisoblanadi. U ekin ekilmasdan qolgan yerlar qattiq ranj chekadi, u xuddi bepust erga chiqib, farzand orzu qiladigan ayolga o'xshaydi,- deydi[3,32-34].

Avesto o'zbek, umuman O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining qadimgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, urf-odatlari, ma'naviy madaniyatlarini o'rganishda muhim va yagona manba". Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir"[1,39-40].

Avestoning 2700 yilligi 2001-yil oktyabr oyida Xorazmda zo'r tantana bilan o'tkazildi.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek buyuk allomalar ichida hadisshunos olimlarimiz bilan bir qatorda dunyoviy fanlar, xususan, tabiatshunoslik, matematika, falakiyot ilmning rivojiga ham katta hissa qo'shgan allomalar ham yashab o'tganlar. Ular ham ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonat dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlarni bayon etganlar. Buyuk alloma Muhammad Muso al-Xorazmiy (782-847) o'zining risolalaridan birida bunday deb yozadi: "Biling-ki, daryoning ko'zlari yoshlansa uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar daryodan mehringizni darig' tutmanglar". Daryoning yoshli ko'zlari deganda alloma ehtimol daryo suvining ortiqcha isrof bo'lishligini nazarda tutgandir. Vaholanki, buyuk bobomiz eng avvalo daryo bilan odamlarning bir-birini tushunishlari va til topishlari, o'zaro mehr-muhabbat qo'yishlarini nazarda tutgan. Muhammad al-Xorazmiy 847- yilda "Kitob surat al-arz" degan asarini yozadi. Unda dunyo okeanlari, qit'alar, qutblar, ekvator, cho'llar, tog'lar, daryo va dengizlar, ko'llar o'rmonlar va ulardagi o'simlik, hayvonat dunyosi, shuningdek, boshqa tabiat resurslar yerning asosiy boyliklari haqida ma'lumotlar keltiradi.

O'sha davrda yashab o'tgan allomalardan yana biri Abu Nasr Farobiy (870-910) hisoblanadi. Nemis olimi M.K.Broxkelman Farobiyning turli sohalarga oid 180 ta asarining nomini keltiradi. Bu asarlar bir necha guruhlarga bo'lingan bo'lib, 11 guruhga Farobiyning tabiatshunoslik ilmi, amaliy faoliyat va hunarmandchilik masalalariga oid asarlari kiritilgan. Farobiyning tabiatshunoslikka oid "Odam a'zolarining tuzilishi (Risalat fi-az'o al-inson), Hayvonlar a'zolari va ularning vazifalari haqida" kabi asarlarida odam va hayvonlar ayrim a'zolarining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida, ularning o'xshashligi va farqlari keltirilishi bilan birga asosiy anatomik-fiziologik tushunchalar ham berilgan. Odam a'zosining tuzilishi va vazifalari haqida so'z yuritilganda ularning o'zaro bog'liqligi va yaxlitligi ularda kelib chiqadigan o'zgarishlar ya'ni kasalliklar birinchi navbatda ovqatlanish tartibining buzilishi oqibatida kelib chiqadi deb tushuntiriladi. Odamning kelib chiqishi haqida olim yanada ilg'or fikrni ilgari suradi. Inson dastavval tabiatdan, aynan hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan. Ularcha fikrlovchi inson qiyofasini

olgan bo'lsa-da, o'z ajdodi – hayvonlar bilan ba'zi o'xshashliklari saqlanib qolgan. A.N.Farobiyning ta'kidlashicha, organizmda ikki xil boshqarish kuchi mavjud: bulardan biri hayvoniy boshqarilish, bu hayvonlarga xos xislat yoki noaql (al-hayvon g'ayri notiq) fikrlovchi, aqlli (al-hayvon an-notiq) nutqiy xususiyat deb ta'riflaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, Farobiy hali Yevropa olimlariga qadar, xususan, rus fiziologi I.M.Sechenovgacha 1000 yil avval fiziologiya fanining fundamental asosi bo'lgan birlamchi va ikkilamchi signal sistemasining rivojlanishiga ilmiy asos solgan[2,32]. Farobiy tabiat va inson qo'li bilan yaratiladigan sun'iy narsalarni ajratgan. U tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratilgan degan xulosaga keladi. Inson omilining ta'siri katta ekanligini, tabiiy va sun'iy tanlash halida tabiatga ko'rsatiladigan boshqa ta'sirlarni atroflicha baholagan. Demak, Abu Nosir Farobiy o'z asarlarida sun'iy (inson yordamida) turlarining vujudga kelishini va tabiiy (inson aralashuviz) o'simlik va hayvon turlarining vujudga kelishini dunyoda birinchi bo'lib ta'riflaydi va biologiyaning fundamental asosi bo'lgan mazkur masalani ilk bor asoslab beradi. Bu jarayon Angliyalik genial olim Ch.R.Darvindan ming yil oldin bu masalani "Sharq Aristoteli" "Muallim us-saniy"- "Ikkinchi muallim" bilan dunyoga tanilgan bizning bobomiz Abu Nosir Farobiy birinchi bo'lib asos solgan, uning tabiiy-ilmiy asarlarida biologiyada tabiiy evolyutsiya qonunlarini asoslashda ilmiy nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi. Farobiy dunyoqarashi xususidagi fikrlarga yakun yasab uni aytish mumkinki, Farobiy falsafasidagi materialistik tamoyil va fanlarni tashviqoti jaholatga, idealizmga, hayotiy passivlikga qarshi qattiq zarba berdi. Lekin Farobiy falsafasidagi materialistik mulohazalar diniy parda bilan niqoblangan edi. Buning asosiy sababi o'sha davrda jaholatparast feodal mafkurasining hukmronligi edi.

Abu Rayxon Beruniy (973-1048) kashfiyotchi, buyuk zabardast olim, ko'p sohalarga qiziqqan inson bo'lgan. Uning 200 dan ortiq ilmiy asarlari bo'lib, bizgacha 27 tasi yetib kelgan xolos. U koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari bilan, narsa va hodisalarning o'zaro ta'siri bilan tushuntirishga urinadi. Olim yerdagi ba'zi hodisalarni Quyoshning ta'siri bilan izohlaydi. Uningcha, inson tabiat qoidalariga rioya qilgan holda borliqni ilmiy ravishda to'g'ri o'rgana oladi. Beruniy aytadiki, yerdagi o'simlik va hayvonlarning yashashi uchun zarur imkoniyatlar cheklangandir. Lekin o'simlik va hayvonlar cheksiz ko'payishga intiladilar va shu maqsadda kurashadilar. Beruniyning ilmiy qarashlari "Qadimgi ajdodlardan qolgan yodgorliklar"(1004), "Geodeziya"(1025), "Hindiston"(1030), "Mineralogiya"(1036), "Saydana" (1048), "Tabiatda dorishunoslik" kabi asarlarida o'z ifodasini topgan. Beruniy o'simlik va hayvonlarning tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori yil fasllarining o'zgarishi bilan bog'liq ravishda o'zgarishini misollar bilan tushuntirgan. Masalan, u so'nggi asarida qish qattiq, sovuq kelsa, qushlarning tog'dan tekkisliklarga

tushishi, chumolilarning uyasiga berkinib olishi ifoda etiladi. Beruniy "Saydana" degan asarida 1116 tur dori-darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi turli o'simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 107 tasi esa minerallardan olingan. Uning "Tabiatda dorishunoslik" nomli asarining o'ziga xos xususiyati shundaki, dorishunoslik fani alohida soha bo'lishi kerakligini ta'kidlab, yangi farmakologiya fanini asoslaydi. Bu asar 1927- yilda Turkiyaning Bursa shahridagi kutubxonadan topilgan bo'lib, unda 250 dan ortiq tabib, dorishunos, kimyogar, tabiatshunos va boshqa mualliflarni keltiradi. Beruniy Ptolomeyning Yer olamning markazi bo'lib, u harakatlanmaydigan sayyoradir, degan ta'limotiga tanqidiy yondashib, yer quyosh atrofida aylansa ajab emas degan fikrni bildirgan. Beruniy Kopernikdan 500 yil avval quyosh sistemasining tuzilishini to'g'ri asoslagan. "Hindiston" va "Geodeziya" degan asarlarida Yevropaliklardan 450 yil oldin yer kurrasining g'arbiy pallasida bir quruqlik borligini bashorat qilgan edi[5]. Beruniy hozirgacha jahon fani olamida yagona bo'lgan "Hindiston" asarining muallifidir. Mazkur kapital asarda muallif har tomonlama boy va turli-tuman materiallarni umumlashtirdi. Hindistonning birinchi bosh vaziri va taniqli siyosat arbobi Javoharlar Neru mazkur asarni yuqori baholagani bejiz emas, albatta. Beruniy "Hindiston" asarida materiyani-abadiy deb ataydi " hech narsa bordan yo'q bo'lmaydi, yo'qdan bor ham bo'lmaydi" deydi. Hindistonlik Maxatma Gandi buyuk siymo haqida shunday yozgan: "Dunyoda hind xalqining do'stlari ko'p. Ular orasida kelib chiqishi musulmon bo'lib Sharqning buyuk donishmandi A.R.Beruniy ham bor. Hali dunyoda hech kim Hind xalqini, uning qadim madaniyatini Beruniychalik targ'ib qilmagan. Binobarin hind xalqi bor ekan, uning do'sti A.R.Beruniy ham bor. Biz hamisha uning ilg'or tafakkuri oldida bosh egamiz". Olimning "O'tmish avlodlardan qolgan yodgorlik" va "Hindiston" asarlarida hayvonlar, o'simliklar organizmining tarkibi mazkur organizmlar tashqi muhit bilan uzviy bog'liqligining mahsuli ekanligi kabi masalalar muallifning ongini chulg'ab olgan edi. U hozir yashab turgan hayvonlar shakllari qadimgilaridan tubdan farq qiladi, chunki ular o'rtasida juda uzoq tarixiy davr yotadi, deydi. Beruniy bundan ming yil ilgari olimlar orasida birinchi bo'lib organik dunyoning evolyusion taraqqiyoti, olamning oddiydan murakkabga tomon takomillashib borishi to'g'risida fikr yuritadi. Beruniy odamning paydo bo'lishi, irsiyat qonunlari, ong, sezgi, tafakkur, aql, oliy nerv faoliyati, uning hayvon va odamlarda o'ziga xosligi va boshqa turli xil fiziologik tushunchalari yuqori ilmiy saviyada tushuntirib beradi. U odamlarning rangi, qiyofasi, tabiati va axloqi turlicha bo'lishi, faqat nasablargagina emas, balki tuproq, suv, havo va yerga (odamlar yashaydigan joylarga) ham bog'liqdir. Beruniy o'zining ilmiy-nazariy tadqiqotlari va tajribalari asosida barcha tabiat hodisa va voqealari tabiiy qonuniyat asosida yuz beradi, ularni hech qanday tashqi kuch o'zgartira olmaydi, degan xulosaga

keladi. Beruniy fanni din ta'siridan qutqarish uchun kurashdi. U dindand fan ishiga aralashmaslikni talab qildi. Beruniy ruhoniylar fikrining g'ayri ilmiy mohiyatini fosh etib, dunyo va uning tuzilishi to'g'risidagi (jumladan Quyosh tutilishi) diniy tasavvurlar hukmron guruhlar tomonidan ta'kidlaydi. Bu haqda Beruniy: "Ruhoniylar Oy va quyoshni yutib yuboruvchi qandaydir vujud bilan izohdaydilar; har bir xalqda nodon odamlar bor va ulardan ham ko'proq ularning ongini da'vosini qiluvchi nodon dohiylar ham bor; haqiqatda esa ustozlar ham o'z shogirdlariga o'xshash nodon", - deb yozadi[4,224]. Beruniy o'z ilmiy faoliyati jarayonida tabiatni bilishning tajribaviy usulini ishlab chiqdi. Bilish jarayoni, Beruniy ta'limoticha, eskilik, mutaasiblik,shaxsiy g'araz, sub'ektivimizdan ozod bo'lishi, tabiatning o'ziga, kuzatishga, tajribaning rad etib bo'lmaydigan dalillariga asoslanishi lozim.Tabiatni bilish jarayoni sezgilar bilan boshlanib, tafakkurgacha ko'tariladi, ma'lum naralardan noma'lum narsalar va hodisalarni bilishga tomon rivojlanib boradi; biroq bir avlodning hayotida hamma narsani bilish mumkin emas. Bunday fikrlashda biz Beruniy dunyoqarashida materialistik xulosalar mavjudligini ko'ramiz.

Beruniy dunyoqarashining ma'lum darajada cheklanganligini uning tirik tabiatning tarixiy rivojlanishini to'g'ri anglay olmaganligida ko'ramiz. Uning uqtirishicha asalarilar o'simliklardan, qurtlar go'shtdan,chayonlar anjirdan paydo bo'lgan.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) – jahon madaniyatiga buyuk hissa qo'shgan olimlardan biri. Turli yozma manbalarda uning 450 dan ortiq asar yozganligi eslatiladi. Bizgacha uning 240 ta asari yetib kelgan. Ibn Sino asarlari ichida "Tib qonunlari" shoh asari tibbiyot ilmining qomusi hisoblanadi. Mazkur asar lotin tiliga tarjima qilinib, besh asr mobaynida G'arb mamlakatlarida tibbiy bilimlarning birdan-bir qo'llanmasi sifatida xizmat qilgan. "Tib qonunlari" beshta kitobdan iborat. Odamlardagi har bir kasallikning tabiat sabablari bor deb tushuntiradi. Tabiatning ob'ektiv mavjudligini tan olgan olim, organik olamning vujudga kelishida xudo dastlabki kuch deb hisoblaydi. Yer yuzining davrlar o'tishi bilan o'zgarib borishi, zilzilaning bo'lishi kabi tabiat jarayonlar haqida ham o'z fikrini bayon etadi.

Farobiy "Muallimi soniy" bo'lsa, Ibn Sino "Shayxur rais"- olimlar boshlig'i "Tabiblar podshosi" deb nom qozondi. Ibn Sinoning falsafadagi roli katta. Uning asosiy falsafiy asarlari "Kitob ash shifo", "Donishnoma", "Najot", "Kitob al ishorat"dan iborat. "Donishnoma" asarida u falsafani uch qismga bo'ladi: fizika(tabiat to'g'risidagi ta'limot); mantiq (tabiat va insonni bilish yo'llari to'g'risidagi ta'limot); metafizika (borliqni butunlay bilish to'g'risidagi ta'limot). Ibn Sino falsafiy qarashlariga umumiy baho berib, shuni aytish mumkinki, u o'z dunyoqarashiga panteistik prinsipdan kelib chiqdi; tangri va borliq bir-biriga inkor etuvchi narsalar emas, askincha ular bir butun holda mavjudlikni tashkil etadi. Abadiylik tangriga ham, materiyaga ham xosdir. Lekin, shu bilan birga, tangri va moddiy olam, tabiat ma'lum pog'onalar yordamida

bog'lanadi. Uzun va bir butun zanjirning bir chekkasida yaratuvchi tangri-zaruriy vujud, ikkinchi chekkasida tabiat yotadi. Tabiat tangri ta'siridan shu darajada uzoqdaki, u o'z qonuniyati yordamida o'zgaradi, rivojlanadi. Panteizm va deizm o'rta asr sharoitida ilg'or falsafiy g'oyalarni, tabiiy-ilmiy va materialistik fikrlarni olg'a surishning eng muhim shakli edi. Ibn Sino falsafiy qarashlari bir butun holda idealistik tabiatga ega bo'lsa-da, u o'zining materialistik fikrlarga boyligi, keng imkoniyati bilan hukmron islom dunyoqarashiga zid edi. Uning mantiqqa asoslangan, aqlni mezon qilib olgan ratsionalizm bilan ifodalanuvchi gnesologiyasi ham islom aqidasiqa qarshi qaratilgan edi.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530)-Uyg'onish davrining tipik taraqqiyparvar hukmdorlaridan biri, markazlashgan hind davlatiga asos solgan mashhur shaxs, podshoh, sarkarda, tarixchi bo'lgan alloma tabiatshunoslikka doir ham o'z fikr, mulohazalarini aytib ketgan edi. Uning shoh asari "Boburnoma" da har bir hudud ma'lum bir tartibda tasvirlanadi. Avval joyning geografik o'rni, reliefi, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, aholisi tasvirlanadi. "Boburnoma" da muallif O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston davlatlari qishloq xo'jaligining rivojlanishi haqida ma'lumotlar beriladi. Asarda O'rta Osiyoda qadim vaqtlardan buyon- qovun, bug'doy, o'rik, olma, behi, anor, shaftoli, olcha, yong'oq, nok,

tutlarning bir necha navlari borligi ta'kidlanadi. Allomaning fikricha, o'sha davrlarda Farg'ona vodiysida antilopalar, tog' qo'ylari, yirik yirtqich qushlar, Samarqandda jayronlar, Buxoro antilopi, tog' echkilari, kakliklar ko'p bo'lganligini yozib qoldiradi. Bobur bir necha bor yer qimirlaganini, Oy va Quyosh tutilishi kabi tabiiy hodisalar guvohi bo'ldi. Ushbu hodisalarning tabiat qonunlaridan boshqa narsa emasligini ishonch hosil qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining jahon tamadduniga, ilm-fani va madaniyati ravnaqiga qo'shgan hissasi beqiyos. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ularning ulkan boy ilmiy merosi falsafiy, til va adabiyot, mantiq, tarix, astronomiya, matematika, fizika, geologiya, mineralogiya va dorishunoslikga oid sohalar nuqtai nazardan yaxshi o'rganilgan. Jahonda va mustaqil respublikamizda hozirgacha bu borada juda ko'p Xalqaro va milliy kongresslar, simpoziumlar va ilmiy konferensiyalar o'tkazildi. Biroq, O'rta Osiyo olimlarining biologiya, qishloq xo'jaligi, tibbiyot fanlariga qo'shgan hissalarini o'rganish keng yo'lga qo'yilmagan. Shu sababli Bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan kunda, yoshlarimizning kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida buyuk ajdodlarimizning merosini to'liq o'rganish, yangi innovatsion g'oyalarning paydo bo'lishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rasulov.M. "O'rta Osiyo tabiatshunoslik fanlari tarixi". T.: "O'qituvchi"- 1993, 32- b.
2. Raximov A.K. "Avesto"da biologik va genetik muammolar. U.: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari-2001, 32-34- b.
3. O'zbekistonda ilg'or ijtimoiy-falsafiy fikr tarixiga oid materiallar. T.: "Fan"-1976, 224- b.
4. G'ofurov.A.T, Fayzullaev.S.S. "Genetika va evolyusion ta'limot". T.: TDPU- 2013, 330- b.

"POLIMERLAR" MAVZUSINI INTERFAOL METODLAR YORDAMIDA O'QITISHNING SAMARADORLIGI

Zuhra MAXMATKULOVA – TDPU "Kimyo o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti

Saidjon ISMOILOV – TDPU "Kimyo o'qitish metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Dildora ABDUAZIMOVA –TDPU magistranti

"Polimerlar" mavzusi kimyoning asosiy mavzularidan biridir. Ushbu mavzuni yaxshi o'zlashtirmay turib, kimyoviy bilimlarni puxta egallab bo'lmaydi. Mazkur maqolada "Polimerlar" mavzusini interaktiv metodlar asosida o'qitish, dars samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi o'rganilgan.

Тема «Полимеры» - одна из основных тем химии. Не имея базовые понятия о полимерах учащиеся не смогут понять процессы происходящие в структуре полимера. В этой статье приводятся интерактивные методы используемые для лучшего усвоения темы «Полимеры», что является важным фактором повышения эффективности урока.

The theme of "Polymers" is one of the main topics of chemistry. Without a good understanding of this subject, you can not grasp the chemical knowledge. In this article, we learned that the theme "Polymers" is an important factor in improving the effectiveness of the lesson on interactive methods.

Tayanch so'zlar: polimerlar, interaktiv metodlar, noan'anaviy dars, hamkorlik texnologiyasi, didaktik o'yinlar.

Ключевые слова: полимеры, интерактивные методы, нетрадиционный урок, технология совместного обучения.

Key words: polymers, interactive methods, non-traditional lesson, collaborative teaching technology.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratlashtirish va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi Farmoni bilan 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur strategiyaning IV bobi "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan bo'lib, unda ta'lim va fan sohasini rivojlantirish hamda yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu ta'lim sohasi mamalakatimiz siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligining isbotidir.

Ta'limga bo'lgan bunday yuksak e'tibor o'qituvchi-pedagoglarga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Innovatsion texnologiyalar hayotimizning har bir jabhasida o'z imkoniyatlarini ko'rsatayotgan shunday shiddatli zamonda ta'lim sohasida o'quv jarayonini yangicha yondashuvlar bilan tashkil etish, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda dars jarayonini qiziqarli tarzda o'tkazish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Dars jarayonida faqat axborot berish davri allaqachon o'tib ketgan. Har bir pedagog-o'qituvchi dars jarayoniga tayyorlanar ekan, uning oldida darsni samarali tashkil etish, mavzuni o'quvchilarga qiziqarli va tushunarli holda yetkazib berish mas'uliyati turadi. Buni samarali amalga oshirish uchun darsda foydalaniladigan pedagogik texnologiyalarni puxta egallash, o'tiladigan dars mavzusiga mos keladigan o'qitish metodlarini tog'ri tanlay bilishi zarur.

Kimyo fani o'quvchilar o'zlashtirishi qiyin bo'lgan fanlardan biri bo'lganligi sababli, kimyo fani o'qituvchilaridan chuqur kasbiy mahorat talab qilinadi. Kimyoviy bilimlarni egallashning ilk bosqichlaridanoq o'quvchilarning kimyo faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish fanni o'zlashtirishning muhim omili sanaladi.

"Polimerlar" mavzusi organik kimyo kursining eng muhim mavzularidan hisoblanadi. Chunki kundalik turmush tarzimizda ishlatiladigan deyarli barcha buyumlarning asosini polimerlar tashkil qiladi. Shu sababli, bu mavzuni o'quvchilarga to'liq yetkazish ularning kimyo faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi. Bu vazifani amalga oshirishda interaktiv metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv, ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan. [4]. Xususan, V.P.Bespalko, V.M.Monaxov, V.M.Klarin, I.Y.Lerner, B.L.Farberman, J.Bruner, N.F.Talizina kabi bir qator chet ellik olimlar pedagogik texnologiyalarni darsda samarali qo'llash borasida o'zlarining fikrlarini

bildirganlar va buni o'z tajribalarida keltirib o'tganlar. Ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki tarafflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish va uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalarini rivojlantiradi [5].

Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish har qaysi mavzu uchun yaxshi samara beradi, lekin bunda foydalanayotgan metodning dars mavzusiga mosligi muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, dars o'tilayotgan guruh yoki sinfning yosh xususiyatlari, o'quvchilarning psixologiyasi, temperamenti, fiziologiyasidan kelib chiqqan holda metod tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. "Polimerlar" mavzusi maktab kimyo kursining yuqori bosqichlarida o'tiladigan mavzu hisoblanadi. Shu sababli, dars jarayonida interfaol tadbirlarni tashkil etishda yuqori sinf o'quvchilariga mos keluvchi, darsda ularning faolliklarini ta'minlovchi interaktiv faoliyat amalga oshirilishi zarur. "Polimerlar" mavzusini o'qitishda interfaol darsni tashkil etish uchun quyidagi tadbirlar tadbir qilindi:

"Muzyoralar". Dars o'tilayotgan guruhda o'quvchilar befarqligining oldini olishga va dars jarayonida hosil bo'lgan charchoqni yoki ruhiy bosim (ta'sir) bo'lishining oldini olishga mo'ljallangan ma'lum bir xildagi faol faoliyat turlaridir. Demak, ular sinfda yuzaga kelgan "muzlash"ning oldini olish va agar bunday "muzlash" hosil bo'lgan bo'lsa, uni "yorib yoki eritib yuborish" uchun ishlatilishi mumkin. [1]

Ko'pgina o'qituvchilar «muzyoralar»larni ta'limning boshlang'ich bosqichidagina ishlatadilar, lekin uni xuddi shunday muvaffaqiyat bilan ta'limning yuqori bosqichlarida ham qo'llash mumkin. Chunki, yuqori sinf o'quvchilari o'smir yoshdagilar bo'lib, ularni darsga qiziqtirish va faolliklarini oshirish boshlang'ich

ta'lim o'quvchilarinikiga qaraganda biroz mushkul. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashishi zarur. Dars davomida ta'lim olish bilan birgalikda qiziqarli o'yin olib borilishi sinfda yuzaga keladigan "muzlash" ning oldini oladi. Ammo, "muzyorar"lar tashkil qilishda guruhni yaxshi bilish va uni guruhdagi o'quvchilar xususiyatlariga imkoniyat darajasida moslashtirish zarur bo'ladi, aks holda, noqulay ahvolga tushib qolish ham ehtimoldan holi emas. Quyida "Polimerlar" mavzusi uchun qo'llangan, faoliyat turi "muzyorar" bo'lgan ba'zi o'yinlardan misollar keltiramiz:

O'yin nomi: Sizning belgingiz qanday?

O'yin turi: Muzyorar.

Maqsad: Nomlarni eslab qolish.

Vaqt: 8-12 daqiqa yoki guruhning kattaligiga bog'liq.

Guruh kattaligi: Ta'lim oluvchilar soni 5 nafardan ko'p va 20 nafardan kam.

Ishlatiladigan materiallar: Hech nima kerak emas.

Amalga oshirilishi:

Barcha doira shaklida turadi va kimdir "Mening ismim va mening belgim.....", - deydi. Belgi sifatida biror-bir polimerning xususiyatlari berilishi mumkin. Keyingi talaba uning nomini va belgisini qaytaradi, so'ngra o'zining nomi hamda belgisini aytadi. Undan keyingi o'quvchi oldingilarning nomlari va belgilarini qaytarishi hamda o'zini ham aytishi lozim bo'ladi. O'yin shu tarzda davom etib, hamma ishtirokchilar bir-birlarining ism va shartli belgilarini bilib oladilar. Agar bu o'yinni dars boshlanishida o'tkazsangiz, barcha talabalar bir-birlarining nomlarini yaxshilab eslab qoladilar. Masalan, mening ismim sellyuloza va men paxtaning asosiy tarkibini tashkil etaman, mening ismim poliakrilonitril va men qiyin polimerlanaman.

O'yin nomi: «Mantiqiy ketma-ketlik».

O'yin turi: Muzyorar.

Maqsad: Mavzu yuzasidan ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lish, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini oshirish.

Vaqt: 8-15 daqiqa.

Guruh kattaligi: Har qanday kattalikdagi.

Ishlatiladigan materiallar: Ruchka yoki qalam, qog'oz bo'laklari.

Amalga oshirilishi:

Har bir ishtirokchiga bittadan varaq tarqatib va unda biror bir polimerning olinishi yoki kimyoviy xossalari ifodalovchi reaksiya tenglamalarida ishtirok etadigan moddalardan birining formulasini yozishini so'rang. Keyin barcha qatnashuvchilar o'rnalaridan turib, qo'llaridagi yozilgan modda formulalaridan foydalangan holda boshqalar bilan reaksiya tenglamalarini tuzishlari kerak. Bu jarayonda o'quvchilar yodida qolishi qiyin bo'lgan reaksiya tenglamalarini esda saqlab qolish osonlashadi, guruhda o'quvchilarning jamoaviy harakat qilishlari, guruhdagi do'stona munosabatni mustahkamlaydi.

«Kuchaytirgichlar» yoki «Aktivatorlar» ham shunday bir turdagi darsni faollashtirish tadbirlariki, ular o'quvchilarning faolligini va ta'lim bilan uzviy bog'liq xatti-harakatlarini ma'lum darajada hamda ma'lum vaqtda kuchaytirish uchun qo'llaniladi. Ular dars jarayonining har qanday qismida ham muvaffaqiyat bilan qo'llanilishi mumkin. Ularning qo'llanilishi quyidagi paytlarda maqsadga muvofiqdir:

- o'quvchilarning mudroq kayfiyatini uyg'otib, ularni faollashtirish uchun;

- dars uzoq muddat davom etib, ta'lim oluvchilarning ko'pchiligi mavzu bo'yicha bilim olishdan sezilarli ravishda charchaganliklari bilinib qolgan taqdirda ya'ni darsning yakunida;

Kuchaytirgichlar sifatida xilma-xil xatti-harakatlar yoki didaktik o'yinlar ishlatilishi mumkinki, ular guruh va mavzu tabiatiga mos kelsin.

Ba'zi kuchaytirgichlar raqobat muhitini yuzaga keltirishi, ba'zilar esa yaratuvchanlikni talab qilishi mumkin. Bu ularning fikrlash jarayonini ochiq va erkin qiladi, yangi g'oyalar yaratishga olib keladi va ulardagi foydali ma'lumotlar miqyosini ancha oshiradi. Endi yuqoridagi aytganlarimiz tushunarliroq bo'lishi uchun "Polimerlar" mavzusi misolida interfaol tadbirlarga kiruvchi kuchaytirgichlar va aktivatorlardan iborat ba'zi bir o'yinlar bilan tanishib chiqamiz:

O'yin nomi: «Haqiqat va yolg'on».

O'yin turi: Faollashtiruvchi (Aktivator).

Maqsad: Tegishli mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini yanada oshirish.

Vaqt: 10-15 daqiqa.

Guruh kattaligi: Xohlagancha.

Ishlatiladigan materiallar: O'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan mavzu bo'yicha har bir talaba uchun qog'oz bo'lakida yozilgan hamda iloji bo'lsa mavzu bilan bog'liq bitta rost va bitta yolg'on misol, dalil, fakt, qoida, ko'rsatkich so'z yoki misol beriladi.

Amalga oshirilishi:

O'qituvchi har bir ta'lim oluvchiga ma'lumotlar yozilgan qog'oz bo'laklarini tarqatadi va ularga 4 talabadan iborat guruhlariga bo'lingan holda buni muhokama qilishni topshiradi. O'yin so'nggida har bir guruhdagi bir talaba guruhga tegishli barcha ma'lumotlarni tahlil qilib berishi lozim. Ya'ni, u bularning ichida qaysi biri to'g'ri va qaysi biri noto'g'ri ekanligini aytib, talabalarning ushbu mavzu bo'yicha bilimlarini oshiradi.

Misollar:

Makromolekula – o'zaro kimyoviy bog'lar bilan bog'langan atomlar guruhidan tashkil topgan molekula bo'lib, uning molekulyar massasi 10000 dan ortiq. (Haqiqat).

Makromolekula – bir qancha polimerlarning yig'indisi bo'lib, uning molekulyar massasi 560000 dan ortiq. (Yolg'on).

Toza akrilonitril juda barqaror monomer bo'lib, hatto kislorod ishtirokida 150-2000C ham polimerlanmaydi. (Haqiqat).

Toza akrilnitril juda beqaror monomer bo'lib, u oddiy sharoitda ham juda tez va oson polimerlanadi. (Yolg'on).

Ushbu faoliyat turini qo'llash o'quvchilarda polimerlarga oid haqiqiy bilimlarni ajratib olish va esda saqlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayonni o'yin tarzida tashkillashtirilishi esa, o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini orttirib, faolliklarini oshiradi.

O'yin nomi: "Mashhur insonlar".

O'yin turi: Kuchaytirgich.

Maqsad: Darsni faollashtirish.

Vaqt: 10-15 daqiqa.

Guruh kattaligi: Xohlagancha.

Ishlatiladigan materiallar: Doska va bo'r.

Amalga oshirilishi:

1. Qatnashchilarga polimerlar mavzusida o'tilgan olimlar nomlarini doskaga yozish taklif qilinadi va xohlovchilar bu nomlarni doskaga chiqib yozadilar.

2. Keyin talabalar ichidan birortasini chaqirib, olimlardan birining kimligi, faoliyati haqida so'raladi va u bu haqdagi ma'lumotlarni barchaga aytib beradi.

3. Agar chaqirilgan talaba hech nima bilmasa yoki kamroq bilsa, sinfdagi boshqa xohlovchilarga bu haqdagi ma'lumotlarni to'ldirish taklif qilinadi.

4. Shunday qilib, birin-ketin talabalarni doskaga chaqirgan holda mashhur insonlar va ularning nima uchun mashhurligi haqida bilib oladilar.

Interfaol tadbirlar va metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'limiy yoki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma'lum darajada samaradorlikka erishishni ta'minlaydi, biroq, ularning har biri ta'lim yoki tarbiya jarayonida mahsuldorlikni ta'minlash bo'yicha turli imkoniyatlarga ega. Shu sababli o'qituvchi-pedagoglar interfaol metodlarni tanlashda o'rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo'lgan masalaga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, interfaol metodlarning samaradorligi yanada oshadi, qachonki, ularni qo'llashda ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)larning yosh, psixologik xususiyatalari, dunyoqarash darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa. Bu esa o'z navbatida o'qituvchi-pedagoglardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo'lishlarini taqazo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayakubov Sh.K., Ayupov R.X. "Interfaol ta'lim usullari". Taffakkur bo'stoni. T.- 2012, 85-b.
2. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Ro'ziyeva D.I. "Pedagogika". T.-2013, 202-b.
3. M. Usmonboyeva, D. Ro'ziyeva, Z. Xoliqova "Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi". T.: TDPU-2014, 80-b.
4. Yo'doshev J.G., Usmonov S.A. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish". T.: "Fan va texnologiyalar"-2008.

UMUMIY BIOLOGIYA (GENETIKA BO'LIMI) DARSLARIDA RIVOJLANTIRUVCHI DARSLARNI OLIB BORISH METODIKASINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Saidnosir FAYZULLAYEV – TDPU "Biologiya o'qitish metodikasi" kafedrasida professori, biologiya fanlari doktori

Shoista VOXIDOVA - TDPU magistranti

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda rivojlantiruvchi darslarni olib borish metodikasining imkoniyatlari bayon etilgan.

In this article you will be informed about developing education method and in it's opportunities secondary schools. It helps to develop quality and effectiveness of education.

В этой статье вы ознакомитесь с развитием обучающих методов и их возможностями в средних школах. Они способствуют развитию качества и эффективности преподавания.

Kalit so'zlar: intellektual rivojlantirish, individual yondashuv, sifat va samaradorlik, bilish, tahlil, baholash, o'quv-biluv jarayoni.

Ключевые слова: интеллектуальное развитие, индивидуальный подход, качества и успеваемость, знание, анализ, оценивание, учебно- познавательный процесс.

Key words: intellectual development, individual approach, quality and academic success, knowledge, analysis, assessment, educational process.

Mamlakatimizda yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish umumiy o'rta ta'lim maktablarida talim sifati va samaradorligini yanada oshirishni talab etadi.

Hozirda ta'lim tizimi xodimlari uchun eng dolzarb vazifa talimning sifati va samaradorligini yanada oshirishdir. Ta'limning sifat va samaradorligini yanada oshirish esa, murabbiylarning mehnatiga,

o'quvchiga berilayotgan bilim va tarbiyani nechog'lik puxta ekaniga bog'liqdir.

Ta'limda o'quvchilarning aqliy rivojlanishlari ma'naviy fazilatlarining rivojlantirib borilishiga asos yaratadi. Bu davrda bolaga beriladigan bilimlar vositasida shaxsning ongi, tafakkuri, dunyoqarashi va ma'naviy dunyosini o'stirib rivojlantirib borish, ta'limda o'quvchilarning rivojlanish jarayonini tashkil etishning asosiy ko'rinishlaridan biridir.

Tubanda yoritilgan dars tizimi o'quvchilarda topshiriqlarni yechishga oid nazariy tushuncha va amaliy ko'nikma, malakalarni shakllantiradi. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Mavzu: Genotip - bir butun sistema. Allel bo'lmagan genlarning o'zaro ta'sirida belgilarning rivojlanishi.


Maqsad: belgilarning allel bo'lmagan genlar ta'sirida irsiylanishi bilan tanishish va komplementar, epistaz atamalarining lug'aviy ma'nosini o'rganish.

Asosiy tushunchalar: gen bilan belgi o'rtasidagi munosabat xillari. Allel bo'lmagan genlarning o'zaro ta'sirida belgilarning rivojlanishi. Komplementar, epistaz irsiylanish, ingibitor genlar.

Jihozlar: komplementar va epistaz irsiylanishga doir jadvallar.

Darsning borishi: Mavzu muammoli ta'lim texnologiyasi asosida o'tiladi.

O'tilgan mavzu qisqacha so'rab chiqilgach, yangi mavzu e'lon qilinadi. O'qituvchi har bir organizm genotipi mustaqil genlar yig'indisidan iborat bo'lmay, yaxlit bir tizim ekanligini ta'kidlaydi. Shunga ko'ra, genlarning belgilarga ta'sir etishi har xil ekanligini qayd qiladi. Bir holatda bir gen bir belgini, boshqa holatda ikki, uch gen birlashib bir belgining rivojlanishini ta'minlansa, uchinchi holatda esa bir gen bir vaqtning o'zida bir qancha belgilarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishini qayd qilinadi va tubandagi sxema sinf taxtasiga chizib ko'rsatiladi:




Genlar bilan belgilar orasidagi munosabat xillari.

Sxema ko'rsatilgach, o'qituvchi o'quvchilardan G.Mendel, T.Morgan ishlarida gen bilan belgi o'rtasidagi munosabatning qaysi xili kuzatilganligini so'raydi. O'quvchilarning javoblari to'ldiriladi, so'ng bugungi va keyingi darslarda ikki, uch allel bo'lmagan genlar birlashib, bir belgini hosil qilishiga oid mavzular ko'rib chiqilishi ma'lum qilinadi. Allel bo'lmagan genlarning hamkorligi uch xil yo'nalishida ekanligi aytilgach, bugungi dars noallel genlarning komplementar, epistatik ta'sir xiliga bag'ishlanishi ma'lum qilinadi. Komplementar atamasining qaysi tildan olinganligi, uning lug'aviy ma'nosi nima ekanligi sinf taxtasiga yozib ko'rsatiladi va o'quvchilardan uni biologiya daftariga yozib qo'yish so'raladi. So'ngra darslikda berilgan oshqovoq o'simligidan ota-ona sifatida olingan navlarning chatishishidan olingan birinchi, ikkinchi avlod duragaylarining fenotiplari va genotiplarini o'quvchilarning faol ishtirokida sinf taxtasiga yozib chiqiladi.

Darsda muammoli vaziyat birinchi va ikkinchi avlod duragaylarining fenotipini belgilashda yuzaga keladi. Bunday muammoli vaziyat diduragaylarning birinchi va ikkinchi avlodlari genotip va fenotipini aniqlashda yuzaga kelgan edi. Pedagogik eksperiment o'tkazayotgan o'qituvchilar diduragaylarning genotipik, fenotipik sinflarini tahlil,

sintezlash, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalash kabi tafakkur operatsiyalari yordamida aniqlaganliklari va bunga o'quvchilarni o'rgatganliklari sababli komplementar irsiylanishda birinchi, ikkinchi avlod duragaylarining genotipini yozishda o'quvchilar unchalik qiyinchilikka duch kelmadilar. Shunga ko'ra, o'qituvchining diqqat-e'tibori ko'proq birinchi, ikkinchi avlod duragaylarining fenotipik sinflarini sinf taxtasiga yozish va mantiqiy tafakkur yordamida yechish orqali muammoni hal etishga safarbar etildi. O'qituvchi o'quvchilarning faol ishtirokida sinf taxtasiga yozilgan genotipik sinflarni tahlil, sintezlash, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalash orqali ikki juft allel bo'lmagan genlarning bir jufti dominant, ikkinchi jufti retsessiv holatda bo'lganda oshqovoq mevasi yumaloq shaklda, allel bo'lmagan genlarning ikki jufti gomozigota yoki geterozigota holatda dominant bo'lgan taqdirda oshqovoq mevasi gardishsimon, retsessiv holatda esa uzunchoq mevani yuzaga keltirishini ta'kidlaydi. Bu masala o'quvchilarga yanada tushunarli bo'lishi uchun darslikdagi ikkita yumaloq mevali oshqovoqlarni chatishtirishga oid rasmlarni ko'rib chiqish taklif qilinadi, so'ng sinf taxtasiga allel bo'lmagan genlar bilan oshqovoq meva shakli belgisi orasidagi munosabat tubandagicha yoritiladi.



Allel bo'lmagan genlarning komplementar irsiylanishiga oid yangi mavzu fragmenti yakunlangach, genlarning epistatik ta'sirida belgilarning irsiylanishi yoritiladi. Bunda ham, avval, epistaz, ingibitor atamalarining qaysi tildan olinganligi, ularning lug'aviy ma'nosi yozilib, izohlanadi. So'ngra o'qituvchi sinf taxtasiga o'quvchilar esa biologiya daftariga chatishtirishda qatnashgan ota-ona tovuq zotlari va ular G1, G2 avlodining genotipini, fenotipini yozib chiqadilar. Allel bo'lmagan genlarning epistatik ta'sirida belgilarning rivojlanishida muammoli vaziyat G2 dagi genotipik sinflarga asoslanib, fenotipik sinflarni belgilashda yuzaga keladi.

Mazkur muammoni yechish orqali genlar epistatik ta'sirining tub mohiyati o'quvchilar tomonidan ongli o'zlashtirilishiga erishiladi. O'qituvchi s geni tovuqlarda oq rangni, S geni esa qora rangni vujudga keltirishini tushuntiradi. I geni ingibitorlik funksiyasini bajaradi. Agar genotipda S geni I geni bilan birgalikda bo'lsa, I geni S genining belgiga ko'rsatadigan ta'sirini bo'g'adi. Faraz qilaylik, S geni qora pigment hosil qiladi, I geni esa o'sha qora pigmentni parchalovchi fermentni sintezlaydi. Oqibatda qora pigment parchalanib ketadi va tovuq patlari oq rangda bo'ladi. Buning natijasida ikkinchi avlod

duragaylar genotipida I geni bo'lgan barcha holatlarda tovuqlar pati oq rangda bo'ladi. Genotipda S geni I geni bilan bo'lgan taqdirda esa pat rangi qora bo'lgan. Bunday holatda S geni pigment hosil qiladi, lekin uni parchalovchi I geni tufayli rivojlanadigan ferment bo'lmaydi.

Pedagogik tajriba-sinovning dastlabki yillarida allel bo'lmagan genlarning komplementar, epistatik xillariga oid o'quv materialini bir soatda o'tish nihoyatda qiyin ekanligi ma'lum bo'ldi. Shu sababli, keyinchalik komplementar irsiylanishni bir soatda, epistatik irsiylanishni ham bir soatda o'tish rejalashtirildi. Dasturda ko'rsatilgan bir soat o'rniga komplementar, epistatik irsiylanishga ikki soat vaqt ajratilishi oqibatida mazkur o'quv materialini o'quvchilar tomonidan ongli o'zlashtirishga, atamalar bilan aloqador tushunchalarni to'g'ri shakllantirishga imkon yaratildi.

Xulosa o'rnida shuni qayd qilish joizki, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyotidan foydalanib, undan ta'lim-tarbiya yo'nalishida keng qo'llanilsa, o'quvchilar qiziqishining ortishiga, bilimlarning ko'nikmaga aylanishiga, bilim sifat-samaradorligining oshishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2013, №6.
2. G'ofurov A., Fayzullayev S., Matchonov B., Azimov I. «Genetik bilimlarni puxta o'zlashtirish va masalalar yechish metodikasi» qo'llanmasi.

“FAUST” ASARI O‘ZBEKCHA TARJIMALARIDA TASVIRIY VOSITALARNING IFODALANISHI

Sardor NAZAROV – Nizomiy nomidagi TDPU “Ingliz tili nazariyasi va o‘qitish metodikasi” kafedrasida o‘qituvchisi

Mazkur maqolada tasviriy vositalarning qayta yaratilishida tarjimonlar mahorati masalasining o‘ziga xos tomonlari taniqli nemis adibi Y.V.Gyotening “Faust” fojeasining o‘zbekcha tarjimalari misolida o‘rganiladi.

В статье изучаются вопросы мастерства и своеобразие перевода, а также воссоздание образных средств на материале узбекских переводов трагедии “Фауст” известного немецкого писателя И.В. Гёте.

The article studied questions of skill and originality of the translation, as well as recreate the figurative facilities on materials Uzbek translation of “Faust” tragedy by known German writer I.V. Gyote.

Kalit so‘zlar: tarjima, muqobil, stilistika, obraz, qiyosiy tipologiya, tasvir, metafora, metonimiya, adabiy aloqa, ramz, mutarjim.

Ключевые слова: перевод, оригинал, сравнительная стилистика, сравнительная типология, литературоведение, литературные связи, образные средства, символ, метафора, образ, эквивалентный перевод, национальный колорит.

Key words: translation, original, comparative stylistics, comparative typology, literary criticism, literary relations, figurative means, symbol, metaphor, figure, equivalent translation, national colour.

Har bir milliy adabiyot o‘ziga xos tasviriy vositalarga ega. Shuning uchun ham bu tarjimondan alohida ehtiyotkorlik va me‘yor talab qiladi. Zero, u tarjimada ham milliy adabiyotga xos ifoda shakllarini qo‘llashi, ham asliyatning o‘ziga xosligini yo‘qotib qo‘ymasligi kerak.

Tasviriy vositalar – badiiy asarda narsa-hodisalarni jonli tasvirlash, his-tuyg‘u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi til vositalarining umumiy nomi. Adabiyotshunoslikda ushbu tushuncha: *figuralar, sintaktik figuralar, stilistik figuralar, tilning poetik vositalari, tilning badiiy-tasviriy vositalari, obrazli vositalar, ifoda-tasviriy vositalar* kabi turli nomlar bilan ham yuritiladi.

Nemis stilist olimlari E.G.Rizel va Ye.Shendelslar tasviriy vositalarni quyidagi turlarga ajratishadi:

1) metafora: a) sof metafora; b) jonlantirish; v) allegoriya;

g) simvol; d) sinesteziya.

2) metonimiya: a) sinekdoxa; b) parsprototo.

3) epitet: a) tavnologik epitetlar; b) izohlovchi epitetlar; v) oddiy epitetlar; g) murakkab tarkibli epitetlar .

4) perifraza: a) ironiya; b) litota.

5) o‘xshatish. [9. 205]

Asardagi lirik tasvirlarni o‘g‘irishda tasviriy vositalarni qayta yaratish tarjimonlar oldiga muhim vazifalarni qo‘yadi. Shu nuqtai nazardan nemis adiblari asarlarining o‘zbek tilidagi tarjimalarini turli tasviriy vositalar tarjimasida amaliyotining taraqqiyotini o‘rganish, tarjima asarlarini tahlil va tadqiq etish, mohir tarjimonlar tajribalarini umumlashtirish, yangi va yanada mukammalroq tarjimalar uchun zamin yaratish kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalar qatoridan joy oldi. Y.V.Gyotening “Faust” asari tarjimasida tarjimondan aynan shunday salohiyat talab qiladi. “Faust” asari maftunkor, go‘zal, ta’sirchanligidan tashqari, ma’nodor va sehrga boydir. Bu asar tarjimondan tasviriy vositalarni mukammal bilishni

talab etadi. “Faust” asari tarjimalarini o‘rganish davomida biz turli xil tasviriy vositalarni uchratishimiz mumkin.

Faust

Men yuksakdan tashladim nazar;

Ko‘z oldimda dengiz qirg‘og‘i.

Ko‘rdim uni asov to‘lqinlar

Ko‘pik sochib yalagan chog‘i.

(E.Vohidov tarj. 1985. B.303)

Asov to‘lqinlar jumlasidagi asov *to‘lqinga* nisbatan epitet bo‘lib kelmoqda. Odatda asov epiteti jilovlab bo‘lmaydigan otga nisbatan ishlatilib, ba‘zan uning sinonimini qo‘llab *ayg‘ir ot* deb atash ham mumkin. Ko‘pik sochib yalagan chog‘i jumlasida esa o‘xshatish bo‘lib, dengiz suvining qirg‘oqqa urilib qaytishi, chayqalishi nazarda tutilmoqda.

Asliyatda berilgan tasviriy vositalarni quyidagicha ko‘rishimiz mumkin.

FAUST:

Mein Auge war aufs hohe Meer gezogen;

Es schwoll empor, sich in sich selbst zu türmen,

Dann ließ es nach und schüttete die Wogen,

Des flachen Ufers Breite zu bestürmen. (“Faust”

Goethe. 1969. S.431)

Tarjimadagi asov to‘lqinlar asliyatda schüttete die Wogen (*schütten- quyilmoq, sharillab oqmoq, sepmoq, to‘kib-sochmoq, ag‘darmoq*), (*die Wogeto‘lqin, po‘rtana, dalg‘a, mavj*) degan ma’nolarini bildiradi. *Schüttete die Wogen- quyilgan to‘lqinlar* degan ma’noni bildirib, *quyilgan* sifati to‘lqinga nisbatan epitetlik ma’nosini yo‘qotmoqda. Asov sifati asliyatda bo‘lmasa-da, tarjimon o‘quvchining diqqatini yanada oshirish, o‘quvchini har bir jumladagi ma’nolarni tushunish maqsadida to‘lqinga nisbatan asov epitetini qo‘llagan bo‘lsa ajab emas. Zero, tarjimada asliyatdan so‘zma so‘z emas, balki turli tasviriy vositalarni o‘z o‘rnida o‘quvchi ruhiyatiga mos, uning milliy mentaliteti, madaniyati va ma’naviyatiga yod bo‘lmagan so‘zlarni qo‘llay olish ham tarjimonning nechog‘li salohiyatli ekanligini

bildirib turadi. Buyuk nemis tilshunosi Vilgelm fon Humboldt tarjima haqida shunday deydi: “Har qanday tarjima, mening nazariyda, amalga oshib bo‘lmaydigan muammoni hal etishga tirishqoqlik bilan urinishdek ko‘rinadi. Negaki har bir tarjimon ikki to‘g‘anoqning biriga, ya‘ni o‘z xalqining tili va uslubiga haddan tashqari amal qilgani oqibatida asliyatga yoki asliyatga ortiq darajada amal qilgani natijasida o‘z xalqining o‘ziga xos xususiyatiga borib urilishi kerakdek, go‘yo. Ikkalasi orasida o‘rtamiyona narsaga erishish nafaqat qiyin, balki chindan ham buning imkoni yo‘q.”

Tarjimon Erkin Vohidov garchi bevosita asliyatdan tarjima qilmagan bo‘lsada, tasviriy vositalarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish bilan satrdagi ma‘nolarni, ya‘ni muallif nima demoqchi bo‘lganini juda go‘zal tarzda o‘quvchiga yetkazib bera olgan. Masalan: Ko‘rdim uni asov to‘lqinlar ko‘pik sochib yalagan chog‘i jumalari asliyatda so‘zma-so‘z uchramasa ham asardagi ma‘no yo‘qolib qolmagan. Aslida tarjimon asliyatda berilgan muqobillarni so‘zma-so‘z tarjima qilganda edi, u holda o‘quvchiga tushunarli bo‘lmasligi ham mumkin edi. Tarjimonning mahorati ham ana shunda.

“Faust” asari haqida ko‘plab adabiyotshunos, tarjimashunos va tilshunos olimlar o‘z fikrlarini bildirishgan va aksariyat olimlarning fikrlarini o‘quvchi o‘qiganida asarni o‘qishga bo‘lgan qo‘rquv qamrab olsa ajab emas. Ular tomonidan asar juda murakkab tartibda yozilganligi, o‘quvchi uni bir o‘qishda tushuna olmasligi aytilgan. Jumladan “Faust” asari Posho Ali Usmon tarjimasi kirishida: “Faust” bir zarba bilan tarjima qilinadigan, bir zarb bilan o‘qiladigan asar emas. Undagi ishoralar, nozik iboralar muallif nima demoqchi ekanligini anglab yetishga majbur etadi, kitobxonni o‘yga toldiradi”.[1. 3]

Erkin Vohidov tarjimasida ham shunga o‘xshash jumalarni ko‘rishimiz mumkin: “Faust” kabi asarlar haqida so‘zlash juda qiyin. Tarjima qilish ham oson emas. Men “Faust”ni juda ulkan qasrga o‘xshataman. Uning umum qurilmasidan tortib har bir naqshigacha abadiyat uchun mukammal qilib yaratilgan. Axir Gyote kabi ulug‘ va zahmatkash daho bu asarni oltmish yil yozgan! O‘n besh ming misraga yaqin bu mo‘jizani insoniyat tarixining mag‘zi desa bo‘ladi. Bu tarix bir inson qismatida mujassam bo‘lganki, uni aql va idrok bilangina emas, balki yurak bilan his etmoq darkor” [2. Faust olami]

Ha, haqiqatdan ushbu ulkan asarni yurak bilan his etmoq darkor. Ushbu fikrlarni tarjimon tomonidan asarni tushunishga bo‘lgan o‘xshatish deb ham qarasa bo‘ladi. Chunki “Faust” asarni tushunishda yurakdan ko‘ra ko‘proq bilim talab qilinadi. Bilimki, o‘quvchida ham dunyoviy, ham diniy bo‘lishi lozim. Asarda bir inson taqdiri, ya‘ni faqat Faust obrazi yotgandek go‘yo. Aslida Gyote butun insoniyat taqdirini o‘z qahramoni Faust obrazi orqali ochib berishga harakat qilgan. Asarda Faust umrining oxiriga qadar Mefistofel ya‘ni shayton bilan o‘zaro kurashi tasvirlanadi. Asar nihoyasida Faust shayton vasvasasiga uchrab qayg‘uli o‘lim topgani har qanday o‘quvchini o‘yga toldirmay qolmaydi. Shayton bilan kurashish davomida Faust uning hiyla va nayranglariga uchrab, zinokorlikka, mayxo‘rlikka eng dahshatli boylikka ruju qo‘yish orqali o‘z nafsini jilovlab olmay, cholu kampir Filemon va Bavkidalarning yashab turgan oddiy kulbasini tortib olishgacha ahd qiladi.

Faust. (*Mefistofelga qarab*)

Bir g‘amim bor o‘rtovchi bag‘ir,
Yuragimni qiluvchi pora.
Qiyinar meni chol bilan kampir,
Ular turar bukun yo‘limda.
Menga olam mulki nimadir
Ular yeri bo‘lsin qo‘limda.
Begona joy, salqin va go‘zal,
Tinchligimni oldi batamom.

(E.Vohidov tarj. 1985. B.333)

Bu orqali Gyote butun insoniyatni shayton vasvasasidan ogohlantirmoqda. Faust asari boshidan nihoyasiga qadar diniy tafakkur bilan yo‘g‘rilgan. Hattoki asarda Injil oyatlaridan bir necha iqtiboslar ham keltirilgan.

“Faust” asarida muallif birgina tasviriy vosita orqali butun insoniyat xarakterini ochib berishga harakat qilgan.

MEPHISTOPHELES:

Von Sonn' und Welten weiß ich nichts zu sagen,
Ich sehe nur, wie sich die Menschen plagen.
Der kleine Gott der Welt bleibt stets von gleichem Schlag,
Und ist so wunderlich als wie am ersten Tag.
("Faust"Goethe. 1969. S.138)

<p>Mefistofel Inson – koinotda kichkina xudo, Shunday yaralgan u azal ibtido. (E.Vohidov tarj. 1985. B.15)</p>	<p>Mefistofel Kishilik dunyoning – kichik xudosi, Lek o‘zgarmas holi, ohu nidosi, (P.Usmon tarj. 2007. B.94)</p>
---	--

Ich sehe nur, wie sich die Menschen plagen.
Der kleine Gott der Welt bleibt stets von gleichem Schlag jumalarni tarjimon Erkin Vohidov inson – koinotda kichkina xudo, Posho Ali Usmon esa kishilik dunyoning – kichik xudosi tarzida o‘girishib ikkala tarjimon ham asliyatda qo‘llanilgan o‘xshatishni maromida yetkazib o‘zbek tiliga o‘gira olishgan.

Asliyatdagi die Menschen (*kishilar, odamlar, insonlar*) birlikda der Mensch (*inson, odam, kishi*) degan ma‘nolarni bildiradi. Asliyatdagi der Mensch tushunchasi o‘zbek tiliga qay tarzda o‘girilishi lozim? Agar der Mensch asliyatda birlikda kelganida edi, unda inson tushunchasini tarjimada qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lur edi. Ammo asliyatda der

Mensch emas, balki uning ko'pligi die Menschen qo'llanilmoqda. Bunda ko'proq tarjimon Posho Ali Usmon tanlagan muqobili aniq qo'llanilgani ko'rinib turibdi. Shunga qaramasdan tarjimon Erkin Vohidov tanlagan inson muqobili ham ma'noni tubdan o'zgartirib yuborgan deb ayta olmaymiz. Ammo Erkin Vohidov inson – koinotda kichkina xudo, shunday yaralgan u azal ibtido tarzida o'girib bu bilan inson o'zgarmas, u o'zini koinotning xudosiman deb o'ylashligi va uning taqdiriga bitib qo'yilganu, bu narsa o'zgarmasdek go'yo. Bu jumalarni Posho Ali Usmon ham kishilik dunyoning – kichik xudosi, lek o'zgarmas holi, ohu nidosi tarzida tarjima qilib, uning tarjimasidan ham ko'rinib turibdiki inson o'zgarmas, xuddi bu uning taqdiriga bitilgandek.

Gyote ham shu fikrlarga qo'shilmadi? Asliyatdagi ich sehe nur, wie sich die Menschen plagen (*men insoniyatni qanday azoblayotganligini tushundimki*) der kleine Gott der Welt bleibt stets von gleichem Schlag (*ular bir birlarini oldida dunyodagi kichik xudodek o'zlarin tutar*) jumalarni yaxshilab o'rganib chiqsak, muallifning aslida nima demoqchi bo'lganligi oydinlashadi. Insonlar yerning kichik xudolari emas, balki ular o'zlarini biz xudomiz deb o'ylashlari, ularning tanazzulga yuz tutayotganligi Mefistofel obrazi orqali ogohlantirmoqda. Qolaversa asliyatdan ko'rinib turibdiki, inson yerning xudosi emas, Alloh tomonidan ham bunaqa yaratilmagan, balki o'zlarini shunday deb o'ylashmoqdalar. Ikkala tarjimonimiz ham inson yoki kishilik dunyoning so'zlaridan keyin tire (–) qo'yib, insoniyat taqdirini o'zgarmas ya'ni ular yerda kichik xudo degan tushunchani o'quvchi ongiga olib kelishga undaganlar.

Tarjima - asliyatni aynan takrorlash san'ati emas. Bu umuman nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham mumkin bo'lmagan ish. Tillar, she'riy tizimlar, vazn, musiqaviy omillar orasidagi farqlar bunga yo'l qo'ymaydi. Tarjima san'ati ijodiy jarayon bo'lib,

mazmunni qayta tiklash, asarni qayta yaratish san'atidir. "Faust" asari she'riy yo'l bilan yozilgan asar. She'riy asarlar tarjimasi esa juda murakkab ruhiy jarayondir. Bu jarayonga ijodkorning kayfiyati, qarashlari, malakasi kabi juda ko'p omillar o'z izini qoldiradi. She'riy asarlar tarjimalarida tasviriy vositalarni tarjima qilganda, tasvirning rangdorligi, shakl va mazmun simmetriyasi barchasi o'ziga xos uyg'un va mukammal bo'lishi lozim. Shu sababli tarjima asl nusxa bilan qiyoslanarkan, yuz foiz moslikni talab qilib emas, balki qanchalik asliyatga yaqinligiga qarab fikr yuritish lozim. "Tarjima aniqligi uning estetik ta'sir qiymati nuqtai nazaridan asliyatga nechog'lik yaqinligiga qarab baholanadi. Bu esa bizning nazarimizda eng to'g'ri mezondir." [6. 32]. Tarjimadan ko'zlangan maqsad – asl nusxaning o'rnini batamom qoplash emas, balki uning asosiy qiymati to'g'risida to'la tasavvur berishdan iborat. Yaxshi tarjimonlar shunga intiladilar. Buni tarjima imkoniyati ko'tara oladi. Badiiy tarjimaning san'at sifatidagi mohiyati ham ana shunda. To'g'ri, tarjimaning imkoniyatlari chegaralangan bo'ladi. Tarjimon imkoniyati esa chegaralanmagan. Istiorani, sifatlashni, baytlarni, so'zlarning ma'nosini hamma vaqt tarjimada berishning iloji bor. Hissiyot, ohang, ritm, so'zning uslubiy bo'yoqdorligini qayta yaratish tarjimonning sharafli burchidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, inson badiiy tafakkuri biror nuqtada to'xtab qolmaydi, u doim o'sish va o'zgarishda, shu bois ijodkor narsalardagi, insonlardagi belgi va sifatlarni yalang'och holda emas, balki yashirin yoki ko'chma ma'nolarda tasvirlash, ifodalash imkonini topadi. Bu esa tasviriy vositalar turlarining yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Mana shu tariqa tasviriy vositalar rang barang shakl va turlar bilan boyib boradiki, ularni tarjimada inobatga olish ham qarz, ham farz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gyote Y.V. "Faust". Olmon tilidan Posho Ali Usmon tarjimasi. T.: Alisher Navoiy nomidagi o'zbek milliy kutubxona nashriyoti-2007, 218- b.
2. Gyote Y.V. "Faust". Olmon tilidan Erkin Vohidov tarjimasi. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti-1985, 373- b.
3. Salomov G'. "Tarjima nazariyasiga kirish". T.: "O'qituvchi"-1978, 219- b.
4. Salomov F., Komilov N. "Do'stlik ko'priklari". T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti- 1979, 32- b.
5. Goethe Faust. "Leipzig: Isel". Verlag-1969, 651-b.
6. Riesel E. "Stilistik der deutschen Sprache". M.: Hochschule-1963, 468-b.
7. Riesel E., Schendels E. "Deutsche Stilistik". M.: Hochschule- 1975, 316-b.

HUSAYN VOIZ KOSHIFIY IJODIDA MA'NAVIY - AXLOQIY MASALALARNING FALSAFIY TALQINI

Marvarid MAMADJONOVA – TDPU “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar” kafedrasida katta o'qituvchisi

Maqolada Husayn Voiz Koshifiyning asarlarida shaxs ma'naviyatini yuksaltirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi axloqning mezoniy tushunchalari va tamoyillari talqin etiladi. Inson aqli rivoji, insonning axloqiy sifatlarini qadrlash, insonparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish masalalariga alohida ahamiyat beriladi.

В работах Хусейна Ваиза Кашифи рассматриваются принципы и понятия морали, которые способствуют формированию духовности личности. Особое внимание уделено развитию интеллекта, уважению нравственных качеств человека, проблемам гуманизма и национальных и общечеловеческих ценностей.

In the works of Hussein Vaise Kashifi, the principles and concepts of morality that contribute to the formation of spirituality of the individual are examined. Particular attention is paid to the development of intelligence, respect for the moral qualities of man, the problems of humanism and national and universal values.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, madaniyat, ma'rifat, qadriyat, axloq, ta'lim, tarbiya, bilim, axloqiy tarbiya, tajriba.

Ключевые слова: духовность, культура, просвещение, ценность, мораль, образование, воспитание, знание, нравственное воспитание, опыт.

Keywords: spirituality, values, enlightenment, culture, ethics, education, upbringing, knowledge, moral education, experience.

Insoniyat tarixida shunday davrlar borki, unda buyuk ishlarga qodir millatlar o'zining yo'l boshchilari yetakchiligida, tarixning muayyan qisqa bosqichlarida ming yillarda qo'lga kiritish mumkin bo'lgan natijalarga erishganlar. Aynan ana shunday davrlar insoniyat tarixiga shu millatga mansub kishilarning o'chmas nomini bitadi, jahon madaniyatini boyitadi, umumbashariy taraqqiyotga katta hissa bo'lib qo'shiladi. Amir Temur va temuriylar davri mo'g'ul bosqinchilaridan ozod bo'lgan xalqimizning eng yuksak cho'qqiga ko'tarilgan davrdir. Amir Temur va uning avlodlari qurgan Temuriylar saltanati Ona Vatanimiz tarixida mavjud bo'lgan davlatchilik an'analarning bevosita, yuksak vorisiy davomi edi. Bu davrning falsafiy fikri uchun xos narsa dunyoviy va diniy fanlarga murojaat, tabiatni o'rganishga intilish, inson aqli rivoji, insonning axloqiy sifatlarini qadrlash, insonparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini targ'ib qilish edi.

Sohibqiron Amir Temur O'rta Osiyo va unga qo'shni bo'lgan yurtlarni birlashtirib, feodal tarqoqlikka barham bergach, Samarqandga mashhur olim-u fuzalolarni va hunarmandlarni to'playdi. Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari" nomli asarida sayyidlar, ulamo, shayxlar va fozillarni, ularning izzat-u hurmatlarini joyiga qo'yganliklarini e'tirof etganlar [1,90]. Ilm - fanga, ma'rifatga e'tibor balandligi bois o'sha zamonning ko'pgina olimlari Samarqandga kelishni o'zlari uchun sharaf deb bilishgan. Shunday olimlardan biri O'rta Osiyo falsafiy tafakkuri tarixida o'chmas iz qoldirgan faylasuf, Markaziy Osiyoda madaniy, ma'naviy va axloqiy yuksalish bosqichi hisoblangan Temuriylar hukmronligi davrida yashab ijod etgan va o'zidan sermahsul ma'naviy meros qoldirgan yetuk olimlardan biri Xusayn Voiz Koshifiydir. U O'rta Osiyo va Xurosonda ma'naviy-axloqiy ta'limotlar taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan mutafakkirdir.

Koshifiyning asl ismi Kamoliddin bo'lib, laqabi Voiz, taxallusi Husayn Koshifiydir. Husayn Voiz Koshifiy 1440-yilda Sabzavor shahrida tug'ilgan. Bolalik yillarini shu shaharda o'tkazadi. 1470-yilda Abdurahmon Jomiyning taklifi bilan Hirotda ko'chib keladi. U qolgan umrini Hirotda o'tkazadi va shu yerda 1505-yilda vafot etadi.

Koshifiy Hirotda katta olim va mudarris bo'lib yetishadi. Navoiy va Jomiy Voiz Koshifiy bilan do'stona aloqada bo'lishgan. Uning ilm-fanga qo'shgan hissasini yuksak baholashgan. Husayn Voiz Koshifiyning sermazmun va barakali ijodiy faoliyatida Alisher Navoiyning ta'siri katta bo'lgan. Alisher Navoiy Husayn Voiz Koshifiyga homiylik qilgan hamda uning iste'dodini yuqori baholab, "Majolis un-nafois" tazkirasida unga alohida o'rin ajratgan. "Mavlono Husayn Voiz "Koshifiy" taxallus qilur, sabzavorlikdur. Yigirma yilga yaqin borkim, shahardadur va Mavlono zufunun va rangin va purkor voqea bo'lubtur. Oz fan bo'lg'aykim, dahli bo'lmag'ay. Xususan, va'z, insho va nujumki, aning haqqidur va har qaysida mashhur ishlari bor..." [2,123-124] - degan edi Navoiy u haqida.

Haqiqatdan ham Voiz Koshifiydan juda ko'p ilmiy, badiiy va tarjima qilingan asarlar meros qolgan. U axloq-odobga, adabiyotshunoslikka, tarixga, kimyo fani, falakiyot, matematika, musiqaga, voizlik san'atiga, din tarixi, tibbiyotga, davlatni boshqarishga bag'ishlangan 200 dan ortiq asar yozganligi manbalardan ma'lum. Bundan tashqari u o'z davrining ko'zga ko'ringan ilohiyotchi olimi bo'lgan. Hadislarni, Qur'oni Karimni yoddan bilgan, hatto Qur'onni oddiy xalqqa tushunishi oson bo'lishi uchun to'rt kitobdan iborat sharh ham yozgan. Olimning muhim asarlari "Axloqi Muhsiniy", "Risolayi Hotamiya", "Anvari Suhayliy", "Mahzan ul -insho", "Futuvvatnomayi sultoniy" va boshqalardir. Ushbu asarlarda mutafakkir ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va ma'naviy-axloqiy fikrlarni ilgari suradi. Ularda

Koshifiyning hurfikrlilik g'oyalari yaqqol ko'zga tashlanadi. Mutafakkirning falsafiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarining shakllanishida mamlakatda davom etayotgan toj-taxt uchun kurashlar, adolatsizlik, nopoklik, aldanchiliklar va boshqa ko'pgina salbiy jihatlari o'z ta'sirini ko'rsatgan. Koshifiy Husayn Boyqaroning davlat voizi sifatida har kuni oddiy xalq ichida yurgan, ularning hayoti bilan yaqindan tanishgan, orzu-armonlarini, noroziliklari sabablarini o'rgangan. Yuqorida nomlari sanab o'tilgan barcha asarlarida Voiz Koshifiy davlatni oqilona boshqarish, ta'lim-tarbiya, ilm-fan, xulq-odob qoidalarini egallash haqida o'zining insonparvarlik g'oyalarini ilgari suradi. Unga "Voiz" (va'z aytuvchi) unvoni bekorga berilmagan. Chunki, Husayn Voiz Koshifiy o'zi yashagan davrida foydali va'z-nasihatlarini bilan odamlarni yaxshilikka, ezgulikka chaqirib, juda serqirra insoniy ijtimoiy munosabatlarni chuqur bilib, turli-tuman ijtimoiy vaziyatlarda qanday harakat qilish yo'llarini ko'rsatib kelgan.

Koshifiyning axloqshunoslikka doir eng mashhur asari "Axloqi Muhsiniy"dir. Husayn Voiz Koshifiy "Axloqi Muhsiniy" asarini 1495-yilda yozgan. Bu asar 40 bobdan iborat bo'lib, Koshifiy ushbu asarni Husayn Boyqaroning o'g'li, Marv hokimi shahzoda Abdumuhsin Mirzoga (1472-1507/08) bag'ishlab yozgan. "Axloqi Muhsiniy" asarida mutafakkir axloqshunoslikning juda ko'p tushunchalariga sharh beradi, ularni jonli, hayotiy misollar asosida talqin etadi.

U "Axloqi Muhsiniy" asarida bola tarbiyasi masalalariga alohida to'xtalib, bolalarda insoniy xulq-atvor normalarini tarkib toptirish, aqliy tarbiyani amalga oshirish, yaramas illatlardan poklash, qobiliyatini o'stirish, fikr tarbiyasi va unga ijobiy xislatlarni singdirish yo'llari to'g'risida mufassal bayon etadi. Uning fikricha, bolaga ta'lim-tarbiya berish bilim berish orqali amalga oshiriladi. Bilim orqali insonni tarbiyalash, aqliy qobiliyatini o'stirish mumkinligini alohida ta'kidlaydi.

Husayn Voiz Koshifiy "Axloqi Muhsiniy" asarining "Pokizalik bayonida" bobida: "Aqlning taqozosi shuki, odam to imkon boricha o'zidagi farishtalik nisbatni kuchaytirishi kerak va hayvonot nisbatiga yo'l bermasligi lozim" [3,147], - deb yozgan edi. Mutafakkir aqlga katta baho berib, uni inson uchun kerak bo'ladigan eng zarur narsa deb tushunadi. Uni insonni mukammal qiluvchi, nomunosib harakatlardan chegaralovchi ma'naviy quvvat deb biladi. Aql asta-sekin vujudga kelib mukammallashuvi, o'sishi mumkinligini aytadi. Insonni hayvonot dunyosidan ajratib turuvchi narsa bu aql, ya'ni ongidir,- deydi.

Asarda Koshifiy ayniqsa adolat tushunchasiga alohida to'xtaladi va uni o'ziga xos sharhlaydi. Mutafakkir adolat tushunchasiga, ayniqsa, batafsil to'xtaladi va uni o'ziga xos sharhlaydi.

Mutafakkir adolatni insonning eng yaxshi fazilati, adolatsizlikni esa yomon odamlardagi eng yomon illat tarzida taqdim qiladi. Shuningdek, Koshifiy

adolatning ijtimoiylik xususiyatini ham nazardan qochirmaydi: adolat natijasida mulk boqiy, mamlakat boy-badavlat, kentlar-u shaharlar obod bo'ladi. Zulm esa mamlakatni tanazzulga olib keladi. Koshifiyning fikriga ko'ra, jamiyat tabaqalari bir-biri bilan mustahkam ijtimoiy bog'liqlikka ega: agar jamiyatda adolat hukm surmasa, zaiflar yo'qoladi, zaiflarsiz esa zo'ravonlarning ham bo'lishi mumkin emas. Ya'ni adolatsiz tuzumda jamiyat inqirozga uchraydi. Adolat - insoniy jamiyatni baxt-saodatga olib boruvchi yo'l.

Buyuk axloqshunosning burch haqidagi qarashlari ham e'tiborga molik. U burchni Tangri oldidagi o'z qarzini bajarish, ilohiy mas'uliyat deb tushunadi. Lekin bu mas'uliyat, ayni paytda, muhtojlarga xayr-ehsonni, Yaratgan va banda oldidagi pokizalikni ham o'z ichiga oladi. Burchni anglab yetish esa, faqat bilim (bilish) orqali ro'y beradi. Shuningdek, Koshifiy an'anaviy sharqona fazilatlariga bafurja to'xtaladi. Sabr, hayo, afv, saxiylik, rostgo'ylik, farosat, tavoze singari fazilatlarining mohiyatini ochib beradi, ularni nasriy va she'riy misollar bilan isbotlaydi. Ayni paytda, ularning ziddi bo'lmish illatlar ham mutafakkirning diqqat markazidan chetda qolmaydi. "Axloqi Muxsiniy"ning "Adolat" bobida shunday yozadi: "Ulug'lar aytibdilarki, hamma xaloyiq aqlga muhtojdir va aqlning tajribaga ehtiyoji bordur. Na uchunkim, tajriba aqlning oynasidurki, anda ish salohi suvratin mushohada qilur"[3,161]. Mutafakkirning bu fikri o'z davriga nisbatan ilg'or, sodda, tabiiy, ilmiy dunyoqarash va insonparvarlik unsurlari bor deyishga imkon beradi. Negaki, yuqorida aytganimizdek, Koshifiy aqlni inson uchun kerak,-deydi. Tajribani aql oynasi deb tushinishi mutafakkir zamonasining eng old mavqeda turganligini ko'rsatadi. Aql orqali vujudga keltirilgan g'oyani tajriba amalga oshiradi. Shuning uchun ham Koshifiy tajribani "aql oynasi" deb ataydi. U Xudo va borliq bir-biriga zid narsalar emas, balki har ikkalasi ham alohida-alohida mavjud narsalardir deydi. Koshifiyning falsafiy qarashlari axloqiylikka, borliqqa ya'ni harakat inson aqliga, insonning bilish qobiliyatining o'zgarishiga asoslanadi. Uning fikricha borliq, hayot ya'ni harakat barcha mavjud narsalarning asosidir.

Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy ta'limotining falsafiy asosi hayot, davr, bilim, aqlidir. Uning axloqiy qarashlarida insonparvarlik, xalqlar do'stligi, vatanparvarlik, mehnatga ongli munosabat, jamoatchilik prinsiplari o'z aksini topganini ko'ramiz. U inson dunyodagi eng yuksak olijanob mavjudot bo'lib, inson o'zining yaxshi ishlari bilan boqiydir,- deb biladi va bu uning axloqiy ta'limotining asosiy yetakchi g'oyasidir. Koshifiy axloqli inson deganda ilm-ma'rifatga intiluvchi, haqiqat va adolatni sevuvchi, uning uchun kurashuvchi, adolatsizlikka qarshi kurashuvchi, mard, harakatchan, olijanob, saxiy, ochiq qalb insonni tushungan. U insonni tabiatning ne'mati deb bilgan.

Husayn Voiz Koshifiy "Axloqi Muxsiniy" asariniing 39-bobida xalqqa baxtsizlik va davlatga zarar keltiruvchi kishilarni yetti toifaga ajratadi:

1. Hasad qiluvchilar.
2. Baxil va xasislar.
3. Razil va pastkashlar.
4. Tuhmatchilar va g'iybatchilar.
5. Xoin va nonko'rlar
6. Yolg'onchilar
7. Ko'p so'zlaydiganlar. [3,321-325]

Asarda mutafakkir bu sifatning har biriga alohida-alohida ta'rif berib, qiziqarli hikoyat, rivoyatlardan misollar keltiradi.

Husayn Voiz Koshifiy axloqning yaxshilik va yomonlik, adolat, vijdon, burch kabi mezoniy tushunchalari haqida atroflicha fikr yuritadi. U axloqiy me'yorlarni ham kishilarda bo'lishi shart bo'lgan insoniy fazilat deb tushunadi. Bu insoniy fazilatlarga sabr, hayo, iffat, pokizalik, sobitqadamlik, avf, saxiylik, saxovat, tavoze, rostgo'ylik, shijoat, kamtarlik, xushyorlik, farosat, himmatlilik, muloyimlik, diyonatlilik, andishalik, vaqtni g'animat bilish to'g'risida ham ibratli fikrlar bildiradi.

Koshifiyning komil insonni tarbiyalashning amaliy yo'l-yo'riqlariga bag'ishlangan yana bir mashhur asari "Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud juvonmardlik tariqati"dir. Ushbu asar xalq orasida juda mashhur bo'lib, unda juvonmardlik ilmi, tartib qoidalari, odobi va taqiqlari bilan birga tasavvuf ta'limotining nazariy va amaliy jihatlari bayon etilgan nodir manbadir. Bu asar muqaddima, o'n ikki bob va xotimadan iboratdir. Asarning muqaddima qismida futuvvat ilmi, uning mavzui, mohiyati, lug'aviy ma'nolari bayon etilgan. Asarning muqaddima qismi uchta fasldan iborat bo'lib, uning uchinchi faslida futuvvatning mohiyati, uning lug'aviy va istilohiy ma'nolari shunday izohlanadi: "Bilgilkim, "futuvvat" so'zining lug'aviy ma'nosi yoshlik, demak yosh yigitni "fatiy" derlar. Ba'zilar bu so'zga izoh berib, futuvvatni juvonmardlik (jo'mardlik) deganlar. Istiloh (termin) sifatida futuvvat deb omma orasida yaxshi sifatlar va namunali axloq bilan mashhur bo'lishni aytadilar, shu vajdankim, bunday odam hamisha axloqi bilan o'z kasbdoshlari, toifa-tabaqasi orasida mumtoz bo'ladi." [3,7].

Olimning fikricha futuvvatga (komillikka) erishishning ustunlari o'n ikkita: ya'ni oltitasi zohiriy va oltitasi botiniy. Futuvvatning zohiriy ustunlariga quyidagilar kiradi:

1. Odamlar avvalo o'z tillari orqali birovlariga ozor yetkazadi va shuning uchun ular g'iybat, yolg'on va bo'htonlardan tillarini tiymoqlari lozim. Chindan ham bu illatlar aybsiz, gunohsiz odamlar boshiga juda katta falokat va baxtsizliklar keltiradi. Futuvvat ahli, mard odamlar birovni g'iybat qilmaydi, yolg'on guvohlik bermaydi.

2. G'iybat va bo'htonlarni, nojo'ya va nomaqbul so'zlarni eshitishdan o'zini tiyish

3. Nojoiz hisoblangan narsalarni ko'rishdan o'zini tiyish. Bunday illat yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

4. Harom narsalardan, xalq ozoridan qo'lni tortish. Halol mehnat qilmasdan, haromdan mol-mulk to'plash og'ir gunohlar qatoriga kiradi.

5. Borish man qilingan joylardan oyoqni tortish. Haqorat va gunohga sabab bo'ladigan, ziyon-zahmat, ozorga yetaklaydigan ishlarga qadam qo'ymaslik.

6. Og'izni harom ovqatlardan saqlash [3,10].

Koshifiyning fikricha, futuvvatning botiniy ruknlariga quyidagilar kiradi:

1. Saxovat, ya'ni odamlarga o'zi so'ramasidan oldin ezgulik ko'rsatish;

2. Tavoze – barchaga kamtar, hokisor munosabatda bo'lish, boshqalarni o'zidan afzal bilish;

3. Qanoat. Mutafakkirning fikriga ko'ra, odamlarning boshiga tushadigan barcha azob-uqubatlar, falokatlar ortiqcha narsalarga ega bo'lish hirsidan o'zni tiyolmaslik oqibatidir;

4. Avf va marhamat. Ya'ni, futuvvat ahli xalqqa shavqat ko'rgizmoq, kishilar gunohini kechirmog'i va iloji boricha, ularga yaxshilik, muruvvat bilan muomala qilmoq lozim;

5. Takabburlik va mag'rurlikni tark etish. Zero, iblis kibru havo tufayli jannatdan haydalgan.

6. Qurb (ilohiyotga yaqinlashish) va vaslat maqomiga butun vujudi, joni dili bilan intilish. Ya'ni dilni pokiza saqlash, ko'ngil uyini riyozat supurgisi bilan changu g'ubor, chiqindilardan tozalab turish [3,10].

Mutafakkirning ijtimoiy hodisalarning mohiyatini to'g'ri tushunib yetishi jamiyatdagi voqelik va munosabatlardan komillik uchun kerakli, ahamiyatli va zarur bo'lgan axloqiy fazilatlarni ajratib olish imkoniyatini beradi. Chunki g'iybat, bo'hton, yolg'ondan tilni tiyish, gunoh, saxovat, qanoat kabi yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lish, hozirgi kunda ham ma'naviy komillik uchun muhim ahamiyatga egadir.

Husayn Voiz Koshifiy futuvvatning shartlari yetmish bitta ekanligini aytib, ularni ikki qismga ajratadi. Birinchisi qirq sakkizta bo'lib, ular vujudiy; ikkinchisi: yigirma uchta bo'lib, ular azaliydir.

Futuvvatning vujudiy shartlari: islom, imon, aql, ilm, xalimlik, taqvo, parhez, sidq, karam, muruvvat, shavqat, ehson, vafo, hayo, tavakkul, shijoat, g'ayrat, muruvvat, shavqat, nasihat, nafs tahorati, oliyhimmatlilik, sirni yashirish, rahmdillik, shariat rioyasi, amri-ma'rufni bajarish, ota-ona hurmatini bajo keltirish, ustoz xizmatida bo'lish, qo'shni haqqini ado etish, tilga faqat savobga qaratilgan kalomni keltirish, yaxshilar va poklar bilan suhbatlashish, oqillar bilan suhbatlashish, shukr qilish, mazlumlarga yordam qo'lini cho'zish, yetim - yesirlar, yolg'iz kishilar ahvolidan xabar olish, ibrat ko'rsatish, ixlos bilan amal qilish, omonatga xiyonat qilmaslik, shaytoniy nafsga qarshi kurashish, insof chizig'idan chiqmaslik, rozi-rizolik hissini yo'qotmaslik, kasallarni borib ko'rish, nokaslardan uzoq turish, doimiy zikr bilan band bo'lish [3,11-12]. Ushbu shartlar orqali Koshifiy odamlarni ezgulik va sahovat uchun kurshga da'vat etgan, xalq xizmatida bo'lishga chaqirgan. U ta'riflagan axloqiy sifatlar hozirgi kunda ham barchamiz uchun ibratlidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, davrlar silsilasidan o'tib, bizning istiqlol davrimizgacha yetib kelgan sharq allomalarining durdona sarlari bugungi kunda nodir qo'lyozmalar qatoridan munosib o'rin egallagandir. Ma'naviy merosimizdagi tarbiyaviy g'oyalar rivojiga bir nazar soladigan bo'lsak, qanchalik ma'naviy javohirlarga ega ekanligimizga ishonch hosil qilamiz. Darhaqiqat, yuqorida biz

cheksiz bir ummondan bir tomchisigina tahlil qilib chiqdik xolos. Shuning o'zida olam - olam mazmun bordir. Husayn Voiz Koshifiyning asarlarini chuqur o'rganib, ta'lim-tarbiya sohasida foydalanish milliy madaniyatimiz tarixini yanada kengroq bilish, axloqiy va estetik qadriyatlarni rivojlantirish, milliy ma'naviyatimiz poydevorini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". –T.: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh. "Ilm-fan yutuqlari-taraqqiyotning muhim omili". "Xalq so'zi" gazetasi, 2016- yil 31- dekabr.
3. "Temur tuzuklari". – T.: O'zbekiston, 2010.
4. "Navoiy". Asarlar, 12-jild. – T.: O'qituvchi, 1966.
5. Voiz Koshifiy. "Futuvvatnomai sultoniyy. Axloqi Muhsiniy". – T.: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti", 1994.
6. Akhlak-I Muhsini: or The Morals of The Beneficent. by Husain Vaiz Kashifi and Henry George Keene. 2010

O'ZBEKISTONNING ITALIYA BILAN IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY SOHADAGI HAMKORLIGI

Farhodjon ISMATULLAEV – TDPU “O‘zbekiston tarixi va tarix o‘qitish metodikasi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, tarix fanlari nomzodi.

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi bilan Italiya Respublikasi o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ta’lim va madaniy sohalaridagi hamkorlik aloqalari yoritilgan.

В данной статье раскрывается взаимодействие Республики Узбекистан и Республики Италия в области социально - экономических, научно-технических, образовательных и культурных областях.

In this article we depicted the socio-economic, scientific-technical, educational and cultural collaboration links between the Republic of Uzbekistan and Republic of Italy.

Kalit so‘zlar: Italiya, Yevropa Ittifoqi, hamkorlik aloqalari, memorandum, tempus, gumanitar, fermer, transport, festival, sharq taronalari.

Ключевые слова: Италия, ЕС, сотрудничество, меморандум, темп, гуманитарный, фермерский, транспорт, фестиваль, восточные мелодии.

Key words: Italy, EU, cooperation, memorandum, pace, humanitarian, farming, transport, festival, oriental tunes.

Ko‘hna Samarqand va boqiy Rim shaharlari o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamkorlik aloqalar qariyb ikki ming yillik tarixga ega. Bu jarayonda ikki mintaqani birlashtirib, o‘zaro savdosotiq aloqalarining rivojlanishida Buyuk Ipak yo‘lini ahamiyati katta bo‘lgan. Ko‘hna Maroqand shoyisi aynan shu yo‘l orqali Rim imperiyasi hududlarigacha yetib borib do‘vruq‘ qozonganligi manbalarda qayd etilgan[1].

Yevropa Ittifoqining yirik rivojlangan davlati Italiya bilan iqtisodiy sohadagi hamkorlik e‘tiborga sazovordir. O‘zbekiston bilan Italiya o‘rtasida o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 1992-yil 19,4 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 1996-yilda 50 mln., 2000-yilda esa 112,8 mln. AQSh dollariga yetgan. Italiya – O‘zbekiston tovar aylanmasi hajmi jihatidan 10-o‘rinda, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida 3-o‘rinda turadi. Eng muhimi, O‘zbekiston Respublikasida Italiyadan olinayotgan importdan ko‘ra, eksport hajmi yuqoridir. O‘zbekiston Italiyaga paxta, rangli metallar va ulardan yasalgan buyumlar, ip-gazlamalar sotadi. Italiyadan asbob-uskuna, mebel, plastmassa, go‘sh va baliq mahsulotlari, saryog‘ va o‘simlik yog‘i, kiyim-kechak va boshqalar olmoqda[2].

Italiya investorlari bilan ko‘plab sohalarda hamkorlik kompaniyalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ulardan plastmassa buyumlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan «Sovplastital», sopol buyumlar ishlab chiqaruvchi «Tumor», ustki kiyimlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan «Tashkent kotton», teri va junni qayta ishlovchi «ZT Charm», dvigatellar ishlab chiqaruvchi «Interaziya», paxtani qayta ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan «Djeneral biznes», alyuminiydan bijuteriy mahsulotlari tayyorlashga ixtisoslashtirilgan «Kruzit», savdo-vositachilik xizmatlarini ko‘rsatuvchi «Maura», xalq iste‘moli uchun mahsulotlar yetkazib beruvchi «Pent–Uz», ipak tolasini qayta ishlovchi «Spinning silk», qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi «Fam», tadqiqotlar va rekonstruksiya markazi «Agroital»

faoliyat yuritib kelyapti[3]. Bu borada hali to‘laqonli hamkorlik yo‘lga qo‘yilmagan yengil sanoat, yog‘ochni qayta ishlash, telekommunikatsiya, qishloq xo‘jaligi, bank-moliya tizimi va boshqa ko‘plab sohalar mavjud bo‘lib, istiqbol rejalarida ushbu yo‘nalishlarni ham rivojlantirishga harakat qilinmoqda.

Italiyaning «Tekin» kompaniyasi bilan «O‘zDAEWOO Avto» o‘rtasida yengil avtomobillar uchun yassi oyna ishlab chiqarish zavodini qayta qurish haqida bitim tuzildi. «O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi neft konlarini qidirib topish borasida Italiya bilan hamkorlik o‘rnatdi. «O‘zbekmebel» davlat aksiyadorlik birlashmasi yangi texnologiyalarni xarid qilish uchun Italiya firmasi bilan aloqa o‘rnatdi. 1994-yil «Kosta» firmasining duradgorlaridan buyumlar ishlab chiqarish texnologiyasini xarid qildi. «Nichem», «Fravol» firmalaridan xarid qilingan qurilmalar O‘zbekistondagi ishlab chiqarish uchun yordam berdi.

Italiyaning mashhur yozuvchilari Dante Aligerining «Ilohiy komediya», Bakkachoning «Dekameron», Petrarka va Vergiliyning sonetlari, Djani Rodarini ertaklari allaqachon jahon adabiyoti durdonalari safiga qo‘shilgan. Jumladan, bu asarlarni o‘zbek kitobxonlariga tarjima qilib yetkazilganligi ikki mintaqada adabiyoti bilan yaqindan tanishish imkoniyatini berib, xalqlarni yaqinlashtirishda muhim rol o‘ynaydi[4]. Shu bois, qadimda Sharq madaniyatining o‘chog‘i bo‘lgan O‘zbekiston bilan bu boradagi aloqalar maorif, fan va madaniyat sohasida bitim imzolanishdan ancha ilgari boshlanib ketgani bejiz emas.

Teatr sohasidagi hamkorlik aloqalari Italiya bilan ham rivojlanib bormoqda. Misol tariqasida, ta’kidlash mumkinki, 1996-yil Toshkent Opera va balet teatrida italyan kompozitori K. Donitsetning «Lyuchiya di Lammermur» operasi qo‘yildi. Albatta, bu san’at asarini qo‘yishda Italiya elchixonasi katta yordam berdi[5]. Ikki mamlakat o‘rtasida madaniy almashuvni rag‘batlantirish, o‘z hududlarida ikkinchi

mamlakatning adabiyoti, san'ati va madaniyatini tarqatish yo'li bilan o'z xalqlarini yaqinlashtiradilar[6].

Musiqqa san'ati sohasidagi festivallar nafaqat Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida, balki O'zbekistonda ham tashkil qilib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimov tashabbusi bilan 1997 yil Samarqand shahrida boshlangan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali o'tkazib kelinmoqda. Har ikki yilda o'tkaziladigan ushbu festivalda dunyoning ko'plab davlatlaridan, shu jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan tashrif buyurgan musiqa ustalari o'z mahoratlarini namoyish etib kelmoqdalar[7].

Ushbu jarayonni quyidagi misollarda ham ko'rish mumkin: 1997- yil Samarqand shahrida o'tkazilgan «Sharq taronalari» festivalida jami 31 mamlakat va 2 ta xalqaro tashkilot vakillari qatnashgan bo'lsa, ulardan 6 tasi Yevropa Ittifoqiga to'g'ri kelib, 23 nafar musiqa ustalari ishtirok etdi. 2005 yil o'tkazilgan festivalda esa 291 kishi 50 ta mamlakatdan qatnashgan bo'lsa, 76 ishtirokchi 13 ta Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga to'g'ri keldi. Shuni ham

ta'kidlash joizki, «Sharq taronalari» festivallarida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida faol ishtirok etuvchilar qatorida Italiya Respublikasini tilga olish mumkin[8].

O'zbek xalqining madaniyatini tarannum etuvchi ko'rgazmalar Italiyada ham tashkil etilib, ikki xalqning yanada yaqinlashuvida muhim rol o'ynadi. Sh. Shohalilov boshchiligidagi «Musavvir» firmasi tomonidan Italiyaning Tyudi shahri Umbriya provinsiyasida tashkil etilgan «O'zbek gilam va so'zanalari» ko'rgazmasi san'at ixlosmandlarida katta taassurot qoldirdi[9].

Demak, O'zbekiston Respublikasining Italiya bilan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniyat sohasidagi hamkorlik masalalarini tahlil qilib, ikki mamlakat xalqlari taraqqiyot darajasi va madaniy turmush-tarzi har xil bo'lishiga qaramasdan, o'zaro aloqalarni kengaytirishdan manfaatdorligini ko'rish mumkin. Fan va madaniyat sohasidagi yutuqlar bilan tajriba almashish davlatlararo aloqalar rivojida muhim o'rin tutib, o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi. Fond. M-2., ro'yhat.172, 13-b.
2. O'zR MDA. Press – reliz // F-m-2, ro'yhat - 1, yig'ma jild - 172, 12-b.
3. ЦГА РУз. Национальная ассоциация международных культурно-просветительских связей Республики Узбекистан. Пресс – релиз . Ф-м-2, д -172, 13-б.
4. SGA RUz. Informatsiya o deyatelnosti Obshchestva «Uzbekistan-Italiya» // F-m-2, d – 172, l –41.
5. ЦГА РУз Национальной Ассоциации международных культурно-просветительских связей Республики Узбекистан // Информация о деятельности Общества «Узбекистан–Италия» // Ф-м-2, оп - 1, д – 172 л –41; Ф-м-7, д – 725,105-107-б.
6. O'zR MDA. O'zbekiston Respublikasi va Italiya Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma, 8- modda // Fond. m -7, ro'yhat – 1, jild – 719. 110-b.
7. МИД РУз // Сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. [http:// www.mfa.uz](http://www.mfa.uz).
8. O'zR MDA. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi // «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivallarida qatnashgan va taklif etilishi rejalashtirilgan ishtirokchilar hamda ijrochilar haqida qiyosiy ma'lumot. M -38-fond. 1-ro'yhat. 343-ish. 4-b.
9. ЦГА РУз. Национальной Ассоциации международных культурно-просветительских связей Республики Узбекистан // Информация о деятельности Общества «Узбекистан-Италия» // Ф-м-2, оп – 1, д – 172, 41-б.

“TEMUR TUZUKLARI” DA SIYOSIY YETAKCHI IMIJIGA OID QARASHLAR

Nuriddin QALQONOV – TDPU “O'zbekiston tarixi va tarix o'qitish metodikasi” kafedrasida dotsenti

Maqolada “Temur tuzuklari” asarida siyosiy yetakchi va uning obro'si masalasining aks etishi xarakterli misollar asosida ochib berilgan. U mustaqillik yillarida rahbar kadrlar tayyorlash masalasida tarixiy manbalardan foydalanish nuqtai nazaridan ahamiyatlidir.

В статье раскрываются характерными примерами вопросы о политическом лидере и его имидже, которые отражены в книге “Уложение Темура”, и это очень важно для использования из исторического наследия по подготовке руководящих кадров.

In the article the reflection of the political leader who is the character of “Temur tuzuklari” and his prestige are described with typical examples. Using historical resources to preparing leadership is important during independence years.

Kalit so'zlar: Amir Temur, buyuk sarkarda, kuchli va markazlashgan davlat, fan va madaniyat homiysi, ma'naviy meros, adolat va tinchlik, xalqlar baxt-saodati, siyosiy yetakchi.

Ключевые слова: *Амир Темур, великий полководец, мощная и централизованная госу­дарства, покровитель наука и культуры, духовное наследии, мир и справедливость, счастья народа, политический лидер.*

Key words: *Amir Temur, great leader, strong and centralized government, science and culture sponsor, moral heritage, justice and peace, happiness of nations, political leader.*

Istiqlol yillarida buyuk ajdodlarimizning nomlarini tiklash, ularning ibratli hayoti, faoliyati, jahon ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasini o'rganishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Tarixning eng yorqin va shonli sahifalarini tashkil etadigan ulug' ajdodlarimiz haqida so'z borganda, buyuk davlat arbobi va sarkarda, sohibqiron Amir Temur bobomizning o'lmas nomini birinchilar qatori tilga olamiz.

Sohibqiron Amir Temur davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli va markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan, madaniyat va ma'rifat homiysi sifatida dunyo tarixidan o'rin olgan ulug' siymodir. Qariyb yetti asrdan beri sohibqironning shonu shuhrati, hayoti va faoliyati, ma'naviy merosi, o'g'itlari, davlatchilik, me'morlik, san'at va madaniyat ravnaqi yo'lidagi ezgu amallari dunyo olimlari tomonidan o'rganilmoqda. Biz ushbu maqolada buyuk bobomiz sohibqiron Amir Temurning siyosiy yetakchilik va uning imiji to'g'risidagi qarashlariga e'tiborimizni qaratamiz.

“Tuzuklar”ni haqiqiy ilmiy jihatdan o'rganish, uni turli tillarga tarjima qilish, sharhlash, asarning turli nusxalarini nashr etish, “Tuzuklar”ning tarixiy manba sifatidagi qiymatini isbotlab berish uchun faqat mustaqillikka erishganimizdan keyingina to'la sharoit yaratildi. Bu borada tarixchi olimlarimizdan, ayniqsa, akademik B.Ahmedov va A.Ahmedov, H.Karomatov, shuningdek, huquqshunoslardan H.Boboyev, A.Saidov, J.Toshqulov va boshqalarning yaratgan asarlarini ko'rsatish mumkin. Ushbu mualliflarning ishlarida «Tuzuklar», uning vujudga kelishi, «Tuzuklar»dagi davlat va huquq masalalari ochib berilgan.

Temur va Temuriylar davlatining tashkil topishi, ijtimoiy xususiyatlari masalalari bir qator tarixchi olimlarimiz, jumladan, A.Ahmedov, H.Ziyoyev, A.Ziyoyev, A.Muhammadjonov, R.Muqminova, A.Sog'unuy, A.O'rinboyev, U.Uvatov, T.Fayziyev; huquqshunoslardan A.Saidov, A.To'laganov, A.Jo'zjoniy, M.Fayziyev, S.Xidirov va boshqalarning ishlarida tadqiq etildi. Lekin shunga qaramay yetakchi imiji bo'yicha masalalar hali yetarlicha o'rganilmagan.

Amir Temur o'z davrining yetuk siyosiy yetakchisi sifatida Markaziy Osiyoda markazlashgan davlatni barpo qilishdek buyuk tarixiy missiyani bajardi. Turkiy xalqlarning mo'g'ullar istilosi, istibdodidan xalos bo'lishida yetakchilik qildi. Davlatni boshqarishda “kuch – adolatda” tamoyiliga qat'iy amal qildi va qo'l ostidagi yetakchilardan ham shuni qattiq talab qildi.

Mashhur venger olimi Herman Vamberining “Temurni Chingizxon bilan bir qatorga qo'yib, uni yovuz, o'zboshimcha, mustabid hokim deb atovchilarning fikrlari ikki tomonlama xatodir. U, avvalo, o'zining g'olibona qurolini zamonasining odatiga ko'ra ishga solgan osiyolik hokim edi. Uning

dushmanlari ta'kidlagan qabih ishlari va vayronagarchiliklari esa biror jinoyat uchun olingan o'ch edi, xolos. To'g'ri, bu o'ch juda qattiq, lekin shu bilan birga, adolatli edi” [1.14], deb yozganligi bejiz emas. Ana shunday savob-maqsadlarni nazarda tutgan urush va kurashlar hamma zamonlarda ham, jumladan, biz yashab turgan hozirgi zamonda ham qoralanmaydi, ularga adolat va tinchlik o'rnatishning, xalqlar baxt-saodatini ko'zlagan taraqqiyotga yo'l ochishning bir vositasi, majburiy usullari deb qaraladi. Chunonchi, hozir dunyoning ko'p mamlakatlarida ro'y berib turgan terrorizm, diniy ekstremizm va boshqa yovuz kuchlarga qarshi kurashlar shunga dalildir. Sohibqironning “Kuch – adolatda” shiori va ana shu shior asosida qurilgan davlat siyosati esa butun mohiyati bilan Temur salobatini, olamshumul mavqeini va beqiyos qudratini belgilar edi.

Amir Temur davlatni boshqarishda siyosiy yetakchilarga tayanib ish ko'rgan va ularni shakllantirishga alohida e'tibor bergan. Sohibqironning “Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Chunki tajribali bir kishi minglab kishiga ish buyuradi” [2.49] degan fikrlar bugungi kunda ham naqadar dolzarb ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, sohibqiron Amir Temurning hurmat va e'tiborga molik meroslaridan biri uning siyosiy va huquqiy qarashlari majmui bo'lgan “Temur tuzuklari”dir. Dunyoning turli tillariga tarjima qilingan ushbu asarda davlat tizimi, davlatni idora qilish usullari, davlatdagi lavozimlarning vazifasi, undagi turli toifalar va ularga munosabat, davlatni boshqarishga asos bo'lgan qoidalar, qo'shinni tashkil etish qoidalari, uni boshqarish, ta'minlash, rag'batlantirish, urushlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan turli harbiy uslublar singari qator siyosiy, huquqiy, harbiy va axloqiy g'oyalar va me'yorlarni o'z ichiga olgan. “Tuzuklar”ning markazida inson, uning qadr-qimmatini joyiga qo'yish turadi.

Davlat boshqaruvining demokratik asoslarini yaratishda tuzuklarida qayd etilishicha, Amir Temur saltanat ishlarida eng birinchi galda to'rt narsaga amal qilgan, ya'ni: 1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) hushyorligu mulohazakorlik bilan qat'iy qaror chiqarish; 4) ehtiyotkor bo'lish [3.14]. Saltanat ishlarini Kengash asosida olib borish – aslida a'yonlarning rizoligi va ixtiyori demak. Bundan chiqdi bu taxlit yondashuv bevosita davlat boshqaruvi taqsimotining rivojlanishiga zamin yaratgan. Davlatni shakllantirish borasida esa u yana muhim sanalgan to'rt ustunga suyanib faoliyat yuritgan: 1) Islom va shariat qoidalari. 2) To'ra va tuzuklar. 3) Xazina. 4) Raiyat va askar. U yetakchilarning qattiqqo'l, tadbirkor, nihoyatda adolatli, lekin rahmdil,

insonparvar, halol, pok bo'lishini ko'rsatib, hayotda adovat emas, balki adolat yengadi, deb ko'rsatdi.

“Tuzuklar”da uning bu boradagi ijtimoiy-siyosiy, huquqiy qarashlari chuqur aks etib, yetakchilarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda ularning nasl-nasabiga, aql-farosatiga, xalqparvarligiga, sabr-toqatlilik, tinchliksevarlik, adolatparvarlik fazilatlariga, ko'tarinki ruhiy holatiga, ziyrakligiga, malakasi va odamlar bilan murosqa qilish fazilatlariga katta e'tibor bergan. U davlat hokimiyatini “zo'ravonlik bilan emas, balki o'z hukmining ta'sirchanligi va adolat bilan boshqarish”ga rioya qilgan. O'z vazirlaridan quyidagi xislatlarga ega bo'lishni talab etgan: “birinchisi, asllik, toza nasllik; ikkinchisi, aql farosatlilik; uchinchisi, sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalik; to'rtinchisi, sabr, chidamlilik va tinchliksevarlik”[3.106]. Yetakchining bunday xislatlarga ega bo'lishi, albatta, davlat boshqaruvida, turli murakkab holatlarni bartaraf etishda qo'l keladi.

Sohibqiron nafaqat davlat xizmatchilarining qanday sifatga ega bo'lishini, balki shunday sifatilarni qanday qilib davlat boshqaruviga kelishini ta'minlashning yo'nalishini ishlab chiqadi. Bu borada: “Agar har narsani va har kimni o'z martabasida saqlay olmasang saltanatingga bundan ko'p xalalu ziyon yetgay. Demak, har kimning qadr-qiyamatini, tutgan mavqeini va har narsaning o'lchovini belgilab olishing va shunga muvofiq ish yuritishing kerak”[4.90] deb, u davlat xizmatida salohiyatli shaxslarning ishtirokini amaliy tatbiqqa aylantiradi. Jumladan, “Kimning aqli va shijoatini sinov tarozusida tortib ko'rib, boshqalarnikidan ortiqroqligini ko'rsam, uni tarbiyamga olib, amirlik darajasiga ko'tarar edim. So'ngra ko'rsatgan xizmatlariga yarasha martabasini oshirib borardim” [5.92] deydi.

Shu tariqa u o'z siyosiy faoliyatini shunday ifoda etadi: “Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va ahloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o'zlariga loyiq ishlar topshirdim hamda haddilaridan oshishlariga yo'l qo'ymadim. Har elning ulug'larini va sharaf-e'tiborli kishilarni hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo'lini to'sdim” [6.137].

Amir Temurning yetuk siyosiy yetakchi sifatida imijini oshiradigan sifati bu saltanatning mintaqalaridagi haqiqiy ahvol, mahalliy

amaldorlarning xalqqa munosabati, bozorlardagi narx-navo, joylardagi tartib-intizom haqida aniq, to'g'ri ma'lumotga ega bo'lishga katta e'tibor berganidir. “Temur tuzuklari”da shunday qayd etilgan: “Amr qildimki, har yerda, viloyatu shahar va lashkar o'rdusida kundalik voqealarni yozuvchilarni tayin qilsinlarki, hokimlar, raiyat, sipoh, o'z lashkari va yot lashkarning xatti-harakati haqida meni xabardor qilsin. Atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, chetdan kirgan, chetga chiqqan yot kishilar, har turli mamlakatlardan kelgan karvonlar, qo'shni podshohlar, ularning gap-so'zlari, ishlari haqidagi xabarlar va uzoq o'lkalardan bo'lib, mening dargohimga yuzlangan ulamo, fuzalo haqidagi so'zlarni to'g'rilik bilan menga yozib tursinlar. Agar bunga xilof ish tutgudek bo'lsalar, (bo'lib o'tgan) voqealarni yozmasalar, yozuvchining xabar yozgan barmoqlari kesilsin. Agar xabar yozuvchi biror sipohiyning xizmatini yashirsa yoxud xabarni boshqa libosga kiyintirib (yolg'on) yozgan bo'lsa, u holda uning qo'lini kessinlar. Agar yolg'on xabarni tuhmat yoki g'araz bilan yozgan bo'lsa, uni qatl etsinlar va yana amr ettimki, ushbu xabarlarni kunma-kun, haftama-hafta, oyma-oy mening arzimga yetkazib tursinlar”[7.139].

Amir Temurning adolatpeshalik fazilati sohibqiron imijining oshishiga yordam beradi va atrofida insofli, diyonatli, adolatparvar, irodali, shijoatli, botir, mard insonlarning jamlanishiga olib kelgan. Bu esa, Amir Temur davlatining yanada mustahkamlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Ma'rifatli odamlarning saltanat boshqaruvida ishtiroki davlat siyosatining bevosita quyi bo'g'inigacha tizimiy xususiyatlarini shakllantirishga, natijada davlat siyosati va ijtimoiy jarayonlar butun jamiyatning irodasiga, so'ngra amaliy faoliyatiga aylanishiga olib kelganligini kuzatamiz. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning rahbar va jamiyat munosabatlariga to'xtalib, “Eng muhim vazifamiz – mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat. Buning uchun el-yurtimiz, eng avvalo biz rahbarlarning faoliyatidan rozi bo'lishi kerak. Buning uchun har bir rahbar o'z aravasini o'zi tortishi, o'z sohasidagi ishlarning ahvoli uchun o'zi shaxsan javob berishi kerak. Shundan keyin jamiyatimizda o'zgarish bo'ladi”[8.53], degan fikrlari yodimizga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mo'minov I. “Amir Temurning O'rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy tarixida tutgan o'rni va roli”. T.: “O'zbekiston”- 1993, 49-b.
2. “Temur tuzuklari”. T.: “O'zbekiston”- 2011.
3. Mirziyoyev Sh. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak”. T.: “O'zbekiston”- 2017.

IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISHDA OILA-MAHALLA-TA'LIM-NODAVLAT TASHKILOTLARI HAMKORLIGINING USTUVOR YO'NALISHLARI

Xushnud JUMANIYOZOV – TDPU “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” kafedrasida dotsenti

O'zbekistonda yashayotgan turli millat vakillari o'rtasidagi hamkorlikni, tolerantlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada jamiyatdagi ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirishda oila-mahalla-ta'lim-nodavlat tashkilotlari hamkorligi masalalari tahlil etilgan.

Актуальность обеспечения сотрудничества и толерантность между представителями разных народов и конфессий проживающих в Узбекистане приобретает все более значимость. В данной статье анализируются вопросы сотрудничества между инстанциями общества, как семья-махалла-образования-негосударственные организациями.

It is vitally necessary to support of tolerance among different nationalities and religious communities living in Uzbekistan, to unite them on the same aim, and to bring them up. Main approaches of improving spiritual branch of the society, co-operation-of family-community-education-non government organizations on standing against instigator ideas are researched in the article.

Kalit so'zlar: *globalashuv, ommaviy axborot vositalari, shaxs, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat, mafkuraviy immunitet, mafkuraviy bo'shliq, diniy bag'rikenglik.*

Ключевые слова: *глобализация, средства массовой информации, личность, образование, просвещение, воспитание, духовность, идеологическое иммунитет, религиозные толерантность.*

Keywords: *globalization, media personality, enlightenment education, spiritual, ideological space, ideological immunity, ideological vacuum, religious tolerance.*

O'zbekiston ko'p millatli, turli diniy konfessiya vakillari yashaydigan mamlakat. Unda yashayotgan turli millat vakillari, diniy jamoalar vakillari o'rtasida totuvlikni ta'minlash, bag'rikenglik muhitini shakllantirish, ularni yagona maqsad, manfaatlar yo'lida uyushtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan beri o'tgan davr mobaynida bu masalalar har doim ustuvor ahamiyat kasb etib keladi. Turli millat vakillari, diniy jamoa vakillari o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari yaratildi va takomillashtirilib borilmoqda. Ayni damda milliy totuvlikni, diniy bag'rikenglikni targ'ib etish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy xatti-harakatlar, bu jarayonlardagi faoliyatda uyushqoqlik bilan faoliyat olib borish, uning institutsional tizimini takomillashtirishga qaratilgan faol ishlar olib borilmoqda.

Ma'lumki, O'zbekistonimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi va uni hayotga tatbiq etish bo'yicha faol ish olib borilmoqda. Ta'kidlash kerakki, ushbu strategiya jamiyat hayotining barcha soha va tarmoqlariga chuqur kirib, amaliy harakatlar mezoniga aylanib bormoqda.

Bugun shu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni atroficha tahlil qilib, o'z yechimini kutayotgan dolzarb vazifalarni belgilab olishimizni davr taqozo etmoqda. Ona Vatanimiz ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlat bo'lib kelgan. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil yashashmoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bag'rikenglik an'analari muhim rol o'ynamoqda. Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda, millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolarimiz teng huquq

va erkinliklarga ega ekanligi kafolatlab qo'yilgan. Ularga o'z milliy madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash, har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo'nalishida ham millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash bo'yicha eng muhim vazifalar belgilab berilgan. Yurtimizda etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda 138 ta milliy madaniy markaz katta rol o'ynamoqda. Ana shu markazlar faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida yaqinda muhim bir qaror qabul qilindi. Unga binoan, Respublika baynalminal markazi negizida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi. Mamlakatimiz mustaqilligining ilk yillaridan boshlab vijdon erkinligi, e'tiqod erkinligini ta'minlash, turli diniy konfessiyalar o'rtasidagi munosabatlar masalasiga ustuvor ahamiyat berildi. Ularning huquqiy maqomi yaratildi. Uzoq yillar davomida amal qilib kelgan turli ta'qiqalar olib tashlandi. Muqaddas dinimizning qadriyatlarini tiklandi, buyuk aziz-avliyolarimizning xotirasi, merosini tiklash, qadamjolarini obod qilish bo'yicha juda ko'p ish qilindi va qilinmoqda.

Yaqin tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, mustabid tizim davrida bu muqaddas qadamjolar, maskanlar oyoqosti qilindi. Ularning milliy va diniy tuyg'ulari qo'pol ravishda kamsitildi, tarixiy haqiqat buzib ko'rsatildi. O'z ona tilini, milliy an'ana va madaniyatini, o'z tarixini bilmaslik ko'plab odamlarning shaxsiy fojiasiga aylanib bordi. Xalqimiz manfaatlariga zid bo'lgan, noinsoniy g'oya hukmron bo'lgan mustabid tuzum o'zining bor mafkuraviy kuchini, ommaviy axborot vositalarini, butun maorif

tizimini ishga solib, odamlar ongini keng miqyosda zaharlashga harakat qilar edi. Milliy o'zlikni anglashga bo'lgan tabiiy intilish johilona inkor etilardi. Navro'z, Ramazon, Qurbon Hayiti kabi ko'plab muqaddas milliy bayramlar ta'qiq etilgan edi. Amir Temur, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad al-Farg'oni, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Mahmud az-Zamahshariy, Xoja Ahrori Valiy, Abdulxoliq G'ijduvoni kabi buyuk ajdodlarimizning, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Usmon Nosir kabi milliy-ozodlik harakati fidoyilarining nomlarini xalqimiz xotirasidan o'chirib tashlashga harakat qilinar edi [1,466]. Agar sobiq mustabid tuzum davrida yurtimizda 80ga yaqin masjid faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 2 mingdan ortiqni tashkil qiladi. Yiliga sanoqli kishilargina haj qilish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa, joriy yilda 7200 nafar fuqarolarimiz muborak haj safarini amalga oshirish imkoniga ega bo'ldilar.

Ma'lumki, bizning mintaqamiz, avvalambor, bugungi O'zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Bu zaminda tabiiy va aniq fanlar bilan bir qatorda, ilohiy ta'limotni ham olamga yoygan yetuk allomalar yashab o'tgan. Diyorimizda islom ta'limoti va amaliyotini rivojlantirish bo'yicha 3000dan ortiq ilm ulamolari faoliyat ko'rsatganligi buning yaqqol dalilidir. Shulardan 1000ga yaqini Samarqandda, 600tadan ko'prog'i Buxoroda, 300tasi Nasafda va qolganlari boshqa shaharlarda bo'lgan. Al-Buxoriy, Axmad Yassaviy, At-Termiziy, Az-Zamahshariy, Motrudiy, Marg'inoniy, Bahouddin Naqshband kabi o'nlab allomalar islomiy-diniy ilmlar peshvolari sanaladi. Ular tafsir, hadis, fikh, kalom kabi islomiy ilmlarning rivojiga asos solgan bo'lib, yurtimiz dovruq'ini Mashriq dunyosi bo'ylab taratganlar. Ular diniy ilmlarga, ma'rifatga o'zining butun hayotini bag'ishlaganlar. Markaziy Osiyolik ilm ahlari - Imom al-Buxoriy «Al-Jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam»), «Al-Adab al mufrod» («Adab durdonalari»), Abu Mansur al-Motrudiy «Kitob at-tavhid» («Yakkaxudolik haqidagi kitob»), «Ta'vilat ahli as-sunna» («Sunniylik an'analari sharhi», Zamahshariy «Kashshof» («Qur'on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so'zlar ko'zlarini ochish»), Abu Iso Termiziy «Sunani Termiziy», Marg'inoniy «Hidoya» asarlari bilan Islomning rivojlanishiga, musulmon e'tiqodini xalq dunyoqarashi bilan uyg'unlashtirishga katta hissa qo'shdilar.

Xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, eng muhimi, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan Toshkent shahrida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini barpo etishga qaror qilindi. Bu "Jaholatga qarshi ma'rifat" shiorining amaliy hayotda namoyon bo'lishining o'ziga xos isbotidir.

Xalqaro maydonda sodir bo'layotgan voqealar rivoji milliy-ma'naviy havfsizlik borasida amalga oshirayotgan ishlarimizni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishimizni, davlatimiz va jamiyatimizning barcha kuch va imkoniyatlarini safarbar etishimizni taqozo qilmoqda. Masalaning bu jihatiga e'tibor qaratar ekan, Sh.M.Mirziyoyev: - ...hozirgi vaqtda dunyo miqyosida hukm surayotgan tahlikali vaziyat, siyosiy va iqtisodiy inqirozlardan tashvishga tushmayotgan birorta davlat yoki jamiyat yo'q, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solmoqda, - deb ta'kidlagan edi. [3,466].

Yaqin va uzoq horijda mana shunday o'ta murakkab va qaltis sharoit ro'y berayotgan ekan, bunday sharoitda biz qanday yo'l tutishimiz, qanday qilib tinchlik va osoyishtalikni saqlashimiz, barqaror rivojlanishni nimalar hisobiga ta'minlashimiz mumkin, degan savollarga jiddiy bosh qotirishimiz talab etiladi.

Keyingi paytlarda Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika mamlakatlarida sodir etilayotgan terrorchilik harakatlaridan ko'zlanayotgan maqsadlarning insoniylikka zidligi, reallikdan butunlay xoliligi, asl maqsadning sirligi, ayniqsa, bularning ijrochilari qatorida O'zbekiston fuqarolarining ham borligi xalqimizda afsus va nadomat uyg'otmoqda. Tinchlikni, osoyishtalikni, insoniylikni, yaratuvchanlikni, sabrlilikni hamma narsadan ustun qo'yadigan xalqimiz bunday shaxslarning qilmishlarini keskin qoralaydi. Xavotirli tomoni bunday razil kuchlar o'z saflarini to'ldirishda davom etishmoqda. Shunday ekan, hozirgi vaqtda yoshlarimizni, chet elda ishlab, halol mehnat bilan daromad topaman, deb yurgan fuqarolarimizni bunday tUSDagi turli-tuman terroristik kuchlar changaliga tushib qolmasligi uchun biz ta'lim-tarbiyada, targ'ibot ishlarida qanday choralarni amalga oshirishimiz talab etilmoqda.

Birinchiidan, O'zbekiston hukumati qo'shni davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat bermoqda. Bizning maqsadimiz ular bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, turli mazmundagi muammolarni birgalikda yechishdan iborat. Qisqa muddatda O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Turkmaniston va Qozog'iston Respublikasiga ikki marta tashrif bilan bordi. Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston, Xitoy Xalq Respublikasi, Saudiya Arabistoniga samarali tashriflar amalga oshirildi. Bunday tashriflarda asosiy masalalar sifatida o'zaro hamkorlikni, savdo-sotiqni yanada kuchaytirish, ichki imkoniyatlardan unumli foydalanish, mintaqadagi barqarorlikni ta'minlash, turli tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish keng muhokama etildi. Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida o'tkazilgan O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlar yarmarkasi ikkala mamlakat o'rtasida hamkorlikning yangi davrini boshlab berdi. Rossiya

Federatsiyasiga davlat tashrifi chog'ida mehnat migratsiyasi bo'yicha muhim kelishuvga erishildi. Fuqarolarimizning bu mamlakatda halol mehnat qilishi, qonuniy yo'l bilan daromad topishi uchun davlatimiz barcha sharoitlarni yaratib bermoqda, yoshlarimizning yaratilgan imkoniyatlardan to'g'ri, oqilona foydalanishlarini ta'minlash uchun ta'lim-tarbiya tizimida, targ'ibot tizimida tegishli vazifalarni belgilab olishimiz talab etiladi.

Ikkinchidan, bugungi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, yoshlarda ogohlik va g'oyaviy salohiyatni yanada yuksaltirish, aholi turmush sharoiti va bandligini yaxshilash, ularni turli diniy ekstremistik uyushmalar changalidan ta'lim-tarbiya tizimi, ma'naviy-ma'rifiy uyushmalar faoliyati oldidagi ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

Anjumanda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo'lib turibdi"[1,592].

Uchinchidan, jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy sohalarida yuz berayotgan turli mazmundagi ekstremistik kayfiyatdagi kuchlarga nisbatan "jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili asosida kurashishni amaliyotda keng qo'llash, uning ijrosini ta'minlash borasidagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni zamon talab qilmoqda. Bu borada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtalar ekan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev shunday ta'kidlaydi: "Biz ko'p joylarda jaholatga qarshi ma'rifat tashabbusi bilan chiqaypmiz. Muqaddas islom dinini niqob qilib boshqa ko'chalarga kirib ketayogan johil kimsalar bir narsani tushunmaydi yoki tushunishni istamaydi. Ya'ni, islom faqat nurlil hayotga, ilm-ma'rifatga, yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo'ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan olmasdan, soxta g'oyalarga aldanib, zararli oqimlarga kirish, terrorchi bo'lish – bu O'zbekiston xalqiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi"[1,592]. Yoshlarni bunday tusdagi turli mafkuraviy kuchlar ta'siridan himoyalashning turli xil usul va vositalari keng tahlil etildi. Lekin, erishilayotgan samarani ko'ngildagidek deb bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mazkur anjumandagi nutqidagi bu tizimni yanada takomillashtirishning yangicha yo'l-yo'riqlarini ilgari surdi. Avvalo, bu tizimning institutsional qurilmasi faoliyatini takomillashtirishga, yoshlar tarbiyasida oila, mahalla, maktab, diniy idoralar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratib o'tdi. Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni turli mafkuraviy tahdidlardan asrashda har bir institutning imkoniyatlarini to'g'ri baholash, undan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, jamiyatdagi ma'naviy muhitni izdan chiqarishga qaratilgan turli mazmundagi ta'sirlarga qarshi aksiltarg'ibot tadbirlarini olib borishning

yangicha, ta'sirchan uslublari ustida ishlash talab etilmoqda. Avvalo jamiyat ma'naviy hayotining har qanday jabhasida sodir bo'ladigan noxush hodisaga nisbatan umumjamiyat miqyosidagi salbiy kemtik sifatida qarash talab etiladi. Unga qarshi kurashni umumniki sifatida baholash zarur. Bunday hodisa jamiyatda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat jihatidan takomillashtirishni talab etadi. Binobarin, "Bir bolaning yo'ldan adashishi – bu nafaqat bir oila, balki butun jamiyat boshiga tushgan kulfat. Bundan, avvalo, shu bolaning ota-onasi, aka-ukalari, yaqinlari jabr ko'radi. Bunday paytda ularga yordam berish kerak. Biz esa, afsuski, ulardan o'zimizni olib qochamiz. To'yga chaqirmaymiz, marosimga chaqirmaymiz, u falonchining akasi yoki o'g'li, deb ularning nafratini battar avj oldiramiz, aybsiz odamlarni ashaddiy dushman qilamiz"[1,592]. Muammoga bunday yangicha usulda yondashuvning sababi nimada? Agar biz jamiyatda o'ziga sherik, safdosh izlayotgan qator diniy-ekstremistik ruhdagi tajovuzkor guruhlar targ'ibot usullariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular asosan moddiy jihatdan qiynalgan aholi qatlamlariga, ishsiz yurgan yoshlarga, turli jinoyatlari uchun qamalanganlarning oila a'zolariga keng e'tibor qaratishadi. Shunday ekan, bunday harakatlarni amalga oshirganlarga, turli sabablar bilan noto'g'ri yo'lga kirib adashganlarga, nafaqat ularga, balki ularning yaqin oila a'zolariga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish lozim. Anjumandagi nutqida Prezidentimiz bu masalani ko'ndalang qo'yadigan vaqt kelganiga e'tibor qaratib, ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Olijanob kishilar uzrni qabul qilur",- degan fikrlarini keltirib o'tgan. "Adashgan yoshlarni tarbiyalashimiz, kerak bo'lsa, jazoni o'tash joylariga ham borib, ular bilan gaplashishimiz lozim. Chin dildan tavba qilib, ota-onasi, oilasi bag'riga, to'g'ri yo'lga qaytishni niyat qilgan odamlarga amaliy yordam berishga men davlat rahbari sifatida doimo tayyorman". Uning amaliy natijasi sifatida hozirgi kunda qancha adashganlarning gunohi kechirilib, to'g'ri yo'lga solindi. Ularning bir qismi o'qishga, bir qismi ishga joylashtirildi.

Shuningdek, Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida ham ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinayotganligiga jamoatchilik e'tiborini qaratdi. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishi, shuning uchun ham, birinchi navbatda, oila, ta'lim, mahalla, nodavlat tashkilotlari o'z faoliyatlarida yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash vazifalariga alohida e'tibor qaratishlari lozimligi alohida ta'kidlandi.

Avvalo, ular o'z faoliyatlarini tegishli vazifalar atrofida muvofiqlashtirib olishlari talab etiladi. Negaki, yoshlarimizning kundalik faoliyatlari aynan shu maskan va hududlarda kechadi. Shuning uchun, maktab, litsey va kollejlardagi, oliy o'quv yurtlaridagi

ta'lim-tarbiya, birinchi navbatda, davomat masalasiga nihoyatda jiddiy e'tibor berish talab etiladi. Bironta o'quvchi yoki talaba sababsiz o'qishga kelmasa ta'lim maskani ham, oila ham, mahalla, hokimiyat idoralari ham bu to'g'rida bosh qotirishlari lozim. Ana shunday nazorat tizimi samarali va o'zaro bog'liqlikda ishlaydigan bo'lsagina vaziyatni qo'lga olib, uni ijobiy tomonga o'zgartirishga imkoniyat yaratiladi. Malakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatini ta'minlashning ustuvor jihatlaridan biri sifatida tumanlarda hokimlar hamda ichki ishlar bo'limi boshliqlarining yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari lavozimi tashkil etildi.

Albatta, bu masalalarning yechimi xususida "Nuroni", "Mahalla" jamg'armalari, Xotin-qizlar qo'mitasi, Yoshlar ittifoqi, ichki ishlar idoralari va boshqa tegishli tashkilotlar bevosita javobgar bo'lib, ish samaradorligini tubdan oshirishlari, mutlaqo yangi tizimga o'tishlari, o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirib borishlari zarur.

Bu boradagi eng muhim vazifalar haqida gapirganda, Sh.Mirziyoev quyidagilarni alohida ko'rsatib o'tadiki, profilaktik xarakterdagi targ'ibot ishlarida bu ko'rsatmalarga keng e'tibor qaratish zarur:

Birinchi, yo'ldan adashgan, joylarda maxsus hisobga olingan fuqarolarning turmush sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, muammolarini o'rganish, ushbu toifadagi shaxslar nega radikallasib ketganining turli ijtimoiy sabablarini har tomonlama chuqur tahlil etish lozim.

Bu guruhdagi yoshlar to'g'risidagi tahlillar, olingan natijalar bo'yicha davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatida qo'llash uchun aniq tavsiya va takliflar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar biz shu yo'nalishdagi profilaktik ishlarni zamon talablaridan kelib chiqib doimiy ravishda takomillashtirib borish taqozo etiladi.

Ikkinchi, turli mazmundagi g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurashning mutlaqo yangi tizimini shakllantirish xususida gap borar ekan, uning ijrosini ta'minlash uchun ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha mahalla maslahatchilari, profilaktika inspektorlari, imom-xatiblar va huquqni muhofaza qilish organlarining tegishli xodimlari uchun malaka oshirish o'quv kurslarini tashkil etish kerak. Bu o'quv kurslarida ularni diniy ekstremistik va terrorchi guruhlarining ish usuli, g'arazli g'oya va maqsadlari, kurash, targ'ibot vositalari bilan tanishtirib borish zarur. Adashgan shaxslar bilan ishlaydigan mutaxassis, u mahalla maslahatchisi,

imom-xatib yoki profilaktika inspektori bo'ladimi, avvalo buzg'unchi kuchlar qanday g'oyalarni ilgari surayotganini bilishi kerak. Shuningdek, sanab o'tilgan maskanlar, tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish masalasini ham hal etish lozim bo'ladi.

Uchinchi, hokimlarning yoshlar bilan ishlash bo'limlari xodimlari, jamoatchilik va diniy tashkilotlar, shuningdek, xotin-qizlar bo'yicha o'rinbosarlari turli soxta va'dalar, havoyi gaplar ortidan ergashgan fuqarolarimiz bilan suhbat o'tkazishlari, tashvish va muammolari bilan shug'ullanishlari lozim. Ularni ishga joylashtirish, kasbga yo'naltirish kechiktirib bo'lmas vazifadir. Aks holda, ularning bekor qolishlari, nazoratsiz qolishlari, o'z holiga tashlab qo'yilishi chetda payt poylab turgan qabih kuchlarga qo'l kelishi hech gapmas.

To'rtinchi, mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlik – har bir ozod shaxs va erkin fuqaro uchun zarurligini ta'lim-tarbiya jarayonida doimo yodda tutish talab etiladi. "Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa, yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz kerak"[1,592]. Negaki, bugungi zamonda inson ma'lum kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning doimiy ta'sirini sezib yashaydi. Axborot asri, salohiyat asri, elektronika, informatsion texnologiyalar asri deb nom olgan bugungi zamonda bunday ta'sirlardan holi bo'lish dolzarb muammodir. Qolaversa, fikrni, g'oyani ta'qiq bilan, ma'muriy choralar bilan yengib bo'lmaydi. Shunday sharoitda har bir yosh o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, mustaqil tafakkur va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, turli zararli mafkuralarning oxir-oqibatini anglab yetishi qiyin kechadi. G'oyaviy tahdidlar kuchaygan hozirgi sharoitda turli mazmundagi tahdidlarga, axborot xavfsizligi masalalariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Buning uchun o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo'ladimi, ularning barchasi faol bo'lishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1."2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarori.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". T.: "O'zbekiston" NMIU -2017.
- 4.Karimov I. A. "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch". T.: "O'zbekiston" NMIU- 2008.
- 5.Otamurodov S. "Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik". T.: "O'zbekiston" NMIU-2013.

O'ZBEKISTONNING QADIMGI DAVRI TARIXINING O'RGANILISHI (MIL.AVV. VII-IV ASRLAR)

Nigora EGAMBERDIEVA – TDPU doktoranti, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Maqolada O'zbekistonning qadimgi davri tarixini o'rganishning dolzarbligi, o'rganilish darajasi va muammolari yoritilgan. Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Farg'ona va Toshkentning qadimgi davri tarixi tahlil etilgan.

В статье освещены актуальность, степень изученности и проблемы изучения истории древнего периода Узбекистана. Анализированы древние истории Бактрии, Хоразма, Согдианы, Ферганы и Ташкента.

The article outlines the relevance, degree of study and problems of studying the history of the ancient period of Uzbekistan. The ancient histories are analyzed of Bactria, Khorazm, Sogdiana, Ferghana and Tashkent.

Kalit so'zlar: qadimgi davr, Baqtriya, Katta Xorazm, Amirobod madaniyati, Skilak, So'g'diyona, Chust madaniyati, Burg'uluk madaniyati.

Ключевые слова: древний период, Бактрия, Большой Хоразм, Амирабадская культура, Скилак, Согдиана, Чустская культура, Буржюлукская культура.

Keywords: the ancient period, Bactria, Big Khorezm, Amirabadsky culture, Skilak, Sogdiana, Chustsky culture, Burguluksky culture.

O'zbekistonning qadimgi davr tarixini haqqoniy, ob'ektiv yoritish bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Afsuski, qadimgi davr tarixi tahlili jarayonida tarixchilar oldida ko'plab dolzarb masalalar turgan bo'lsa-da, ba'zida matbuotda bu davr tarixi noto'g'ri tahlil qilingan maqolalar va risolalarga duch kelamiz. Bunday noxush holatlar O'zbekistonning yirik olimlari A.Asqarov, E.V.Rtveladze, A.S.Sagdullayevlar tomonidan bir necha bor tanqid qilingan. Qadimgi tarixni yoritishga ob'ektiv yondoshish, mavjud ilmiy va arxeologik adabiyotlardan keng foydalanish, xalqimizga dalillarga asoslangan haqqoniy tariximizni yetkazish bugunning dolzarb masalasiga aylangan.

Bugungi kunda O'zbekistonning qadimgi davr tarixi bo'yicha quyidagi masalalar kengroq yoritilgan: -qadimgi davrning yozma manbalar asosida yoritilishi;

- qadimgi davr afsonalari tahlili;
- "Avesto" ma'lumotlari;
- qadimgi davrning arxeologik jihatdan o'rganilishi;
- ilk davlatchilik masalalari;
- qadimgi davlatlar tarixi;
- qadimgi davrda yozuvning shakllanishi.

Bu masalalar orqali O'zbekistonning qadimgi davrdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyoti yoritilgan.

Qadimgi O'zbekiston tarixini ilmiy jihatdan o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bunda rus sharqshunoslari, geografllari, arxeologlari muhim o'rinni egallagan. XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 30-yillarigacha O'zbekistonning qadimgi davri bo'yicha dastlabki ma'lumotlar to'plana borgan. Lekin bu davrda nihoyatda kam ma'lumotlar aniqlangan.

Rus sharqshunosi V.V.Bartolning tadqiqotlarida qadimgi davr tarixi "Musulmonlargacha bo'lgan davr" deb nomlangan va bu o'sha davrdagi mavjud bilimlar asosida yoritilgan. Lekin keyingi davrlarda arxeologiya sohasida izchil olib borilgan tadqiqotlar

qadimgi davr tarixini kengroq yoritish imkonini bergan.

XX asrning 30-yillarida O'rta Osiyo tarixini, yodgorliklarini o'rganish bo'yicha tashkil qilingan Xorazm, Termiz, Farg'ona, Toshkent, Buxoro arxeologik ekspeditsiyalari qadimgi O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim bosqichni boshlab berdi. Mazkur ekspeditsiyalar faoliyati natijasida O'zbekiston hududidagi qadimgi davr yodgorliklarini keng ko'lamda o'rganish jarayoni boshlandi. Bu davrda tarixchilar o'rtasidagi asosiy munozarali masala – qadimgi davrdagi ijtimoiy tuzum masalasi o'z yechimini topdi. S.P.Tolstov Xorazm hududida olib borgan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida qadimgi O'zbekiston xududida o'ziga xos qulchilik munosabatlari mavjud bo'lganligini asoslab berdi va uni "O'rta Osiyocha ishlab chiqarish usuli" deb nomladi. O'zbekistonda qadimgi davrda tabiiy sharoitga mos holda o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlanganligi keyingi davr tadqiqotlarida ham isbotlandi.

O'zbekistonning qadimgi davrini o'rganish bo'yicha qo'lga kiritilgan yutuqlar asosida 1956-yilda S.T.Tolstov tahriri asosida 2 jildlik "O'zbekiston tarixi" darsligi yaratildi. Bu uzoq yillar davomida Oliy ta'lim Tarix mutaxassisligining asosiy darsligi sifatida qo'llanib kelindi. Bu darslik o'sha davrda tarix va arxeologiya fani yangiliklarini o'zida aks ettirgan, barcha tarixiy davrlar batafsil yoritgan manba hisoblangan.

XX asrning 60-80 yillari davomida qadimgi davrni arxeologik jihatdan o'rganish keng ko'lamda davom etdi. Bu davrda faoliyat yuritgan olimlar S.P.Tolstov, M.E.Masson, M.M.Dyakonov, A.P.Okladnikov, M.M.Gerasimov, V.G.Grigorev, A.Yu.Yakubovskiy, Ya.G'.G'ulomov, M.P.Gryaznov, A.N.Bernshtam, A.I.Terenojkin, B.A.Latinin, A.M.Beleniskiy, V.A.Shishkin, M.E.Masson, B.A.Litvinskiy, G.A.Pugachenkova, P.I.Albaum, M.R.Qosimov,

T.Mirsoatov, I.A.Itinalarning ilmiy tadqiqot ishlari natijasida qadimgi davr tarixi keng ko'lamda yoritildi.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida, ayniqsa, XXI asrning boshlarida O'zbekistonning qadimgi davr tarixini o'rganishda arxeolog olimlar tomonidan katta yutuqlar qo'lga kiritildi va bu jarayon bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Bu davrda A.Asqarov, O'.Islomov, E.V.Rtveladze, V.N.Yagodin, R.X.Sulaymonov, A.S.Sagdullayev, A.Muhammadjonov, Yu.F.Buryakov, M.X.Isomiddinov, A.Kabirov, A.A.Anorboyev, Sh.B.Shaydullayev, B.X.Matboboyev, A.V.Vinogradov, M.M.Mambetullayev, G'.Xodjaniyozov, T.Sh.Shirinov, M.Jo'raqulov, S.B.Bolelov, S.R.Baratov va boshqa olimlarning olib borgan tadqiqotlari O'zbekiston arxeologiyasi rivojlanishida, shuningdek, qadimgi davr tarixini yoritishda muhim bosqich bo'ldi.

Bugungi kunda O'zbekistonning qadimgi davr tarixi bo'yicha o'quv qo'llanma, ilmiy asarlar nashr qilingan. Bu ilmiy adabiyotlar bo'lajak tarixchilar uchun va tarixga qiziquvchilar uchun muhim qo'llanmalar bo'lib xizmat qilmoqda.

Qadimgi davr tarixini yoritishda keyingi davrlarda muhokama bo'layotgan eng muhim masalalardan biri - bu ilk davlatchilik masalasidir. Qadimgi O'zbekiston hududida shakllangan ilk davlatlar - Qadimgi Baqtriya podsholigi va "Katta Xorazm" tarixini o'rganish XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida "Avesto" va yunon yozma manbalaridagi ma'lumotlarni tahlil etish orqali boshlangan.

XX asrning 30- yillarida O'zbekistonda boshlangan arxeologik tadqiqotlar, mazkur yozma manbalardagi ma'lumotlarni arxeologik materiallar bilan taqqoslashga imkon berdi. XX asrning ikkinchi yarmida Qadimgi Baqtriya hududidan Sopollitepa, Jarqo'ton, Bo'ston yodgorliklari topildi. Ular A.Asqarov, B.Abdullayev, T.Sh.Shirinov, U.Rahmonov, Sh.Shaydullayev, N.A.Avanesovalar tomonidan chuqur o'rganildi.

Qadimgi Baqtriya podsholigi O'zbekiston hududida shakllangan ilk davlat bo'lib, u to'rt ming yillik tarixga ekanligi asoslandi. Mil.avv. XIX-XVIII asrlarga oid Jarqo'ton yodgorligi O'zbekiston hududidagi ilk shahar bo'lib, unda dastlabki davlatchilik elementlari mavjudligini asoslab berdilar.

Qadimgi Xorazm hududida shakllangan ilk davlat - "Katta Xorazm" qabilalar konfederatsiyasi masalasi ham olimlar o'rtasida 100 yildan ko'proq muhokama qilinayotgan bo'lsa-da, haligacha o'zining yechimini topgan emas. XX asr boshlarida "Katta Xorazm" tushunchasini nemis olimlari I.Markvart, V.Xenning yunon mualliflari Gekatey, Geradot va Avesto ma'lumotlari asosida ilgari surishgan edi.

XX asrning 80-yillarigacha bo'lgan davrda Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan bu davlatning mavjudligini arxeologik ma'lumotlar asosida isbotlashga harakat qilganlar. XX asrning 80-yillaridan keyin bu birlashma mavjud ekanligini inkor etuvchi ilmiy g'oyalar ilgari surila boshlangan.

"Katta Xorazm" davlatini o'rganilish jarayonidagi g'oyalar tahlil qilinib, "Katta Xorazm" davlati - qabilalar konfederatsiyasi ekanligi asoslangan, lekin uning Gerodot ma'lumotida ko'rsatilgandek, nihoyatda katta hududni egallaganligini shubha ostiga olingan, chunki bu arxeologik jihatdan o'z isbotini topgan emas.

Xorazm hududidagi ilk davlatchilikning shakllanishi masalasi yozma manbalar asosida tahlil etilgan va arxeologik manbalar asosida isbotlangan. Qadimgi Xorazmda ilk davlat mil.avv. VI asrlarda vujudga kelgan bo'lib, u Ko'zaliqir, Xumbuztepa, Xazarasp yodgorliklari asosida o'rganilgan. Demak, Xorazm hududida axamoniylar hukmronligiga qadar davlat mavjud bo'lgan.

Qadimgi Xorazm tarixi bo'yicha eng munozarali masala, uning mil.avv.IX-VIII asrlardagi rivojlanishi bilan mil.avv. VII-VI asrlardagi taraqqiyot jarayonning bir-biridan keskin farq qilishidir. Mil.avv. I ming yillikning boshlarida janubiy Oqchadaryo deltasi hududida Amirobod madaniyati shakllangan bo'lib, uning aholisi yarim yerto'lalarda yashaganlar va chorvachilik, kair dehqonchiligi bilan shug'ullanganlar. Janubiy Oqchadaryo deltasi mil.avv.VIII-VII asrlarga kelib quriy boshlagan. Amirobodliklarga mavjud vaziyatga moslashib, chorvachilik xo'jaligini rivojlantirganlar. Shuningdek, ularning ba'zilari shimoli-sharq tomonga ko'chib, shimoliy Oqchadaryo bo'ylari, Sirdaryoning qadimiy deltalari bo'ylariga va Sariqamish havzalariga ko'chib borib, o'ziga xos madaniyatni shakllantiradilar. Mil.avv. VII asr davomida amirobodliklar shimoli-sharqqa ko'chgan bo'lsa, janubda iste'qomat qilgan xorasmiylar shimol tomonga ko'chib, quyi Amudaryo bo'ylariga kelib joylashganlar.

Qadimgi Xorazm tarixida bunday o'ziga xoslik Abu Rayxon Beruniy ma'lumotlarida Siyovushning kirib kelishi bilan izohlangan. Ba'zi ma'lumotlar yunon mualliflari asarlarida mavjud bo'lib, bu masala I.V.Pyankov, I.N.Xlopin tadqiqotlarida atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotchilar dastlabki xorasmiylar janubda, ya'ni Turkman-xuroson tog'i oldida yashab, axamoniylar davrida quyi Amudaryo bo'ylariga ko'chib kelishgan degan xulosani berganlar.

XXI asr boshlarida Janubiy Xorazm hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida S.B.Bolelov va S.R.Baratovlar bu masalani arxeologik manbalar asosida asoslaydilar. S.R.Baratov Xumbuztepa, Xazarasp yodgorliklari tahlili asosida xorasmiylar mil.avv. VI asrning ikkinchi yarmida Tajan-Herurd, Seraxs vohasi hududlarida yashashganlar. Kiaksar davrida Akes hududini tashlab, hozirgi quyi Amudaryo bo'ylariga kelib qolishgan bo'lishi mumkin deb hisoblaydi. A.Asqarov xorasmiylarning quyi Amudaryo bo'ylariga kirib kelishini Doro I davrida Skilakning axamoniylarga tobe hududlarni o'rganishi bilan bog'laydi. Bu davrni aniq sana bilan, mil.avv. 513-yil deb ko'rsatadi. Shuningdek, Gekatey ham o'z ma'lumotini Skilakning "Sayohatnoma" asaridan olgan deb ko'rsatadi. Xorasmiylarning quyi Amudaryo hududlariga kelib joylashishi masalasi hali

o'z yechimini topgan emas. Lekin hozirda Xumbuztepa va Xazorasp yodgorliklarida olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar bu masalaga oydinlik kiritishi mumkin.

Xorasmiylar quyi Amudaryo bo'ylariga kelib, yirik qal'alarini bunyod qilganlar. Sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Hunarmandchilik, ayniqsa, kulolchilik sohasini keng rivojlantirganlar. Xumbuztepa aholisi butun bir vohani kulolchilik buyumlari bilan ta'minlab turganliklari olimlar tomonidan isbotlangan.

Sug'diyonada ilk davlatchilikning izlari ilk temir va arxaiik davrlarga oid yodgorliklar asosida o'rganilgan. Sug'diyona hududidan topilgan Uzunqir, Sangirtepa, Daratepa, Yerqo'rg'on, Ko'ktepa, Lolazor yodgorliklarini ilk vo-ha-davlat tizimi bilan bog'laydilar.

Farg'onada rivojlangan dehqonchilik madaniyati-Chust madaniyati mil.av. XIII asrlarga oid bo'lib, uning izlari Namangan, Andijon, Samarqand va Qashqadaryo hududlaridan ham topilgan. Yodgorliklar sug'orish tarmoqlari bo'ylarida joylashgan. Har bir sug'orish tarmog'i hududida bitta yirik shahar, shahar atrofida esa ko'plab qishloq tipidagi yodgorliklar joylashganligi aniqlangan. Bu belgilar Chust madaniyatining so'nggi davrida Farg'ona hududida shahar-davlatlarning tarkib topganligini ko'rsatadi. Bu mil.avv.YII-Y asrlarga oid Eylatan madaniyatida o'z aksini topgan. Eylatan madaniyatiga doir yodgorliklar Farg'ona vodiysining deyarli barcha hududlaridan aniqlangan. Mazkur yodgorliklar orasida eng yirigi Dalvarzintepa bo'lib, u so'nggi bronza va ilk temir davrlarida butun Farg'ona shahar-davlatlarining markazi bo'lgan degan xulosani beradilar. Qadimgi Farg'ona tarixi haqida xitoy yozma manbalarida ma'lumotlar ko'p uchraydi.

So'nggi bronza va ilk temir davrida qadimgi Toshkent vohasida ham o'ziga xos rivojlanish aniqlangan. Bu yerlarda dehqonchilik kichik-kichik soy etaklarida yoki buloq suv yoqalarida vujudga kelib, ibtidoiy usul asosida olib borilgan. Zaminning

tabiiy geografik sharoitidan kelib chiqib, sug'orma dehqonchilik xo'jaligi rivojlangan. Chirchiq, Ohangaron va ularning irmoqlari Toshkent vohasining eng qadimgi dehqonchilik madaniyati - Burg'uluq madaniyati tarkib topdi. Uning so'nggi bosqichlarida, ya'ni mil.avv. III-II asrlarda Toshkent hududida Qanqa, Shoshtepa yodgorliklar vujudga keladi. Tadqiqotchilar bu yodgorliklarda ilk davlatchilik elementlarini ko'radilar. Ular O'zbekiston davlatchiligi taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi.

Mustaqillik yillarida qadimiy shaharlarning yubileylarining nishonlanishi ham qadimgi davr tarixini yoritishda muhim o'rinni egalladi. 1997-yilda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, 2002-yilda Termiz shahrining 2500 yilligi va Shahrizabz shahrining 2700 yilligi, 2006-yilda Qarshi shahrining 2700 yilligi, 2007-yilda Samarqand shahrining 2750 yilligi va Marg'ilon shahrining 2000 yilligi, 2009- yilda Toshkent shahrining 2200 yilligi keng nishonlandi. Qadimiy shaharlar tarixini yoritishda yubiley munosabati bilan tashkil qilingan halqaro konferensiyalar qadimgi davr tarixining eng dolzarb masalalarini yoritib berdi.

O'zR FA Tarix instituti tomonidan doimiy o'tkazilib kelinayotgan akademik Yahyo Fulomov nomidagi «O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi» Respublika ilmiy seminarlarida davlatchilik tarixi masalalari bilan birgalikda qadimgi davr tarixining dolzarb masalalariga e'tibor qaratib kelinmoqda.

Bugungi kunda qadimgi davr tarixini o'rganish borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni o'zida jamlagan o'zbek tilidagi o'quv qo'llanma, darslik yoki ilmiy nashrga ehtiyoj katta. Bunday asar birinchidan yosh avlodni tarixga bo'lgan munosabatini o'zgartirsa, ikkinchi tomondan nashrlardagi turli uydirmalarning oldini olgan bo'lar edi. Shuningdek, xalqimizni, kelajak avlodni haqiqiy tarix bilan qurollantirsa, ma'naviyatini yuksaltirish uchun zaminini mustahkamlasak, porloq kelajagimizni ta'minlagan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimova D. Filonovich M. "Toshkent tarixi". T.: "Ma'naviyat"- 2009.
2. Asqarov A. "O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi". T.: "Ma'naviyat"- 2014.
3. Аскарлов А. Ширинов Т. "Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии". Самарканд-1993.
4. Болелов С.Б. "К вопросу о формировании ранней земледельческой культуры низовьях Амударьи". Вопросы древней истории, филологии, искусства и материальной культуры. Альманах-2016.
5. Буряков Ю.Ф. "Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса". Т.: "O'qituvchi"- 1982.
6. Исамиддинов М.Х. "Истоки городской культуры Самаркандского Согда". Т.: "Ma'naviyat"- 2002.
6. Ягодин В. "Древнейшая государственность и проблема "Большого Хорезма" (2 цикл)". Вестник Каракалпакского отделения АН РУз. №2. Нукус-2007.
18. "O'zbekiston poytaxti -Toshkent 2200 yoshda". Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyiga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. T.: - 2009.

IX-XIII ASR BOSHLARI O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI TARIXSHUNOSLIGINING AYRIM MASALALARI

Ziyovuddin ILHOMOV – TDPU “O‘zbekiston tarixi va tarix o‘qitish metodikasi” kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Salamat OMAROV – TDPU magistranti

Mazkur maqolada IX-XIII asr boshlari o‘zbek davlatchiligi tarixi tarixshunosligi haqida so‘z yuritiladi. Shu davrda O‘rta Osiyo hududlarida mavjud bo‘lgan davlatlar va ulardagi davlatchilik jarayonlari haqida xorij tarixchilari tadqiqotlarining ayrim jihatlari haqida fikr yuritiladi.

“Некоторые вопросы историографии истории узбекской государственности IX-XIII веков». В данной статье проводится анализ современной зарубежной исторической литературы по истории узбекской государственности IX-XIII веков. Раскрываются некоторые особенности подходов зарубежных историков по изучению процессов государственности IX-XIII веков на территории Средней Азии.

“Some questions of historiographies of the histories of Uzbek state in IX-XIII centuries” This article gave the analysis of the modern foreign history literature on the histories of Uzbek state in IX-XIII centuries. And open some particularities and approaches of foreign historian on study of the processes state IX-XIII centuries on territory of the Central Asia.

Калит сўзлар: *Тарих, тарих фани, тарихшунослик, тадқиқот, монография, мақола, диссертация, ўрганиш, илмий хулоса, таҳлил.*

Ключевые слова: *история, историческая наука, историография, исследования, монография, статья, диссертация, изучения, научные выводы, анализ.*

Keywords: *history, history science, historiography, studies, monograph, article, thesis, studies, scientific conclusions, analysis.*

O‘rganilayotgan davr haqida o‘zbek davlatchiligi tarixi yoritilgan asarlardan biri sifatida rossiyalik tarixchi N.V.Sychevning “Sulolalar kitobi” asarini keltirib o‘tish mumkin. Unda O‘rta Osiyoda hukm surgan yirik sulolalardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan Somoniylar sulolasi (819-1005 yy) haqida bir qator qimmatli ma‘lumotlarni, jumladan, mazkur sulola vakillari hukmronligining xronologik jadvalini ko‘rish mumkin.[1]

Kitobda somoniylarning Balx (hozirgi Afg‘oniston hududida) atroflaridan kelib chiqqanligi taxmin qilinadi. Sulola asoschisi Somonxudotning islomni qabul qilishi va uning nabiralari – Nuh, Ahmad, Yax‘yo va Ilyoslarning arab xalifasi xizmatida bo‘lib, Movarounnahr va Xurosonning 4 ta viloyatida – Samarqand, Farg‘ona, Shosh va Ustrushona hamda Xirotda hokimlik qilgani, ulardan biri Ahmadning barcha yerlarni o‘z qo‘lida birlashtirib, deyarli mustaqil hukm yuritganligi haqida ma‘lumotlar beriladi va sulola hukmronligining xronologik jadvali ilova qilinadi. Muallif tomonidan Ismoil Somoniy hukmronligi tarixiga alohida e‘tibor qaratilib, uning Xurosonda Safforiylar ustidan va Tabaristonda Ziyodiylar ustidan g‘alabaga erishib, markazi Buxoro bo‘lgan davlatning hukmdori sifatida O‘rta Osiyo va Eron ustidan to‘liq nazorat o‘rnatdi, deya ko‘rsatib o‘tadi. Shuningdek, muallif keyinchalik somoniylarning o‘z kelib chiqishini sosoniylar bilan bog‘lashga da‘vo qilgan edi, deya bahsli ma‘lumotni keltirib o‘tsa, Somoniylar davlatiga Qoraxoniylar va G‘aznaviylar tomonidan barham berildi, deya to‘g‘ri ma‘lumotlarni ham keltirib o‘tadi[1].

Rossiyalik tadqiqotchilar S.G.Klyashtorniy va D.G.Savinovlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy

tadqiqotlardan birida Yevroosiyoda hukm surgan eng yirik sanalgan bir qator davlatlar va saltanatlar haqidagi ma‘lumotlar tahlili o‘rin olgan[1].

Kitob ikki qismdan iborat bo‘lib, S.G.Klyashtorniy tomonidan manbaviy tahlil asosida yoritilgan birinchi qismi “Степные империи: рождение, триумф, гибель” deb nomlangan[1]. Kitobning ikkinchi qismi D.G.Savinovga tegishli bo‘lib, arxeologik materiallar asosida yoritib berilgan va “Древнетуркские племена в зerkale археологии” deb nomlangan.[1]

Bunda diqqatimizni tortadigan jihatlardan biri Uyg‘ur xoqonligi, Qarluqlar xoqonligi, Qarluqlar va Somoniylar hamda Qoraxoniylar davlatlari haqida keltirilgan bir qator qimmatli ma‘lumotlardir.

O‘rganilayotgan davr tarixiga oid amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlardan biri tojikistonlik tadqiqotchi S.K.Mullodjonov tomonidan amalga oshirilgan “Vliyanie religioznogo faktora na politicheskuyu i sotsialno-ekonomicheskuyu jizn Xorasana i Maverannaxra (IX – XI vv.)” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasidir[1].

Dissertatsiyada IX – XI asrlar davomida Movarounnahr va Xurosonda ma‘naviy hayot, Saljuqiylar, Somoniylar va G‘aznaviylar davlatlarining madaniy va ma‘naviy hayoti, ko‘rsatilgan davlatlarning boshqaruv tizimida dinning ta‘siri kabi masalalarga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Muallifning ta‘kidlashicha, dastlabki hukmronlik qilgan Somoniylar sulolasi vakillari islom diniga kuchli amal qilmagan bo‘lsalar, sulolaning keyingi vakillari hukmronligi davrida islom dinining boshqaruvdagi o‘rni kuchayib borganligi, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G‘aznaviylarda esa islom dinidan aholini boshqarishda foydalanilganligi ko‘rsatib o‘tiladi[1].

Shuningdek, Movarounnahr va Xurosondagi boshqaruv tizimi eron(tojik) boshqaruv an'analari asosiga qurilganligi alohida ta'kidlanadi[1].

Shunday tadqiqotlardan yana biri M.Karimov tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, "Stroitelnaya kultura Maverannaxra. IX-nachala XIII vv." deb nomlangan bo'lib, ko'rsatilgan davrda Movarounnahrda qurilish ishlari, me'morchilik va me'morchilik uslublari, ularning asosiy jarayonlari, qurilish xom ashyolari va boshqalar haqida atroflicha ma'lumotlar o'rin olgan[1].

Somoniylar davlati tarixiga oid amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlardan yana biri tojikistonlik tadqiqotchi Xodadadi Ezatollax Gulamreza tomonidan tadqiq etilgan "Mejdunarodnye svyazi gosudarstva samanidov (IX-X vv.)" nomli ilmiy tadqiqot ishidir.[1]

Dissertatsiyada Somoniylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelish masalalari, davlat boshqaruv tizimining shakllanishi va Somoniylar davlatining tashqi siyosiy aloqalari tarixi, Somoniylar davlatining Arab xalifaligi va boshqa qo'shni davlatlar bilan aloqalari tarixi, Somoniylar davlatining Yevrosiyo mintaqasidagi mavjud davlatlar, jumladan, Xitoy, Kiev Rusi, Xazarlar, Volga bo'yi davlatlari bilan aloqalari tarixi, tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy xususiyatlarini aniqlash, Buyuk Ipak yo'li savdo munosabatlarida Somoniylarning o'rnini ko'rsatib berish kabi bir qator masalalarni yoritib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yilgan bu ilmiy tadqiqot ishida Somoniylar davlati va davlatchiligi tarixi masalalari bilan bog'liq bir qator jarayonlar ko'rsatib berilgan va tadqiqot amalga oshirilgan.

Somoniylarning kelib chiqishi borasidagi bildirilgan fikrlarga nazar tashlansa, ko'rish mumkinki, tadqiqotchi Somoniylarning ajdodlari mahalliy zardo'shtiy Eron hukmdorlaridan kelib chiqqan, deb ko'rsatadi. Muallifning ta'kidlashicha, somoniylarning kelib chiqishi Sosoniy shohlaridan biri Xo'rmuz IV va Xusrav Parvez davrida bosh qo'mondon bo'lgan Bahrom Cho'binga borib taqaladi, deb ko'rsatib o'tadi[2].

Somoniylar davlatining shakllanishi va markazlashuv jarayonlari haqida to'xtalib o'tib, muallif Ismoil Somoniyning hokimiyat tepasiga kelishi bilan amalda Somoniylar davlatining markazlashtirish jarayonlari yakunlandi va, shu tariqa, Ismoil Somoniylar qudratli tojik davlatiga asos soldi, deb ko'rsatib o'tadi[2].

Muallifning bu fikrlari boshqa tadqiqotlar bilan taqqoslanganda, bir oz munozaralidir.

Tadqiqotda Somoniylar davlatining siyosiy tarixi jarayonlari bilan bir qatorda davlat boshqaruviga oid ma'lumotlar, iqtisodiy sohaga oid ma'lumotlar, xususan, Xitoy, Hindiston, Eron, Iroq, Volgabo'ylari va Yenisey havzasi hududlari va boshqalar bilan Buyuk Ipak yo'li orqali amalga oshirilgan iqtisodiy munosabatlari tarixi yoritib berilgan.

Xorij tarixshunosligi doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlardan biri sifatida tojikistonlik tadqiqotchi N.B.Najotovaning "Gaznevido-seldjukidskie

otnosheniya v XI-XII vv." nomli dissertatsiyasini ko'rsatib o'tish mumkin[2].

Tadqiqotchi tomonidan g'aznaviylar va saljuqiylar davlatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tarixining uch davrga bo'lib o'rganilishi e'tiborni tortadi. Xususan, muallifning ko'rsatishicha, tadqiqotning asosiy xronologik chegarasi XI-XII asrlarni o'z ichiga olib, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar tarixining birinchi bosqichi Maxmud G'aznaviy hukmronligi yillariga, ya'ni 999-1030 -yillarga to'g'ri kelsa, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar tarixining ikkinchi davri Mas'ud G'aznaviy hukmronlik qilgan 1030-1040- yillarni o'z ichiga oladi. Saljuqiylar va G'aznaviylar davlatlari o'rtasidagi munosabatlarning uchinchi davri esa 1040-1187- yillarni o'z ichiga olishi ko'rsatib o'tilgan[2].

Tadqiqot mazmunidan ko'rish mumkinki, saljuqiylar davlati XI asrdan boshlab deyarli butun O'rta Osiyo, Eron, Afg'onistonning bir qismi, Kavkazorti, Kichik va Old Osiyoni o'z qo'l ostida birlashtirgan yirik davlatga aylanganligi, Saljuqiylar hukmronligi davrida turkman xalqining shakllanishi jarayonlarining kuchayib borganligi ko'rsatib beriladi[2].

Yana bir amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot qirg'izistonlik tadqiqotchi Mexmet Kылдыроглуга tegishli bo'lib, "Etnopoliticheskie svyazi kыргызov i kыpchakov vo vtoroy polovine IX-XVI vv" deb nomlangan. Tadqiqot asosan qirg'iz-qipchoq etnonimi va etnik tarixi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ayrim hollarda Qoraxoniylar davlatiga oid ma'lumotlar ham keltirib o'tiladi[2].

Somoniylar davlati tarixiga bag'ishlab o'tkazilgan (1999-yil, Sankt-Peterburg, Rossiya) ilmiy anjuman materiallarini ham o'rganilayotgan mavzuning tarixshunoslik tadqiqotlari doirasiga kiritish mumkin. Mazkur konferensiyada tadqiqotchi B.A.Beleniskiy tomonidan e'lon qilingan "Istoki samanidskoy sivilizatsii" nomli ilmiy maqolada Somoniylar davlatining va sulolasining tarixiga bag'ishlangan bir qator ilmiy fikrlar ilgari surilgan va ayrim manbaviy ma'lumotlarning tahlili amalga oshirilgan[2].

Bu davr tarixiga oid amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlardan biri qozog'istonlik tadqiqotchi T.S.Jumaganbetov tomonidan amalga oshirilgan "Stanovlenie i razvitie gosudarstvennosti drevnix tyurkov. (VI-VIII vv.)" nomli dissertatsiyadir. Bu dissertatsiyada qadimgi va ilk o'rta asr turkiy xalqlarning davlatchiligi, siyosiy, iqtisodiy hayotidagi an'anaviy jarayonlar tarixi va tahlili yoritib berilgan. Dissertatsiya materiallari asosida keyingi davrda shakllangan turkiy davlatlar davlatchiligiga asos bo'luvchi bir qator ma'lumotlarni olish mumkin[2].

Xorij tarixchilarining ilmiy tadqiqotlari tahlilidan ko'rish mumkinki, aksariyat amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar kompleks xususiyatga ega bo'lib, shu davr tarixiy jarayonlari tadqiqini to'liq qamrab olgan. G'arb tarixchilarining tadqiqotlarida asosan turkiy davlatlar – Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, O'g'uzlar, qarluqlar kabilarning tarixi yetakchi o'rin tutgan bo'lsa, Eron va boshqa sharq tarixchilarining

ilmiy tadqiqotlarida asosan Somoniylar davlatining tarixi kengroq yoritilgan. Bu tadqiqotlar orasida Somoniylar davlati tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlarning ilmiy xulosalarida bir-biriga zid keluvchi turli fikrlarni uchratish mumkin, asosan bunday holat somoniylarning kelib chiqishi bilan bog'liq masalalarda o'z aksini topgan.

Yuqorida tarixshunoslik tadqiqotlari doirasida ko'rib chiqilgan ilmiy tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi chorak asr davomida IX-XIII asr o'zbek davlatchiligi tarixi yuzasidan yurtimiz tarixchilari va qardosh mamlakatlar tarixchilari tomonidan bir necha o'nlab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan va yuzlab ilmiy maqolalar e'lon qilingan va aytish mumkinki, bu borada sezilarli ilmiy muvaffaqiyatlarga erishilgan. Yurtimizda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar orasida Sh.Kamoliddinning Somoniylar davlati bo'yicha, B.Maxmudovning Qoraxoniylar davlati tarixi bo'yicha, akademiklar A.Asqarov hamda K.Shoniyozovlarning shu davrda o'zbek xalqining shakllanishi bosqichi borasida amalga oshirilgan tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi[2].

IX-XIII asrlar o'zbek davlatchiligi tarixiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar va nashr ettirilgan

ilmiy ishlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Tarixshunoslik tadqiqotlari va tahlili shuni ko'rsamoqdaki, tadqiqotlar orasida aksariyat ko'pchiligi Somoniylar davlati tarixiga bag'ishlangan bo'lsa, keyingi o'rinlarda Qoraxoniylar va Anushtakin Xorazmshohlar davlatlari tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlar tashkil qilmoqda. Ayrim hollarda kompleks tarzda amalga oshirilgan madaniyat tarixi, iqtisodiy va harbiy sohaga oid tadqiqotlarni ham kuzatish mumkin. Bundan xulosa qilish mumkinki, bu davr tarixining alohida tadqiqot ob'ektlari ustidan ilmiy tadqiqotlarni yanada kuchaytirish, ayniqsa, manbashunoslik sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning mohiyati va ko'lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilarga umumiy xulosa sifatida aytish kerakki, o'rganilgan tadqiqotlardagi xulosalar tahlilidan kelib chiqqan holda, IX-XIII asr boshlari o'zbek davlatchiligi tarixini, so'nggi chorak asr davomida ilmiy muomalaga kiritilgan asarlar va tadqiqotlarni yanada chuqurroq tahlil qilgan holda va, ayni vaqtda, yangi qo'lga kiritilgan tarixiy dalillar va manbalarni ilmiy tadqiqotlar doirasiga jalb qilgan holda, yanada to'liqroq va kengroq doirada o'rganish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kamoliddin Sh. "Происхождение Саманидов". Т.: "Ma'naviyat"- 2007.

MAHALLA FAOLIYATIDA TARBIYANING O'RNI: YANGICHA TALQIN VA YONDASHUVLAR

Valiqlul ISHQUVVATOV – TDPU "O'zbekiston tarixi va tarix o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Maqolada mahalla va oliy ta'lim muassasasi munosabatlari, uning ijtimoiy mohiyati, ularning yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati yoritilgan.

В статье рассматриваются взаимоотношения махалли и учреждений высшего образования, их социальная значимость, сущность и роль в процессе воспитания и образования молодого поколения.

This article is surveyed relationship between mahalliya and institutions of high education, their social gist and role in the upbringing process and education of young generation.

Tayanch so'zlar: mahalla, o'z-o'zini boshqarish, oila, ta'lim, tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy takomillashish.

Ключевые слова: махалля, самоуправление, семья, образование, воспитание, духовно-просветительское совершенствование.

Key words: mahalliya, self-government, family, education, upbringing, spiritual and educational improvement.

Mamlakatimizda, barcha sohalarda bo'lgani singari, mahalla tizimi faoliyatida ham ulkan islohotlar amalga oshirila boshlandi. Uzoq yillar davomida shakllanib, xalqimizning o'ziga xos an'naviy hayot tarziga aylangan mahalla mustaqillik yillarida tom ma'noda yangi maqomga ega bo'ldi. Jamiyatimiz hayotida amalga oshirilayotgan jadal islohotlar natijasida barcha shahar, qishloq va ovullarda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyati yangicha mazmunda tashkil qilinib, ularning nufuzi kun sayin orta boshladi.

Bugungi jadal islohotlar jarayoni mahalla, uning boshqaruv tizimini, ijtimoiy-huquqiy faoliyatini yangicha mezonlar asosida tashkil etishni, zamonaviy talablarga javob beradigan o'zini o'zi boshqarish organining o'ziga xos tizimini shakllantirishni, uning ish faoliyatini samarali tashkil etishni taqozo etmoqda. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti tomonidan 2017-yil 3-fevralda yangi tahrirda qabul qilingan «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmon muhim qadam bo'ldi.

Farmonning oldingi qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlardan farqi shundaki, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi huzurida tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari, shuningdek, respublika kengashi va hududiy kengashlar huzurida yoshlar ishlari, diniy-ma'rifiy masalalar, keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha rais o'rinbosarlari lavozimlari joriy etildi.

Ayniqsa, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati samaradorligini, joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirishga katta ahamiyat berilganligi bejiz emas.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan joylardagi mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining bevosita ishtiroki orqali har tomonlama yetuk, barkamol avlodni shakllantirishga katta e'tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, so'nggi paytlarda jamiyatimizda uyushmagan yoshlar muammolarini hal etish va ular bilan ishlash tizimini yanada yaxshilash zarurligi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Bu jarayonda mahallaning o'ziga xos o'rni borligi barchaga ayon bo'lmoqda.

Keyingi yillarda bu borada olib borilayotgan ishlarda qator yechimini kutayotgan muammolar borligi ayon bo'lishi bilan birga, ularni hal qilishda mahallaga tayanish zarurligi ravshanlashmoqda. Vaholanki, ushbu tuzilmaning ish faoliyatini tanqidiy tahlil asosida ko'rib chiqish, mahallalarda qat'iy tartib-intizom o'rnatish, mahalla oqsoqollari faoliyatida shaxsiy javobgarlikni kuchaytirish muhim vazifalardan biriga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar qatorida mahallalarda yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik holatlarining oldini olish, tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga to'siq bo'layotgan holatlarni bartaraf etish, oilaviy tantanalar va marosimlarni tashkil etishda ortiqcha dabdababozliklarni yo'qotish, bu borada mahalla profilaktika inspektorlari va posbonlar, tuman hokimliklari bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish kabi masalalarni yechish shular jumlasdandir. Shuningdek, mahallalarda kam ta'minlangan, ehtiyojmand oilalarni moddiy va moliyaviy, uy-joy bilan ta'minlashdagi sansalorliklar, mahalla profilaktika inspektorlarining ish samarasi va mas'uliyatini oshirish masalalari hamon hal etilishi lozim bo'lgan muammolar qatorida turibdi.

Bizningcha yoshlarga oid davlat siyosati, ayniqsa, uyushmagan yoshlar masalalarini hal etish, jinoyatchilik, korrupsiya, el-yurt taqdiriga loqaydlik, diniy ekstremizmga moyil fuqarolar bilan ishlash, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarida yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Mahallada millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, hamjihatlikni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalash, nogironlar, yetim-

yesirlarni ijtimoiy himoyalashning ilg'or usullarini ishlab chiqish kabilar shular jumlasidandir.

Bugungi murakab dunyo, ya'ni globallashtirish jarayonlarida har xil "ezgu" niqoblar ostida "ommaviy madaniyat" tahdidi hayotimizga turlicha yo'llar bilan xuruj solayotgani sir emas. So'nggi paytlarda internet tarmoqlari va mobil aloqa vositalarida turli jangari filmlar, yoshlarni soatlab o'tirishga "majbur" qilayotgan kompyuter o'yinlari beto'xtov yovuzlikni targ'ib qilib, turli xorij seriallari ularni fahsh hamda buzuqlik ko'chasi sari chorlayotgani tayin. Buning ustiga turli reklama va kliplar, yaratilayotgan jangari kinofilmlar, reklama roliklarida targ'ib etilayotgan turlicha kiyinish va so'zlashuv "madaniyati", umuman turmush tarzimizga to'g'ri kelmaydigan holatlarga yo'l qo'yilayotgani achinarli holdir. Vaholanki jamiyat hayotiga xavf solayotgan ommaviy madaniyat tahdidlarining eng xavfli tomoni shundaki – u to'satdan kirib kelmaydi. Avvalo, juda kichik detallar, arziyas voqealar orqali odamlarni o'ziga tortadi. Sekin asta yoshlarni o'z domiga tortadi. Ana shunda 3-4 yoshdagi farzandimiz repper bo'lib kuylasa ham, o'g'limiz qulog'iga zirak taqib, qizimiz yirtiq shimni kiyganida ham "zamona zayli", deya beparvo bo'lamiz. Hattoki, farzandimizning zamonaviylikidan quvonamiz. Bunday sharoitda mahallalarda bunday salbiy holatlarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar barkamol shaxsni tarbiyalashning birdan-bir yo'lidir.

Agar uzoq yaqin tariximizga murojaat etsak, ma'naviy barkamol inson haqidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar, falsafiy fikrlar kecha yoki bugun paydo bo'lgan emas. Ularning ildizlari uzoq o'tmishga, xususan, sharq mutaffakirlari ijodiy, falsafiy ta'limotlariga, buyuk ma'naviy merosiga borib taqaladi. Ayni paytda dunyoda eng rivojlangan demokratik mamlakatlar tarixiy taraqqiyotini o'rganish shundan dalolat bermoqdaki, biron-bir jamiyat ma'n'an barkamol avlodni voyaga yetkazmasdan turib, buyuk o'zgarishlarga, taraqqiyotga erisha olmaydi. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining taqdiri, uning kelajagi ham bundan mustasno emas, albatta.

Mamlakatimiz mustaqilligi yillarida mahallada ayrim muammolarni hal etishda inson manfaatlari va omili hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi tobora oydinlashmoqda. Bu borada 1997-yil 1-yanvardan boshlab mahallalar, ya'ni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga kam ta'minlangan oilalarni hisobga olish, ularning muhtojlik darajasini aniqlash, serfarzand oilalarga nafaqa belgilash kabi vakolatlar berilib, qator vazifalar yuklandi. Agar raqamlarga murojaat etadigan bo'lsak, 1998-2017-yillar, ya'ni so'nggi salkam 20 yil ichida ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarning 36% nafaqalar olganligi buning dalilidir. O'rtacha nafaqa miqdori bitta oilaga 1996 yilga nisbatan besh barobar o'sgan.

Bugun ushbu tizim izchil davom ettirilib, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini davlat tomonidan moddiy ta'minlash doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. 1997-yil sentyabr oyidan boshlab, har yili 1-sinf o'quvchilariga bepul o'quv anjomlari,

darsliklarni berish joriy etildi, kam ta'minlangan oilalarning boshlang'ich sinflarda o'qiydigan bolalariga bepul qishki issiq kiyimlar, 2017-yildan e'tiboran shunday oilalarni uzoq yilga mo'ljallangan arzon uy-joylar bilan ta'minlash tizimi joriy etilganligi hamda maktabgacha ta'lim muassasalari tizimini isloh qilish borasidagi chuqur islohotlar amalga oshirilayotganligi buning yaqqol dalilidir.

Olib borilgan izlanishlar, sotsiologik so'rovlar shuni ko'rsatdiki, mahallalarda bu borada hali ko'pgina yechimini kutayotgan muammolar borligi ayon bo'lmoqda. Buning uchun kelajakda bu borada muhim ishlarni amalga oshirishimiz, mahallaning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish uchun uning faoliyatini tanqidiy ruhda ko'rib chiqishimiz zarurligini ta'kidlash o'rinli, albatta. Shuning uchun amalga oshirilayotgan bugungi jadal islohotlar davrida O'zbekistonda mahalla tizimi faoliyatini yanada samarali tashkil etish va rivojlantirish uchun qator ilmiy-amaliy takliflar va tashabbuslarni ilgari surish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Ular quyidagilar:

Birinchi, mahalla raisining vakolat muddatini 2.5 yildan kamida 4 yilgacha uzaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning bir qancha sabablari mavjud. Vaholanki, oqsoqolning mahallada har tomonlama, tizimli ish olib borishi uchun 2,5 yil bizningcha qisqa muddat. Raisning to'laqonli shu mahalladagi xalqning chinakam ishonchini qozonishi va o'z ish faoliyatini tizimli, samarali tashkil etishi uchun 4 yoki 5 yillik vakolat muddatini belgilash maqsadga muvofiq;

Ikkinchi, mahalla raisligiga o'z nomzodini qo'ygan fuqarolarni tuman va shahar hokimliklari huzurida tuzilgan maxsus komissiya ishtirokida attestatsiyadan o'tkazish tizimini joriy etish, ularning ma'naviy-ijtimoiy bilim darajasini aniqlashning muqobil tizimini tatbiq etish lozim. Vaholanki, hamon aksariyat mahallalarda mahalla raislarining ma'naviy, ijtimoiy bilim darajalari yetarli emas. Ularning aksariyati o'z lavozimlariga mos emas, ya'ni ularning faoliyatini yangicha asosda ko'rib chiqish payti kelganligini ta'kidlash o'rinli.

Uchinchi, hamon aksariyat mahalla idoralari moslashtirilgan binolarda yoki mahallaning ko'rimsiz joylaridagi eski binolarda joylashgan. Taklifimiz shundan iboratki, respublikamizning barcha hududlarida joylashgan mahalla idoralari va profilaktika inspektorlari uchun bir xil loyihaga ega

bo'lgan yangicha uslubdagi ma'muriy binolar qurish maqsadga muvofiqdir. Bizningcha mahalla profilaktika inspektorlari va mahalla raisining ish o'rinlarini bir joyda, bir-biriga uyg'un holda tashkil etish maqsadga muvofiq;

To'rtinchidan, respublikamizdagi barcha mahalla idoralari markazlashgan boshqaruv tarzida onlayn aloqa orqali "Respublika Mahalla xayriya jamoat fondi" ning yagona onlayn tarmog'iga ulash maqsadga muvofiq;

Beshinchidan, respublikamizda faoliyat yuritayotgan barcha mahallalar ishini muvofiqlashtiruvchi "Respublika mahalla boshqaruvi markazi"ni tashkil etish ular faoliyatini tizimli tashkillashtirish imkonini beradi;

Oltinchidan, mahallalarning nomlarini yana bir bor qaytadan ko'rib chiqish, eskicha mahalla nomlarini olib tashlash, ularning o'rniga tarixiy atamalar va yangicha ma'no-mazmunga ega bo'lgan joy nomlari (toponimlar) ni berish zarur, deb o'ylaymiz;

Yettinchidan, mahallada yangi tashkil etiladigan va mavjud ish yurituvchi tadbirkorlar o'z faoliyatlarini tashkil etish uchun mahalla raislari bilan bahamjihat ish olib borishlari maqsadga muvofiq. Mahalla tadbirkorlari faoliyatiga mahalla raislarining aralashuvini qonuniy jihatdan mustahkamlash zarur. So'ngi paytlarda aksariyat mahallalarda raislar o'sha hududdagi tadbirkorlar ishini tartibli va tizimli tashkil etish yuzasidan ular faoliyatiga aralashsalar, tadbirkorlar bu holatni noto'g'ri tushunayotganliklarini guvohi bo'lmoqdamiz.

Shunday ekan, yurtimizda mahallalar faoliyatini samarali tashkil etish ishini yanada takomillashtirish, uning huquqiy maqomini yanada kengaytirish borasida xalqimiz turmush tarzi bilan bog'liq an'analari va tarixiy tajribasiga tayanish payti keldi. Mahalla tuzilmasi faoliyatini O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib takomillashtirish, ularning huquqiy maqomini yangicha asosda tashkil etish, uyushmagan yoshlar muammolarini hal etish yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, yoshlar ongiga ma'naviyatimizni chuqur singdirish masalalari muhim o'rin tutadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. T.: "Xalq so'zi" -2007, 8-fevral.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni. 2017- yil 3- fevral.

3. Ishquvvatov V., Tolipov F. "Mahalla: o'tmishda va bugun". T.: "Ma'naviyat"- 2014.

3. Tolipov F., Boymurodova Z. va boshqalar. "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar". Ma'ruza matnlari. T.: TDPU- 2013.

ILMIY KASHFIYOTLARDAN TA'LIM TIZIMINI VA UNING MAZMUNINI MODERNIZATSIYALASHDA FOYDALANISH MEXANIZMLARI

Dunyo a'lo darajada moylab qo'yilgan mexanizm
va uni kimdir harakatga keltirib turishi aniq.
Rene Dekart

Saidaxbor BULATOV – TDPU “Tasviriy san’at va uni o`qitish metodikasi” kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori

Samarqandda jahon olimlarini hayratga soladigan yana bir kashfiyot aniqlandi. XV asrda Mirzo Ulug'bek rahbarligida Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi peshtoqisida ishlangan astrologik bezakda “Butun dunyo xaritasi” o'z aksini topganligi aniqlandi. Ushbu “Butun dunyo xaritasi” o'sha davrda yaratilgan birinchi va dunyoda yagona nusxa hisoblanib, 600 yil bo'libdiki, o'z yechimini kutib kelmoqda. Maqolada xuddi shu muammoning yechimi haqidagi ilmiy farazlar bayon etilgan.

Было обнаружено еще одно открытие в Самарканде, которое удивительно для мировых ученых. В 15 веке под наблюдением Мирзо Улугбека выяснилось, что карта всего мира отражена в астрологическом украшении медресе Улугбека в Самарканде. Эта «карта мира» была первой и единственной копией мира в то время и ждала своего решения в течение 600 лет. В статье представлена научная гипотеза о той же проблематичной проблеме.

Another discovery in Samarkand that is surprising to world scientists has been identified. In the 15th century under the supervision of Mirzo Ulughbek, it was revealed that the map of the whole world reflected in the astrological embellishment of the Ulughbek madrasah in Samarkand. This "Map of the World" was the first and only copy of the world at that time and was waiting for its solution for 600 years. The article provides a scientific hypothesis about the same problematic problem.

Kalit so'zlar: ramz, gallaktika, yadro, yulduz, sayyoralar, xarita, arxitektura, qanos, timsol, falakiyot, astrologiya, girih, kompozitsiya, harakat, mehrob, morpes, spiral.

Ключевые слова: символ, галактика, ядро, звезда, планеты, карта, архитектура, символ, символ, сокол, астрология, гирикс, композиция, движение, михраб, морп, спираль.

Key words: symbol, galaxy, core, star, planets, map, architecture, glyph, symbol, falcon, astrology, girix, composition, movement, mihrab, morpes, spiral.

O'zbekiston xalqlarining tarixi, qadriyatları, ilmfan, madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o'rganish va tahlil etish g'oyat muhim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi ma'ruzasida “Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma'rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki bo'lib, bu bebaho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir,”-deb ta'kidladi.

Shu maqsadda, respublikamiz hukmatining qator hujjatlari vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

Samarqand necha asrlardan bo'yon tengsiz tarixiy obidalari, go'zal me'moriy yodgorliklari bilan dovuq qozonib kelmoqda. Bu ko'hna shaharga kelayotgan sayyohlarni yodgorliklarning mahobati-yu

rangin naqshlari bilan birga ularning peshtoqlariga bitilgan milliy timsol va ramzlar ham qiziqtirishi tabiiy. Bu peshtoqlarga bitilgan milliy timsol va ramzlarda nimalar ifoda etilganligini bilish yurtdoshlarimiz uchun ham, sayyohlar uchun ham nihoyatda qiziqarlidir.

Dunyodagi hech bir joyda musulmon me'morchiligi singari bu qadar mukammal tarzda bezak san'ati mukammal qo'llanilgan emas.[1]

Butunjahon astronomiya dunyosini larzaga solgan, olti yuz yildan ortiq vaqt ichida jahon olimlari tilida va dilida doston bo'lgan buyuk Sulton, benazir alloma olim Mirzo Ulugbek hayoti, ilmiy faoliyatini o'rganish va tadbiq etish natijasida ma'lum bo'layotgan ilmiy kashfiyotlar hanuzgacha bashariyatni lol qoldirmoqda. Ko'plab ilmiy monografiyalar, uning siyosatchilik va iqtisodiyot sohasidagi faoliyati, ilmiy va ma'rifiy merosini o'rganish bo'yicha ochilgan jabhalar Mirzo Ulug'bekning ko'p qirrali fa'oliyatini ochib berish bilan birga, uning nomini manguликка muhladi. Shunday bo'lsa-da, keyingi davrda Mirzo Ulug'bekning hayoti, hukmdorlik siyosati va iqtisodiy islohotlari, me'morchilik, islom dini va ma'naviyatini keng tatbiq etish yo'lidagi yangi qirralari ochilayotganligining guvohi bo'lib turibmiz. Keyingi yillardagi olimlarimiz tomonidan buyuk munajjimning yuqoridagi fan va ijtimoiy hayot jabhalarini yoritish ishlari ob'ektiv – xolisona ravishda ochilmoqda.

Mirzo Ulug'bek yaratgan me'moriy yodgorliklarga boqsak, o'sha davrda tasviriy va amaliy san'at turlarining yuqori darajada rivojlanganligiga iqror bo'lamiz. Mirzo Ulug'bek qurdirgan rasadxonasining ichki devorlarida va shiftlarida falakiyot, yer shari, yetti iqlim bilan bog'liq bo'lgan kashfiyotlar, muhim belgi, ramz, timsol va raqamlar tasvirlari ishlangan. Bu tasvirlarni Abdurazzoq Samarqandiy quyidagicha ta'riflagan: "...u oliy bunyod va ulug'sifat imoratning xonalari ichiga to'qqiz falakning hay'ati-yu to'qqiz (osmon)doiralari shakllarini darajalar, daqiqalar, soniyalardan tortib to oshiralargacha (chizildi) hamda

aylanuvchi falaklar, yetti sayyora, sobita yulduzlar ko'rinishi va yer kurrasi hay'ati-yu iqlimlar suvratlarini tog'lar, biyobonlar ...dilnazar naqshlar-u benazir raqamlar bilan" chizildi.[1]

Mirzo Ulug'bekning do'stlari va yaqinlari orasida Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi kabi mashhur matematik-astronomlar, Ulug'bek madrasasi devoriga (rasadxonada ham chizilgan bo'lgan) yetti iqlim xaritasi chizganlar. Hozirda yetti iqlim xaritasi ko'chirib olingan nus'xasi saqlanadi. (1-rasm.)



1-rasm. Ulug'bek madrasasi hujralaridan birining devoriga chizilgan yetti iqlim xaritasining qog'ozga ko'chirib olingan nusxasi. Keyinchalik rasadxonada ham chizilgan.

Ulug'bek madrasasi peshtoqidangi qanosid kompozitsiya gulli girihdan tashkil topgan. Go'yoki yulduzli osmon inson ko'z oynasida namoyon bo'ladi. Bu yulduzlar o'ymakor koshin bo'laklaridan hosil qilingan. Girihsalar orasida mayda naqshli o'yma

marmar bezaklar ishlangan. Sangtarosh ustalar qanos bezaklarida juda mahorat bilan islmiy naqshlar bilan bezatganlarki, uzoqdan ham, yaqindan ham jozibaga ega. (2-rasm).



2-rasm. Ulug'bek madrasasi. (1417-22)

Tarixiy yodgorliklarning tasvirini tahlil qilishda badiiy, astrologik, falsafiy, psixologik, ramziy va sinergetik tahlil qilish turlarining mezonlari asosida o'rganiladi. Chunonchi, Samarqanddagi Ulug'bek memoriy yodgorligining qanosidagi astrologik bezaklarni sinergetik tahlil qilib ko'ramiz va ulardan tegishli xulosalar chiqarib olamiz.

Sinergetika (yunon. Sunergeia – hamkorlik, hamjihatlik) sistemalarning o'z-o'zidan tashkil bo'lish nazariyasi, o'z-o'zini boshqarish, hozirgi zamon nazariyasi, nochiziqli hodisalarni o'rganish, dunyoni yangicha izohlash, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy murakkab tizimli jarayonlarning tabiatini bilishga qaratilgan ilmiy yo'nalish, tafakkur uslubi.

Sinergetikani XXI asrda paydo bo'lib, taraqqiyotning yangi qirralarini tushunishga yordam berayotgan yangi tafakkur uslubi deb baholasa bo'ladi.

Sinergetika jamiyat, inson hayotida, fan taraqqiyotida ilgari uchramagan yangi munosabatlarni falsafiy tahlil qilishga harakat qiluvchi ilmiy yo'nalish sifatida paydo bo'ldi. Sinergetikaning eng muhim tomoni shundaki, u ijtimoiy va o'z-o'zini boshqaruvchi tizimlarda faoliyat ko'rsatayotgan tadqiqotchi-olimlar ishlarini ma'lum bir yo'nalishda birlashtirishga xizmat qiladi.[1]

Ulug'bek madrasasining me'mori – Qavomiddin Sheroziy (? -1440, 15 asr.) bo'lgan. U Ulug'bek Mirzoning otasi Shohruh Mirzo saroyida xizmat qilgan.


XV asrda Registonda qurilgan barcha inshootlardan bizgacha yetib kelgani Ulug'bek madrasasidir. Uning tarhi shu yo'sindagi o'quv yurtlarining kompozitsiyasiga xosdir. Hovli aylanasida ikki oshyonli qilib talabalar uchun hujralar qurilgan, g'arb tomonida — masjid, binoning to'rt tomonida talabalar yoz kunlari shug'ullanadigan endor ayvonlar joylashgan, sharq tomonida — ikki yonini yuksak minoralar egallagan, ancha ichkarilab kirgan daromad ravoqning burchaklarida yulduz naqshli girih — yulduzli osmon tasvirlangan. Ulug'bek uchun bu mavzu tasodifiy emas: u hayotini falakiyot ilmiga bag'ishlagan, madrasa o'quvchilari fanni egallashlari, ta'lim berish tartibini diniy qoidalar doirasi bilan cheklab qo'ymaslik kerakligiga ishora qilardi. "Intilish — har bir er va ayol musulmonning burchidir," - degan so'zlar ma'rifatparvar podshohning o'ziga xos aqidasi edi.

Handasiy naqshlardan iborat girih ravoq toqining asosiy naqsh qit'alariga ajratilishini belgilaydi.


Yon peshtoqlarning yirik miqyosdagi naqshlari uzoqdan kuzatishga mo'ljallangan. Ularning osuda ustida handasiy naqshli gilam to'shab qo'yilgandek.

Ulug'bek madrasasi bezaklarini geometrik naqshlar, yozuvli naqshlar va o'simliksimon naqshlar egallagan. Eng ko'p ishlatilgan naqsh geometrik girih ya'ni xandasiy naqshlardir. Xandasiy naqshlar juda katta matematik aniqlikni talab qiladi. Geometrik naqshlarda borliqning hammasi aniq o'lchamga va shaklga egaligiga ishora qilingan. Yulduzsimon naqshlarning ko'p ishlatilishi Ulug'bek bor umrini falakiyot ilmiga baxshida etganligini bildiradi. Minoralardagi geometrik naqshlar ichiga yozuvli naqshlar uyg'unlikda berilgan. Qanosda esa 5-8-16 rahli yulduzli girih kompozitsiya ishlangan bo'lib, ular aylanma harakat ko'rinishida tasvirlangan. Girihlar bir-birlari bilan uzviy bog'langan.

4-rasmda Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi qanosidagi bezaklarining tahlili berilgan bo'lib, shu bezaklarni birma-bir ramziy tahlil qilib chiqamiz. 1.Gallaktika. 2. Gallaktika yadrosidagi tuynuk 3. Gallaktika yadrosidagi halqa. 4.Mitti yulduzlar. 5.To'rsimon islimiy naqshlar. 6.Yulduzlar. 7.Yulduzlar o'qi. 8.Geometrik naqshlar orasidagi o'simliksimon naqshlar. 9.Sakkiz qirrali yulduz markazi. 10. O'n olti qirrali yulduz. 11. O'n olti qirrali yulduzning o'qi. 12. Sakkiz qirrali yulduz. 13,14-munabbat naqshning to'rt tomonga takrorlanishi. 15. Mehrob.16. Morpech ya'ni arqonsimon burama naqsh. 17. Olti qirrali yulduzchadan tashkil topgan hoshiyasimon naqsh. Qirrali yulduzcha.



3-rasm. Ulug'bek madrasasi qanosidagi bezaklarda dunyo xaritasi o'z aksini topgan.



4-rasm. Ulug'bek madrasasi qanosidagi bezaklar tahlili.

Minoralar. Ulug'lik, tantanavorlik, g'alaba, inson bilan koyinotning uyg'unligi va uzviy bog'liqlik ramzi. Ikki minora esa til bilan dil uyg'unligi. Ikki olam uyg'unligi, ikki olam saodatini bildiradi. Ulug'bek madrasasidagi to'rtta minora esa dunyoning to'rt ustunini bildiradi. Dunyo to'rt unsuridan tashkil topgan.

Minora tepa qismida guldastadagi muqarnaslar. Minora tepa qismidagi guldastadagi muqarnaslar bamisoli gallaktikadagi yulduzlar tizimining harakatlarini aylanma harakatini ramziy ifodasini bildiradi.

Morpech. Harakat va hayot ramzi. Olamdagi barcha narsalar harakatda. Harakatning abadiylikni, dunyo abadiy harakatdan iboratligini bildiradi. Harakat bo'lmagan joyda hayot bo'lmaydi. Ravoqdagi arqonsimon bezak, ya'ni mo'rpech mehrob shaklida berilgan. Mo'rpech spiralsimon harakatni ko'rsatmoqda. Ular koinot bilan uzviy bog'langanligini anglatadi. Dunyodagi barcha harakatlar bir nuqtadan boshqarib turilishiga ishora qilingan.

Mehrob shakli. Bir dunyodan ikkinchi dunyoga o'tish darvozasini bildiradi, qalb darvozasi hisoblanadi. Mehrob shakli ilohiy darvoza hisoblanadi, kecha va kunduzning almashib turishini, til bilan dil birligini bildiradi. Mehrobdagi naqsh qadimdan koinot bilan bog'lanish darvozasi timsolidir. Madrasa mehrob shakliga o'xshash naqsh turlari bilan bezaladi. Madrasada mehrob shaklida ishlangan tokcha, taxmon, eshik kabilar ishlangan va bezalangan.

Endi Ulug'bek madrasasi qanosidagi bezaklarning elementlarini badiiy tahlil qilamiz.

Ulug'bek madrasasi qanosidagi gulli girih kompozitsiyasi. Ulug'bek madrasasidagi qanosidagi gulli girih murakkab naqsh turiga kiradi. Bu bilan olam murakkab tuzilganligiga ramziy ma'noda ishora

qilingan. Geometrik shakllar orqali olam tuzilishi berilgan bo'lsa, o'simliksimon naqshlar orqali tiriklik, ya'ni hayot ramzi ifodalangan. Bu bilan butun olam bir-biri bilan uzviy bog'langanligiga ishora qilingan.

O'simliksimon naqshlar. Tabiat va hayot ramzi. Borliqning ipsiz to'rsimon quvvat bilan bog'lab turilishining ramziy ifodasi.

Geometrik naqshlar. Girih – geometrik naqsh hisoblanib, uning kelib chiqishi o'rta asrlarda matematikaning ravnaq topishiga bog'liq bo'lgan. Mirzo Ulug'bek davriga kelib ba'zida qanoslarni va peshtoq ravoqlari yon devorlarini bezatishda murakkab "yulduzsimon" girihlardan foydalanilgan.

Mirzo Ulug'bek davrida devorlarni bezatishda murakkab "yulduzsimon" girihlardan foydalanilgan. XV asr bezaklarida o'simliksimon naqshlar bilan mozaikali yozuvlar sahifasi o'zaro bog'langan tarzda ham namoyon bo'lgan. Bu yozuvlar "sulsiy" hatida yozilgan. Sulsiy yozuvlarini bajarishda tajribali xattotlar ishlashgan. Ular o'zlari uchun ajratilgan joyga uzun oyatlarni ustalik bilan (ba'zida ikki yoki uch qavat qilib) joylashtirishgan.


Geometrik naqshlar sayyoralarining qat'iy tartibda joylashganligi va o'z muvozanatiga egaligini anglatadi. Ularning ma'lum tartibda harakat qilishini va bir-biri bilan ipsiz quvvat bilan bog'langanligi tasvir orqali berilgan.

Ulug'bek madrasasi qanosida tasvirlangan to'g'ri chiziqlardan tashkil topgan girih kompozitsiya tasviri butun olam xaritasining ramziy ifodalashidir. Olam xaritasiga ko'z tashlasak, barcha sayyoralar mukammal joylashganligi, ularning har biri uzviy va uzluksiz bog'langanligi hamda sayyoralar qat'iy qonuniyatlar asosida aylanma (spiralsimon) harakatlanishi ko'rsatilgan. Har bir sayyora o'z o'qi atrofida aylanishini yulduzlar o'rtasida nuqtalar bilan ramziy ishora qilganligini ko'rish mumkin. Sayyoralar va butun olam mukammal yaratilganligi ramz va

timsollarda aks ettirilgan. Har bir sayyoralar o'z muvozanatini saqlab turadi. Muvozanatning buzilishi hayotning tugashini bildiradi.

O'n olti qirrali yulduzlar. O'n olti qirrali yulduz ichiga chizilgan naqshlar quyoshdan olamga taralayotgan harakat ya'ni markazdan hamma tomonga nur taralayotgandek holatda berilgan. Bu esa quyoshning (ziyo) tarqalishini va quyosh sayyorasining butun olam bilan uzviy aloqada bog'langanligi timsolida aks ettirilgan.

Gallaktika. Gallaktika- sutli, sutsimon, umumiy o'zaro tortishish kuchi bilan bog'langan hamda quyoshni ham o'z ichiga olgan 200 mlrd.dan ortiq yulduzning ulkan sistemasi. Barcha yulduzlar Gallaktika yadrosi atrofida aylanadi. Quyosh o'z atrofidagi sayyoralar bilan birga Gallaktika yadrosini 180 million yilda to'liq aylanib chiqa oladi. Ana shu nihoyatda katta vaqt oralig'i Gallaktika yili deb ataladi.



5-rasm. Gallaktika qismlari. 1.Gallaktika 2.Gallaktika yadrosi 3.Yulduzlar 4.Yulduzlarning aylanish o'qi.

Besh qirrali yulduzlar. Yulduzlar sayyoralar ramzida berilgan bo'lib, ular doim ma'lum qonuniyatlar asosida o'z o'qi atrofida aylanadi va gallaktika spiralsimon aylanish harakatini bildiradi. Besh qirrali yulduz inson umrining qisqaligini va o'tkinchiligini bildiradi. Yulduz inson umrining o'tkinchiligidan tashqari islomning 5 ta ustini, insonning 5 sezgisini, hayotni, bu dunyoga kelish va ketish nuqtasini, har bir inson o'tkinchi dunyodan hech nima olib ketmasligini bildiradi.


Sakkiz qirrali yulduz. Quyosh, oy, yulduz, ikki olam va uning uyg'unligi, birlik, juftlik, abadiylik, davriy harakat, koinot muvozanati, muntazam tartib, charhpalak va boshqalar ramzi. Bunday naqsh Markaziy Osiyoda juda keng qo'llanib kelingan.

Mazkur naqsh qadimda butun Sharqda yuqoridagi ramziy ifodaga ega. Islom dini o'rnatilgandan so'ng, bunday naqsh samodagi quyosh, oy, yulduzlar ramzini ifodalay boshlagan.

Ranglar. Amir Temur va temuriylar davri arxitekturasida asosan ko'k, moviy va oq sirli g'ishtlar tekis yuzalarni bezatishda ko'proq ishlatilgan. Shuningdek, och ko'k, moviy, oq, sariq, qora kabi ranglardan devor naqshlarini ishlashda keng foydalanilgan. O'ymakor koshinlarni yaratishda esa, ko'k, moviy, oq, kamroq yashil, sariq, qora, ba'zi joylarda qizil va zarhal ranglardan keng foydalanilgan. Ulug'bek madrasasi kompozitsiyasida asosiy rang yer rangi, havo rang va oq ranglardan tashkil topgan.



9-rasm. Butun olam gallaktikalarining harakatlar tizimi.



10-rasm. Butun olam gallaktikalarining tizimi, ya'ni butun olam xaritasi.

Mirzo Ulug'bek bir qator ilmlarni bilgan, butun dunyo xaritasi taffakuriga ega bo'lgan buyuk siymo. Biz Mirzo Ulug'bekni butun dunyo xaritasini tassavur qila olgan olim deb hisoblaymiz. Bizning ilmiy

farazimizcha, Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi qanosida tasvirlangan bezaklarda dunyo xaritasi o'z aksini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Toshkent shahri, 2017- yil 23- iyun. "Ma'rifat" gazetasi - 2017, №50.
2. Abdurazzoq Samarqandiy. "Matlai sa'diyi va majmai bahrayn". T: -1969, 278-b.
3. "Falsafa fanidan qisqacha izohli lug'at". M.N. Abdullaeva va boshqalar. T.: "Sharq"- 2007, 204-284-b.
4. Komilxon Kattayev. "Samarqandnoma". T.: "Mashhur-press"- 2017, 101-103-b.
5. Navoiy Alisher. "Sab'ai sayyor". T.: "Adabiyot va san'at nashryoti"-1977, 6-b.
6. Mamadazimov T. "Mirzo Ulugbek davri arxitekturasi". T.: "TAQI"-2014, 161-b.
8. Bulatov S., Saipova M. "Go'zallikdagi koinot falsafasi". T.: "Iqtisod-moliya"-2016.
9. Bulatov S., Saipova M. "Badiiy tahlil tamoyillari. T.: "Fan va texnologiya"- 2016, 260- b.

UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARINI MILLIY RUHDA TARBİYALASHDA O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARIDAN FOYDALANISH MASALALARI

Shavkat RAXIMOV - TDPU "Musiqiy ta'lim" kafedrası professori

Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarida o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashda musiqiy cholg'ularning o'rnini va ahamiyatini xususida so'z boradi.

В данной статье идёт речь о роли и значении музыкальных инструментов в воспитании национального духа у учеников начальных классов

This article tells us that the role and importance of musical instruments in educating pupils with national spirit in secondary schools.

Kalit so'zlar: *musiqa, kuy-ohang, milliy cholg'u asboblari, legato, stakkato, musiqiy ruhiyat.*

Ключевые слова: *музыка, мелодия, национальные музыкальные инструменты, legato, стаккато, музыкальная духовность.*

Key words: *music, melody, national musical instruments, legato, stakkato, musical spirit.*

Umumta'lim maktablari o'quvchilarini milliy ruhda tarbiyalash deganda, avvalo, Ona-Vatanga, tug'ilib o'sgan zaminga bo'lgan muhabbat, uni sevish, ardoqlash, himoya qilish, boshqalarni ham shunga da'vat etish, Vatan ravnaqi, rivojlanishi uchun uning bir siqim tuprog'iga xiyonat etmaslik va aksincha, sidqi dildan mehnat qilish tushuniladi. Inson milliy ruhi deganda uning vatanparvarligi, jamiyat, tabiat, zamon va makon oldidagi burchi, shu xududda yashayotgan barcha kishilarni, turli millat va elatlarni birdamlikka birlashtiruvchi muhim omil ekanligi hammamizga ma'lum. Vatan - arabcha so'zdan olingan bo'lib, "Ona yurt" degan ma'noni anglatadi. Vatan insonning kindik qoni to'kilgan, avlod va ajdodlari tug'ilgan joy, ijtimoiy muhit va inson, uning hayoti va ma'naviy tushunchalarini o'zida mujassam etsa, milliy ruh deganda endi o'sib kelayotgan yosh avlodni shu millat, xalq, jamiyat va vatan uchun fidoiy qilib tarbiyalash tushuniladi. Nazarimizda, Vatan va milliy ruh bir-biriga juda yaqin. Ular bir-birini to'ldirib, ta'lim va tarbiyada juda katta vosita bo'lib xizmat qiladi [1, 2].

Umumta'lim maktablarining o'quvchi yoshlarini milliy ruhda tarbiyalashda ularni Ona-Vatanga sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo'lishga undaydigan shunday ma'naviy vositalar borki, ular asosida ta'lim va tarbiya masalalarini sifat va samaradorlikka ko'tarish mumkin. O'zbek milliy cholg'ulari otabobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan meros. U asosida shu zaminni sevish, yurtning o'tmishi va kelajagi, xalq urf-odatlarini, kuy-qo'shiqlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish ishlarini yuqori saviyada tashkili etish mumkin. Milliy vatanparvarlik g'oyalari o'quvchilar ongiga singdirish oila, bog'cha, maktabda boshlansada, akademik litsey, kasb-hunar kollejariva oliy ta'lim muassasalarida davom ettiriladi. Bu jarayon bobolar o'giti, ona mehri, ota ibрати, ustozlar na'munasi orqali singdirilib boriladi. Milliy-ma'naviy g'oyalar o'quvchilar qalbi va ongiga singdirishda adabiyot, tasviriy san'at, tarix, musiqa birgalikda va hamjihatlikda olib boriladi. Ular orasida musiqa yosh avlodni tarbiyalashning eng oddiy va samarali vositasidir. Umumta'lim maktablari

o'quvchilarini milliy ruhda tarbiyalash masalasini maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlash lozim. Chunki bolalar musiqa bilan ona allasi orqali tanish. Bu biz uchun ancha qo'l keladi. Qolaversa, radio, telvideniya, kino, badiiy filmlarda yaralayotgan kuy-ohanglar har qanday qalbni zabt etmay qolmaydi. Bevosita va bil vosita musiqiy mashg'ulotlar orqali olinadigan musiqiy axborotlar bolalar uquvini xalq musiqasi va turli-tuman shakldagi musiqa sadolari bilan ham boyitib boradi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash musiqa ta'limining asosini tashkil etadi. Garchi, musiqa madaniyati fani dasturida o'zbek xalq musiqasi ma'lum tartibda berilgan bo'lsada, har bir ohang mazmunida milliy ruhiyatni o'zida mujassam etgan kuy va qo'shiqlar gavdalanadi [3, 4, 5]. Shunday ekan, umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati fani darslarida o'zbek milliy cholg'ularining turlari haqida birma-bir ma'lumot berib borish orqali o'quvchilarni milliy ruhiyatini tarbiyalab borish ko'nikmasini shakllantiramiz.

Musiqa o'qituvchisi o'quvchilarning yoshi, sinfi, ovoz diapazoni, qiziqishiga qarab, yoshlarni milliy ruhiyatini tarbiyalovchi Vatan, O'zbekiston, davlat ramzlari, ota-ona, tabiat haqidagi qo'shiqlarni tinglash barobarida ushbu asarlarning kuy-ohanglari, milliy kuy, ushbu ohang tarqatayotgan o'zbek musiqa cholg'u asboblari, ularning rasmi tushirilgan tarqatma materiallar yoki umumta'lim maktabi fondida mavjud bo'lgan musiqiy cholg'ularni tanishtirish, ularning sadolanishi xususida fikr-mulohazalar berib borishlari ko'zlangan maqsad sari yetaklovchi vositadir.

Musiqa darslarida eng qiziqarli faoliyat turi bu o'quvchilarni musiqiy cholg'ular bilan tanishtirish, unda kuy ijro etishni o'rgatish. O'quvchi o'zi eshitayotgan kuylarni o'zi milliy cholg'usida ijro etishi uning uchun juda qiziqarli faoliyatdir. Bu faoliyat o'quvchilarni ijodkorlikka undaydi. O'quvchilar cholg'u asboblari jonli tovushli milliy cholg'ularda ijro etishi har bir bolani qiziqtiradi. Chapak va o'quvchilar cholg'u asboblari ritmik jo'r bo'lish, musiqaning xarakter va obrazlarni chuqurroq his etishda, ularga mos emotsional tuyg'ular hosil qilish, ayniqsa, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini

rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa mashg'ulotlarida o'quvchilarning cholg'u asboblardan foydalanishi ijobiy natijalar berish bilan birga o'quvchilarning mashg'ulotga intiluvchanligi, qiziqishi va musiqiy o'quvini, xotirasi, ritmi his qilish tuyg'usini, nutqini o'stiradi.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga olgandan so'ng, barcha sohalarida bo'lgani kami milliy cholg'ularni o'quvchi yoshiga moslab, tayyorlash masalasiga ham be'etibor bo'lmadi. Aksincha, nafaqat umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilari yoshiga mos holda milliy cholg'ularni yaratish masalasini keng yo'lga qo'ydi. Bu asboblarning kattalar ijro etadigan tabiiy asboblardan farqi - shakl jihatdan kichkina, o'quvchilarning ko'tarishi uchun yengil, qo'lga ushlashda va foydalanishda toliqish sezilmaydi, pardalarda chalish juda yengil, hatto cholg'u simlari kichkina qo'llarni qiyib yubormaydi, ya'ni ijro vaqtida o'quvchilarga qiyinchilik tug'dirmaydi.

O'quvchi yoshiga mos va xos bo'lgan cholg'ularni amaliyotga tatbiq etish masalasi ham mutaxassislar oldida turgan vazifalardan biri edi. Endi bu masalani hayotga tatbiq etish uchun ma'lum bir o'quv qo'llanma talab etilardi. Bu borada O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori A.Leviyevning xizmatlari katta bo'ldi [4, 7]. Uning "O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik" nomli qo'llanmasi yuqoridagi masalani hal etishda juda qo'l keldi. Bu kitobning o'ziga xosligi shundaki, birinchidan, o'zbek bastakorlarining o'quvchilar uchun yozgan qo'shiqlaridan keng foydalanilgan. Bu o'quvchilarda tanish bo'lgan qo'shiqlarni cholg'ularda ijro etib, kuylashlari uchun ancha qulayliklarni yaratadi. Ikkinchidan, aynan o'zbek xalq kuylaridan namunalar keltirilganligidir. Bu bog'cha o'quvchilarida yoshligidan o'zbek xalq kuylariga mehr-muhabbat hissini, ularga hurmatini uyg'otadi. O'quvchilar o'zlar o'zbek xalq kuylarini cholg'uda ijro etishsa, eslarida qoladi. Uchinchidan, bu cholg'ular tavsifi, uni ijro etish malakalari va ko'nikmalari batafsil yoritib beriladi.

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quvchilar cholg'u asboblarga jo'r bo'lishda, avval, chapak chalib, ritmik jo'r bo'ladi. Musiqa rahbari o'quvchilar kuy ritmini to'g'ri his etib, ijro etishlari uchun, o'quvchilarga stol ustiga terib qo'yilgan cholg'u asboblarda chalib, musiqaga jo'r bo'lishi haqida batafsil so'zlab berishi lozim. So'ng, biror cholg'uda kuyini o'zi ijro etib, chapak bilan jo'r bo'lishini ko'rsatadi. Keyin barchani kuyga chapak chalib, jo'r bo'lishni taklif etadi. Shundan so'ng, o'zbek milliy musiqa cholg'ularini chalishda iqtidori bor o'quvchilar birma-bir tanlab olinadi va ularga musiqiy cholg'ular tarqatilib, ijro etishning dastlabki bilimlari bilan tanishtirilib boriladi. Dastur asosida o'quv mashg'ulotlari shu zaylda davom ettirib boriladi. Birinchi ijrodagi yutuq va kamchiliklarni bartaraf qilish uchun yana bir takrorlab chiroyli, to'g'ri ijro etilishi kerak. So'ngra musiqa rahbari ijro etmagan o'quvchilarga cholg'u asboblarda jo'r bo'lishni taklif etadi. Shu tarzda guruhdagi barcha

o'quvchilar galma-gal cholg'u asboblarda jo'r bo'lishga undab, ularning qiziqishini oshirib boriladi. Cholg'ularda chalishga hamma intiladi, albatta. Shuning uchun berilgan asarni o'quvchilar xato qilmay musiqani his etishga va xotirada saqlashga harakat qiladilar. Ushbu xatti-harakatlar o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashda milliy cholg'ulardan foydalanishning birinchi bosqichi hisoblanadi.

Keyinchalik ijrochilik turlari murakkablashtiriladi. Ayni shu holda guruhni ikki jamoaga ajratilib, birinchi jamoa chapak chalib, ikkinchi jamoa esa ovozda usul berish bilan yoki cholg'u asboblarda ham jo'r bo'lishlari mumkin. Bu usulning yana bir foydali tomoni shundaki, o'quvchilarda jamoa bo'lib kuylash malakalarini, ko'povozli kuylashning ilk malakalarini rivojlantiradi [4, 5, 7].

Ijro etishning yana bir turi - o'quvchilar doirada usulni aniq va tekis cholib turadi. "Bum"ga bir jamoa o'quvchilari, "bak"ka esa ikkinchi jamoa o'quvchilari jo'r bo'lishlari mumkin. Bu, albatta, o'qituvchining mahorati, o'quvchilarni qiziqitirib, ularga yetkazib berish uslubi va o'quvchilarni qancha fursatda o'zlashtirib olish ko'nikmalariga ham bog'liq. Buni axborot texnologiyalaridan keng foydalanilgan holda olib borish ko'p jihatdan yaxshi natijalarni beradi. Chunki XXI asr yoshlari axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sir-sinoatlarini deyarli o'zlashtirib bo'lgan. Bunga shubha yo'q. Bulardan tashqari, kuyning dinamik belgilari va ifoda vositalarini ko'rsatib turish uchun ko'rgazmali vositalar, jumladan, kartochkalardan foydalanilsa ham bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bunday mashg'ulotlar juda qiziqarli o'tadi, o'quvchilarning egallayotgan bilim va ko'nikmalari mashg'ulotlar o'tgan sari mustahkamlanadi va musiqiy qobiliyatlari har tomonlama rivojlanib, ularda milliy ruhiyat shakllana boshlaydi. Agar o'qituvchi milliy cholg'ularni oilalariga ajratgan holda, masalan, "Chertib chalinadigan cholg'ular" oialasini namuna sifatida ko'rsatib, ushbu cholg'ularning ovozini to'g'ri va o'quvchi yoshiga mos pardalarda sozlab ijro etsa, hali turli shovqinli kuylarni eshitib ulgurmagan yosh qalb o'zbek milliy cholg'ularda taralayotgan kuylarga hamda ushbu cholg'uga oshno bo'lib qoladi. Yuqori sinflarda ushbu jarayon bir oz murakkablashtirilib, o'quvchilarning yoshiga mos holda shakllantirilib olib boriladi.

Musiqa mashg'ulotlarida o'quvchilar cholg'u asboblarni qo'llashi tarbiyachidan katta mas'uliyat, ijodkorlik va topqirlikni talab etadi. Umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida o'quvchilar musiqa cholg'ulari asosan ikkita guruhga, ya'ni, tovush balandligiga ega bo'lgan melodik hamda urib chalinadigan cholg'ularga bo'linadi. Ulardan birinchisi urib chalinadigan ritmik cholg'ular. Bular tarkibida doira, nog'orachalar, qayroq, yog'och qoshiqlar kiradi. Bu cholg'ularning asosiy sozlanish tonalligi - Do major [4, 7]. Almashtiriladigan plastinkalar yaqin tonalliklarda ijro etish imkoniyatini beradi. Eng pastki tovush doimo tonika bo'ladi. Ijro paytida cholg'ular o'quvchining bel qismi balandligida bo'lishi lozim. Tayoqchalarni bosh va ko'rsatkich barmoqlar orasida

yengil ushlar kerak. Bunda qo'llar tirsakdan bilaklargacha erkin holatda bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Avval o'quvchilarga tovushni ikki qo'l bilan hosil qilish taklif qilinadi. Bunda ikkala qo'lning balandligi bir xil bo'lishi lozim.

Bolalar musiqa cholg'ularida chalish - o'quvchilarning jamoaviy ijrochilik faoliyati turlaridan biridir. Uning dars mashg'ulotdagi o'rni o'quvchining musiqiy qobiliyatini yuzaga chiqarish va rivojlantirish, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining badiiy tajribasini boyitish, ijrochilik faoliyatiga qiziqish u'ygotish va eng muhimi ularda milliy ruhni tarbiyalashdan iboratdir.

Dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning cholg'u asboblari ijrochilik faoliyatini qo'llash bir necha o'quv-pedagogik vazifalarini hal etishga qaratilgan:

- o'quvchilarning milliy cholg'ularga bo'lgan mehr va muhabbatni uyg'otish va sinfdan tashqari hamda bo'sh vaqtlarida milliy cholg'ularda mashq qilish ehtiyojini singdirish;

- ularda badiiy did va qiziqishlar shakllanishiga yordam berish;

- jamoaviy bo'lib cholg'u asboblari ansambl bo'lib ijro etish ko'nikmalarini shakllantirish;

- cholg'ular tembrlarini farqlash, ularning jaranglashdagi uyg'unligini his eta olishlariga erishish;

- musiqiy qobiliyatlar - lad, ritm, shaklni his etish, tembr, melodik, garmonik eshituv, xotirani rivojlanishini faollashtirish;

- o'quvchilarda musiqiy ifoda vositalarining ahamiyati haqidagi tasavvurni shakllantirish va rivojlantirish.

Bu vazifalarni amalga oshirishda musiqiy-o'quv repertuari va ish metodlari hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Dars mashg'ulotlarida qo'llaniladigan musiqiy materialning eng asosiy xususiyati - uning serqirraligidadir, ya'ni bir yoki bir necha asarning o'zida bir qator tasavvur, malaka, ko'nikmalar shakllantirilishi imkoniyati borligidadir. Bundan tashqari, musiqiy material deb tilga olinayotgan musiqiy asar o'quvchilar va o'qituvchining birgalikdagi ijrosi uchun qulay bo'lishi va ijodiy

harakatlar shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bolalar cholg'ularida chalishda eshituvchanlik va ovoz koordinatsiyasi muvofiqi bo'sh bo'lgan o'quvchilarning musiqiy-ijodiy rivoji uchun ham ayniqsa foydalidir.

Musiqa o'qituvchisi musiqa cholg'ulari yordamida o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashda, ularni musiqaga mos ravishda harakat qilishga o'rgatadi. Bolalar tanishib bo'lgan kuylariga mos ohang chalishni ritmga mos usul berishni, yengil bo'lgan kuylarni ijro etishni, qo'shiq kuylash jarayonida jo'r bo'lishni o'rganadi. Ular cholg'ularning sof jaranglashi, toza sozlashi o'ziga xos tembriga ega bo'lish kabi jihatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi [4, 7].

Xulosa o'rnida shuni a'lohida ta'kidlash lozimki, umumta'lim maktablari o'quvchilarini milliy cholg'ular asosida ularda milliy ruhni shakllantirishda dars mashg'ulotlari natijasida o'quvchilar quyidagilarni to'la egallash ko'nikmasiga ega bo'ladilar: jumladan, bular cholg'ular nomlarini va ularni sadolanish xususiyatlarini, ovoz tembrini, cholg'ular tembrlarini eshituvchanligini farqlash va ularning ifodaviylik xususiyatlarini anglash, har qaysi cholg'u asbobida chalish usullari va yo'llarini o'rganish, unda o'zbek milliy kuylarining sadolanishi, cholg'ularda tovush hosil qilish va tovush yo'naltirishning (legato, stakkato) [6] ifodaviylik ahamiyatini, ansambl ijrochiligi malakalarining hosil qilinishini, murakkab bo'lmagan o'zbek milliy kuylarini chala olish, tovush balandligiga ega cholg'ularda baland va past tovushlarning joylashuvini bilish, nota nomalari va ularning nota chizig'idagi o'rnini bilish kabi qator bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. O'qituvchi musiqa madaniyati darslarida Vatanga muhabbat, uning yutuqlaridan faxrlanish, uning ravnaqi yo'lida halol mehnat qilish, fidoiy, sadoqatli bo'lish kerakligini o'rganadi. Ayniqsa, respublika miqyosida o'tkazilayotgan "O'zbekiston Vatanim manim", "Ilhom chashmalari" "San'at g'unchalari", "Kelajak ovozi" kabi tanlovlarda ishtirok etish ishtiyoqi oshadi, ularda milliy ruhiyat tarbiyasini rivojlantiradi. Chunki biz ko'zlagan darsning ham asosiy maqsadi va vazifasi aynan shundan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi". T.: "Sharq" - 1999.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat" - 1999.
3. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturlari.
4. Akbarov I. "Musiqa lug'ati". T.: "O'qituvchi" - 1997.
7. Sharipova G. "Musiqa o'qitish metodikasi". Ma'ruzalar matni-2000.

UMUMTA'LIM MAKTABLARDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISH TEXNOLOGIYASINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH METODIKASI

Sunatulla ABDIRASILOV – TDPU «Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi» kafedrasini professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi.

Oykaram BAYMURZAEVA – Jizzax davlat pedagogika instituti «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» kafedrasini o'qituvchisi.

Mohira TO'YCHIYEVA – Jizzax shahar 1-maktab tasviriy san'at o'qituvchisi.

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining tasviriy san'at darslarida pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish masalasi ko'rilgan, shuningdek, maktab dasturidagi biron-bir dars mavzusini variativlik ishlanmasi tavsiya etilmoqda.

В статье рассматриваются вопросы внедрения в практику педагогической технологии обучения на уроках изобразительного искусства в общеобразовательной школе, а также вариативность разработки уроков одной темы по школьной программе.

The summary

In this article variability of working out of lessons of one theme under the school program is considered introduction questions in practice of pedagogical technology of training at fine arts lessons in a comprehensive school.

Калит сўзлар: *масвирий санъат, педагогик технология, портрет, тарихий портрет, афсонавий портрет, тарихий шахслар, вариативлик.*

Ключевые слова: *izobrazitelnoe iskusstvo, pedagogicheskaya texnologiya, portret, istoricheskiy portret, mifologicheskii portret, istoricheskie lichnosti, variativnost.*

Keywords: *the fine arts, pedagogical technology, a portrait, a historical portrait, a mythological portrait, historic figures, variability.*

Umumiy o'rta ta'lim maktablardagi Davlat ta'lim standarti hamda o'quv dasturi asosida yaratilgan darslikning ayrim mavzularini o'qituvchilar uchun variativ ishlanmalarni tavsiya etamiz. Ushbu maqolada «Tasviriy san'atda tarixiy va afsonaviy portretlar» badiiy idrok etish, «Tasviriy san'atda buyuk siymolar tasviri», «Afsonaviy mavzuda portret ishlash» kabi mavzular muammosiga bag'ishlangan o'quv mashg'ulotini o'tilishi nazarda tutilgan. Bu yo'nalishdagi tasviriy san'at o'qituvchilari uchun metodik yordam sifatida o'tish metodikasiga oid materiallar taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ta'lim-tarbiya sohasini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish, o'qitish sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda, ayniqsa, ta'lim sifati oshirish pedagogik jarayonda jahon tajribasidan kelib chiqib, innovatsion texnologiyalardan keng va samarali foydalanish emas, balki mazkur jarayonni rejalashtiruvchisi, amalga oshiruvchisi va boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalasiga chuqurroq yondashuvni talab etadi. Shu sababli mustaqillik sharoitida tasviriy san'at o'qituvchisi shaxsi va faoliyatiga talablar ortib bormoqda.

Ta'lim jarayoni asosida bola shaxsining erkin tafakkurini shakllantirish va ijtimoiy hayotga tayyorlash har bir pedagogning diqqat e'tiborida bo'lishi lozim. Ma'lumki, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ham ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik

texnologiyalarni joriy qilish, ularni har tomonlama o'zlashtirish zarurligi ko'p karra takrorlanadi. Umuman olganda bu iborani, pedagogik texnologiyaning mazmuni nima? Tushunchaning pedagogik va umuman ta'lim jarayoniga qanday aloqasi bor? - degan savollar tug'ilishi tabiiy.

Ta'limga texnologik yondashuv - ta'lim mazmunini har tomonlama tahlil qilish orqali ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) va xususiy (muayyan fanlarning mazmunini o'zlashtirish bilan bog'liq) maqsadlarini tahlil qilish, o'qituvchi va o'quvchi maqsadlari kesishgan nuqtalarda (identiv o'quv maqsadi) ta'limning didaktik maqsadlarini aniqlash yo'li bilan ta'limni kompleks loyihalash, ilmiy asoslangan loyihaga ko'ra ko'zlangan maqsadga kafolatlangan natijaga erishishdir.

Hozirgi zamon ta'limida o'qituvchi o'z faoliyatida bir qator vazifalarni amalga oshirishi kerak.

Birinchidan, ijodkorlik, izlanish, o'z faoliyatini tahlil qilish, qiyoslash, yo'l qo'ygan uslubiy kamchiliklarni tanqidiy baholab, ularni bartaraf etish, o'z ish faoliyatini yanada takomillashtirish ustida tinimsiz ishlash, pirovard natijada o'z faoliyatining mukammal, o'ziga xos shakl va uslubini belgilab olish kerak. Ikkinchidan, ilg'or hamkasblari ish tajribalarini qunt bilan o'rganish, o'z sharoiti va imkoniyatidan kelib chiqib, ularni amaliyotga tatbiq etish va takomillashtirib borish kerak. Uchinchidan, xorijiy pedagogik tajribalarni ijodiy o'rganish lozim. To'rtinchidan, respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda chop etilayotgan pedagogik texnologiyalar va metodik yangiliklarni uzluksiz tarzda kuzatib borish kerak.

Ta'lim mazmunidagi uzluksizlikni ta'minlash ta'limning maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl va uning jarayonlari kabi tarkibiy qismlari orasidagi uzviylikka bog'liq. Chunki, ta'limda har bir fanni o'rganish maqsadi (nima uchun o'qitish kerak?) dan kelib chiquvchi o'quv dasturi va DTS talablariga mos o'quv mazmuni tanlanadi. Ta'lim mazmunini (nimani o'qitish kerak?) o'zlashtirish uchun esa qulay bo'lgan metodlar tanlanadi. Tanlangan metodlar (kimni va qanday o'qitish kerak?) yordamida mazmun egallanadi. So'ngra ta'lim uchun tayyorlangan vositalar (ko'rgazmali va texnik vositalar) va ta'lim jarayoni, unga etarli darajada mos uning mashg'ulot shakli tanlanadi. Fan va texnikaning, jumladan, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarining rivojlanishi ta'lim mazmuni va uning metodlariga yangi talablarni qo'yaveradi, ya'ni bu rivojlanish muammolarni keltirib chiqaradi. Ta'lim mazmuni jamiyat talabiga javob bermay tez-tez eshik qoladigan holatlar ham ko'p uchraydi. An'anaviy metodikada o'quvchi shaxsining rivojlanishini hisobga olgan holda bilimni ko'nikmaga undan esa malakagacha rivojlanishini ta'minlovchi mexanizm yaratilmagan. O'qituvchi o'quvchiga asosan axborot beruvchi manba hisoblanadi, ya'ni bilim olishda: axborotlarni to'plash va qayta ishlash: o'rganilgan axborotlarni amalda qo'llash bilishning 3 ta bosqichdan iborat modeliga rioya qilavermaydi. Dars jarayonida olingan bilim keyingi pog'onaga, ya'ni faollashuv pog'onasiga ko'tarilmaydi. An'anaviy metodikada yaratilgan juda ko'p tavsiya va nazariyalar amalda qo'llanmaydi yoki qo'llashga noqulay. Shu boisdan ta'limda yuzakichilikka yo'l qo'yiladi. Ta'lim jarayonida maqsad, mazmun, metod, vosita va shakl orasida ziddiyatlar esa ta'lim samaradorligiga erishishda asosiy to'siq bo'lmoqda.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda dars jarayoni oqilona tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rivojlantirib turilishi, o'quv mavzuni kichik-kichik bo'laklarga bo'lib ularning mazmunini ochishda bahsmunozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollar keltirish, o'quvchilarni amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajarishga undash, har xil baholash usullari va ta'lim vositalaridan joyida va o'z vaqtida foydalanish talab etiladi. Pedagogik texnologiyaning keng miqyosda ta'lim jarayoniga tatbiq etilayotganligining boisi shundaki, unda o'quv maqsadlariga garovli erishiladi. Texnologik yondashuvning eng avvalo yuzakichilikka emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi samarali yondashuv ekanligini anglagan o'qituvchilar uni o'z faoliyatlariga tatbiq etmoqdalar. An'anaviy o'quv jarayonida asosiy omil-pedagog (va uning faoliyati) hisoblangan, pedagogik texnologiyada birinchi o'rinda o'qitish jarayonidagi o'quvchilar faoliyati qo'yiladi. Bu esa o'quvchining nafaqat ta'lim jarayoni ob'ekti, balki uni ta'lim jarayonining faol sub'ekti sifatida namoyon bo'lishiga imkon beradi.

Darslarda pedagogik texnologiyadan foydalanganda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

- zamonaviylik – ta'lim-tarbiya amaliyotiga asoslangan tajriba, sinovdan o'tgan didaktika sohasidagi yangiliklarni joriy etish;

- ta'lim-tarbiya mazmunini uzluksiz yangilab borish, o'quv dasturlariga befarq bo'lmasdan sinchkovlik bilan o'rganish;

- umumiy va milliy qadriyatlash sohasidagi yangi ijodlarini o'rganib borish;

- o'quv jarayonida o'quvchi bilim o'qituvchi faoliyatini optimallashtirish, faollashtirish;

- ilmiylik - yangi usul, vosita muammosi holatlaridan foydalanib, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va o'zini anglashga o'rgatish;

- dars maqsadining aniqligi mazmunining zamonaviyligi, milliy ma'naviy qadriyatlar bilan boyitilishi;

- yangi pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish uchun har bir o'qituvchi nazariy chuqur bilimga ega bo'lishi zarur.

Ma'lumki, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshirish, erkin va teran fikrlashga, o'z fikrini ravon ifodalashga o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanishning o'rni beqiyosdir. Bolalarning barkamol avlod bo'lib etishida so'zlashish madaniyati, to'g'ri va mantiqli gapira olish qobiliyati bo'lmoqchi lozim.

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari o'quvchilarning egallayotgan bilimlari mustahkam bo'lishiga, ularning qo'shimcha adabiyot o'qib, mustaqil izlanishlariga, tasviriy san'at materialni o'zlari qiyosiy tahlil qila olishlari va ular asosida xulosa chiqarishga o'rgatadi. Shu bois ta'lim metodlariga jiddiy e'tibor berish hozirgi kun talablariga aylandi.

Odatda, darsning ta'limiy maqsadiga bir emas, bir necha metodlardan foydalanish evaziga erishiladi. Agar samaradorlik darajasi pasaysa, yoki o'sish kuzatilmasa, darrov metodni o'zgartirish lozim bo'ladi. Chunonchi, yangi mavzu bayoni bosqichida muammoli vaziyat hosil qilish uchun «aqliy hujum», «tanqidiy fikrlash», «klaster» metodlaridan, zaruriyat tug'ilganda an'anaviy tushuntirish metodidan ham foydalanish mumkin.

Har bir darsni turli va eng yaxshi saralangan o'qitish metodlarini qo'llagan holda tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil aqliy faoliyatini faollashtirishga, o'quvchining nazariy bilimlarni to'liq o'zlashtirishlariga yordam beradi, o'z kasbiga qiziqishi ortib borishiga olib keladi. Bu darslarda berilayotgan ilmiy-nazariy bilimlar yordamida o'quvchida mustaqil fikr hosil bo'lishiga sharoit yaratiladi. Aksincha, bir xil metodning qo'llanishi yoki metodning noto'g'ri tanlanishi esa o'quvchidagi qiziqishni so'ndiradi, uning aqliy faoliyatini susaytiradi. Bu o'rinda shuni alohida qayd qilib o'tish kerakki, o'qituvchi interfaol usullarni ko'p bilsa, o'z faoliyatida faqat yagona bir metodning o'zi bilan chegaralanib qolmaydi, pedagogda ularni bir-biriga

qiyoslab, darsning ta'limiy maqsadlariga muvofiqligini tanlab dars o'tish imkoniyati paydo bo'ladi.

Demak, o'qituvchi bir emas, bir necha pedagogik usullarni yaxshi bilishi va zaruriyat tug'ilganda ularni o'zaro qiyoslab, darsning turli bosqichlarida almashtirib qo'llashi maqsadga muvofiqdir. Xususan, quyi sinflarda ta'limiy didaktik o'yinlardan foydalanish muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning yosh va

psixologik xususiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, o'yin dunyoni va o'zlikni anglashda, qiziqishlarini qondirishda, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini engillatishga, o'quvchilarni darsga to'liq jalb etishga yordam beradi. Quyida ta'limiy didaktik o'yinlar va pedagogik metodlardagi ishlanmalar tavsiya etiladi.

Variant № 1

Mavzu: Tarixiy mavzuda portret ishlash

Texnologik xarita

Mavzu	Tarixiy mavzuda portret ishlash
Maqsad va vazifalar	Maqsad: o'quvchilarga tarixiy mavzuda ishlangan portretlar haqida tushuncha berish, ularga tarixiy mavzuda portret ishlashni o'rgatish Vazifalar: o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, milliy qahramonlar va ajdodlarga nisbatan mehr va hurmat hissini uyg'otish, mavzu asosida bilim, ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish. Adabiy asarlar syujeti asosida portret ishlaganda tasviriy va mazmun mutanosibligiga erishish qobiliyatlarini rivojlantirish.
O'quv jarayonining mazmuni	Tarixiy mavzuda ishlangan portretlar haqida tushuncha berish, tarixiy mavzuda ishlangan portretlardan namunalar namoyish etish.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: ma'lumot va hikoya, klaster, test Shakl: aqliy hujum, guruhlarda ishlash Vosita: tarqatma materiallar, slaydlar, fotolar, rag'batlantiruvchi kartochkalar Usul: noan'anaviy Nazorat: og'zaki nazorat, savol va javoblar, o'z-o'zini nazorat qilish Baholash: rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: berilgan vaqt davomida yangi mavzuni barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, tasavvur va xotirasini mustahkamlash. O'quvchi: o'quvchilarga tarixiy qahramonlarni tasvirlar orqali his qilishni o'rgatish, ularda ijodkorlik va badiiy didni o'stirish.
Kelgusi rejalar	O'qituvchi: pedagogik texnologiyalardan foydalanish, pedagogik mahoratini oshirish, mavzuni bugungi kungi hayot bilan bog'lash. O'quvchi: mavzu bo'yicha mustaqil amaliy ishlashni o'rganadi.

Darsning maqsadi :

Ta'limiy - o'quvchilarga tarixiy mavzuda ishlangan portretlar haqida tushuncha berish, ularga tarixiy mavzuda portret ishlashni o'rgatish.

Tarbiyaviy – o'quvchilarda milliy qahramonlar va ajdodlarga nisbatan mehr va hurmat hissini uyg'otish, ularga qahramonlarimiz hayot yo'lini namuna qilib ko'rsatish.

Rivojlantiruvchi – portret ishlash bilim va ko'nikmalarni shakllantirish. Tasviriy malakalarini rivojlantirish.

Darsning shiori: *"Biz barkamol, o'ktam avlodmiz, kelajagi buyuk davlatmiz!"*

Darsning uslubi: og'zaki bayon qilish, klaster metodi va amaliy ish bajarish, test

Darsning jihozi: ko'rgazmalar, slaydlar va multimedia vositalari, rassomlar ishlaridan namunalar.

Darsning blok chizmasi:

1	Tashkiliy qism Salomlashish Davomat aniqlanadi, O'quvchilarning darsga jalb qilish O'quvchilarni guruhlariga bo'lish	3
2	O'tilgan mavzu takrorlanib mustahkamlanadi: o'tilgan mavzu yuzasidan aqliy hujum tashkil etiladi. Ko'rgazmali qurollar asosida savol – javob o'tkaziladi.	5

3	Uyga berilgan vazifani tekshirish. O'quvchilarning bajargan uy vazifasini tekshirib, 5 balli tizim asosida baholash	10
4	Yangi mavzu: o'quvchilarga tarixiy mavzuda ishlangan portretlar haqida tushuncha berish.	5
5	Amaliy ish: mavzu asosida portret ishlash.	17
6	Dars yakuni: test sinovlari orqali mavzuni mustahkamlash. Uyga vazifa: amaliy ishni davom ettirib yakunlab kelish.	5

Tashkiliy qism: salomlashib, navbatchi axboroti tinglanadi va davomat belgilanadi. O'quvchilarni darsga hozirlab, darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Sinf o'quvchilari 3 guruhga bo'linib har bir guruhga nom beriladi:

- Musavvirlar.
- Qalamkashlar.
- Bo'yoqchilar.

Har bir guruhga o'tilgan mavzulardan 2 tadan savol tarqatiladi.

O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati ustalaridan kimlarni bilasiz ?

Miniatyura haqida gapirib bering

O'rol Tansiqboyevning qanday asarlarini bilasiz?


Qanday naqsh turlarini bilasiz?

Kamoliddin Behzod hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz ?

Guruh a'zolaridan bittadan vakil chiqib javoblarni, umumlashtirilgan fikrini bayon qiladi. G'olib guruh e'lon qilinadi.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash: o'quvchilarning uy ishlari tekshirilib, 5 balli tizim asosida baholanadi. Vazifani to'g'ri bajargan o'quvchilarning ishlari namuna qilib ko'rsatilib rag'batlantiriladi. O'tilgan mavzuni yaxshi o'zlashtirmagan o'quvchilarga ko'rsatmalar beriladi. Tarqatma materiallar, didaktik o'yinlar orqali o'tilgan mavzu mustahkamlanadi.


Yangi mavzu bayoni: O'qituvchi: "portret" – fransuzcha "Portrait" so'zidan olingan bo'lib, bir va ikki, yoki bir guruh kishilarning chehrasini xuddi o'ziga o'xshatib tasvirlash ma'nosini bildiradi. Portretlar ma'lum syujet asosida maishiy, tarixiy, afsonaviy-mifologik yoki adabiy asar qahramoni obrazida bo'lishi mumkin.



Rassomlarning ijodida avtoportret keng tarqalgan. Avtoportretni rassom oynadagi o'z aksiga qarab yaratadi.

Portretda odamlarning faqat boshi, ba'zan yelkasi va beligacha tasvirlanishi mumkin. Bunday portretga byust portret deyiladi.

Portretda bir guruh kishilarning qiyofasi, ularning chehrasi tasvirlanishi jamoat portretidir. Rassom inson qiyofasi orqali o'zi tasvirlayotgan shaxsning ichki kechinmalarini, his-tuyg'ularini, qanday kasb egasi ekanligini tasvirlashi psixologik portret deb ataladi.



Portret o'z xarakteri jihatidan monumental, miniatyurali, dastgohli, ishqiy va hajviy bo'ladi.

Tarixiy janrda insoniyat tarixidagi muhim voqealar va qahramonlar hayoti tasvirlanadi. Rassom birorta tarixiy portretni tasvirlash uchun, avvalo, o'sha

davrning ijtimoiy muhitini, insonlarning turmush tarzini anglab yetishishi kerak bo'ladi.

Dastlabki portretlar qadimgi Yunonistonda mil. av. VII–V asrlarda yaratilgan. Portret janri o'rta asrlar Sharq miniatyurachilari va Yevropa rangtasvirchilari va haykaltaroshlari ijodida ham keng rivoj topdi. Bu

janrda Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo Buonarotti, XVIII-XIX asrlarda O.Renuar, P.Pikasso, I.Repin, XX asr o'zbek rassomlaridan A.Abdullayev, M.Nabiyev, Ch.Axmarov, V.Kaydalovlar samarali ijod qildilar.

Afsonaviy janrdagi tasviriy san'at asarlarida hayotda uchramaydigan, biroq xalq tomonidan xayolan o'ylab topilgan odam va hayvonlar, baliqlar,

voqea hamda hodisalar tasvirlanadi. Afsonaviy janrda ijod qilgan rassomlar qatoriga Rafael Santi, Sharq miniatyurachi rassomi Sulton Muhammad, rus rassomlaridan M.Vrubel, V. Vasnesovlarni kiritish mumkin.

So'ngra multimedia usulida slaydlar namoyish qilinadi.



Spitamen (O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi. Toshkent). Rassom T.Quryozov.



Jaloliddin Manguberdi. Rassom T.Quryozov.



M. Nabiyev. Amir Temur portreti.



A.Rahmatullayev, Q. Norxo'rozov, U.Mardiyev, P.Podosinnikov. «Alpomish» haykali. Termiz.



Masagetlar malikasi. To'maris. Ukuvchilar ishi.

O'qituvchi portret janri haqida o'quvchilarga ma'lumot berar ekan, inson qiyofasini o'ziga xos tasvirlash qoidalariga e'tibor qaratadi. Proporsiya, simmetriya, gavda, qo'l, bosh, oyoq nisbatlariga diqqatni jalb qiladi.

Inson qiyofasini ishlaganda proporsiya: inson tasvirini ishlashda gavdaning proporsional nisbiy tengligidagi o'ziga xoslik; oddiydan murakkabga qarab tasvirlash; odam boshining gavdaga nisbati 8/1; yuz tuzilishidagi: ko'z, quloq, og'iz, burun proporsiyasi;

katta yosh va kichik yosh odamlar orasidagi farq.

O'qituvchi: bosh shakli go'yo asosiy to'rtta parallel-gorizontal yuzalar bilan kesishgandek: soch boshlanish joyi, qosh usti yo'ylaridagi chiziqlar, burun va dahan asoslari. Ana shu yuzalarga perpendikulyar ravishda boshning tuxumsimon shakliga vertikal yuzada kesishadi, u yuz ustida ko'ndalang chiziq hosil qiladi. Bu vertikal yuz uni 2 teng qismga ajratadi, u hosil qilgan profil chiziq boshning tashqi ko'rinishini 2 simmetrik yarmga ajratadi. Gorizontal yuzalar esa boshni qismlarga ajratadi va soch qoplami, qosh usti yoylari, burun va dahan asoslarini hosil qiladi.

Sinf taxtasida bosh, gavdaga oid xomaki, qoralama rasmlar chizib ko'rsatiladi.

Yangi mavzuni o'qituvchi tushuntirib bo'lgach, guruhlarga mustaqil ish beradi. Har bir guruh sardori bittadan konvert tanlaydi. Konvert ichidagi savollar quyidagilardan iborat bo'ladi.

1-guruhga: "Alpomish" obrazini chizing va "Alpomish" haqida so'zlab bering.

2-guruhga: Amir Temur portretini tasvirlang va Amir Temur hayoti haqida so'zlab bering.

3-guruhga: To'maris obrazini tasvirlang va To'marisning qanday fazilatlarini sizga yoqadi?

Guruhlar bajargan mustaqil ishlarini "Taqdimot" uslubidan foydalanib, sinf taxtasida namoyish etadi. Taqdimot – har bir guruh o'z bajargan ishlarini barcha sinf o'quvchilariga namoyish qilib ta'riflab berishi. Tarixiy va afsonaviy qahramonning portretini har tomonlama yoritib bergan guruh g'olib hisoblanadi.

Yangi mavzuni mustahkamlash: o'qituvchi "Aqliy hujum" usulidan foydalanib, o'quvchilarga yangi mavzuga oid savollar beradi va test savollari tarqatiladi.

Portret so'zi nimani anglatadi?

Rasmni to'g'ri chizish.

Naturaga qarab rasm chizish.

Ikki yoki bir kishining tasviri.

Avtoportret - bu:

O'ziga qarab chizish.

Do'stining rasmini chizish.

Tabiatni chizish.

Mashhur miniatyurachi rassom, "Sharq Rafaeli" tarixiy shaxslar siymalarini yaratgan inson:

Mahmud Muzahhib.

Kamoliddin Behzod.

Chori Ro'ziyev.

Amir Temur haykali muallifi kim?

R. Ahmedov.

Q. Basharov.

I. Jabborov

O'quvchilarning javoblari umumlashtiriladi, g'olib guruh e'lon qilinadi. Amaliy ishni yaxshi bajargan,

savollarga to'liq javob bergan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

Uyga vazifa: amaliy ishni tugallash. Mavzuga doir reproduksiya yig'ish.

Variant № 2

Darsning mavzusi: tarixiy portret ishlash

Dars maqsadi:

Ta'limiy: tarixiy portret haqida ma'lumot berish, portret ishlashga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Insoning bosh qismi (yuz) tuzilishi proporsiyalarini o'rgatish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga tarixiy portret janri bilan tanishtirishda milliy qadriyatlar ahamiyatini singdirish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning portret janri bo'yicha ishlash qobiliyatini rivojlantirish, xotirasini mustahkamlash va fikrlash doirasini kengaytirish, tasavvurini o'stirish.

Dars turi: o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Dars shakli: musobaqa-dars.

Darsning metodi: suhbat-munozara, amaliy mashg'ulot, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning jihozi: proektor, kodoskop, kompyuter, tarqatma materiallar, AKT, bosh sohasi qismlari tuzilishi tasvirlangan plakatlar.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism (5 daqiqa): o'quvchilar bilan salomlashish. Sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

2. O'tilgan mavzuni takrorlash: (7 daqiqa)

O'quvchilarga o'tilgan mavzular tekshirish uchun savollar beriladi. Bunda o'qituvchi avval ekranga bir necha yo'nalishga oid portretlar tasvirini ko'rsatadi va "Aqliy hujum" metodidan foydalanib, savol beriladi.

Ekranda qanday portret janrlari tasvirlangan?

Rasmlarda qanday umumiylik bor?

Bu tasvir nimasi bilan bir-biriga bog'langan?

Bu janrda qaysi mashhur rassomlar ijod qilganlar?



O'quvchilarning javoblari tinglanadi va o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan slaydlarga umumiy yakuniy xulosa berilib, javoblar to'ldiriladi hamda yangi mavzuga o'tiladi.

3. Yangi mavzu bayoni (15 daqiqa):

Portret odam(lar) qiyofasini tasvirlash ma'nosini bildiradi. Portret janrida insonning tashqi qiyofasi ichki dunyosi bilan birga tasvirlanadi. Rassom portret chizar ekan, tasvirlanuvchini suratda xuddi o'ziga o'xshatib chizishga intiladi. Rassomning asosiy

maqsadi o'xshatib chizish bilan chegaralanmay, tasvirlanuvchining muhim xususiyati va belgilarini, shaxsiy xislatlarini, davrni umumlashtirib obraz yaratishdan iborat.

Portret bir necha turlarga bo'linadi.

1. Individual portret (bir obraz tasvirlanadi).
2. Juftlikda ishlangan portret (ikkita obraz tasvirlanadi).
3. Guruh tasvirlangan (bir guruh obrazlar tasvirlanadi).
4. Tantanali, rasmiy, shoxona portret (eng chiroyli libosda tasvirlanadi).
5. Psixologik portret (kulgu, qayg'u, tabassum, g'amgin, yig'i, qo'rquv holati tasvirlanadi).
6. Avtoportret (rassom ko'zguga qarab o'zini tasvirlaydi).
7. Tarixiy portret (tarixiy shaxslar obrazlari tasvirlanadi).
8. Mifologik portret (afsonaviy obrazlar tasvirlanadi).

Tarixiy shaxslarning obrazlarini yaratishda rassomdan juda katta izlanish, mehnat talab etiladi. Tarixiy shaxs haqida materiallar fotolar, rasmlar, qo'lyozmalar to'plash, chuqur o'rganish, eskiz variantlarini ishlash shular jumlasidandir. Biz avvalgi chorakda bobimiz Amir Temur siymosini yaratish uchun rassom M.Nabiyevning olib borgan izlanishlari haqida o'qib o'rgangan edik. Bu tarixiy portret yaratishning nihoyatda murakkabligiga misol bo'la oladi.

Mifologik portretlarni yaratishda rassomdan mavzu bo'yicha doston, rivoyat, afsonaga aylangan obraz haqida ma'lumot to'plash, chuqur o'rganish, o'qish va afsonaviy obraz eskizlarini yaratish, izlash talab etiladi. Buyuk ajdodimiz Alisher Navoiyning V.Kaydalov tomonidan 1947-yilda yaratilgan portreti diqqatga sazovordir.

Rassom ko'p yillar izlanish olib borib, ijodiy zavq-shavqqa to'la har tomonlama kamol topgan, shoir, davlat arbobi siymosini yaratdi. Portretidagi deraza oldiga qo'yilgan gul, shoir ijodining gullagan davrini anglatadi.

XV asrda Behzod, Muzahhib tomonidan miniatyura usulida, XX asrda V.Kaydalov, Q. Basharov va boshqa rassomlar tomonidan grafika va rangtasvir usulida yaratilgan Alisher Navoiy siymosini O'zbekiston xalq rassomi Abdulhaq Abdullayev ham o'n yillik izlanishlari natijasida o'ziga xos tarzda muvaffaqiyatli yarata oldi.

Portret asarlarini tahliliga oid bilimlar bevosita o'ziga xos tizimda o'rganiladi. Bilimlar manbai esa asarning o'zida mujassamdir. Asardagi muhim tomonlar ko'rib chiqilib, shular asosida rassom o'ylagan umumlashtirgan badiiy obraz belgilanadi. Rassom asarlarini idrok etish va tahlil qilish, asardagi g'oyani anglash, yaxlit tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi. Mavzuga oid reproduksiya va slaydlarni ko'rish, kuzatish, tahlil qilish, kuzatgandan

so'ng yozma yoki og'zaki ravishda takrorlash mashqlarini bajarish o'rganuvchida asarlarni idrok etish va tahlil qilaolish malakalarini rivojlantiradi.

Asarni idrok etish tahminan uch bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich – suratning umumiy ma'nosi bilan tanishish obraz va obrazlarni hissiy sezish, kompozitsiya markazini, detallarni, fazoviy joylashishni aniqlashni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqichda asar yana bir marta sinchiklab o'rganiladi. Tahlil ma'lumotlari umumlashtiriladi. Asar tili, obrazli tuzilishi, g'oyaviy mazmuni o'rganiladi. Bunda rassom fikri, g'oyasi, tahlil qiluvchining fikriga aylana boshlaydi.

Uchinchi bosqichda asar to'liq idrok etib baholanadi. Asar ijodiy tahlil qilinib, idrok etuvchi g'oyaviy, axloqiy, estetik ta'sir etuvchi omil sifatida qaraladi. Portret o'rganilar ekan, undan kishilarning turmushi, axloq odamlari, ijtimoiy munosabatlari, davrga xos bo'lgan boshqa narsalar yoritilishi lozim.

Mifologik mavzuda portret ishlash

Mifologik (afsonaviy) janr – xalq og'zaki ijodi asosidagi tasviriy san'at asarlarini aks ettiradi. Masalan: dev, ajdar, suv parisi, qor malikasi kabilar shular jumlasidandir.


Mifologik mavzularda yaratilgan asarlar asosan rangtasvir va haykaltaroshlikda ishlanadi.

Tarixiy mavzuda portret ishlash

Rassom individual portret chizar ekan, suratni asliga o'xshatish uchun barcha manbani (ko'z-qoshnining joylashishi, burun, lab, quloq, yorug'-soya, xarakter) chiziluvchining o'ziga qarab yuz tuzilishidan oladi. Portreti chiziluvchiga qarab bir necha eskiz variantlarini chizadi. Rassom tarixiy portret yaratish uchun tarixiy obraz haqida manbaalarni qo'lyozma adabiyotlardan, u haqida ishlangan surat va fotolardan izlaydi. Shu ma'lumotlar asosida eskiz variantlarini ishlaydi.

Portret ishlash qoidalari:

1. Simmetriya o'q chizig'ini rasm daftaringizga chizing.
2. Qog'oz markazidan yuqoriroq joyga simmetriya chizig'i ustiga tuxum shaklini chizing.
3. Tuxum shaklini teng uch bo'lakka bo'ling.
4. Birinchi chiziqqa qosh va quloq yuqori qismini, ikkinchi chiziqqa burunni quloq pastki qismini joylashtiring.
5. Qosh tagida ko'z uchun yordamchi chiziq chizing, ko'z enini o'lchami yuz eniga 5 barobar joylashsin.
6. Burun bilan daxon orasidagi masofa markazidan biroz yuqoriroq lab chizig'ini chizing.
7. Simmetriya chizig'iga ko'yilgan ikkinchi bosh o'lchamining o'rtasida elka joylashadi.
8. Qosh, ko'z, quloq, burun, lab a'zolari chizing, keyin bosh kiyim, libos va boshqa mayda qismlari chiziladi.



Ulkan me'moriy bino yonida turgan bayramona kiyimdagi odam tasviri.



Kamer-portret. Neytral fonda, uy kiyimida tasvirlangan odam.



Qarindosh-urug'lar (oilaviy portret).



Ilyustrativ portret.

Inson bosh tuzilish qismlarini aniqlash. Ish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. (o'qituvchi bosh tuzilishini sinf taxtasida ko'rgazmali namoyish qiladi).

A) Birinchi bosqich. Oval shakli chiziladi va vertikal simmetrik bo'linadi. Gorizontall chiziq bo'yicha oval shakl teng uch qismga bo'linadi: (peshona, burun, dahan).

B) Ikkinchi bosqich. Qosh, ko'z, lab joylashish chiziqlari chiziladi. Burun o'rtada joylashadi, quloq, burun bitta gorizontall chiziq bo'ylab joylashadi.

V) Uchinchi bosqich. Lab chiziqlari, burun va dahan oralig'i chiziqlari bo'ylab joylashadi.

G) To'rtinchi bosqich. Bosh qismlari belgilangan chiziqlar bo'ylab to'liq joylashtiriladi.

D) Beshinchi bosqich. Qalam bilan soyalari beriladi.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash- musobaqa tarzida o'tkaziladi.

Sinf 3 guruhga bo'linadi.

O'qilgan 2 ta javobdan, qaysi biri to'g'ri, qaysi biri noto'g'ri javob ekanligini o'quvchi aytishi kerak.

1-jamoa. Ko'z, yuzning o'rta chizig'ida joylashgani to'g'rimi? (To'g'ri)

Boshning yuqori qismi bo'ylab to'rt teng qismga bo'linishi to'g'rimi? (noto'g'ri).

Bosh teng 3 qismga bo'linadi: dahandan burun uchigacha, burun uchidan qoshgacha, qoshdan soch qismigacha, soch o'sgan joydan boshning yuqori nuqtasigacha 1/3 qismini tashkil qiladi.

2-jamoa. Quloq ko'z chizig'ida joylashgani to'g'rimi? (noto'g'ri). Quloq burun bo'ylab chiziqda va burun uzunligi bo'ylab joylashadi. Ko'zning kengligi ko'z oralig'idagi masofaga teng.

3-jamoa. Og'iz kengligi ko'zning boshlang'ich nuqtalari oralig'iga teng bo'lishi kerak (noto'g'ri). Og'iz kengligini ko'z qorachig'idan lab burchaklari bo'ylab vertikal aniqlanadi. Rakurs bu erkak portretimi? (noto'g'ri).

Rakurs - bu boshning 1/3 qismining ko'rinishi.

5. Refleksiya.

6. Darsga yakun yasaymiz. Viktorina o'yini hay'at a'zolari tomonidan baholanadi va dars yakunlanadi. Javoblar quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi: (5 daqiqa)

1. Faollik.

2. Javoblarning to'g'riligi.

3. Jamoalar hamkorligi.

4. G'olib bo'lgan guruh taqdirlanadi.

5. Uyga vazifa berish: (2 daqiqa). Turli portret janriga oid tasvirlar topib, ularning nomlarini yozish.

O'qituvchining mazkur darsga ko'rgan maxsus tayyorgarligi, ya'ni dars mavzusi va tarixiy mazmundagi illyustratsiyalarni mustaqil o'rganish va adabiy manbalarning syujetlarini tahlil qilish, ular asosida kompozitsiya variantlarini eskizi borasida munozara yuritish kabi ishlari orqali samarali natijaga erishish mumkin. O'quvchilarga dars mavzusiga aloqador savollar bilan murojaat etish ularni faollashtirib, fikrlashga undaydi hamda samarali yakunlash imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-sonli Qarori.
2. Azizxo'jaeva N.N. "Pedagogik texnologiya". T.: "O'qituvchi"- 2003.
3. Abdirasilov S., Nurtaev U., Raxmonov I. "Tasviriy san'at". O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. T.: "O'qituvchi"-2015.
4. Abdirasilov S. "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi". T.: "Fan va texnologiya"- 2012.
5. Ziyomuhammadov B., Tojiev M. "Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modeli". T.: "Lider Press"- 2009.
6. Kuziev T., Abdirasilov S., Nurtaev O', Sulaymonov A. "Tasviriy san'at". 5-sinf. Darslik. T.: "Sharq" NMAK-2012.

ЗАВИСИМОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ ОТ КОМАНДНОГО ВИДА СПОРТА

Олесья БОНДАРЧУК – Преподаватель УЗГИФК

Ushbu maqolada talabalarning sport o'yinlarini prognozlarini tahlil qilinadi. Ushbu prognozlarni taqqoslash jarayonida turli turdagi sport turlariga o'xshash va o'ziga xos xususiyatlar topildi.

В данной работе проводится анализ проекций студентов факультета спортивные игры. В ходе сопоставления этих проекций были найдены схожие и отличительные черты для представителей различного вида спорта.

In this article, the students' projections of the sports games are analyzed. In the course of comparing these projections, similar and distinctive features were found for representatives of a different kind of sport.

Kalit so'zlar: *sifatli usullar, projektoriya darajalari, ichki va tashqi motivatsiya, uyushmalar, diqqat.*

Ключевые слова: *качественные методы, ранги проекций, внутренняя и внешняя мотивация, ассоциации, акцентирование.*

Key words: *qualitative methods, projection grades, internal and external motivation, associations, accentuation.*

Актуальность. Среди работ посвященных спорту редко изучаются социальные представления, которые формируются у человека под воздействием занятия определенным видом спорта. Выявление этих представлений поможет определить каковы мотивы выбора того или иного вида спорта. Также данная работа может показать каковы схожие, а какие отличительные черты в понимании важных компонентов своего вида спорта выделяют студенты.

Качественные исследования в психологии приобретают наибольшую популярность за счет высокой валидности и содержательной ценности результатов полученных при взаимодействии с испытуемым, и дополненных данных с помощью более гибкой системы опроса – интервью [1,3].

Наша работа посвящена анализу результатов, полученных при помощи ассоциативного рисунка «Дом». Ассоциативный рисунок «Дом» удачно подходит для респондентов разного возраста, социального положения, уровня образования, национальной принадлежности и вероисповедания.

Сущностью данной методики является изображение дома, который ассоциируется, с каким - либо объектом или явлением, а в нашем случае с видами спорта, которыми занимаются

респонденты: гандбол, баскетбол, волейбол, теннис, бадминтон. Центральным моментом данной методики заключается в анализе представлений испытуемых, скрытых и содержащихся в сюжете рисунка, а также дополнительных элементах и деталях.

Выбор данной проблематики заключается в том, что наш интерес сфокусирован на особенностях проективного восприятия отдельных видов спорта студентами факультета спортивных игр.

Целью исследования является выявление проекций относительно своего вида спорта у спортсменов.

Задачи:

Категоризация рисунков на группы со схожими обобщенными характеристиками.

Анализ структуры проекции в зависимости от вида спорта.

Объектом исследования выступали студенты 3 курса факультета спортивные игры.

Предмет являлись проекции студентов.

В нашем исследовании приняли участие 19 респондентов - студенты 3 курса факультета спортивные игры в возрасте от 20 -25 лет. Из них 10 женщин и 9 мужчин. Процедура проведения состояла из трех этапов: непосредственное изображение дома, запись ассоциации

непосредственно респондентом и интервью. В свою очередь данные составляют три вида: рисунок, ассоциации и пояснения, взятые из интервью. Для простоты анализа пояснения, взятые из интервью и ассоциации, мы не будем дифференцировать, и изучать отдельно, а представим анализ данных результатов в виде структуры проекций.

Для анализа рисунков были использованы следующие категории, свойственные каждому из объектов методики: наличие спортивного инвентаря; признаки жилого дома, красивый вид дома, цветовая гамма.

Такого рода категории были выделены, так как сюжет или идея всего рисунка включали в себя знания студентов о своем виде спорта. В свою очередь более мелкие категории, относящиеся к отдельным деталям и характеристикам рисунков, были выделены, так как содержательно отличаются в разных рисунках с одной стороны, и в принципе могут являться дифференцирующими индикаторами рисунков домов о любой тематике.

Далее представлен анализ схожих черт изображенных домов:

- во всех рисунках присутствует спортивный инвентарь. Его можно увидеть через: спортивную площадку, расположенную за домом; сетку натянутую между домами; большой сад как символ большой площадки. Как и следовало ожидать – это отражает направленность личностей на спортивную деятельность

- в изображениях баскетболистов и волейболистов можно увидеть признаки жилого дома. Это явно видно из нарисованных занавесок на окнах и цветов на подоконнике, а также наличия машины в гараже. Из интервью, проведенного на представителях данных видов спорта было видно, что они под жилым домом подразумевают акцентуацию на членах своей команды.

- красоту своего вида спорта отмечают бадминтонисты, волейболисты и часть баскетболистов. Возможно это связано с тем, что некоторые студенты занимающиеся данными видами спорта делают акцент на внешних характеристиках.

- у гандболистов и волейболистов команда соперников отражена цветовой гаммой. Скорее всего причиной этому служит то, что для игроков, этих видов спорта, принявших участие в нашем исследовании, важным элементом игры являются соперники.

Ниже по методу Стержеса [2,4,5] мы представили ранги, т.е. то место, которое отвел студент тому или иному суждению. Таким образом, мы получили: суждения первым рангом, которые образуют ядро проекций, зону трансформации - суждения со вторым или третьим рангом, периферию социального представления – суждения с наименьшей частотой встречаемости и третьим рангом.

Теннис:

Сила выступает как ядро проекций вызываемых у теннисистов. На рисунке она показана через фундамент и крепкие стены. Под силой студенты, играющие в теннис понимают технику и тактику своей команды, помогающую им победить своих соперников.

Зону трансформации формирует такое понятие как уютный, согласно мнению игроков это соблюдение правил, что в свою очередь проявляется через: чистоту корта, ровную сетку и честных судей.

Периферия выражает представления немногочисленных студентов, к примеру через такое словосочетание, как спокойствие человека.

Бадминтон:

Ядром проекций бадминтонистов - правила. Как и у теннисистов, для игроков в бадминтон, правила это – чистота корта, сетка, и т.д. Различие между представителями данных видов спорта лишь в том, на каком месте по важности они оценили правила. Такое сходство проекций неудивительно, ведь и эти виды спорта похожи между собой.

Категория удобный и легкий инвентарь является зоной трансформации, а красота игры периферией.

Гандбол. Самым важным для гандболистов, а как было выше сказано и теннисистов, является собственная команда, но в отличие от теннисистов, студенты играющие в гандбол, под командой понимаю взаимосвязанную и поддерживающую друг друга семью, а также ставят на третье место в своих проекциях - соперников. На втором месте у представителей данных видов спорта стоят правила, и тут у них практически одинаковое понимание этого термина, с той лишь разницей что теннисисты помимо внешних проявлений правил выделяют еще и внутренние.

Баскетбол: Относительно баскетболистов наблюдаются две расхожие тенденции. Для одних это красивый и популярный вид спорта, предназначенный не для всех, а к примеру, для высоких людей. А другие выделяют на первом месте такие характеристики как удобство игры руками, на втором – защита от атаки и попадании в кольцо (все стороны дома окружены), а на третьем – позиция членов своей команды. Такое различие вызвано мотивами выбора данного спорта, так для одних важно его внешнее проявление популярность, красота и т.д., для других – внутреннее содержание, т.е. сама игра как таковая.

Волейбол: У волейболистов на первом месте стоит сетка, которая ассоциируется у них с правилами игры, а на последнем – красота их вида спорта. Относительно же зоны трансформации наблюдается расхождение. Для одних второе место по важности занимает

площадка (Большой дом – площадка тоже большая), для других защита от соперников.

Анализируя структуру проекций мы установили что:

- важность своей команды отмечаю: гандболисты, теннисисты и некоторые баскетболисты, однако понимание такого словосочетания как «моя команда» и отводимое ей место у всех различно. Одни под ней понимают семью, другие позицию членов своей команды и применяемые ими во время игры техники и тактики. Для теннисистов и гандболистов собственная команда стоят на первом месте, а у баскетболистов она на последнем.

- команде соперников отводят второе место некоторые баскетболисты и волейболисты, понимая под соперниками тех, от кого надо защищаться, а гандболисты отводят соперникам незначительную роль, так как в отличие от баскетболистов, на первый план у них выводится собственная команда.

- на втором месте у теннисистов и гандболистов стоят правила, а у бадминтонистов и волейболистов они стоят на первом месте. Почти у всех одинаковое понимание этого термина, с той лишь разницей что теннисисты помимо внешних проявлений правил (высокая, ровная сетка, поле; чистота корта) выделяют еще и внутренние (честность судьи).

- важность удобства игры отмечают некоторые баскетболисты и второе место этому качеству отводят бадминтонисты.

В заключение заметим, что в ходе проведенного исследования мы заметили схожесть и различия в проекциях собственного вида спорта у студентов. Однако объяснить это схожестью и различием видов спорта мы не смогли, поскольку среди представителей одного вида спорта присутствовали проекции, которые сближали респондентов как со своим спортом, так и с другим.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Белановская С. "Глубокое интервью". М.: "Никколо-Медиа"- 2001, с.320.
2. Ильин В. "Драматургия качественного полевого исследования". СПб.: "Интерсоцист"-2006, с. 147-221.
3. Квале С. "Исследовательское интервью". М.: "Смысл"-2003, 301- с.
4. Страус А., Корбин Д. "Основы качественного исследования: Обоснованная теория, процедуры и техники". М.: "КомКнига"- 2007, 256- с.
5. Silverman.D. (2000)"Doing Qualitative Research. London: Sage publications".

ИНДИВИДУАЛИЗАЦИЯ ПОСТРОЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КАРЬЕРЫ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ

Нигора ХАМИДОВА – старший преподаватель кафедры "Языка и культура речи" ТГПУ
Захро САФОЕВА – студент факультета иностранных языков ТГПУ

Maqolada bo'lajak o'qituvchining bilim darajasini, shahsiy hislatlari baholovchi, uni yuqori darajadagi kasbiy mahoratga yetishini belgilaydigan akmeogramma – innovatsion metod yoritilgan

В статье описан инновационный метод – акмеограмма, характеризующий уровень знаний, умений, личностных качеств будущего учителя, обуславливающих достижение им высшего уровня профессионального мастерства.

The article describes an innovative method - akmeogramma characterizing the level of knowledge, skills and personal qualities of the future teacher, causing the attainment of the highest level of professional excellence.

Kalit so'zlar: akmeologiya, pedagog-innovator, modellashirish, bo'laja ko'qituvchini tayyorlash.

Ключевые слова: акмеология, акмеограмма, педагог-инноватор, моделирование, подготовка, будущий учитель.

Keywords: acmeology, akmeogramma, educator and innovator, simulation, training, future teacher.

Произошедшие изменения в социально-экономической жизни Узбекистана сформировали новые требования к системе образования республики. Образование и обучение являются важными составляющими процесса модернизации переходной экономики, а также того, что современные формы организации

труда требуют высокого уровня подготовки кадров, готовых к профессиональному саморазвитию, к повышению своих профессиональных компетенций в соответствии с принятыми Законом Республики Узбекистан «Об образовании» и Национальной программой по подготовке кадров. Высшие образовательные

учреждения Узбекистана активно участвуют в разработке и реализации стратегии развития педагогического образования в Узбекистане. Своей важнейшей задачей на современном этапе они считают обеспечение подготовки педагога-инноватора, который может выступать в качестве автора, разработчика, исследователя, пользователя и пропагандиста новых педагогических технологий, теорий, концепций.

Педагог-инноватор – это учитель, стремящийся к максимальной творческой самореализации, усматривающий противоречия в функционировании, развитии системы образования и создающий на этой основе свои оригинальные способы или даже системы обучения, воспитания, контроля и др. [2, с.23] Инновационная деятельность немыслима без развития педагогом своего профессионального мастерства, достижения пика своей профессионально-творческой зрелости. Все это является предметом исследования такой научной отрасли, как акмеология. Важнейшая задача акмеологии – разработка методического инструментария, способствующего созданию условий для максимального развития людьми в процессе профессиональной деятельности своих социально значимых и творческих качеств. Представление о совокупности качеств, необходимых педагогу-инноватору, можно получить на основе акмеограммы – комплекса характеристик уровня знаний, умений, личностных качеств специалиста, обуславливающих достижение им высшего уровня профессионального мастерства.

По результатам обследования акмеограммы выделяются:

- динамику роста профессионального мастерства;
- "узкие места" и факторы, мешающие этому росту;
- особенности изменения мотивационной сферы,
- динамику личностного развития и то, что этому способствует или препятствует;
- вид психотехнологий, которые целесообразно применять для личностно-профессионального развития. [1, с.57]

Стратегия акмеологического исследования выстраивается в зависимости от специальной области, в которой выделяется предмет данного исследования. В нашем случае – это организационно-педагогически ориентированное исследование в системе профессионального образования. Наиболее перспективные вопросы – закономерности способов связи личности и профессии соответствующего профиля, условия и факторы личностно-профессионального развития.

Акмеологический, т.е. направленный на оптимизацию, эффективность, характер исследования проявляется в использовании

уровневой стратегии, а также стратегии выделения акмеолого-психологических, акмеолого-профессиональных факторов и прослеживании их прямого или многократно опосредованного воздействия. [1, с.76]

Стратегия моделирования используется и самим исследователем в качестве метода проектирования и интеграции наличных, желательных идеальных состояний, уровней, свойств и средств их достижения и в качестве средства описания акмеологических особенностей самого субъекта деятельности.

Анализ составленной акмеограммы со студентами позволяет им сделать следующие выводы:

- разделить жизнь и творчество писателя на этапы (рост, относительная стабильность со спадом или подъемом);
- уровень успешности по рассматриваемым параметрам;
- акмеограмма позволяет исследовать биографию человека и, исходя из полученных данных, используя графический способ, можно улучшить усвоение не только учебного материала на занятиях, но и находить закономерности развития успешного человека;
- акмеограмма дает возможность соотносить качества успешной личности с личностными качествами будущего учителя.

Таким образом, акцентируя внимание на акмеологическом направлении в нашем исследовании, мы можем сделать следующее заключение: наибольший рост профессиональных показателей отмечается на раннем периоде развития человека (детство, юность, молодость). За периодами роста наступают периоды спадов. Что позволяет говорить о целесообразности расчета своих сил и учете акмеологических закономерностей, а именно: при достижении высоких профессиональных показателей необходимо зафиксировать результат, что окажется более продуктивным, нежели постоянно наращивать показатели и затем испытывать спад.

Составление акмеограммы позволит будущему учителю выявить пути продвижения его к более высоким уровням профессионализма. Поэтому акмеограмма может включать в свою структуру задачи профессионального совершенствования педагога (например, овладение новыми методами обучения, выработку своего индивидуального стиля и др.), способы и приемы овладения этим новым уровнем профессионализма (например, посещение и анализ уроков своих коллег, анализ своих педагогических приемов и результатов обученности учащихся и др.), сроки достижения новых, более высоких результатов. Акмеограмма учителя намечает пути совершенствования профессиональной деятельности и продвижения к новым уровням педагогического мастерства и

творчества. Акмеограммы учителя могут отличаться друг от друга по целям (каких новых уровней профессионализма намечается достигнуть), по характеру и динамике траектории (каких новых результатов предлагается достичь путем постепенного систематического продвижения или путем приложения больших усилий и стремительного подъема).

На наш взгляд, работа с акмеограммой, представленная в данной статье, имеет следующее практическое значение: внедрение в образовательную практику акмеограммы, направленная на построение профессиональной «лестницы» на основе акмеологического подхода позволит существенно повысить эффективность и качество профессиональной подготовки будущих учителей.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. "Акмеология". Учебник / Под общ. ред. А.А. Деркача. М.: "РАГС"- 2004, 204-б.
2. Андриенко Е. "Феномен профессиональной зрелости учителя". Казань- 2002, 157-б.
3. Асмолов А. "Психология личности: Принципы общепсихологического анализа". Учеб. для вузов по спец. психологии. М.: МГУ-1990, 124-б.
4. Бодаев А. "Вершина в развитии взрослого человека: характеристики и условия достижения". М.: "Наука"-1998, 159-б.
5. Деркач А., Кузьмина Н. "Акмеология: пути достижения вершин профессионализма". М.: -1993, 98-б.

ZAMONAVIY TARBIYALASH TEXNOLOGIYASI

Muborak MAHKAMOVA – Toshkent Arxitektura-qurilish instituti "Qurilish texnologiyalari" kafedrasida dotsenti

Nilufar RASULOVA – Toshkent viloyati pedagogika kolleji o'qituvchisi

Tarbiya texnologiyasini o'rganish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili, ustuvor masalalaridan biri ma'naviyat, tarbiya deb qabul qilingan. Ommabop tarbiya texnologiyasining yaratilishi milliy tarbiya, milliy ong va umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim omil bo'ladi. Mazkur maqolada ta'limga texnologik yondashishning malakaviy tavsiflari to'g'risida so'z yuritiladi.

Основная цель технологии образования и воспитания не изменение состава, а это есть цель выполнения задач поставленных правительствам в этой области. Воспитательная технология является проводником успешного достижения общих целей. Профессорско – преподавательскому составу необходимо овладеть технологиями воспитания, с целью подготовки высоко интеллектуального и морально подкованного поколения молодежи.

The main task of education and upbringing technology is not to change the structure but its aim to fulfill the tasks of our government. Upbringing technology is the tie of successful achievement of common tasks. Professor- teachers must to learn new technology of upbringing in order to prepare high intellectual and morally prepared generation of youth.

Kalit so'zlar: ta'lim; savodxonlik; texnologik yondashuv; ta'lim sifati.

Ключевые слова: образование; грамотность; технологический подход; качество образования.

Key words: education; literacy; technological approach; quality of education.

Ta'lim va tarbiya texnologiyasi yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning g'oyasi, mazmuni, tarkibini emas, balki bu sohada hukumat ishlab chiqqan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Tarbiyalash texnologiyasi mo'ljallangan maqsadga samarali erishuvni ta'minlovchi vositalar majmuasidir. Shu bois professor-o'qituvchilar uchun har tomonlama rivojlangan yuqori intellektual va ma'naviy barkamol fuqaro shaxsini shakllantirishga qaratilgan tarbiyalash texnologiyalarini egallash dolzarbdir.

Tarbiya texnologiyasini o'rganish bugungi kunda eng dolzarb masaladir. Bizning xalqimizning buyuk qadriyatlaridan biri ma'naviyatning, tarbiyaning

ulug'langanligi, uni ijtimoiy hayotning mezoni sifatida qabul qilinganligidir. Shuning uchun, bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili, ustuvor masalalaridan biri ma'naviyat, tarbiya deb qabul qilingan. Ommabop tarbiya texnologiyasining yaratilishi milliy tarbiya, milliy ong va umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim omil bo'ladi. Har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga kompleks yondashish tarbiya texnologiyasining individual mahoratdan afzalligi ham ana shunda. Tarbiya-aniq maqsadga qaratilgan shaxsni ma'naviy va jismoniy kamol toptirish jarayonidir. Alisher Navoiy "Tarbiya ulug' ish, odob urug'ini ekkan odamning hosili javohir bo'ladi",- degan edi.

Tarbiyaga ilmiy yondashish, texnologik yondashish vaqti keldi. Texnologik yondashish malakaviy yondashishdir.

Tarbiyalash texnologiyasi - nisbatan yangi atama bo'lishiga qaramay, rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Tarbiyalash texnologiyasi yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning g'oyasi, mazmuni, tarkibini emas, balki bu sohadagi hukumat ishlab chiqqan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Tarbiyalash texnologiyasi mo'ljallangan tarbiyaviy maqsadga samarali erishuvni ta'minlovchi vositalar majmuasini ko'rib chiqadi. Yoshlarning iqtidorli ekanligi va bilimga chanqoqligidan ma'naviyatga erishish va uni rivojlantirish boshlanadi.

Zamonaviy tarbiyalash texnologiyasi - har tomonlama yondashuvni amalga oshiradi va quyidagi majburiy talablarga rioya qiladi:

1. Tarbiyalanuvchilarga 3- yo'nalish bo'yicha ta'sir etiladi - tafakkuriga, sezgilariga va xulqiga.

2. Tarbiya (tashqi pedagogik ta'sir) va o'z-o'zini tarbiyalashning uzviyligi tufayli ijobiy natijaga erishiladi.

3. Tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi barcha vosita va tadbirlarning muvofiqlashtirilishi; ijtimoiy institutlar, birlashmalar, ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san'at, oila, maktab, huquq targ'ibot idoralari, jamoalar - har tomonlama yondashuvning zaruriy shartidir.

4. Shaxsning ma'lum sifatleri amaldagi tarbiyaviy ishlar majmui orqali hosil qilinadi. Bu ishlar yaqqol ko'rinishdagi ko'p yoqlik bo'lishi, bir vaqtning o'zida aqliy, jismoniy, xulqiy, estetik va mehnat tarbiyasining uzviyligi asosida olib borilishi zarur.

5. Har yoqlama yaxlit tarbiyaviy yondashuv tarbiyachining tizimli munosabatini va boshqaruvini taqozo etadi. Boshqaruv tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi tashqi va ichki omillarni va ularning o'zaro ta'sirini inobatga olgandagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Shu bois, u omillar haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi zarur.

Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar.

O'quv-tarbiya ishlari jarayonida talaba yoshlarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda talabalarni axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan amaliy mashg'ulotlarda foydalanishi muhimdir. Bu talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish bo'yicha rejalarini aniq belgilashiga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etiladi.

Innovatsion texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy-nazariy va metodik asoslangan yangi shakl, usul va vositalarining majmuidir. Bunda yangi mazmun,

shakl, usul va vosita uyg'unligida maqsad, vazifa, faoliyat va pedagogik natija yaxlitligi ta'minlanadi, o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Ta'lim texnologiyasi reproduktiv dars berishga asoslangan bo'lib, undagi o'quv jarayoni talabalarga tipik holatlardagi harakatlarni egallashga yo'naltirilgan. O'quv materiallari mashg'ulot maqsadidan kelib chiqib, modullarga bo'lingan va talabalarning o'quv jarayoni aniq savollarga konkret javoblar topishga qurilgan bo'lib, savollar va javoblar o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'lishi natijasida bir butunlikni tashkil qiladi.

Innovatsion texnologiyalar asosida bahs-munozara darslari, aqliy hujum o'yinlari keng ko'lami tashkil etilsa, quyidagi natijalarga erishiladi:

- mashg'ulotlar davomida talabalarning mustaqilligi, ixtiyoriyligi va erkinligiga erishiladi;

- talabalar o'z fikr va qarashlarini himoya qilishga o'rganadilar, ularni boshqalarga yetkazish mahoratini egallaydilar;

- talabalar jamoa fikriga tayanishga, uni hurmat qilishga o'rganadilar va ularda o'zaro hurmat hissi ortib boradi;

- talabalar o'quv faniga doir materiallar bilan mustaqil ishlashga, izlanishga, o'qitishning samarali shakl va uslublaridan ijodiy foydalanishga odatlanib boradi;

- talabalarda bilimlarni mustaqil egallash, ijodiy fikr yuritish va erkin fikrlash malakalari shakllanadi;

- o'quv mashg'ulotlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga, o'zaro fikr almashishga, pedagogik faoliyatni tanqidiy tahlil qilish va taqqoslashga o'rganadilar.

Bugungi kunda tarkib topgan ta'lim va tarbiyaning eng muhim elementlari qadimdan shakllanib kelgan va o'zining ahamiyatini hozirda ham yo'qotmagan. Ta'lim va tarbiya maqsadi, mazmuni, shakllari, uslub va vositalari pedagogikada ta'lim-tarbiya jarayonlarini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalar bo'lib hisoblanadi. Aynan, shu kategoriyalar ma'lum bir predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatning predmeti sifatida yuzaga chiqadi.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, oraliq natijalarni tashhisli tekshirib borish, ta'limni alohida o'qitish lavhalariga ajratish kabi usullar hozirgi kunga kelib

qayta-qayta takrorlash mumkin bo'lgan ta'lim texnologiyasi g'oyasida mujassamlangan.

U asosan o'z ichiga quyidagi omillarni oladi;

- ta'lim va tarbiyada umum maqsadning qo'yilishi;
- tuzilgan umum maqsaddan aniq maqsadga o'tish;

- o'quvchilarning bilim darajasini dastlabki (tashhisli) baholash;

- natijani baholash.

- bajariladigan o'quv tadbirlari majmuasi (bu bosqichda o'quvchilar bilan muloqot asosida ta'limga joriy tuzatish) kiritilishi lozim

Pedagogik texnologiyada tizimli yondashish, uning tarkibidagi o'quvchi faoliyati, ta'lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, oxirgi natija darajasi pedagogik diagnostika zaruratini oshiradi. Pedagogik texnologiyada tizimli yondashish, uning tarkibidagi o'quvchi faoliyati, ta'lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, oxirgi natija darajasi pedagogik diagnostika zaruratini oshiradi.

Zero, pedagogik texnologiyada kimni o'qitish, nima uchun o'qitish maqsadi ustuvordir. Shu nuqtai nazardan, pedagogik diagnostikada bolaning qobiliyati, layoqati, yo'nalganligini aniqlash va uning faolligini oshirish tavsiyasini yaratish masalalari hal etiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida tizimli yondashish, pedagogik texnologiyaning modelini yaratish imkoniyatini beradi. Pedagogik jarayonni modellashtirish u yoki bu jarayonni tizimli va bir butunlikda o'rganish kategoriyasidir.

Pedagogik jarayonda ayrim dars, tarbiyaviy tadbirlarni modellashtirish, har bir vositani o'z o'rnida qo'llash keng joriy etilmagan.

Shunday qilib, oliy o'quv yurtlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlaridan, o'quv mashg'ulotlari samaradorligini, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, o'qitishda masofaviy ta'lim va kompyuter savodxonligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1."Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". T.: "O'qituvchi"-2007.

2.Mahkamova M. "Pedagogik texnologiyalar". T.: "O'qituvchi"-2012.

3.Hakimova K. "Kasbiy pedagogika". T.: "O'qituvchi"-2007.

PEDAGOGIKA KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BOSHLANG'ICH KOMPYUTER SAVODXONLIGI" FANINI O'QITISH MASALALARI

Rustam MEXMONOV – TDPU "Informatika o'qitish metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Ushbu maqola pedagogika kasb-hunar kollejarida "Maktabgacha yoshdagi bolalarning dastlabki kompyuter savodxonligi" mavzusiga bag'ishlangan. Ushbu intizomni o'rgatish mavzu mazmunini tahlil qilishning dolzarbligi, maqsad va vazifalari asoslanadi. Shuningdek, fanni o'qitishni takomillashtirish bo'yicha bir qator metodik tavsiyalar.

Данная статья посвящена вопросам преподавания предмета "Начальная компьютерная грамотность дошкольников" в педагогических профессиональных колледжах. В ней обоснована актуальность, цели и задачи преподавания данной учебной дисциплины, проведен анализ содержания предмета. А также дан ряд методических рекомендаций по усовершенствованию преподавания предмета.

This article is devoted to questions of teaching the subject "Initial Computer Literacy of Preschool Children" in teacher training professional colleges. In its relevance, the purposes and problems of teaching this subject matter is proved, the analysis of maintenance of a subject is carried out. And also a number of methodical recommendations about improvement of teaching a subject is given.

Kalit so'zlar: kompyuter, boshlang'ich kompyuter savodxonlik, axborot texnologiyalari, axborot asri, ta'lim, maktabgacha ta'lim, maktabgacha tarbiya, kompyuterli ta'lim, kompyuterlashtirish, ta'limni axborotlashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalar, tarbiyachining kasbiy kompetentligi, kompyuter o'yinlari, didaktik o'yinlar.

Ключевые Слова: компьютер, компьютерная грамотность, информационные технологии, информационный век, образование, дошкольное образование, дошкольное образование, компьютерное образование, компьютеризация, информатика образования, дошкольные учреждения, профессиональная квалификация репетитора, компьютерные игры, дидактические игры.

Keywords: computer, primary computer literacy, information technology, information age, education, preschool education, preschool education, computer education, computerization, education informatics, preschool children, vocational qualifications of the tutor, computer games, didactic games.

Davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri yosh avlodni jismonan va ma'nan yetuk insonlar sifatida voyaga yetkazishdan iborat bo'lib, ularni Vatanga sadoqat ruhida, kelajagimizning munosib vorislari sifatida tarbiyalash borasida yurtimizda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Barkamol avlodni shakllantirish dastlab oilada, so'ngra maktabgacha ta'lim muassasasida amalga oshiriladi. Bu borada birinchi Prezidentimiz I.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan.

Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi"[1] - deb ta'kidlanadi. Ushbu fikrlar shuni anglatadiki, maktabgacha ta'lim muassasa (MTM)lari oldiga kelajak avlodni tarbiyalashda juda ham yuksak vazifalar qo'yilgan, chunki MTMlarning katta va maktabga tayyorlov guruhlarida 5-7 yoshli bolalar tarbiyalanadi. Bolalarning intellektual salohiyatini shakllantirishning boshlang'ich davri ham xuddi ana shu yoshdan boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasida: "Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi"[1] - deyilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da maktabgacha ta'lim – uzluksiz ta'lim tizimining birinchi turi ekanligi va "...maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish", "malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash", "maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish", "zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish" zarurligi ta'kidlangan. Shuningdek, 4 moddasining 9-bandida "Barcha bosqichdagi ta'lim jarayonlarini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish amalga oshiriladi"[1] - deb aytilgan.

Bundan tashqari Dasturda "ta'lim muassasalarining moddiy texnika va axborot bazasini mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash" nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan qabul qilingan «Maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lim muassasasi to'g'risida namunaviy Nizom»ning 9-bandida ta'lim tizimining I va II-bosqichlari (maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lim muassasasi) uchun qabul qilingan Davlat ta'lim standartlarining to'liq bajarilishini ta'minlash maqsadida "maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiyani o'yin orqali berish"; "bolalar

va o'quvchilarning ona tili, matematika, xorijiy tillar, iqtisod asoslari, kompyuter savodxonligi bo'yicha dastlabki bilim va tushunchalarni puxta egallash, tayanch maktablariga o'tib o'qishlarini samarali davom ettirishlariga zamin yaratish"; "ta'lim-tarbiya mazmunini yangilab borish, pedagogika fanining yutuqlarini tajribada sinash va tatbiq etish" kabi maqsad va vazifalar nazarda tutilgan.

Mustaqil respublikamizning kompyuterlashtirishni rivojlantirish, yuqori texnologiyalarni samarali va sifatli darajada qo'llash, hududimizdagi kompyuterlar bozorini kengaytirish va shunga o'xshash yo'nalishlarda qator tadbirlar o'tkazildi va yangilari rejalashtirilmoqda[1].

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqilgan harakatlar strategiyasida ta'lim va fan sohasini rivojlantirish borasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash"; "ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish"; "bolalar maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun maktabgacha ta'lim muassasalaridagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini kengaytirish va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish"; "kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish" kabi maqsad va vazifalar belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi"da ham maktabgacha ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish zarurligi ko'zda tutilgan.

Yuqorida ba'en qilingan dalillar maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida boshlang'ich kompyuter savodxonligini shakllantirish, ularni kompyuter bilan elementar tarzda foydalanishga o'rgatish va maktab ta'limiga tayyorlash dolzarb masalalaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshlang'ich kompyuter savodxonligi bo'yicha dastlabki bilim va tushunchalarni o'rgatishdagi muammolardan yana biri ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini ishlab chiqish, unga mos

ishlanmalar yaratish hamda amaliyotga joriy qilish zarurligidir. Shuning uchun, MTMLarida kompyuter savodxonligini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, texnologiyalarni joriy etish jarayonida bolalar yoshini hisobga olish va mos holda didaktik materiallarni tanlash, ta'lim jarayonida bolalarga pedagogik va psixologik ta'sir etish usullarini o'rganish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Demak, jamiyatimizning har bir a'zosini, eng avvalo yosh avlodni axborotlashgan jamiyatning to'laqonli va munosib vakili bo'lib voyaga yetishishlarida ularning axborot madaniyatini maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab shakllantirib borish hamda intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayonida kompyuterdan foydalanish g'oyasi va dastlabki nazariy asoslari ilk bor 1964-yilda Seymur Peypert tomonidan berilgan. Ammo kompyuter ko'p mamlakatlarda ta'lim tizimiga vosita sifatida 1970-yildan kirib kela boshladi, kompyuterning ommaviy ravishda tatbiq etilishi Angliya va Amerikada 1981-yil, Fransiyada 1982-yil, Rossiyada 1983-1984-yillardan, va O'zbekistonda 1984-1985 yillardan boshlangan.

Kompyuterli ta'limdan foydalanish bo'yicha xorijiy davlatlarning olimlaridan N.M.Klimeshova, N.N.Ogolsova, S.L.Novoselova, N.F.Tal'yzina, D.Jonassen, R.Grabindger, S.Karver, D.Davidson, A.Mullan, maktabgacha ta'lim bo'yicha S.V.Gurev, L.A.Savina, V.A.Noviskaya, N.Z.Florova, M.V.Osmakova, O.G.Smolyaninova va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Masalan, V.A.Noviskaya ishlarida ta'lim tizimida kompyuter o'qitishning rivojlantiruvchi vositasi ekanligi ta'kidlanadi.

Ta'lim sohasining turli bosqichlarida multimedia texnologiyasidan foydalanish bo'yicha Ye.E.Voronova, V.P.Kustova, N.S.Anisomova, M.Ryabsev va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Shuningdek, respublikamizning A.A.Abduqodirov, M.M.Aripov, T.R.Azlarov, A.I.Ashirova, U.Sh.Begimqulov, T.F.Bekmuratov, R. R.Boqiyev, F.M.Zakirova, H.Z.Ikromova, M.E.Mamarajabov, B.B.Mo'minov, X.A.To'raqulov, N.I.Taylaqov, U.Yu.Yuldashev, A.G'.Hayitov, S.S.G'ulomov kabi olimlari ta'limda kompyuterlardan foydalanishning turli muammolarini o'rganganlar. G.E.Djanpeisova turli texnologiyalardan foydalanib, MTM bolalarida matematik bilimlarni shakllantirishning optimal metodikasini bergan. N.X.Begmatova o'zining ilmiy ishida maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini tadqiq qilgan.

MTMLarining maktabga tayyorlov guruhlarida an'anaviy metodika asosida savodga tayyorlash, elementar matematik bilim berish, ekologik ta'lim bo'yicha O.Boltaboyeva, N.Alimov, N.Bikbaeva,

N.Umarova, M.Xalilova va boshqa pedagog-olimlarning uslubiy ishlarida e'tibor qaratilgan.

O'quv-elektron vositalarini yaratish va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishga qaratilgan ko'plab ilmiy-tadqiqotlar olib borilganligiga qaramasdan, ularning ichida maktabgacha ta'lim muassasalariga yo'naltirilganlari yetarlicha emas.

Pedagogik nuqtai nazaridan, boshlang'ich kompyuter savodxonligining MTMLari ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiqi – ularga kompyuter asosida yangicha texnologik yondashuv hisoblanadi. Pedagogik jihatlariga esa, tarbiyalanuvchilarning monitor ekraniga qarab va unda ko'rsatiladigan materiallardan foydalanib bilim olish, bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish, baholash mezonini ishlab chiqish, ta'lim samaradorligini oshirish, kompyuterning "ta'lim manbai" bo'lishi va hokazolar kiradi.

Psixologik jihatlaridan shundan iboratki, kompyuter bilan ishlaganda bola miyasining ikkala yarim shari bir vaqtda ishlaydi va ob'ekt obrazi bir vaqtda idrok qilinadi. Natijada o'zlashtirishning yuqori darajada bo'lishi kafolatlanadi. Bundan tashqari, bolalarning xotirasi rivojlanadi, diqqati barqarorlashadi, ta'lim materialiga qiziqishlari ortadi.

"Maktabgacha yoshdagi bolalarning boshlang'ich kompyuter savodxonligi" fanining asosiy tamoyili kafolatlangan yakuniy natija olish, ta'limning mahsuldorligini oshirish, to'g'ri va teskari aloqaning mavjudligi, ta'lim maqsadining aniq shakllanishidan iborat. Bundan tashqari, dasturlashtirish, ilmiylik, moslik, jadallik, ko'rgazmalilik, tizimlilik, faollik tamoyillari ham mavjud.

Kompyuterlar yordamida o'tkaziladigan mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari tarbiyalanuvchilarning faolligini oshirishda, o'rganiladigan ta'lim materiallari hajmini ko'paytirishda, ta'lim-tarbiya jarayonini oldindan loyihalashda, natijani kafolatlashda, ta'lim shaklini qulaylashtirishda, shuningdek, ta'lim mazmunida, tuzilishida, metodlarida va shakllarida namoyon bo'ladi.

"Bolalar bog'chasida boshlang'ich kompyuter savodxonligi" predmeti maktabgacha ta'lim muassasalarining bo'lajak tarbiyachilari uchun mo'ljallangan bo'lib, uning maqsadi kompyuter o'yinlari, didaktik o'yinlar hamda bolalarda kompyuterda ishlash ko'nikmalarini hosil qilish, oddiy mashg'ulotlar yordamida kompyuter va kompyuter texnologiyalari to'g'risida tushuncha berishdan iborat.

"Bolalar bog'chasida boshlang'ich kompyuter savodxonligi" predmetining vazifasi bo'lajak tarbiyachilarga maktabgacha ta'lim muassasalarida turli yosh guruhlarida kompyuter bo'yicha mashg'ulotlar o'tish uchun kerakli bilimlarni berishdan iborat.


"Bolalar bog'chasida boshlang'ich kompyuter savodxonligi" predmetini o'rganish orqali o'quvchilarning kompyuterdagi mavjud dasturlardan foydalanib, bolalarning yoshiga mos materiallar tayyorlay olish, bog'chada o'tiladigan turli

mashg'ulotlar uchun didaktik o'yinlar yarata olish, elektron darsliklardan foydalana olish, internet tarmog'idan kasbiy sohaga oid ma'lumotlarni olib foydalana olish ko'nikmalari rivojlanadi. Bundan tashqari qo'shimcha texnik vositalar, ularning turlari, ulardan mashg'ulot o'tishda foydalana olish usullari va mashg'ulot o'tish uchun kerakli grafik, animatsiyalar yaratishga mo'ljallangan dasturlar va ularda ishlash qoidalari o'rgatiladi[4]

“Maktabgacha yoshdagi bolalarning boshlang'ich kompyuter savodxonligi” fani bo'yicha ishlab chiqilgan namunaviy o'quv dasturiga ko'ra fanga jami 43 soat ajratilgan bo'lib, ulardan 6 soati – nazariy mashg'ulotlar, 24 soati – amaliy mashg'ulotlar, 13 soati esa o'quvchilarning mustaqil ishlariga taqsimlangan. Ushbu fan quyidagi bo'limlardan iborat:

Kompyuter olami bilan tanishish (6 soat);
 Maxsus bilimlar (6 soat);
 Kompyuterda didaktik o'yinlar (8 soat);
 Kompyuter o'yinlari (2 soat);
 Internet bilan ishlash (8 soat);

Boshlang'ich kompyuter savodxonligi bolalarda kompyuter bilan muomala qilish madaniyatini shakllantirishni, ya'ni kompyuterdan oqilona, sog'liqqa zarar yetkazmasdan foydalanishni; kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalari to'g'risida tushunchalarni; sichqoncha va klaviaturadan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishni; bolalarga harf o'rgatuvchi, elementar matematika asoslaridan saboqlari, ekologik dunyoqarashni rivojlantiruvchi, rasm chizishni va bo'yashni o'rgatuvchi didaktik o'yinlarni o'z ichiga qamrab oladi.



1-rasm. Boshlang'ich kompyuter savodxonligi komponentlari

Bugungi kunda- kasb-hunar ta'limi yo'nalishlarining zamonaviyligi ularning kompyuterlashtirilganlik va texnik ta'minotlarining yuqori darajada ekanligi bilan o'lchanmoqda. Shu bois informatika va axborot texnologiyalarning jamiyatimiz ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga jadal sur'atlar bilan kirib kelganligi zamonamizning xos xususiyatlaridan biri bo'lsa, informatika va unga turdosh bo'lgan fanlarini, jumladan, “Maktabgacha yoshdagi bolalarning boshlang'ich kompyuter savodxonligi” fanini o'zlashtirish davr talabidir. Shuning uchun bu fanlarni kasb-hunar ta'limida o'qitish, o'quvchilarning ta'limiy, tarbiyaviy va kasbiy tayyorgarligidagi roli yuqori darajada bo'lib, ular hayotga mustaqil kadr sifatida qadam qo'yadilar. Keyingi kasbiy faoliyatlarida albatta kompyuterlar yordamida amaliy ishlarni bajarishlariga to'g'ri keladi. Buning uchun o'quvchilarning ushbu fanlardan olgan bilim va ko'nikmalari, ayniqsa, kompyuterning amaliy dasturlaridan foydalanish darajasi yuqori bo'lishi lozim. “Maktabgacha yoshdagi bolalarning boshlang'ich kompyuter savodxonligi” fanini o'qitish va undagi amaliy dasturlardan foydalana olishga o'rgatish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Amaliy dasturlarni o'qitish mazmunini kasbiy soha yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda

belgilash, shu mazmunga mos o'quv-metodik materiallar majmuasini ishlab chiqish va o'quvchilarga zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanib yetkazib berish asosiy vazifalardan biridir.

Bilimlarni eskirish sur'atiga olib kelgan, kasblarni yangilanishini taqozo etgan “axborot portlashi” sharoitida taraqqiyot jarayoni uning ob'ektlarining moslashish qobiliyati bilan aniqlanadi[4]. Shuning uchun bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga bo'lgan qarashlar jiddiy o'zgarishlarga duchor bo'lmoqda. Zamonaviy kompetentli tarbiyachi o'z kasbiy faoliyatini ta'lim tizimining axborotlashtirish va kompyuterlashtirish sharoitida amalga oshira olishi kerak. Bunday faoliyatning axborot-kompyuter kompetentligi kabi komponentning shakllanishi bunga yordam beradi.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, agar ta'lim jarayonida yangi axborot texnologiyalar kasbiy kompetentligining zaruriy komponenti tarzida inobatga olinsa;

maktabgacha yoshdagi bolalarning kompyuter savodxonligini oshirishning asosiy komponentlari va shart-sharoitlari aniq belgilab ko'rsatilsa;

bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi zamon talablariga javob bersa;

ta'lim jarayoni yetarli darajada uslubiy va didaktik materiallar bilan ta'minlangan bo'lsa, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish yanada samaraliroq bo'ladi va maktabgacha

yoshdagi bolalarning boshlang'ich kompyuter savodxonligini sifat va samaradorligini rivojlantirilishiga asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. В.А. Новицкая. "Методическое сопровождение воспитателя в условиях современного дошкольного образовательного учреждения". Автореф. дисс. канд. пед. наук. Санкт-Петербург, 2007.
2. N.X. Begmatova «Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari» // Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. 2012 y. - S. 4
3. http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036

PEDAGOGIK ATAMALAR AMAL QILISHINING DIDAKTIK KATEGORIYALARI, TUSHUNCHALARI VA TAMOYILLARI – O'QITUVCHI KADRLARNI SAMARALI SHAKLLANTIRISH GAROVIDIR

Umida MURODOVA - TDPU "Biologiya o'qitish metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Maqolada pedagogik atamalarni o'zlashtirishning didaktik talablari keltirilgan. Bu talablar bir nechta metodlarda misollar bilan ko'rsatilgan. Metodlar tizimi jadvallar asosida namoyish etilgan. Pedagogik yondoshuvlarda mashhur mutaxassislar fikrlariga murojaat etilgan

В статье приведены дидактические требования усвоения педагогических терминов. Эти требования показаны задачами в нескольких методах. Система методов презентированы на основе таблиц. В педагогическом подходе обращены к мыслям знаменитых специалистов.

The demands of learning pedagogical terms are given in the article. They are showed in some methods with examples. The system of the methods is given as tables.

Kalit so'zlar: *Matn, motivatsiya, didaktika, komponent, konsepsiya, kommunikativ, kategoriya, tizim, jarayon, atamashunoslik, bilim, malaka, ko'nikma, innovatsion, material, sikl, mobilizatsion, informatsion, gnostik, yo'naltiruvchi, atama, lug'at.*

Ключевые слова: *Текст, мотивация, дидактика, компонент, концепция, коммуникативная, категория, система, процесс, терминология, знания, умение, умение, инновации, материал, цикл, мобилизация, информация, гностик, ссылка, термин, словарь.*

Key words: *Text, motivation, didactics, component, concept, communicative, category, system, process, terminology, knowledge, skill, skill, innovation, material, cycle, mobilization, information, gnostic, reference, term, dictionary.*

Oliy ta'lim uchun ikki tilli o'zbekcha-ruscha lug'atining didaktik asoslarini aniqlash maqsadida quyidagilarni qarab chiqamiz: umumiy didaktik qoidalar, didaktik tizimlar, ularning tarkibiy tuzilishi, omillari, vazifalari, tamoyillari, talablari, avvalo, didaktika, uning mohiyati: didaktikaning asosiy kategoriyalari; umumiy didaktik tizim; didaktik jarayonning tarkibiy-mazmuniy komponentlari; didaktikaning vazifalari, ularni guruhlarga ajratish; didaktikaning asosiy tamoyillari, ularning xususiyatlari; o'qitishning didaktik jarayonning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillari va harakatlantiruvchi kuchi; o'quv jarayonining didaktik tizimi; uning bu jarayonni optimallashtiruvchi shart-sharoitlari; didaktik jarayonning umumiy bo'g'inlari; muvaffaqiyatli didaktik, shu jumladan, motivatsion jarayonni, ta'lim mazmuni hamda o'qitish jarayonini; o'quv jarayonini tashkil qilishga bo'lgan didaktik talablarni; didaktik asoslarini takomillashtirish yo'llarini ochib beradi.

Didaktikaning ko'rsatilgan kategoriyalari va tushunchalari mashhur didaktlar M.N.Danilov i B.P.Esipov, I.Ya.Lerner, M.N.Skatkin, F.R.Yuzlikayev, B.Xodjayev va boshqalarning ishlarida qaralgan.

Didaktika – pedagogika fanining o'qitish va ta'lim nazariyasini o'rganuvchi bo'limidir. O'quvchilarni barcha o'quv fanlari o'qitish va ta'lim berish qonuniyatlarini o'rganadi (umumiy didaktika). "Didaktika o'qitish va ta'lim berish, ularning maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkil qilinishi, erishiladigan natijalari haqidagi fandir" (I.P. Podlasiy).

Didaktikaning asosiy kategoriyalari: o'qitish, o'rganish, o'rgatish, ta'lim berish; bilim, malaka, ko'nikmalar; maqsad, mazmun; o'qitishni tashkil qilish, turlari, shakllari, metodlari, vositalari, natijalari (mahsuli). Bu kategoriyalar o'zaro aloqada bo'lib, o'qitish va ta'lim berish yaxlit tizimining asosiy elementi sifatida, yaxlit didaktik jarayonning –

umuman didaktik tizimning tarkibiy komponentlari sifatida qaraladi.

Motivatsion, mazmuniy, va operatsional komponentlar didaktik jarayonning umumiy va eng ahamiyatliroq komponentlari hisoblanadi.

I. Motivatsion – o'qitishning hamma tomonlari va vazifalarini qamrab oladi, faoliyatning suhbat va samarali shakllari orqali ta'minlanadi. Bunda, ayniqsa, mustaqil ijodiy topshiriqlarni bajarishda individual yondoshuv muhim rol o'ynaydi.

II. Mazmuniy komponent didaktik o'quv materialni, masalalar va turli xil topshiriqlarning tavsifnomasini o'z ichiga oladi. Bu o'quvchilardan talab qilinadigan bilim, malaka va ko'nikmalardir.

III. Operatsional - o'quv materialidan amaliyotda foydalana olishning ma'lum malakalari, qobiliyatlari majmuasidir.

Shunday qilib, didaktikaning bir qator vazifalari ko'z oldimizda namoyon bo'ladi: 1) nazariy (asosan tashxis qilish va avvaldan aytib berish) va amaliy (meyoriy va instrumental). Keyingi vazifasi metodikaga mos keladi. Demak, didaktika – xususiy metodikalar asosi, konkret o'quv fanlarini o'qitish amaliyotiga tayanadi va uning ma'lumotlari bilan boyitiladi, konkret o'quv fani sohasida amal qiluvchi qonuniyatlarni o'rganadi;

2) mobilizatsion, informatsion, gnostik, yo'naltiruvchi, rivojlantiruvchi, amaliy kommunikativ;

3) ta'limiy-o'rgatuvchi, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy.

Didaktikaning asosiy tamoyillari I.I.Podlasiy tomonidan ahamiyatiga ko'ra quyidagicha

Shunday qilib, o'qitish – ko'p o'lchamli, bir maqsadga yo'naltirilgan, dinamik, permanent, nazorat qilinadigan, mahsuldor, majmuaviy, tamoyilli shart-sharoitlarni, ya'ni motiv, axborot, talabalarning intellektual, amaliy faoliyatini va boshqa imkoniyatlarini faollashtirishni, vaqtni talab qiluvchi hodisadir. Didaktik jarayonning bunday bo'g'inlarini umumlashtirib, e'tiborni motivatsion, mazmunli, operatsional bo'g'inlarga jamlash mumkin. Didaktik jarayonning yuqorida ajratib ko'rsatilgan bo'g'inlarida "Pedagogik atamalar"ni o'qitishning amaliy, umumta'lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari tadqiqotimizda qarab chiqilayotgan "Uzluksiz ta'lim konsepsiyasiga" tayanishimizni esda tutish kerak.

1. Motivatsion omil – fanni o'qitishga nisbatan shaxsiy-qadriyatli munosabatni, uni o'rganish va takomillashtirishga ehtiyojni shakllantirish asosidir. Motivatsion komponentning mazmuni avvalo, talaba shaxsining his-tuyg'uli – qadriyatli va ehtiyoj sohalarni qamrab oladi. Bu yerda mashg'ulotlarni tashkil qilishning psixologik-etik jihatlari; mashg'ulotlarning barcha turlarida ijodkorlik, bir-biriga ishonish, muruvvatlilik muhitini o'rnatish; berilgan o'quv fani doirasida egallanadigan bilim va ko'nikmalarning ijtimoiy-shaxsiy, sub'ektiv, amaliy ahamiyatini anglash muhim omillar hisoblanadi. Motivatsion omilni ochib berishda psixologlar L.S.Vigotskiy, A.K.Dusavinskiy, A.A.Leontev,

tizimlashtirilgan: onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, tizimiylik va izchillik, mustahkamlik, ilmiylik, tushunarlilik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi. Bu tamoyillar tizimini biz quyidagicha modifikatsiya qildik: onglilik va faollik, ilmiylik, tushunarlilik, ko'rgazmalilik, tizimiylik va izchillik, mustahkamlik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi.

O'qitishning didaktik jarayon samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillari: o'rganish motivatsisi; bilish faoliyati predmetiga bo'lgan qiziqish, o'qish malakasi; o'quv materialining qiziqiligi va murakkabligi; uni bayon qilishning original shakli; o'qitish metodlarining turli-tumanligi, ularning yangiligi; o'quv faoliyatining ijodkorlik xususiyati; his-tuyg'uli-psixologik muhit; o'qitishning innovatsion vositalari; pedagogik nuqtai nazar; o'quvchilarni rag'batlantirish. Ko'rsatilgan omillarning majmuaviy ta'siri didaktik jarayonning samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Didaktikada o'qitish, topshiriqlarni bajarish, mavjud bilim, malaka va ko'nikmalarning saviyasini o'rganish, talabalarni aqliy rivojlantirish davomida aniqlangan qarama-qarshiliklarni barataraf etish (agar ular qarama-qarshiliklarni bartaraf etish zarurligini anglab yetishsa) – harakatga keltiruvchi kuch ekanligi aniqlangan.

O'quv jarayonining didaktik tizimining zamonaviy talqinida bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash va shakllantirishning bosqichlari ajratib ko'rsatiladi, o'qitishning har bir bosqichida egallanadigan bilim, malaka va ko'nikmalarning sifat-miqdoriy rivojlanishi tahlil qilinadi. Bizning modifikatsiyamizda bunday didaktik jarayonning bo'g'inlari quyidagilardan iborat. A.K.Markov, T.A.Matis va A.B.Orlov, P.M.Yakobson, F.R.Yuzlikayevlarning ishlaridan foydalanildi.

Motivatsiya – shaxs sohasi bo'lib, murakkab va dinamik tizimdir. Birgina faoliyatning o'zi turli xil rag'batlantirishlar (ichki va tashqi) bilan yuzaga kelishi mumkin.

Tashqi: kasbning nufuzliligi, o'zini yaqqol namoyon qilishga intilish, o'qituvchi shaxsining ta'siri, yomon baholardan qochishga intilish.

Ichki - ishga, uning mazmuniga bo'lgan qiziqish bilan bog'liq.

Asosiy – ichki motivatsiya – o'qish faoliyatining istiqbollarni ko'rsatish, individuallikning mosligi;

- zaruriy turg'un ichki motivatsiya, talabalar ongi orqali (bu yerda deduksiyadan – umumiydan xususiyga tamoyilidan foydalanish maqsadga muvofiq, bu esa tizimiylikka olib keladi).

Turg'un motiv ongli qiziqishga olib keladi. Atamashunoslik materiali ongli asosda – o'quv nazariyasi uchun zarur bo'lgan atamashunoslik minimumini, nazariy bilimlarni, bunda mashqlarning muhimligini, so'zlarni, ularning shaklini, so'z birikmalari hamda gaplarning tuzilishini, orfografik va punktuatsion qoidalarni o'rganish zarurligini anglab yetilsa, - o'qilgan va eshitilganlarning mazmunini to'g'ri tushunilsa, o'zlashtirish tezroq va mustahkamroq kechadi.

Motivatsiya – o'qitishning oxirgi, bosqichma-bosqich va operatsional maqsadlarini aniq

ifodalanishidir, bu tabiiy nutqqa qiziqish, istak, yaqinlashishdir (dialoglar - so'rab-surishtirishlar, fikr almashish, istagini ma'lum qilish va h.k.).

Muloqot maqsadi, sohasi, nutq faoliyatining turi, nutq shakli, malaka va ko'nikmalarning xususiyati va saviyasi anglanadi.

Turg'un qiziqish yana shaxsga yo'naltirilgan qiziqarlilik, ijodkorlik, tasavvur g'oyalari bilan yuzaga keltiriladi.

Shunday qilib, talabalar uchun xatti-harakatlarning maqsadini, vazifalarini, natijasini, usullari va vaqtini anglash juda muhim. Asosiysi – his-tuyg'uli m unosabat, zaruratni his qilish, maqsadga erishish usullari.

Masalan, pedagogik atamalarni o'rganishning muhimlik motivatsiyasi. Quyidagilar tushuntiriladi: shaxsning intellektual rivojlanishida atamalarning roli; ta'lim olish – lavozimga ega bo'lish garovi, bugungi kunda u absolyut zarurat ekanligi: atamalarning qo'llanilish sohasi va vazifalari tarkibi kundalik og'zaki muloqotdan tortib to millatlararo va davlatlararo darajagacha xilma-xildir.

“Pedagogika” fani haqidagi suhbatlar pedagogik atamalarni o'rganish jarayonida msotvatsiyani oshirishning muhim manbai hisoblanadi. Unga quyidagilar yordam beradi:

- darsliklarning muqovalarini yuqori badiiy saviyada bezash, masalan, O'zbekiston bayrog'i, uning arxitektura, tarixiy-ramziy haykaltaroshlik

yodgorliklari, O'zbekistonning poytaxti Toshkent va boshqa shaharlarining xaritalari, uning diqqatga sazovor joylari va tabiiy o'ziga xos xususiyatlarining, shuningdek, Ulug'bek observatoriyasining tasviri, ularning tarixiy va arxitektura-badiiy xususiyatlari to'g'risidagi hikoyalar – talabalarni motivatsion yo'naltirishda katta muvaffaqiyat garovidir;

Adabiy matnlar o'zining his-tuyg'uli – estetik ta'siri tufayli (talabalarga ularning mavzularini sanab o'tish muhim);

Matn – yuqori badiiy, namunali, ilmiy va h.k. – nafaqat fikrlashni, aqliy dunyoqarashni, nutq madaniyati va kommunikativ malakalarni rivojlantirishning motivatsion asosining omili (u zaruriy lug'at fondining to'liqligini ta'minlaydi).

Ko'p hollarda matndan rivojlantiruvchi, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish pedagogikasi kelib chiqadi. Matnda pedagogik atamalarning qo'llanilishgiga e'tiborni qaratish muhim.

Motivatsion komponentni (tashkil etuvchisini) ta'minlashda, ayniqsa, mustaqil ijodiy topshiriqlarni bajarishda individual yondoshuv muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchilar bilan real muloqot qilish hamda ma'lum teleko'rsatuvlarni ko'rish, radioeshittirishlarni eshitish talabalarni qiziqtirishning yana bir muhim omilidir (egallangan bilimlarni amalga tatbiq qilish). Pedagogik sikl fanlari bo'yicha mashg'ulotlarda talabalarni motivatsion qiziqtirish tizimi ishlab chiqilgan.

1.2-jadval

O'qitish jarayonida talabalarni motivatsion yo'naltirish tizimi.

<p>I. Atamalar, ularning ustuvorligi, ijtimoiy ahamiyati hamda kasbini egallashdagi zarurati haqida suhbat.</p> <p>O'quv material mazmunidan talabalarni pedagogika darslarida egallanadigan bilim, malaka va ko'nikmalarning ijtimoiy-shaxsiy ahamiyatini tushunish va anglashga yo'llovchi jihatlarni ajratib olish</p> <p>Xalq madaniyatiga murojaat qilish, bunda quyidagicha maqsad ko'zda tutiladi: talabalarning xalq madaniyatiga, avvalo, uning buyuk ramziy-tarixiy badiiy esdaliklariga qiziqishini hamda tuyg'ularini shakllantirish.</p> <p>O'quv fanining maqsad va vazifalari, uning o'qishdagi va shaxsiy hayotidagi: bilish, ijodiy, kommunikativ; o'quv-ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy, taqdirini hal qiluvchi istiqbollari bilan tanishtirish.</p> <p>Talabalarni qiziqarli, konkret, o'quv, umumta'limiy va bildirish-qiziqtirish materialiga jalb qilish.</p> <p>Nostandart mashg'ulotlar ro'yxati, eng g'ayrioddiy mashg'ulotlar va topshiriqlarning qisqacha mashg'ulotlarining tavsifi.</p> <p>Maqsadga erishishning original usullarini ochib berish – talabalarni ishning qiziqarli shakllari, metodlari, usullari, vositalari – o'qitishning integrativ metodlari bilan tanishtirish.</p> <p>Pedagogik sikldagi o'quv fanlarini o'rganishda muhim vosita sifatida o'zbekcha-ruscha (ruscha-o'zbekcha) lug'atlar bilan tanishtirish.</p> <p>Pedagogika fanini o'qitishda individual yondoshuvning imkoniyatlarini ochib berish.</p> <p>Talabalarni ularga qo'yiladigan talablar va rag'batlantirish tizimi bilan tanishtirish.</p>
--

II. O'qitish va ta'lim berish mazmuni talabalardan talab qilinadigan didaktik o'quv materialini, masalalarni, topshiriqlar, bilim, malaka va ko'nikmalarning turlarini o'z ichiga oladi.

O'qitish va ta'lim berish mazmunining zamonaviy konsepsiyasi quyidagicha asoslanishlarni o'z ichiga oladi: ijtimoiy-siyosiy, umumiy ilmiy, o'quv jarayonini gumanizatsiyalashtirish tamoyilini hisobga oluvchi psixologo-pedagogik.

Mazmuni davlat ta'lim standarti talablariga javob berishi, o'z mamlakatining real sharoitini aks ettirishi,

o'quvchilar kontingentining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilishi kerak.

Mazmuni shakllantirish quyidagi darajalardan iborat: talabalarni nazariy tayyorlash (tushunchalar apparati, atamalarga berilgan ta'riflar, atamashunoslik va ikki tilli o'zbekcha-ruscha o'quv lug'atidan foydalanish qoidalari nazariy bazis hisoblanadi); nazariy bilimlarni amaliy o'zlashtirish; malaka va ko'nikmalarni egallash; shuningdek kommunikativ daraja.

“Uzluksiz ta’lim konsepsiyasi” va “Pedagogika” bo’yicha standartlar atamalarini o’qitish mazmunini shakllantirishda muhim metodik yo’naltiruvchi vosita hisoblanadi.

Talabalarning leksika, atamashunoslik materialining texnik jihatlari (o’qish texnikasi va yozish texnikasi) kabi nazariy bilimlariga; tasavvur qilish shaklidagi bilimlarga: o’zbek tilida moslikka va farqlarga ega bo’lgan atamashunoslik birliklarining ma’nosiga alohida e’tibor qaratiladi.

Shunday qilib, mazmunning asosiy komponenti – bilimlar, malakalar, ko’nikmalar, ularning hajmi va tizimlashtirilganligi (o’quv dasturlarining talablariga mos ravishda).

Pedagogik atamalarni o’qitish mazmuni, avvalo, leksikografik o’quv materialiga, u bilan ishlash metodlarini tanlashga tayanadi. O’quv materiali atamani, lug’at va matn materialini o’z ichiga oladi, shuningdek, o’quv materialining tuzilmasiga mos ravishda ma’lum uslublar – faoliyatli, malakaviy va ko’nikma uslublari shakllantiriladi (nutq mashqlari, mashqlar va topshiriqlarni bajarish, amaliy muloqot jarayonida).

O’qitish va ta’lim berish mazmuni uning didaktik asoslarini takomillashtirib borilishi hisobiga doimo takomillashtirib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Каримов И.А. “Великое государство не построить без расцвета науки: По пути созидания”. Т.: “Ўзбекистон”, 1996, 350-б.
- 2.Каримов И.А. “Ўзбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса”. Т.: “Ўзбекистон”, 1997, 315-б.
- 3.Каримов И.А. “Баркамол авлод орзуси”. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”-2000, 15-б.
- 5.Каримов И.А. “Юксак маънавият – энгилмас куч”. Т.: “Маънавият”- 2008, 175- б.
- 6.Закон Республики Узбекистан «Об образовании». Т.: “Шарқ”-1997, 63-б.
- 7.Каримов И.А. “Гармонично развитое поколение - основа прогресса Узбекистана”. Т.: “Шарқ”-1998, 63-б.
- 8.Абдуллаев Ю., Бушуй А. “Иностранные языки в современном мире: Эволюция методики обучения”. Т.: “Фан”-2000, 272-б.
- 9.Аганин Р.А. “Словарь учебника и учебные словари”. М.:1974,
- 11.Акабиров С.Ф. и др. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”. М.: “Просвещение”- 1981, 631-б.
- 12.Алмарданов Р.А. “Словарь дипломатических терминов”. Т.: УМЭД, 2002, 138-б.
- 13.Амирова Т.А., Ольховиков В.А., Рождественский Ю.В. “Очерки по истории лингвистики”. - М.: 1975, 559-б.

O’QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN MALAKA OSHIRISH KURSLARIDA TASHKIL ETILADIGAN PEDAGOGIK JARAYONLAR

Muxayyo UMARALIYEVA – Qori Niyoziy nomidagi O’zPFITi mustaqil izlanuvchisi

Maqolada o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan malaka oshirish kurslarida pedagogik jarayonlar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif o’qituvchilar malakasini oshirishda ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda o’qituvchining kasbiy shakllanishning bosqichlarini ochib bergan.

В статье рассматриваются педагогические процессы на курсах повышения квалификации, которые организованы для развития и повышения профессиональной компетентности учителей. Кроме того, автор определил этапы профессионального развития учителя и развитие их профессиональной компетентности в области подготовки учителей.

The article focuses on pedagogical processes in the upgrading courses that are organized to develop and improve the professional competence of teachers. In addition, the author has identified the stages of professional development of the teacher and the development of their professional competence in teacher training.

Kalit so’zlar: Malaka oshirish kurslari, o’qituvchi, kasbiy kompetentlilik, pedagogik jarayon, bosqich.

Ключевые слова: курсы повышения квалификации, преподаватель, профессиональная компетентность, педагогический процесс, этап.

Mustaqillikka erishganimizdan so’ng, Respublikamizda barcha sohalaridagi kabi kadrlar tayyorlash, joy-joyiga qo’yish va qayta tayyorlash

muammosi ham kun tartibiga qo’yilib, hal qilish yo’llari izlanmoqda. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda o’qituvchining roli va uning kasbiy

kompetentligini rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'qituvchi shaxsi, uning kasbiy, ma'naviy va madaniy hamda shaxsiy sifatlari pedagogik jarayonlarni tashkil etish, sifat va samaradorligini ta'minlash yo'nalishidagi masalalarni hal etish va pedagogik jarayon ishtirokchilarining uyushqoqligi, hamkorligini ta'minlash uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Harakatlar Strategiyasining "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishida belgilangan vazifalar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 2-avgust kuni o'tkazilgan "Umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'rtasida o'zaro integratsiyani ta'minlagan holda bosqichma-bosqich 11 yillik majburiy o'rta ta'limni joriy etish to'g'risida"gi videoselektor majlisida berilgan ko'rsatmalarini amalga oshirish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagog xodimlarining kasbiy va pedagogik kompetentligini rivojlantirish, ularga amaliy metodik yordam ko'rsatish, uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini takomillashtirish asosida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish tartibini belgilaydi.

Zamonaviy o'qituvchining faoliyatida kasbiy tayyorgarlik, ya'ni uning professionalligi, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda kompetentli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib aytilish mumkinki, muntazam ravishda o'zining kasbiy bilimi, ko'nikma va malakasini rivojlantirib borishi, tushunchalarini kengaytirishi, fan va texnika yutuqlarini, zamonaviy pedagogik, yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirib borish uchun o'qituvchilarga malaka oshirish kurslari zarur hisoblanadi.

O'qituvchilik kasbining o'ziga xos xususiyatlaridan biri o'qituvchilar o'z bilimlari, salohiyati va ko'nikmalarini uzluksiz to'ldirib borishini taqozo etadi. O'qituvchilarning malakasini oshirish an'anaviy ravishda doimo tizim sifatida, ya'ni ijtimoiy tajribalarni uzatish, o'qituvchilarda yangi tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish, ularni pedagogik faoliyatga texnologik va funksional tayyorlash tizimi sifatida ko'rib chiqilgan.

Ammo, bugungi kunda zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda ta'lim muassasasi faoliyatini qayta tashkil etish, ya'ni o'zgartirish ta'limning ustuvorligini ta'minlash, ijtimoiylashtirish, demokratlashtirish, insonparvarlashtirish hamda ta'limning milliy yo'naltirilganligini ta'minlash prinsiplariga asoslangan bo'lib, maxsus kasbiy tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan, ma'naviy boy hamda o'z faoliyatida shaxslararo munosabatlarni, shaxs va sotsium munosabatlarining uyg'unlashuvini ta'minlay oladigan o'qituvchilarni talab etadi.

Shuning uchun, o'qituvchilarning malakasini oshirish jarayoni nafaqat ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan mutaxassis sifatida tayyorlashga, balki katta yoshdagi insonlarning

psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

O'qituvchilarni kasbiy tayyorlash – bu qo'shimcha ta'lim tizimida sub'ektlarning shaxsiy ahamiyat kasb etuvchi o'zaro ta'sir jarayoni, ya'ni nafaqat pedagogik faoliyatni amalga oshirishga o'qituvchilarning tayyorgarligini rivojlantirish, balki ularning o'zini-o'zi rivojlantirish va kasbiy kompetentlilik yo'nalishidagi ehtiyojlarini qondirish jarayoni hisoblanadi.

O'qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonining mazmuni o'qituvchilarni imkoniyatning boricha nazariy tushunchalar bilan qurollantirish emas, balki ularning ongi, sezgisi va mustaqil fikrlashi orqali dunyoqarashini kengaytirishdan iborat bo'lishi zarurligi o'rganilayotgan jarayon, ya'ni o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayoni ularning faoliyatining barcha bosqichlarida o'zlarining kasbiy tajribalarini anglash, tahlil qilish va baholash, shuningdek, o'zini-o'zi shaxsiy rivojlantirish ehtiyojlarini faollashtirish va qo'llab-quvvatlashga asoslanish zarurligini belgilaydi. Chunki mazkur jarayonda o'qituvchi shaxsining ma'naviy boyishi hamda ijodiy salohiyatining rivojlanishi uchun imkoniyat vujudga keladi.

O'qituvchilar malakasini oshirish yo'nalishidagi maxsus jarayon o'qituvchilar uchun nafaqat madaniy funksiyalarni bajaradi, balki yuksak darajada yashash va hayotiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etish qobiliyatlarini shakllantiruvchi muhit vazifasini ham bajaradi. Mazkur tizimda yaratilgan shart-sharoitlar ular uchun kelajakda o'z shaxsini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Zamonaviy o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish va pedagogik faoliyatga tayyorlash uchun har bir o'qituvchining malakasini oshirish yo'nalishidagi vazifa va maqsadlarga o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi, pedagogik ta'sir salohiyatiga ega bo'lgan ta'lim muassasasining hamda har bir o'qituvchining muammolarini qanday hal etish va ulardan qanday foydalanish zarur degan savollarga javob topish, ya'ni malaka oshirish jarayoni ishtirokchilari hamda ta'lim muassasasining imkoniyatlarini, ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun, mazmunan integrativ xususiyatga ega bo'lgan, ta'lim menejmenti hamda boshqaruv psixologiyasining roli va ahamiyati kengroq yoritilgan, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda kompetentlilik, innovatsion faoliyat va o'qituvchi shaxsining kasbiy sifatlari yo'nalishidagi mavzularni o'z ichiga olgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarur.

Bunday o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ta'lim tizimini modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faoliyatlarini takomillashtirish va o'quv jarayonini rivojlantirishning eng asosiy shartlaridan biri hisoblangan ta'lim

muassasasi o'qituvchilarining faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish, pedagogik faoliyatning ilmiyligini, ya'ni yangiliklarni izlash, o'rganish va ularga asoslanish hamda ilmiy asoslangan ma'lumotlardan foydalanish, boshqaruvning pedagogik, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini o'zlashtirish, shular qatori ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuv texnologiyalarini joriy etish yo'nalishlari bo'yicha o'qituvchilarda zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga asoslanib, o'qituvchilar malakasini oshirish jarayonida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- mustaqil ta'lim olishga va malaka oshirishga o'qituvchilarning psixologik va pedagogik tayyorgarligi darajasini ko'tarish;

- malaka oshirish mazmunida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning maqsadi va metodlari hamda ta'lim mazmunida psixologiyaning rolini kuchaytirish;

- o'qitishning oddiy axborotlar bilan ta'minlash shaklidan faol shakliga, ya'ni muammoli suhbat uslublari yordamida va pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirishga o'tish;

- o'qituvchining kasbiy mahorati rivojlanishining natijasini ularda ijodiy, kasbiy va shaxsiy salohiyatining yaxlit takomillashishi sifatida ko'rib chiqish;

- kompetentli o'qituvchining shaxsiy pozitsiyasini ta'lim-tarbiya jarayonining sub'ekti sifatida shakllantirish.

O'qituvchining malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etishda kompetentli o'qituvchini shaxs sifatida umumiy rivojlanishini, shuningdek, uning pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish faoliyatiga tayyorgarlik darajasini hisobga olish zarur. Agar o'qituvchida shaxs sifatida yangiliklarni yaratishga ichki moslashuv va fikrlash usullari shakllangan bo'lsa, u barcha o'zgarishlarga o'z munosabatini oson bildiradi, ularni to'g'ri baholaydi, boshqaradi va o'z kasbiy sohasida ularni amalga oshiradi. Agarda yangiliklarni yaratishga ichki moslashuv yaxshi shakllanmagan bo'lsa, u shaxs sifatida ko'proq konservatizmga moyil bo'ladi va bunda maxsus tashkil etilgan ta'lim zarur bo'ladi.

Kompetentli o'qituvchi pedagogik jarayonlarni rivojlantirishning konseptual dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda sermulo hazali nazariyotchi, tadqiqotchi bo'lmasa, pedagogik jarayondagi rivojlanuvchi jarayonlarni ilmiy asosda boshqara olmaydi.

Malaka oshirish kurslarida o'qituvchilar malakasini oshirishning eng asosiy maqsadi o'qituvchi shaxsiga va uning faoliyatiga qo'yilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar bilan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda o'qituvchi oldida turgan, ta'limni modernizatsiya qilish, yangilash hamda

ta'limni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan maqsad va muammolarni, shuningdek, o'qituvchilarning o'z kasbi va lavozimi yo'nalishidagi funksiyalarini bajarishga tayyorgarligini yetarli darajada emasligini inobatga olgan holda zamonaviy ijtimoiy talablar asosida mavjud muammolarni bartaraf etishdan iborat.

Bizning fikrimizcha, yuqorida sanab o'tilgan shaxsiy sifatlarga erishish uchun o'qituvchi ta'lim jarayonida kasbiy shakllanishning uchta bosqichini bosib o'tadi:

Birinchi bosqich. Ta'lim muassasasi faoliyatiga qo'yilayotgan yangi ijtimoiy talablarni hisobga olgan holda o'zining faoliyati samaradorligini tahlil qilish va o'zbek baholash.

Mazkur bosqichda o'qituvchi o'zining faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi, maqsad va vositalar, maqsad va natijalar o'rtasidagi ziddiyatlarni, tushunmovchiliklarni hamda o'qituvchilikning negativ va pozitiv tomonlarini aniqlaydi. Bunda faoliyatning odatiy stereotiplarini yo'qotish, yangi tushunchalar asosida o'zi haqida tasavvur hosil qilish, avvalgi eski uslublarni yordamida pedagogik faoliyatni amalga oshirish mumkin emasligini tushunib yetish nazarda tutiladi. O'qituvchi o'z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatda bo'lishga o'tadi. Pedagogik faoliyatini tanqidiy tahlil qilish asosida o'qituvchining kasbiy-shaxsiy rivojlanish jarayonining faollashishi vujudga keladi.

Ikkinchi bosqich. Kasbiy kompetentlik yo'nalishidagi tushunchalarni va yangilikni anglashga nisbatan intilishning o'zgarishi.

Bu bosqichda o'qituvchining bilimi, ko'nikma va malakalarining yangilanishi, ma'naviy va madaniy salohiyatining rivojlanishi hamda axborotlar almashinuvi amalga oshadi. Ta'lim jarayoni doirasida o'qituvchilarda kasbiy faoliyat yo'nalishidagi tushunchalarning o'zgarishi, shaxsiy o'zgarishlar vujudga keladi. O'qituvchi faoliyatining asosiy yo'nalishi hisoblanadigan pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish bo'yicha tajribalari boyiydi, kasbiy tajribalar to'planadi.

Uchinchi bosqich. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi faoliyatining shaxsiy konsepsiyasini ishlab chiqish.

O'qituvchining pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi faoliyatining shaxsiy konsepsiyasini loyihalashtirishi uning kasbiy faoliyat yo'nalishidagi yangi tasavvurlari asosida amalga oshiriladi. O'qituvchilarning malakasini oshirish jarayoni, mazkur jarayonning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi qator omillar orqali ifodalanadi. Bularga o'qituvchining o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi yo'nalishidagi maqsadi, istak, intilish, qiziqish va boshqa motivlarni misol qilish mumkin.

O'qituvchilarning malakasini oshirish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri ular faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasasidagi raqobat maydonini tasvirlovchi ta'limiy muhit, ustoz-shogird munosabatlari va o'qituvchilarning o'zaro ta'sir

ko'rsatish jarayoni hisoblanadi. Bunday raqobat maydonini tasvirllovchi ta'lim-tarbiyaviy muhitda, refleksiv jarayonlar davomida va o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi ishtirokchilarning suhbatida asosida shaxsning o'zini-o'zi rivojlantirish, professionalning rivojlanish jarayonlari vujudga keladi, shuningdek, kasbiy faoliyatning ahamiyatini har bir o'qituvchining muhim ahamiyat kasb etuvchi mo'ljali anglash va qayta tashkil etish amalga oshadi. Mazkur omil ta'lim muassasasidagi munosabatlar, mahalla, ota-onalar, sotsium va jamiyatning zamonaviy talablari ta'siri ostida bo'ladi.

Demak, o'qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo'nalishida tashkil etiladigan qulay ta'limiy muhitda ularning mustaqil ta'lim olishi uchun qiziqish shakllantirish va rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillardan biri motivlashtirish hisoblanadi. Tajribalardan ma'lumki, inson hayotida va kasbiy va shaxsiy jihatdan rivojlanishida uning o'zi tomonidan mustaqil ravishda egallangan tushunchalari muhim ahamiyat kasb etadi va bu tushunchalar mustaqil ta'lim jarayonida, ya'ni yangiliklar yoki zaruriy tushunchalar unga biror bir shaxs tomonidan an'anaviy ravishda o'rgatilmaganda, refleksiv faoliyat jarayonida shakllanib, rivojlanib boradi.

O'qituvchi qay darajada refleksiv faoliyatga ko'proq moyil bo'lsa, uning o'zini-o'zi rivojlantirish faoliyati ham shu darajada tez boyib, kengayib boradi va refleksiv qobiliyatlari ham shu darajada tez rivojlanadi. Refleksiv faoliyat o'qituvchining mustaqil faoliyatining asosiy komponentlaridan biri sifatida kasbiy ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarini, uning hayotiy kechinmalarini, bilimi, ko'nikma va malakalari hamda shaxsiy tajribasini o'zi tomonidan tahlil qilish va xulosa chiqarishga imkoniyat yaratadi, o'zini-o'zi rivojlantirish jarayonini yangi darajaga o'tkazishga, o'zini-o'zi o'zgartirishga shart-sharoitlar yaratadi. Natijada unda o'z faoliyatini tahlil qilish, o'zini-o'zi rivojlantirish va o'zini-o'zi namoyon etish yo'nalishlarida muhim ahamiyat kasb etuvchi qarorlarni qabul qilish, qulay vaziyatlarni tanlash va baholash, maqsadni aniqlash va belgilash ko'nikmalari shakllanadi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, o'qitish texnologiyasi izchillikni, loyihalashni, o'qitishni barcha komponentlarining o'zaro aloqasini va ularning mantiqiy izchilligini nazarda tutuvchi, o'quv jarayonini strukturaviy-mantiqiy tashkil etish. Bularga axborot-texnologiyalari, ishchan o'yin, suhbat, trening, guruhlar bo'yicha ta'lim, modulli-differensiyalashtirilgan, tadqiqiy, tashxis, refleksiv va boshqa shakldagi texnologiyalar kiradi.

Barcha texnologiyalar o'qituvchilarning kasbiy ahamiyat kasb etuvchi o'zaro ta'sir ko'rsatishning amalga oshirishga yo'naltiradi, o'qituvchilarning o'zini-o'zi rivojlantirish va o'zligini isbotlash jarayonlarining muhimligini isbotlaydi, shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirish uchun imkoniyat yaratadi.

Malaka oshirish jarayoni "ma'lumotli o'qituvchi"dan "kompetentli o'qituvchi"ga o'tishga, ya'ni o'z qobiliyatini ilmiy asoslarda yo'naltiruvchi, boshqalarni ham ilm olishga yetaklay oladigan mutaxassisni shakllantirishga va ularda ijobiy o'quv motivlarini vujudga keltirishga xizmat qiluvchi qulay ijodiy ta'limiy muhit sifatida tashkil etilishi zarur. (M.U).

Qulay ijodiy ta'limiy muhitni shakllantirish muammolarini faqatgina ta'lim mazmunini, ta'lim berish uslublarini qayta tashkil etish, pedagogik faoliyatning tabiiy insoniy tabiyatiga mos ta'limiy muhitni tashkil etish orqali hal etish mumkin. Bunday dasturni ishlab chiqishda quyidagi talablarni inobatga olinishi maqsadga muvofiq:

tizimli, vaziyatli, shaxs-faoliyat, milliy-hududiy, etnik, tadqiqiy, integrativ, korporativ yondashuvlar qulay ijodiy ta'limiy muhit mazmunini ishlab chiqishning metodologik asoslari sifatida inobatga olish;

fanlararo aloqalarning ilmiy tushunchalarini va integratsiyasini inobatga oluvchi o'quv reja va dasturlar mazmunining majmuaviy xususiyatlarini kompetentli o'qituvchi shaxsini shakllantirishning asosi sifatida ko'rib chiqish;

o'qituvchilar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning innovatsion modellarini ishlab chiqish;

qulay ijodiy ta'limiy muhit dasturlarini o'qituvchilarning ijodkorligini rivojlantirishga yo'naltirish;

o'qituvchilarning ehtiyojlari, ikoniyatlari va amaliy faoliyati davomida vujudga keluvchi qiyinchiliklarni inobatga olgan holda, qulay ijodiy ta'limiy muhit jarayonini ko'proq ular dolzarb deb hisoblagan muammolarni hal etishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqishga yo'naltirish.

Yuqoridagilarga asoslanib o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida tashkil etiladigan malaka oshirish jarayonlari samaradorligini oshirish uchun mazkur jarayonni tashkil etishda quyidagilarni inobatga olish zarur:

– o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lishi zarur;

zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalar tizimini ishlab chiqishda kompetentli o'qituvchi shaxsi modelini hisobga olish zarur;

ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishda kompetentli o'qituvchi shaxsini shakllantirish modeliga asoslanish;

– o'zaro ijodiy hamkorlikka asoslangan o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida refleksiv ta'limiy muhitni vujudga keltirish;

– o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini rivojlantirishga asoslanish;

o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida kompetentli o'qituvchi shaxsini shakllantirish imkoniyatlarini takomillashtirish uchun zaruriy psixologik muhitni vujudga keltirish;

o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida o'qituvchilar o'z amaliy pedagogik faoliyatida duch kelayotgan muammolarni ta'lim jarayoni mazmuni bilan uyg'unlashtirish;

o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida o'qitish metodlari va shakllarini, topshiriqlarni ta'lim oluvchilar tomonidan tanlab olinishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda ko'proq o'zaro ijodiy hamkorlikka asoslangan munosabatlar jarayonlarini shakllantirishga erishish o'z ijobiy natijasini beradi.

O'qituvchilar malakasini oshirish oshirish jarayonida o'qituvchining ichki imkoniyatlarini harakatga keltiruvchi, tushunchalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga ko'maklashuvchi, pedagogikaning "tarbiya"-o'zini-o'zi tarbiya", "ma'lumot"-mustaqil ma'lumot", "ta'lim"-mustaqil ta'lim" tushunchalari bir-birini to'ldiruvchi hamda biri-ikkinchisining, ikkinchisi-uchinchisining ta'minlovchisi sifatida shaxsning rivojlanishi hamda shaxsiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun xizmat qilishini inobatga olish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017- yil 2-avgust kuni o'tkazilgan "Umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'rtasida o'zaro integratsiyani ta'minlagan holda bosqichma-bosqich 11 yillik majburiy o'rta ta'limni joriy etish to'g'risida"gi videoselektor majlisidagi nutq.

2. Turg'unov S. Maqsudova L., Umaraliev M. "Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari". T.: "Sano-standart" – 2012, 100-bet.

ПРЕПОДАВАНИЕ ПРОГРАММИРОВАНИЯ В УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДА ПРОГРАММИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ТЕМЫ «ОДНОМЕРНЫЕ МАССИВЫ»

Абдукаххор АБДУКАДИРОВ – профессор кафедры «Методика преподавания информатики» ТГПУ, доктор педагогических наук

Динара Джамалидинова – магистр ТГПУ

Ushbu maqolada o'quv yurtlarida dasturlashni o'qitishda dasturiy o'qitish usulini qo'llash masalasi ko'rib chiqilgan. Ushbu usul ob'ektiv bilimlarni tizimlashtirish, o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishni sezilarli darajada ko'paytirish hisobidan o'quv jarayonini boshqarish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan. Maqolada «Bir o'lchovli massivlar» mavzusini o'qitish misolida ushbu usul ko'rsatilgan.

В данной статье освещен вопрос применения метода программного обучения при преподавании программирования в учебных заведениях. Данный метод направлен на повышение эффективности управления учебным процессом за счет структурирования объективного знания, значительного увеличения доли самостоятельной работы обучаемых. В статье приведен пример применения данного метода при преподавании темы «Одномерные массивы».

In this article the matters of application of a method of program training of teaching of programming in educational institutions. This method is aimed of improvzy, management efficiency in the educational process which is based on the structuring at objective knowledge, significant growth part of individual work for students. The article gives an example of the application of this method in teaching "One dimensional arrays".

Kalit so'zlar: dasturlash, dasturiy o'qitish, usul, axborot, bilish, ko'nikma, axborot texnologiyalar, muammolar.

Ключевые слова: программирование, программированное обучение, метод, информатсия, знание, навык, информатсионные технологии, проблемы.

Key words: programming, programming teaching, method, information, knowledge, experience, informative technologies, troubles.

В последние десятилетия происходит стремительная информатизация всех сторон жизни общества и всех сфер производственной деятельности. Информатика становится одной из

фундаментальных областей научного знания, изучающей информационные процессы, методы и средства обработки информации.

Выпускникам необходимо обладать достаточными знаниями и навыками для эффективного использования современных информационных технологий в своей дальнейшей деятельности.

Проблемы обучения информатике и конкретно программированию находят свое отражение в работах А.А.Абдукадирова, А.П. Ершова, А.Г. Кушниренко, А.С. Лесневского, В.М. Монахова, С.М. Окулова, А.Л. Семенова, М.В. Швецкого и др.

В психолого-педагогических исследованиях обычное, или традиционное, обучение считается плохо управляемым. По мнению большинства отечественных ученых и педагогов, основными недостатками традиционного обучения выступают следующие:

1) Усредненный общий темп изучения материала.

2) Единый усредненный объем знаний, усваиваемых учащимися.

3) Непомерно большой удельный вес знаний, получаемых учащимися в готовом виде через преподавателя без опоры на самостоятельную работу по приобретению этих знаний.

4) Почти полное незнание преподавателем хода усвоения учащимися сообщаемых знаний (нет внутренней обратной связи и слабая внешняя обратная связь).

5) Недостаточное стимулирование познавательной активности учащихся, опора в основном на преподавателя.

6) Преобладание словесных методов изложения знания, создающих объективные предпосылки рассеивания внимания.

7) Затрудненность самостоятельной работы учащихся с учебником в следствии недостаточной расчлененности учебного материала, сухости языка, а также полного отсутствия эмоционального воздействия.

8) Возникновение программированного обучения связано с попыткой устранить эти и другие недостатки обычного обучения.

Программированное обучение (ПО) – это обучение по специально составленной программе, которая записана в программированном учебнике или в обучающей машине (в памяти компьютера). Обучение идет по следующей схеме: материал делится на порции (дозы), составляющие последовательные шаги (этапы обучения); в конце шага проводится контроль усвоения; при правильном ответе выдается новая порция материала; при неправильном ответе обучаемый получает указание или помощь. На таком принципе построены компьютерные обучающие программы.

Методы ПО направлены на повышение эффективности управления учебным процессом за счет структурирования объективного знания (уточнения и операционализации целей, задач,

способов решения, форм поощрения и контроля применительно к предметному содержанию знаний), значительного увеличения доли самостоятельной работы обучаемых (осуществляемой в индивидуальном темпе и под контролем).

Сложность программного материала возрастает по принципу «от простого к сложному» как в самих вопросах, так и в связанных с ними ответах (выборочных или конструируемых). В каждом случае прямая и обратная связь педагога с обучаемыми осуществляется с использованием специальных средств (программированных учебных пособий разного вида, компьютера).

Программированное обучение стимулировало развитие и применение технических средств обучения (ТСО), информационных технологий обучения (ИТО). Последние определяются как совокупность электронных средств и способов их функционирования, используемых для реализации обучающей деятельности.

Теоретические основы любого ПО составляют общие принципы:

1. деления материала на небольшие, тесно связанные между собой части (шаги, порции);

2. активизации деятельности учащихся, изучающих программированный текст;

3. немедленной оценки каждого ответа учащегося; г) индивидуализации темпа и содержания учения;

4. эмпирической верификации (проверки) программированных текстов.

В качестве примера применения метода ПО, рассмотрим преподавание темы «Одномерные массивы».

План действий:

1. Постановка цели и задачи занятия.

2. Изучение необходимого теоретического материала занятия.

3. Контроль и корректировка действий студентов со стороны преподавателя при выполнении задания на ПК.

4. Рассмотрение аналогичных задач по теме исследования.

Задание для самостоятельного решения: Вычислить сумму последовательности чисел одномерного массива размерностью n - элементов. Массив заполнить случайными числами.

```
#include <iostream>
#include<cstdlib>
#include<ctime>
using namespace std;
int main()
{
    srand(time(NULL));
    int n, S=0;
    cin>>n;
    int a[n];
    for (int i=0;i<n;i++)
    {
```

```
a[i]=rand()%100;
cout<<a[i]<<" ";
S+=a[i];
}
```

```
cout<<endl<<"S="<<S<<endl;
system("pause");
return 0;}
```

```
D:\Старый хард диск D\Рабочие материалы\программы\...
10
85 96 37 63 19 86 86 31 1 90
S=594
Для продолжения нажмите любую клавишу . . .
```

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Бежанова М. «Практическое программирование. Структуры данных и алгоритмы». М.: «Логос».
2. Ершов А. «Программирование вторая грамотность». Электронный ресурс. А.П. Ершов. Режим доступа: <http://www.ershov.ras.ru/russian/secondliteracy/article.html>.
3. Лесневский А. «Объектно-ориентированное программирование для начинающих Текст». М.: «Бином»- 2005.
4. Монахов В. «О специальном факультативном курсе «Программирование» Текст». Математика в школе- 1973, № 2, С.21.
5. Монахов, В. «Программирование». М.: «Просвещение»- 1974.
6. <https://didaktica.ru/osnovnye-napravleniya-sovremennogo-obucheniya/175-programmirovannoe-obuchenie.html>

MAXSUS MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA 5-6 YOSHLI BOLALARNI JISMONIY MASHQLAR ORQALI SOG'LOMLASHTIRISH USULLARI

Dono **AKBAROVA** – TDPU magistranti

Ushbu maqolada qomatida nuqsoni bor 5-6 yoshli bolalarni to'g'ri tutish uchun harakatlar ko'nikmasini shakllantirish, hamda uni mustahkamlash, ularga beriladigan maxsus jismoniy mashqlarni nazorat etib turish bo'yicha kerakli tavsiyalar berib o'tilgan.

В этой статье он предоставил необходимые рекомендации для формулирования и укрепления навыков поведения 5-6-летнего ребенка с дефектной способностью контролировать физическое упражнение, которое им дано.

The article, he has provided the necessary recommendations for formulating and strengthening the behavioral skills of the 5-6 year-old child with a defective ability to control the physical exercise they are given.

Kalit so'zlar: nuqson, qaddi-qomat, skolioz, maxsus mashqlar, jismoniy mashqlar, davolovchi jismoniy tarbiya, rivojlanish, shakllanish, ko'nikma, nazorat, o'yinlar.

Ключие слова: дефицит, походка, сколиоз, специальные упражнения, физические упражнения, лечебная физическая подготовка, развитие, формирование, умение, контроль, игры.

Key words: deficiencies, strokes, scoliosis, special exercises, exercise, therapeutic physical training, development, formation, skill, control, games.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish jarayonida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ta'lim tizimi va mazmunini demokratlashtirish davlatimizning ustuvor siyosati XXI asr yoshlarini har tomonlama rivojlangan, yetuk, dunyoviy fikr yuritadigan, bilimli barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 30-sentyabr kuni maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni, tubdan takomillashtirish to'g'risidagi Farmoni imzoladi. Ushbu farmon bilan Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

Vazirlik tuzilmasiga Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi, Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari hamda ularning shahar va tuman bo'limlari kiritildi.

Yangi vazirlikning asosiy vazifalari bosqichma-bosqich barcha bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish, mamlakatda o'zaro raqobat qiluvchi davlat va nodavlat MTMLari tarmog'ini yaratish, amaliyotga maktabgacha ta'lim va bolalarni tarbiyalashning muqobil shakllarini joriy etishdan iborat.

Hozirgi kunda respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlar ta'limi, ularning nuqson turlari va uning darajalarini inobatga olgan holda maxsus ta'limning 8 yo'nalishi (aqli zaif, ruhiy rivojlanishi sustlashgan, nutqida, ko'rishida, eshitishida va tayanch-harakat tizimida nuqsoni bor bo'lgan bolalar) bo'yicha korreksion ta'lim tashkil etilgan.

Maxsus ta'lim sohasining rivojlanishini qayta ko'rib chiqish siyosati amalga oshirila boshlandi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy rivojlanishida, jismoniy tayyorgarligida va salomatlik darajasida sezilarli salbiy o'zgarishlar sodir bo'layotganligi munosabati bilan sog'lom, jismoniy jihatdan sog'lig'i mustahkam yoshlarni tayyorlash muammosi alohida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu muammo maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ayniqsa, ko'proq taalluqlidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash bu uzoq muddat davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, u bolaning jismoniy, ruhiy va axloqiy-irodaviy kuchlarini to'la jalb qilishni talab etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning to'g'ri jismoniy tarbiyasi bu davlat va jamoat tashkilotlari oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Ayniqsa, tayanch-harakat tizimida nuqsoni bor bo'lgan bolalar, qaddi-qomatida nuqsoni borlar uchun jismoniy tarbiyani to'g'ri shakllantirish, ularga to'g'ri tanlangan jismoniy mashqlarni berib nuqsonini bartaraf etish bizning vazifamizdir. Avvalambor, qaddi-qomat nuqsonlari haqida batafsil yoritadigan bo'lsak, qaddi-qomat" (osanka) – odamning vertikal holatini belgilaydi. Har kungi turmush tarzi ham odamning qaddi-qomati o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin, uning kayfiyati yaxshi yoki yomonligi, o'z ko'rinishini tutish holatlari, o'ta charchoqlik shular jumlasiga kiradi. Kelishgan va raso qaddi-qomat nomuvofiq hayotiy jarayonda yomonlashishi mumkin. Bunday holat bola maktabda birinchi yil o'qish paytida kuzatiladi. 7 yoshda bolaning muskul boylam birlashmasi o'tirishning fiziologik holatiga moslashib boradi. Umurtqa pog'onasiga birikkan muskul va boylamlarning ta'sirida uning funksiyasi o'zgarib turadi. Bu 390-400 ta katta-kichik muskul faoliyatiga bog'liq. Bu muskullar odam tanasini normal ushlab turishdan tashqari qarama-qarshi kuchlarni bir-biriga mutanosib qilishdan iborat. Agar muskullar yaxshi rivojlangan bo'lsa, ularning harakati bir-biriga mutanosib (sinxron) bo'ladi. Bu o'z navbatida umurtqa pog'onasi qiyshaymasdan to'g'ri rivojlanishiga yordam beradi. Eng muhimi, umurtqa pog'onasining to'g'ri rivojlanishiga normal sharoit yaratish kelishgan qaddi-qomatiga imkon yaratadi. Shuning uchun ham bolaning yoshligidanoq maxsus jismoniy mashqlar berib borilsa, ular ustidan nazorat ishlari olib borilsa, maqsadga muvofiq. Umurtqa pog'onasi va ko'krak qafasida uchraydigan nuqsonlar bir butun organizm funksiyalari buzilishidir. Bunday nuqsonli bolalar parisonxotir, asabiy, jahldor bo'ladi. Ular bronxit, o'pka yallig'lanishi va sil kasalligiga moyilroqdir.

Ba'zan to'g'ri rivojlangan bolalarning umurtqa pog'onasida u yoki bu yon tarafga qiyshayish holati uchraydi. Bu skolioz deyiladi. Skolioz umurtqaning o'ng yoki chap yon tarafga qiyshayishi natijasida paydo bo'ladi. Bu faqat umurtqa pog'onasi kasalligi emas, balki bir butun organizmda chuqur o'zgarishlar bo'lishi bilan farqlanadi. Bu kasallik sekin rivojlanadi, bezovta qilmagani uchun kech aniqlanadi. Shuning uchun ham uni davolash nihoyatda qiyin kechadi, bu kasallikni ba'zan bartaraf etish mumkin emas. Bola bu kasallikda tez charchaydi, ko'proq o'tirgan va yurgan payti umurtqa pog'onasida og'riq sezadi. Skolioz kasalligi bor bolalar tekshirilgan paytda, umurtqa pog'onasida qiyshiqlik holati kuzatiladi. Bu umurtqaning do'mboq o'sig'i chap yoki o'ng tarafga og'ganligi bilan izohlanadi. Qiyshaygan tarafda kurak yuqoriga ko'tarilgan bo'ladi. Kurak umurtqa pog'onasiga yaqinroq bo'lib qoladi. E'tibor bilan bolani yechintirib turgan holatda yonbosh tarafdin qarab tekshiriladi. Tekshirish paytida, albatta, boshni tutib turish, oldinga yoki orqaga egilganligi, ko'krak qafasi formasi, qorin chizig'i, tizza bo'g'imi bukilmasi, umurtqaning bo'yin, ko'krak va bel egriligi rivojlanganiga e'tibor qilish kerak.

Skolioz kasalligining:

- 1) Yoysimon;
- 2) S simon turlari uchraydi.

Kasallik og'ir-yengilligiga qarab 4 darajaga bo'linadi.

1-darajali skolioz – yengil turi bo'lib, tekshirilgan payti umurtqa qiyshiqligi bola gorizontol holda yotganda yo'qoladi.

2-darajali skolioz – bola tekis joyda yotgan payti ham qiyshiqlik yo'qolmaydi. Ko'krak va bel sohasida qiyshiqlik natijasida muskul o'rami yoki bo'rtmasini aniqlash mumkin.

3-darajali skoliozda esa stabillashgan qiyshiqlik kuzatiladi. Bunday skoliozda bukrilik paydo bo'ladi. Tos qiyshayishi natijasida oyoqning funksional kaltaligi paydo bo'ladi. Bola yon tarafga egilib, o'sha kaltalikni yo'qotishga harakat qiladi.

4-darajali skolioz eng og'ir formasi bo'lib, bolaning ichki a'zolarida patologik o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bolani tashqaridan kuzatsangiz, unda bukrilik holatini sezasiz. Oyoq sohalorida falajlik, nevrologiya, parez qayd qilinadi. Kasallikni davolamasa, uning xuruji natijasida umurtqaning o'z o'qi atrofida aylanib ketishi natijasida yana ham murakkab deformatsiyalovchi asoratlarga olib keladi. Bunday nuqsonlar o'z-o'zidan bolaning ichki a'zolari o'rnidan siljishiga sabab bo'ladi va ularning funksiyasining buzilishiga olib keladi. Agar o'z vaqtda skolioz kasalligining boshlang'ich darajalarida yordam berilmasa, kelajakda bola nogiron bo'lib qoladi. Shuning uchun ham bu fojealarning oldini olish maqsadida bir qancha jismoniy mashqlar bajariladi.

Jismoniy mashqlar.

Davolash badantariyaning asosiy vositasi jismoniy mashqlar hisoblanib, ular quyidagilardan iborat:

-muskullarning kuchi va chidamliligini mustahkamlash uchun mashqlar;

-harakatlar koordinatsiyasini shakllantirish uchun mashqlar;

-nuqsonni tuzatish uchun maxsus mashqlar;

-qomatni to'g'ri tutish ko'nikmasini shakllantirish va mustahkamlash uchun mashqlar;

-nafas olish (chiqarish)ning to'g'ri ko'nikmalarini shakllantirish uchun mashqlar.

Qomatni to'g'ri tutish ko'nikmasini shakllantirish va mustahkamlash uchun mashqlar qomatni to'g'ri tutish ko'nikmasini shakllantirish va mustahkamlash bo'yicha bolalar bilan ishlash mashg'ulotining boshidan oxiriga qadar olib borilishi kerak. Bunda tarbiyachilar gavnani qanday tutish kerakligini bolalarga doimo eslatib turadilar. Qomatni to'g'ri

tutish ko'nikmasini mustahkamlash uchun quyidagi mashqlar tavsiya etilishi mumkin:

-umurtqaning o'z-o'zidan aktiv tortilishi;

-harakat vaqtida va tinch turganda boshda buyumlarni ushlab turish;

-turli sharoitlarda gavnani to'g'ri holatini saqlash imkonini beruvchi mashqlar, shuningdek, maxsus o'yinlar maqsadga muvofiqdir. Shu tur uchun eng xarakterli bo'lgan mashqlarni sanab o'tamiz:


Polga yotib, unga mahkam yopishish (bel bilan), bir oz yotish, mahkam yopishganligi yoki yo'qmi bilish. Keyin oyoqda tik turish va xuddi yotgandagi kabi to'g'ri turishga urinib ko'rish.

Har qanday holatdan orqaga, qoringa to'g'ri yotish.



Orqaga va qoringa yotgan holda, boshni bir oz ko'tarib, to'g'ri yotganmi yoki yo'qmi, tekshirish (maktabgacha katta yoshdagilar).

Devorga orqa bilan yopishib turgan holda, bosh, yelka, qorinning holatini tekshirish.



Biz bu jismoniy mashqlarni Yakkasaroy tumanidagi XTMFMT va TEB tasarrufidagi "Lola" nomli 116-sonli maxsus MTMda kunning ikkinchi yarmida bolalar bilan o'tkaziladigan DJT mashqlarini "O'rta" tayyorlov guruhidagi tarbiyalanuvchilar bilan birga amalga oshirdik.

Ularga umumdavolovchi mashqlar berib, salomatligi nazorat qilib borildi. Bu jismoniy mashqlarni uzluksiz 10 kun mobaynida berib borilishi natijasida tarbiyalanuvchilar sog'ligi ijobiy tomonga o'zgardi.


DJT instruktori bilan birgalikda bir qancha mashqlarni berib o'tdik bular quyidagilar:

D.h: Tik turgan holatda, qo'llar yelkada: 1- o'ng qo'lini tepaga ko'tarish, 2- chap qo'lni tepaga ko'tarish, 3- o'ng qo'lni yelkaga tushurish, 4- chap qo'lni yelkaga tushurish (5-6 marta).

D.h: A.t.1- o'ng tomonga engashib o'ng qo'lini yon tomonga tushurish, chap qo'lini esa yuqoriga ko'tarish, 1 tarafga 2 martadan bajariladi (5-6 marta).

D.h: A.T : 1-2-qo'llarni tepaga ko'tarish, yon tomonlarga yozish, nafas olish, 3-4 d.h. qaytish nafas chiqarish (5-6 marta).

D.h: Gimnastik devorga tayanib turish, qo'llar pastda va o'sha tenglikda devorcha pog'onalarini ushlab turish : 1-3 oldinga qarab prujinasimon bukulish, 4- d.h qaytish (4-5 marta).



D.h: bir-biriga qarab ikkitadan gimnastik tayoqchani ushlab turish: 1-2 tayoqchani ko'tarish, o'ng oyoqni orqaga, oyoq uchiga qo'yish. 3-4 d.h. qaytish (4-5 marta). D.h: Tik turish, oyoqlar yozilgan. Tayoqcha tepada: 1-2 oldinga engashib tayoqchani yerga qo'yish, 3-4- tiklanib qo'llar tepaga, orqaga engashish(4-5 marta).

D.h: Polga o'tirgan holda qo'llar orqaga tayangan. 1-2-3-bosh ustida chapak chalish. 4-d.h. qaytish (5-6 marta). D.h: Polga o'tirgan holda. Oyoqlarni tizzadan bukib o'ziga tortiladi. Oyoqlarni ko'tarib (burchak) hosil qilinadi. Oyoqlarni tizzadan bukiladi. Oyoqlarni to'g'irlab d.h. (5-6 marta). D.h: Orqa bilan polga yotish, qo'llar boshning tagida. 1-2- o'ng oyoqni ko'tarish. 3-4-d.h. qaytish. Chap oyoq bilan takrorlanadi(5-6 marttadan). D.h: Oraqada chalqanchasiga yotish, qo'llar pastga cho'zilgan. 1-2- o'ng tomonga burilib qoringa yotish. 3-4-d.h. qaytish, chap tomonga takrorlanadi. (5-6 marta).

Xulosa shuki, tarbiyalanuvchilarning jismoniy sifatlarini shakllantirishda ularning jismoniy va maxsus harakat tayyorgarligini samarali rivojlantirish, ular uchun berilayotgan mos mashqlarga alohida ahamiyat qaratish muhimdir. Dastlabki o'tkaziladigan mashg'ulotlarda maxsus jismoniy mashqlar majmualarini qo'llash zarurligi ularning sog'lom rivojlanishi, tayanch-harakat tizimidagi nuqsonlarni bartaraf etish va qomatni to'g'ri shakllanishi bilan belgilanadi. Shuningdek, maxsus MTMda tarbiyalanuvchilarning jismoniy va texnik jihatdan tayyorlashda samarali mashqlar majmualarini tanlash mavjud pedagogik talablarga rioya qilishni taqozo etadi. Jumladan, maxsus mashqlar majmualarining mazmuni mashg'ulotlar dasturiga

mos kelishi, majmuaalar tarkibiga kiritilgan maxsus mashqlar murakkabligini tayanch-harakat tizimiga va malakalarining shakllanish bosqichlariga hamda 5-6 yoshda jismoniy sifatlarni jadal rivojlanadigan davrlariga muvofiq bo'lishi, mashg'ulotlar yuklamalarini maxsus MTMda tarbiyalanuvchi 5-6 yoshli bolalarning morfofunksional jihatdan rivojlanish xususiyatlariga mos kelishi lozim.

Yoqidagilardan kelib chiqqan holda, mashg'ulot jaraynida jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi, qomatdagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun maxsus mashqlarni tanlashda belgilangan dasturga kiruvchi mashqlarga muvofiq bo'lishi e'tiborga olinishi zarur. Ayniqsa, maxsus MTMda tarbiyalanuvchi 5-6 yoshli bolalarda jismoniy tayyorgarlik bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarning asosiy hajmi o'yin vositalaridan iborat bo'lishi muhim va bunday vositalar zaif rivojlangan mushaklar hamda suyak-bo'g'im tizimlarini shakllantirishga qaratilishi kerak. Ushbu o'yin mashqlarini quyidagi tartibda qo'llash maqsadga muvofiqdir: «Qurbaqa va qarqara», «Sekin yursang –uzoqqa borasan», «Yotgan strelkalar». Tanlangan o'yinlar maxsus xarakterga ega bo'lishi kerak. O'yin vaqtida bolalar qomatlarini ma'lum bir signal, biror topshiriq bo'yicha to'g'rilashda yoki ular butun o'yin davomida qomatlarini to'g'ri holatda tutib turishlari kerakligini shartlashib olish mumkin.

Har bir berilayotgan qomatni to'g'ri tutish ko'nikmasini shakllantirish va mustahkamlash uchun berilayotgan maxsus mashqlar to'g'ri ijro etilishi mutaxassis tomonidan nazoratga olinadi va DJT instruktorlari tomonidan berilayotgan mashqlar kompleksining natijadorligi kuzatib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Mirziyoyev Sh. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonliginining garovi". T.: "O'zbekiston" – 2017.
2. Mirziyoyev Sh. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". T.: "O'zbekiston" - 2017.
4. Salamov R. "Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari". T.: "O'zDJTI"- 2005. 238 s
- 8 Смоленский В.М., Гавердовский Ю.К. "Спортивная гимнастика". Киев:- 1999.

SHAXSDAGI ALTRUIZM – PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMI SIFATIDA

Nargis ATABAYEVA – TDPU tayanch doktoranti

Ushbu maqolada altruizmning psixologik himoya mexanizmi sifatida o'ziga xosligi tahlil qilib berilgan. Altruizm – bu boshqalarga beg'araz yordam ko'rsatishga qaratilgan xulq-atvor shakli bo'lsa, psixologik himoya mexanizmi – bu odamdagi ichki psixik muvozanatni me'yoriy darajada saqlab turish ehtiyoji bilan taqozolangan ob'ektiv hodisadir.

В данной статье проанализированы особенности альтруизма как психологического механизма защиты. Под альтруизмом понимается форма поведения человека, характеризующая стремление бескорыстно помогать другим, а функции механизмом психологической защиты сохранение на нормальном уровне внутреннего психического равновесия у личности.

In this article analyze peculiarity the altruism in person – as to the psychological mechanism defense. If altruism – form of human behavior, characteristic's of preparing to help to others disinterestedly, so psychological mechanism defense – objective situation conditional to save norms level internal psychic balance in person.

Tayanch tushunchalar: *altruizm, beg'araz, psixologik himoya mexanizmi, ratsional, intellektual.*

Ключевые слова: *алтруизм, бескорыстность, психологический механизм защиты, рационал, интеллектуал.*

Keywords: *altruism, disinterested, the psychological mechanism defense, rational, intellectual.*

Shaxs kamoloti va uning ma'anaviy yetukligi masalasi barcha davrlarda ham jamiyat oldiga muhim vazifalarni belgilab bergan. Bugungi kunda jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internetning beqiyos imkoniyatlari orqali kirib kelayotgan "ommaviy madaniyat" ruhidagi oqimlarning salbiy ta'siri soniya sayin kuchayib bormoqda. Ommaviy tahdidlar kuchaygan bir davrda o'sib kelayotgan yosh avlodni "loqaydlik illatidan" holi tarzda ma'nan yetuk qilib tarbiyalash bugungi kunimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shaxsda "loqaydlik illatiga qarshi immunitet"ni hosil qilishda albatta, altruizmdek xulq-atvorni shakllantirish muhim ahamiyatga egadir.

Altruizm – bu o'zga odamning yoki ijtimoiy guruhning qiziqishlariga yo'naltirilgan va hech qanday manfaat ko'zlanmaydigan shaxs xulq-atvoridir. Altruizm atamasini birinchi bo'lib fransuz faylasufi O.Kont egoizmga qarama-qarshi atama sifatida qo'llagan.

Ayrim psixologlarning fikricha, shaxsdagi altruizm insonning "Men"ini himoyalovchi mexanizm sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Bunda shaxs o'z "Men"ini egoizmning salbiy oqibatlaridan himoyalaydi, deb ta'kidlaydilar. Jumladan, Z.Freydning konsepsiyasida altruizmni namoyon bo'lishi sub'ektning aybdorlik hissini susaytirishga bo'lgan nevroitik ehtiyoji yoki siqib chiqarilgan dastlabki egoizmni kompensatsiyalash sifatida ko'rib chiqilgan. Ushbu fikrni X.Xekxauzen ham ta'kidlab o'tgan, ya'ni aybdorlik hissi insonlarni altruizmga moyilligini oshiradi.

Insoniyat tarixidan ma'lumki, aybdorlik hissi kishilarning eng og'riqli hislaridan biridir, shunchalik og'riqliki, xatto undan qutilish uchun turli psixologik himoya mexanizmlari ham ishlab chiqilgan. Altruizm – bu aybdorlik xissidan qochishning eng ishonchli usulidir, deb qaralgan. Bu borada Devid Mak-Millen

va Djeyms Ostinlar ham tadqiqotlar olib borganlar. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, shaxs o'z aybini anglaganidan so'ng iloji boricha atrofdagilarga, yaqinlariga beg'araz yordam berishga intilar ekan, go'yoki o'zgalarga yordam berish orqali o'z aybini yuvishi mumkindek o'zini his qilgan ekan. K.Izardning fikricha, aybdorlik hissi - ijtimoiy mas'uliyatni tarbiyalashning asosiy omili bo'lib, shaxs aybdorlik hissini kamaytirish uchun altruistik xulqni sodir etadi.

Psixologik manbalarning tahlilidan bizga ma'lumki, psixologik himoya mexanizmlarining mavjudligi har qaysi odamdagi ichki psixik muvozanat, o'z-o'ziga bo'lgan hurmatni me'yoriy darajada saqlab turish ehtiyoji bilan taqozolangan ob'ektiv hodisadir. Bunday himoya vositalaridan odam psixik tuzulmalarni xavotir, uyat, aybdorlik hissi, ichki nizolar, frustratsiya va boshqa ob'ektiv yoki sub'ektiv xavfli bo'lib tuyulayotgan kechinmalardan himoya qilish uchun foydalanadi.

Ma'lumki, "Men" himoyasiga safarbar etiladigan mexanizmlar haqidagi nisbatan to'laqonli nazariyani Z.Freyd ishlab chiqqan edi. Olim ko'rsatib o'tganidek, barcha turdagi psixologik himoya mexanizmlariga ikki umumiy xususiyat xosdir: birinchidan, psixologik himoya mexanizmlari ongsizdir, ya'ni odam muayyan narsa yoki hodisalarga nisbatan namoyon etayotgan himoyaviy xulq motivlarini, maqsadlarini, hatto, uning ro'y berayotganini anglamaydi; ikkinchidan, himoya mexanizmlarining faoliyati hamisha haqiqiy voqelikni o'zgartirilgan, odam o'ziga o'zi o'ylab topadigan sun'iy voqelik bilan almashtirib qo'yilishini nazarda tutadi.

Psixologik himoya mexanizmlari muammosiga bag'ishlangan manbalarni tadqiq etar ekanmiz, albatta, ushbu jihatlariga diqqatimizni qaratimiz:

Birinchidan, hanuzgacha mavjud mazmuniy, atamaviy kelishmovchiliklar. Ushbu kelishmovchiliklar himoyani belgilashda, uning o'ziga xos vositalari, soni, o'zaro ta'siri va diagnozi sohasiga

aloqador (A.Freud, R. Plutchik, N. Mak-Vilyams, Ye.S.Romanova, L.R. Grebennikov va b). Himoya mexanizmlarini belgilash o'zi odatda sinonimik yoki ononimik tarzda bo'ladi. Masalan, ko'plab manbalarda inkor etish siqib chiqarishning bir ko'rinishi deyilsa, ayrimlarida ular o'rtasida tubdan katta farq belgilanadi.

Ikkinchidan, psixologik himoya mexanizmlarini turli yo'nalishdagi tadqiqotchilarning tubdan farq qiluvchi tasniflash mezonlari yordamida klassifikatsiya qilishga urinishlari (N.V.Jutikova, R. Plutchik).

Qator mualliflar (A.Freud, R. Plutchik, H. Conte, Ye.S. Romanova) psixologik himoya mexanizmlarini tasniflashda quyidagi mezonlarni ajratadilar.

- ◆ nomaqbul mazmuni lokallashuvi ("ichki", "tashqi");
- ◆ shakllangan vaqti (xronologik tavsifi);
- ◆ tubanlilik darajasi (masalan, "narsistik", "ulg'aymagan", "nevrotik", va "yetuk")
- ◆ o'xshashlilik darajasi (aralash va qarama-qarshi qutblilar).

Ye.P.Ilin tahriri ostida nashr qilingan "Psixologiya pomoshchi: altruizm i egoizm" nomli o'quv adabiyotida psixologik himoya mexanizmlarini namoyon bo'lish darajasiga ko'ra bir necha guruhga klassifikatsiyalanadi:

- xatti-harakat va xulq-atvor ratsionalizatsiyasi;
- reaktiv tuzilish;
- altruistik tobelik;
- altruistik voz kechish;
- nevrotik muhabbat.

Xatti-harakat va xulq-atvor ratsionalizatsiyasi. Ratsionalizatsiya – bu asl motivlarni yashirish uchun inson xulq-atvoriga mantiqiy izoh berishga qaratilgan himoya mexanizmidir. Bunda, shaxs ichki barqarorlikni yaratib, o'zi ham bu "mantiqiy izohlarga" ishonadi. Bunday vaziyatda altruist o'z g'alar taqdriga faol aralashuvchi insonparvar roli chiqadi. Aslida esa, bunday altruistik xulqning negizida shaxsiy "Men"ga hech kim tahdid qilmasligi uchun hamma narsani nazorat qilib turishga intilish ehtiyojini belgilovchi holat yotadi. Mazkur psixologik himoya mexanizmi insonda sub'ektiv ichki lokal nazoratni kuchaytiradi, ichki sokinlik va vaziyat ustidan nazorat his etish maqsadida vaziyatni ixtiyoriy sxematik va ratsional izohlash imkonini yaratadi. Emotsional kechinmalar vaziyatni mantiqiy tahlil etishga kuchli intilish bilan yashiriladi.

Reaktiv tuzilish. Bunda shaxs barcha negativ hodisalar, fikrlar, g'oyalar va taassurotlarni ondan siqib chiqaradi hamda uning qarama-qarshisiga aylantiradi. Jinsiy, agressiv va ijimoiy noma'qul impulslar ularning qarama-qarshisini, ya'ni altruizm, empatiya, refleksiyaning ilgari surish yordamida yashiriladi. Hayotning ijtimoiy tanqid etiladigan tomonlari (agressiya, zo'ravonlik, jinsiy hayot va b.) ga bo'lgan siqib chiqarilayotgan fikrsatsiyalar namoyishkorona ularni qabul qilmaslik bilan niqoblanadi. Siqib chiqarilayotgan mayllar namunali

xulq-atvorni namoyish etish yoki ilgari surish orqali berkitiladi. Mazkur guruhga inkor etish, siqib chiqarish, kompensatsiya kabi psixologik himoya mexanizmlarini kiritish mumkin.

Inkor etishdek psixologik himoya mexanizmi vositasida shaxs frustratsiyali, xavotir uyg'otuvchi vaziyatni yoki qandaydir ichki impuls ta'sirida yoki o'zini o'zi rad etadi. Qoidaga muvofiq, bu mexanizm orqali shaxs tomonidan tashqi reallikning ayrim aspektlari qabul qilinmaydi, natijada noto'g'ri idrok etiladi. Xavotirlantirayotgan va nizoga undayotgan ma'lumot shaxs tomondan qabul qilinmaydi.

Ushbu psixologik himoya vositasi yetakchi bo'lgan odamlar hayotda murakkabliklar, qiyinchiliklar borligini inkor etadilar, doim optimist bo'ladilar.

Z.Freydning ta'kidlashicha, siqib chiqarish mexanizmi o'z nafsini tiya olmagan infantil "Men"ning eng asosiy himoya vositasidir. Boshqacha qilib aytganda, siqib chiqarish himoya vositasi orqali shaxs uchun nomaqbul bo'lgan impulslar, xavotirni uyg'otuvchi istaklar, fikrlar, xislar onsizlikka o'tadi. Ko'plab tadqiqotchilar fikricha, siqib chiqarish ko'plab boshqa himoya vositalar faolligi asosida yotadi. Siqib chiqarilayotgan impulslar tashqi xulq-atvorda o'z echimini topmasa ham, o'z emotsional va psixovegetativ tarkibini saqlab qoladi. Misol tariqasida odatiy holatni olaylik, psixik jarohatli vaziyatning mazmuniy tomoni anglanmaydi, odamning o'zi yoqimsiz xulq-atvor faktini siqib chiqaradi, ammo psixologik ichki nizo saqlanadi, bundan yuzaga kelgan emotsional zo'riqish sub'ektiv tarzda motivlashmagan tashqi xavotir ko'rinishida idrok etiladi. Shu sababli, siqib chiqarilgan mayllar nevrotik va psixofiziologik simptomlarda namoyon bo'ladi. Klinik tajribalar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'pincha atrofdagilar va o'zi uchun xunuk ko'rinadigan xislatlar, shaxsiy sifatlar va xulq-atvorlar siqib chiqariladi. Masalan, hasadgo'ylik, yomon niyatlilik, minnatlilik va boshqalar.

Real yoki hayoliy kamchiliklardan yuzaga kelgan nomukammallik hissini uni o'rnini bosuvchi kechinmalar bilan engish. Bu psixologik himoya mexanizmi vositasi orqali shaxs o'zini konkret yoki abstrakt ideal holat bilan identifikatsiya etib bundan qoniqish oladi. Atrofdagilar tomonidan shaxsning real yoki hayoliy afzalliklarni tasdiqlab turishlariga doim ehtiyoj sezadi.

Altruistik tobelik. Bunday vaziyatda shaxs o'zining egoistik impulslarini boshqa insonlarga g'amxo'rlik qilish bilan proeksiyalaydi va o'z g'alar taqdiridan qat'iy nazar o'z ehtiylarini qondirishga urinadi. Masalan, o'zining ziqnaligi tufayli o'zidan ko'p narsalarni qizg'onadigan shaxs o'ziga yaqin insonlar uchun judayam saxiy bo'lib qoladi. Mazkur holatda altruistik shaxsiy "Men"ni boshqa insonning analogik "Men"ini o'rnini egallaydi. Buning asosiy sababi, ijtimoiy normalar, milliy mental xususiyat yoki tarbiya ta'sirida amalga oshmagan shaxsiy "Men"dagi ehtiyojlaridir. Shuning natijasida huddi shunday ehtiyojlar boshqa bir odamda yuzaga kelsa,

shaxs o'zining egoistik istaklari orqali uning ehtiyojlarini qondirishga urinadi.

Yuqoridagi holatda egoizm va altruizm turli proporsiya darajasida bir-biri bilan aralashib ketishi mumkin. A.Freyd ota-onalar o'z istak hoxishlari asosida o'z farzandlarining hayotiy rejalarini tuzib berishini aynan ham altruistik, ham egoistik holat deb baholagan. Chunki ota-onalar o'zlarini erisha olmagan maqsadlari va istaklarida farzandlarini ko'radilar, vaholanki, farzand buni istamasligi ham mumkin.

Altruistik voz kechish. Ushbu psixologik himoya mexanizmi avvalgisining mutlaqo aksidir. Uning negizida nomukammallik kompleksi yotadi. Mazkur psixologik mexanizmning mohiyati barchamizga yaxshi tanish bo'lgan "Sangam" hind kinofilmining bosh qahramoni Gopal obrazi orqali to'liq ochib berilgan. Bizga ma'lumki, film qahramoni Gopal Radxani qanchalik yaxshi ko'rishiga qaramay, qizga do'sti Sudar o'zidan ko'ra munosibroq deb biladi va ikki qaxramonning baxti uchun qo'lidan kelgan ishni amalga oshiradi. Bu psixologik mexanizmning mohiyati shundaki, shaxs o'zi ma'qul nomzod deb bilgan munosib ob'ektni izlaydi va u orqali o'z orzu intilishlarini amalga oshiradi.

Altruistik voz kechish yaqin insonlarining o'limidan qo'rqish hissi bilan chambarchas bog'liq. Bunday insonlar o'z orzularini faqatgina yaqin insonlarining kamolida ko'radilar, shu boisdan ularning hayoti o'z hayotlaridan ko'ra altruistiklar uchun qadrliqdir.

Neurotik muhabbat. Bunda shaxs to'liq o'zgaralar uchun yashaydi, ularning taqdiri uchun o'zini mas'ul deb biladi, tinimsiz boshqalar haqida qayg'uradi, ularning hayotiy muammolarini hal qiladi, tinimsiz ravishda yaqinlarining ko'nglini olish uchun sovg'alar ulashadi. Lekin, buning asl sababi, bunday shaxslar doimiy diqqat markazida bo'lishga intilish ehtiyojning kuchliligidir. Bunday shaxslar yaqinlari haqida qayg'urish bilan birga ular ham unga shunday javob

qaytarishini kutadilar, chunki, bu toifadagi shaxslarda emotsional iliqlik va tan olinishga bo'lgan ehtiyoj kuchli bo'ladi.

Uchinchidan, himoyaning yagona va to'liq nazariy konsepsiyasini yaratishga intilish. Bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlardan R. Plutchikning "Ego himoyalari va emotsiyalarning tarkibiy nazariyasi" diqqatga sazovor. Muallif tomonidan taklif etilayotgan himoyaning original nazariy modeli u tomonidan ishlab chiqilgan emotsiyalarning psixoevolyusion nazariyasiga asoslanadi.

R.Plutchikning nazariyasi bo'yicha emotsiyalar turli evolyusion jarayonlarda adaptatsiya vositasi bo'lib xizmat qilgan. Ego himoya vositalari esa ushbu emotsiyalarga aloqador, masalan, bilvositalash ongsiz holda to'g'ri-to'g'ri, jazolanmaydigan jahlni eplash tarzida ko'rib chiqiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, altruizm – bu o'zga insonlar ehtiyoji va manfaatlariga yo'naltirilgan xulq-atvor shakli bo'lib, uning asosida hech qanday shaxsiy manfaat kutmaslik yotadi. Pedagogik-psixologik manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirsak, altruizm shaxsning axloqiy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan intellektual tipdagi psixologik himoya mexanizmidir.

Shaxsda altruizmni shakllantirishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

- shaxsning ijtimoiy-axloqiy bilimlarni egallashga tayyorlik motivatsiyasini kuchaytirish;
- bolani ijtimoiy ahamiyatli faoliyat sohaslariga yo'naltirish (loyihalar yaratishga jalb qilish, volonterlikda ishtirok etish, ijodiy faoliyatga jalb qilish);
- bolaning faol tashabbusini qo'llab-quvvatlash;
- oilaviy munosabatlarda o'zaro hamkorlik modelini qo'llash, bolaning ijtimoiy faolligini rag'batlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat"- 2008, 210- b
2. Журбин В.И. "Понятие психологической защиты в концепциях З.Фрейда и К. Роджерса". "Вопросы психологии" – 1990, №4, 14-23-b.
3. Е.П.Илин. "Психология помощи: альтуизм и эгоизм". СПб.: Москва-Харков-Минск- 2014, 131 – 132-b.
4. Кондаков И.М. "Психология". Иллюстрированный словарь. СПб.: "Прайм Еврознак"- 2007, 728-b.

KASBIY MOTIVATSIYA – KASBIY TA'LIM MUVAFFAQIYATINING OMILI SIFATIDA

Nodira KAMILOVA – TDPU "Psixologiya" kafedrasini dotsenti
Zulfiya KAMALOVA – TDPU magistranti

Mazkur maqolada pedagogika yo'nalishidagi OTMLar talabalarining o'quv jarayoniga pedagogik va psixologik nuqtai nazardan moslashish motivlari borasidagi muammolar va ularning tahlili to'g'risida so'z yuritiladi.

Научная статья посвящена рассмотрению проблеме мотивации учебной деятельности студентов педагогического вуза. В научной статье представлен анализ психолого-педагогической литературы по проблеме мотивационной сферы в целом и мотивации учебной деятельности

студентов в частности, освещаемых в трудах зарубежных ученых. В эмпирическом исследовании содержательно изучены типы доминирующих мотивов учебной деятельности, выявлена взаимосвязь влияния ценностных ориентаций на мотивацию учебной деятельности студентов. Далее приведены сравнительные данные результатов коррекционной программы формирования мотивации учебной деятельности и изменения ценностно-нормативных установок студентов.

The scientific article is devoted to the problem of motivation of educational activity of students of a pedagogical university. The scientific article presents an analysis of psychological and educational literature on the problem of the motivational sphere as a whole and the motivation of the students' learning activities in particular, covered in the works of foreign scientists. In the epic study, the types of dominant motives of educational activity were studied in detail, the interrelation of the influence of value orientations on the motivation of students' learning activity was revealed. Below are the comparative data of the results of the corrective program for the formation of motivation for learning activities and changes in students' values and norms.

Kalit soʻzlar: motivatsiya, kasbiy motivatsiya, qadriyat, shaxs faolligi, shaxs faoligining tashqi manbalari.

Ключевые слова: мотивация, учебные мотивы, ценностные ориентации, личностные свойства, направленность на деятельность, направленность на результат, направленность на процесс.

Key words: motivation, learning motives, value orientations, personal characteristics, focus on activity, focus on result, focus on process.

Barkamol avlod tarbiyasi va uning mukammal ta'lim olishi masalalari, davlat siyosati maqomi darajasida jamiyat uchun eng dolzarb masalalardandir. Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda uning ma'lum bir yosh davridagi psixologik xususiyatlari eng muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitoblarida: «Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq».

Oliy pedagogik ta'limning zamonaviy tizimi nafaqat uning rivojlanish yo'llari va yo'nalishlari, balki bu bilan bog'liq muammolarni aniqlaydigan yangi siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda harakatlanadi va rivojlanadi. Pedagogik oliy o'quv yurtlarining ta'limiy jarayonida bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligiga o'sib boruvchi talablar va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashning real darajasi o'rtasidagi ziddiyat yaqqol ko'rinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarni tayyorlashni takomillashtirish bitiruvchilar tayyorgarligining ko'plab omillari va ularning kasbiy faoliyatga real tayyorlik darajasi bilan shartlangan. Ular orasida pedagogik oliy o'quv yurtlari talabalarining o'qishga oid faoliyat motivatsiyasi o'ta muhim hisoblanadi.

Pedagogik oliy o'quv yurtlarining ta'limiy jarayonida bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligiga o'sib boruvchi talablar va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashning real darajasi o'rtasidagi ziddiyat yaqqol ko'rinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarni tayyorlashni takomillashtirish bitiruvchilar tayyorgarligining ko'plab omillari va ularning kasbiy faoliyatga real tayyorlik darajasi bilan shartlangan. Ular orasida pedagogik oliy o'quv yurtlari talabalarining o'qishga oid faoliyat motivatsiyasi o'ta muhim hisoblanadi.

Shaxsiy kasbiy motivatsiyasi o'zi va boshqa odamlarni kasbiy muvaffaqiyatga erishishga rag'batlantirish jarayoni sifatida ham gavdalanishi mumkin. Bundan tashqari, kasbiy faoliyat motivatsiyasi kasb tanlashni va bu kasb bilan bog'liq majburiyatlarni davomiy bajarishni shartlaydigan *aniq undovchi ta'sir* sifatida ochib berilishi mumkin [3]. Keyingi ta'rif bizga hiyla muvaffaqiyatli deyiladi. Biz olib borgan tadqiqotimiz doirasida kasbiy faoliyat motivatsiyasi tushunchasi ostida aynan shu faoliyatga undovchi tizimni tushunamiz.

Kasbiy motivatsiya nafaqat kasbiy yo'lni to'g'ri tanlangani va mehnatga oid faoliya mahsuldorligini, o'z mehnatining natijalarini qondirish darajasini, balki kasbiy ta'limning muvaffaqiyatini belgilaydi. Bu fakt shu bilan tushuntiriladiki, tahsilning samarali jarayoni, kamida ikkita omil – *kognitiv sohalar* va shaxs *motivatsion sohasining* rivojlanish darajasi bilan shartlangan. Bu fikr oliy maktab talabalarining kasbiy motivatsiyasining ifodalanganlik darajasi va intellektual qobiliyatlarning rivojlanish darajasi qator empirik tadqiqotlari bilan tasdiqlanadi.

Demak, A.A.Rean [4] tadqiqotlaridan biri davomida quyidagi natijalarni oldi. Talabalar – bo'lg'usi pedagoglar guruhida umumiy intellekt shkalasi bo'yicha test o'tkazgancha va mazkur testlashni o'qishga oid o'zlashtirish darajasi bilan solishtirgancha aniqlandiki, intellektning o'qishga oid o'zlashtirish bilan na maxsus predmetlar bo'yicha, na umumta'lim fanlarining bloki bo'yicha hech qanday ahamiyatli aloqasi yo'q. Bu fikr boshqa tadqiqotlarda ham o'z tasdig'ini topdi [4]

Yana bitta ahamiyatli qonuniylik aniqlandi: "kuchli" va "zaif" talabalar intellekt darajasi bo'yicha emas, balki o'qishga oid faoliyat motivatsiyasining kuchi, sifati va turi bo'yicha farq qilarkanlar. "Kuchli" talabalar uchun ichki motivatsiya kuchli: ularga kasbni yuqori darajada o'zlashtirish xos bo'lib, mustahkam bilim olish va amaliy malakalarga ega bo'lishga mo'ljal oladilar. "Zaif" talabalarga kelsak,

ularning motivlari asosan tashqi, vaziyatli: bunday talabalar uchun, birinchi navbatda, yomon o'qishlari uchun muhokama qilish va jazolashdan, stipendiyadan mahrum bo'lmalikdan va h.k. dan qochish muhim.

Agar kasbiy motivatsiya tuzilmasi haqida gapiradigan bo'lsak, bu yerda *kasbga ijobiy munosabat* o'ta muhim rol o'ynaydi, chunki bunday munosabat ta'limning yakuniy maqsadi bilan bog'liq. Boshqacha aytganda, agar talaba kasbini ongli tarzda tanlagan bo'lsa va uni o'ziga bo'lganiday jamiyat uchun ham ahamiyatli deb hisoblasa, bu, shubhasiz, kasbiy tayyorgarlik natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oliy o'quv yurtlari talabalarining kasbga bo'lgan munosabatlarini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra [2; 4] xulosa qilish mumkinki, ko'proq 1-bosqich talabalarini tanlagan kasblaridan mamnunlar. Biroq barcha o'quv yili davomida bu ko'rsatkich bitiruv bosqichiga qadar doimiy ravishda pasayib boradi. Oliy o'quv yurtini tugatishga ozgina qolishiga qaramay kasbidan qoniqish eng kam, kasbga munosabatning o'zi ijobiy bo'lib qolaveradi. Bunday natijalar sababi – bu, bir tomondan, muayyan oliy o'quv yurtlarida ta'lim berishning yuqori bo'lmagan darajasi, boshqa tomondan esa – birinchi bosqich talabalarida romantik tasavvur va kasb egallashning real usullarini bilmaslikning ustunlik qilishi bo'lishi mumkin, desa ham bo'ladi.

Shunday qilib, talabaning o'qishga oid-kasbiy motivatsiyasini susaytiruvchi *dastlabki salbiy omillar* orasida mazkur kasb to'g'risida oldin mavjud bo'lgan tasavvurlarning talaba oliy o'quv yurtida uchratganlariga muvofiq emasligini aytish mumkin. Qator empirik tadqiqotlar ko'rsatdiki, *ikkinchi omil* – bu muntazam ravishdagi va zo'r g'ayrat talab qilinadigan o'quv faoliyatiga yetarlicha tayyor emaslikdir. Keyin talabada o'qish va kasbga oid motivatsiyaning *pasayishi omili* sifatida boshqa ixtisoslikka o'tishga intilish va o'qishga umumiy ijobiy munosabat bo'lgan taqdirda alohida o'quv fanlariga salbiy munosabat yuzaga kelishi mumkin. Oxirida, odatda, kelajakda kasbiy faoliyatda samarali bajarish uchun yaxlit kasbiy ta'lim tizimida muayyan o'quv fanining o'rnini va uni o'rganish davomida shakllanuvchi bilim, malaka, ko'nikmalar ahamiyatini tushunmaslik paydo bo'ladi.

Biz qanday omillar talabaning o'qish va kasbga oid faoliyati motivatsiyasini pasayishiga olib kelishini aniqlab oldik. Talabalar, shu jumladan, talabapedagoglarning o'quv-kasbiy faoliyatini tanlash va amalga oshirishni shartlovchi omillar to'g'risidagi masala ochiq qolmoqda. Bu savolga javobni *shaxsning faolligi manbaini* aniqlab va shaxsning o'qishga va kasbga oid faoliyati *motivlarining turlituman tasniflarini* ko'rib chiqib topish mumkin.

Shaxs faolligini tashqi va ichkiga ajratish qabul qilingan. *Ichki manbaga* bilishga oid va ijtimoiy ehtiyojlar (ijtimoiy jihatdan ma'qullanadigan harakatlar va yutuqlarga intilish), qiziqishlar,

ustanovkalar, namuna va stereotiplar hamda o'z-o'zini mukammallashtirishga intilish, o'qish va boshqa faoliyat turlarida o'zini namoyon qilish hamda o'z-o'zini ro'yobga chiqarish ehtiyoji bilan shartlanadigan boshqa jihatlar kiradi [2]. Bu yerda real Men obrazining shaxs ideal obraziga muvofiq kelmasligi faollikni harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

Shaxs faolligining tashqi manbalari – o'quvchining talab, kutilma va imkoniyatlari tegishli bo'lgan hayotiy faoliyati shartidir. Talablar axloq, muloqot va faoliyatning ijtimoiy me'yorlariga amal qilish zaruriyati bilan bog'liq [4]. Kutilma jamiyatning o'qishga munosabatini inson tomonidan qabul qilinadigan va unga o'quv faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq qiyinchiliklarni yengib o'tish imkonini beradigan axloq me'yorlari sifatida xarakterlaydi. Imkoniyatlar – bu o'quv faoliyatini avj oldirish uchun zaruriy ob'ektiv shartdir (maktablar, darsliklar, kutubxonalar va h.k. larning mavjudligi). Bu holatda inson rivojlanishining shaxsiy rivojlanishi va u yashayotgan jamiyatning ijtimoiy ekspektatsiya darajasining mos kelmasligi shaxsiy faollikni harakatga soluvchi kuch bo'ladi.

O'qish va kasbga oid motivlar tasnifi juda ko'p ekanligi faktiga e'tiborni qaratamiz. Mazkur ish doirasida biz nazarimizda o'zida birmuncha ahamiyatli bo'lgan motivlarni olgan bir nech tasnifni ko'rib chiqamiz, xolos. Demak, yuqorida sanab o'tilgan faollik manbalari asosida motivlarning quyidagi guruhlari ajratiladi [1]:

- *ijtimoiy* (o'qishning ijtimoiy ahamiyatini anglash, o'qishning shaxsiy-rivojlantiruvchi qiymatini tushunish, dunyoqarash va olamni tushunishni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj va boshqalar);

- *bilishga oid* (bilim olishga qiziqish, qiziquvchanlik, bilishga oid qobiliyatlarni rivojlantirishga intilish, intellektual faoliyatdan lazzat olish va boshqalar);

- *shaxsiy* (o'z-o'zini hurmat qilish va shahratparastlik tuyg'usi, tengdoshlari o'rtasida obro'dan foydalanishga intilish, referent bo'lgan sinfdoshlarga taqlid qilish, o'ziga xos bo'lishga urinish va boshqalar).

O'qishga motivatsiyaning dastlabki ikki turida orientatsiya jarayonga yo'naltirilgan. Shaxsiy motivlar ustunlik qilgan holatda motivatsion orientatsiyalar natijaga va atrofdagilarning reaksiyasiga, jumladan, o'qituvchi bahosiga yo'naltirilgan. Diqqatga sazovor joyi shundaki, empirik tadqiqotlarning biri davomida talabalarining motivatsion orientatsiyalari va ularning akademik o'zlashtirishlari o'rtasidagi aloqa yuzasidan [4] quyidagilar aniqlandi: o'zlashtirish bilan birmuncha puxta aloqa ularning jarayonga va natijaga orientatsiyasi, kamroq puxta aloqa – o'qituvchining bahosiga bo'lgan orientatsiya ekan.

Keltirilgan tasnifda kasbiy tayyorgarlikning yuqori darajasini rivojlanishi uchun birmuncha ko'maklashuvchi motivatsiya, bizning nazarimizda, ijtimoiy va bilishga oid motivatsiyalardir. Bilishga oid va ijtimoiy motivatsiyalar birmuncha chuqur bilim,

ko'nikma va malakalarni shakllantirishga ko'maklashadi.

D.Yakobson [1] yaratgan o'qishga oid faoliyat tasniflaridan biri bo'yicha motivlar 2 ga ajratiladi: o'quv vaziyatiga bog'liq bo'lmagan motivlar va o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan motivlar.

1. O'quv vaziyatiga bog'liq bo'lmagan motivlar:

- kasb tanlashdagi tor ijtimoiy motivatsiya (inkor etadigan motivatsiya) – bu yerda ota-onalar, bu sohada vakolatli bo'lgan odamlar bilan ijtimoiy barobarlashtirish yetakchi motiv v**ы**bora bo'ladi, shuningdek, omadsizlikdan, ota-onalar, yaqinlar oldidagi mas'uliyat, burchdan qochish motivlarining ustunlik qilishi xosdir;

- umumijtimoiy motivatsiya – o'qishga oid faoliyatga undash boshqa odamlarga foyda keltirishga ehtiyoj asosida yotadi;

- pragmatik (cheklangan shaxsiy) motivatsiya, bunda faoliyatga undash – bu kasbning ijtimoiy nufuzi va karerada o'sish imkoniyatidir.

2. O'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan motivlar:

- bilishga oid motivatsiya – o'qishni shaxsning yangi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashga bo'lgan intilishi boshqaradi;

- kasbiy motivatsiya, bunda talabada tanlangan kasbga, uning mazmuni va ijodiy imkoniyatlariga qiziqish; mazkur kasbda ishlash uchun o'z qobiliyatlariga ishonch bor;

- shaxsiy o'sish motivlari – bu holatda o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirishga intilish o'quv faoliyati jarayonini boshqaradi.

Talabalarining o'qishga oid faoliyati motivatsiyasi xususiyatlarini o'rganish maqsadida quyidagi vazifalarni hal qiladigan tashhisiy dastur ishlab chiqildi: talabalarining o'qishga oid faoliyatini yetakchi motivlarini aniqlash; talabalarining o'qishga oid faoliyati motivatsiyasi va ularning kasbiy yo'nalganligi o'rtasida aloqa o'rnatish; talabalarining o'qishga oid faoliyati motivatsiyasi va ularning shaxsiy yo'nalganligi o'rtasida aloqa o'rnatish; talabalarining o'qishga oid faoliyati motivatsiyasi va ularning qadriyatli orientatsiyasi bilan aloqa o'rnatish.

Tadqiqot TDPU ning Maktabgacha ta'lim va Psixologiya yo'nalishlari negizida olib borildi. Tanlovni "Pedagogika" ("Pedagogika va psixologiya" va "Maktabgacha ta'lim" ixtisosliklari) yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchi 1-bosqich talabalarini tashkil etdi. Shunda eksperimental guruhni – psixologiya yo'nalishi talabalarini, nazorat guruhini esa – maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini tashkil qildi.

Eksperimentning tasdiqlovchi bosqichida olingan natijalar asosida talabalarda o'qishga oid faoliyat motivatsiyasini rivojlantirish dasturi tuzildi. Dasturning maqsadi birinchi bosqich talabalarining o'qishga oid faoliyati motivatsiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik sharoitini yaratish, vazifalari esa: talabalar tomonidan o'z shaxsiy sifatlarini anglash va kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirishga ko'maklashish; talabalar tomonidan o'zlarining individualliklari va uni rivojlantirishni idrok etishlariga

yordamlashish; ichki o'qish-bilishga oid motivatsiyani kuchaytirish; o'quv faoliyati mazmunini tushunish va qabul qilishga, o'z shaxsiy va bo'lg'usi kasbiy faoliyati uchun o'qishning muhim ekanini anglashga olib keluvchi maqsad qo'yishni rivojlantirish; talabalarda psixolog kasbining muhim bir tarkibiy qismi sifatida ishga oid yo'nalganlikka orientatsiyani oshirish; talabalarining aqliy mehnat madaniyatini yuksaltirish, ularda o'qish malakasini shakllantirish; o'qishga oid jarayonga ijobiy munosabatni shakllantirish.

Eksperimentning nazorat bosqichida olingan natijalar asosida aniqlandiki, har ikkala guruhda talabalarining o'qishga oid faoliyati motivlari tizimida yetakchi o'rinlar quyidagi motivlarga mansub: yuqori malakali mutaxassis bo'lish, chuqur va mustahkam bilim egallash, diplom olish va bo'lg'usi kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlash.

Eksperimentning nazorat bosqichida olingan natijalar asosida shunday xulosa chiqarishimiz mumkin: eksperimental guruhda tizimda ustunlik qiluvchi parametr-motivlarda qiymatlarning ahamiyatli siljishi sodir bo'ldi, aynan esa: 23,8 % ga ko'proq talabalar "chuqur va mustahkam bilim egallash" motivini, 14,3 % ga ko'proq talabalar "bo'lg'usi kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlash" motivini, 4,8 % ga ko'prog'i "yuqori malakali mutaxassis bo'lish" motiviga afzallik berdilar (ya'ni 100 % talabalar mazkur motivni tanladilar), 19 % ga kamroq talabalar "diplom olish" motivini tanladilar. Nazorat guruhida "bo'lg'usi kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlash", "chuqur va mustahkam bilim egallash" parametr-motivlari bo'yicha qiymatlar siljishi sodir bo'lmadi. Qolgan parametrlar bo'yicha siljish sodir bo'ldi, aynan esa: 14,29 % ga talabalar "yuqori malakali mutaxassis bo'lish" motiviga ko'proq afzallik beradilar; 4,76 % ga kamroq talabalar "diplom olish" motivini tanladilar.

Eksperimentning tasdiqlovchi bosqichida talabalarining o'qishga oid faoliyati motivlari tizimida pragmatik motiv ("diplom olish") ustunlik yoki peshqadamlik qilishi aniqlandi. Maktabgacha ta'lim fakulteti talabalarida keyingi pozitsiyani quyidagi motivlar egalladi: kasbiy (kasbiy bilimlarni egallashga intilish va kasbiy muhim sifatlarini shakllantirish) va bilishga oid (bilim egallashga intilish, qiziquvchanlik). Psixologiya fakulteti talabalarida bilishga oid va kasbiy motivlar keyingi pozitsiyalarni egalladi. Pragmatik motivning ustunlik qilishi talabaning o'ziga mos kasb tanlamaganidan, undan qoniqmasligidan dalolat beradi [T.I. Ilin, 27]. Talabaning motivlar tizimida pragmatik motivning ustunlik qilishi sababini ochish uchun uning kasbiy yo'nalganligini aniqlash, nima uchun talaba psixolog kasbini tanlaganini, bu tanlov qanday amalga oshirilganini, talabaning qadriyatli yo'nalishlari qanday ekanini tahlil qilish kerak. Natijalar tahlili ko'rsatdiki, talabalarining kasbiy yo'nalganlik darajasi o'rtacha qiymatdan yuqori, talabalarda tanlangan kasbga qiziqish yaqqol ifodalangan, kasb tanlash ular tomonidan o'ylab qilingan va mustaqil ravishda amalga oshirilgan.

Eksperimentning nazorat bosqichi davomida olingan natijalar tahlili har ikki guruh talabalarining o'qishga oid faoliyati motivlari tizimida pragmatik motiv ustunlik qilishi va peshqadam ekanini ko'rsatdi. Keyingi pozitsiyalarni bilishga oid va kasbiy motivlar egallaydi. Nazorat va eksperimental guruhlarda takroriy tashhis o'tkazilganda olingan natijalarni taqqoslaganacha quyidagilarni ta'kidlash mumkin: eksperimental guruhda 3 ta: "bilim egallash", "kasb egallash", "diplom olish" parametr-motivlarida qiymatlarning sezilarli siljishi sodir bo'ldi, bunda o'quv yilining boshlanishi va oxirida olingan ko'rsatkichlar o'rtasida ahamiyatli har xillikning mavjudligi haqidagi faraz qabul qilindi. Aynan esa eksperimental guruhda shakllantiruvchi dastur amalga oshirilganidan keyin: 9,5 % ga ko'proq talabalarda bilim egallashga yo'nalganlikning yuqori darajasi, 14,3 % ga kamroq talabalarda bilim egallashga yo'nalganlikning past darajasi mavjud. Kasb egallashga yo'nalganlikning yuqori darajasi 4,8 % ga ko'proq talabalarda, past esa – 19 % ga kam. 19 % talabalarda diplom olishga yo'nalganlikning darajasi o'rtacha bo'ldi (dasturni amalga oshirgungacha yuqori bo'lgandi).

Nazorat guruhida, aksincha, ahamiyatsiz ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi, bunda o'quv yilining boshi va oxirida olingan ko'rsatkichlar o'rtasidagi sezilarli har xillikning mavjudligi to'g'risidagi faraz rad etildi. Shunday qilib, eksperimental guruhda motivatsiyaning rivojlanishidagi sifati o'zgarishlar eksperimental ta'sir bilan shartlangan.

Eksperimentning tasdiqlovchi bosqichida aniqlandiki, birinchi bosqich talabalarini jarayonga bo'lgan ustanovka natijaga qaraganda yuqori darajada ifodalanganlikka ega: bunda "mehnatga orientatsiya" o'rtachadan past, "erkinlikka orientatsiya" darajasi esa yuqori. Har ikkala guruh talabalarida muloqotga yo'nalganlik o'rtachadan yuqori, ishga yo'nalganlik esa o'rtachadan past. Qadriyatli orientatsiyani tahlil qilish ko'rsatdiki, shaxsning yuqori intilishlar, o'zi va boshqalarning kamchiliklariga muhosasizlik har ikkala guruh talabalarining qadriyatlarini ierarxiyasida oxirgi o'rinni egallaydi.

Ikkala guruhda takroriy tashhisiy (nazorat bochqich) tadqiqot natijalari asosida tasdiqlash mumkinki, har ikki guruh talabalarida muloqotga yo'nalganlik o'rtachadan yuqori, o'ziga yo'nalganlik esa o'rtachadan past ekan. Bunda psixologiya fakulteti talabalarida ishga yo'nalganlik o'rtachadan yuqori, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida esa u o'rtachadan past. Nazorat guruhi (boshlang'ich va yakuniy kesim) ichidagi natijalarni taqqoslaganacha, shubhasiz, ahamiyatsiz o'zgarishlar sodir bo'lmadi, biroq ishga yo'nalganlik va muloqotga yo'nalganlik o'rtacha qiymatga yaqinlashdi. Eksperimental guruh (boshlang'ich va yakuniy kesimlar) ichidagi natijalarni solishtirganacha o'ziga yo'nalganlik o'rtachadan past, ishga yo'nalganlik esa o'rtachadan yuqori bo'lganini kuzatamiz.

Hiyla chuqur tahlil ko'rsatdiki, ikkala guruhda "erkinlikka orientatsiya" yuqori darajada, bunda

"mehnatga orientatsiya" darajasi eksperimental guruhda o'rtachadan yuqori va nazorat guruhida – o'rtachadan past. Eksperimental guruh talabalarida "jarayon – natija" ga ustanovkalar uyg'unligi, nazorat guruhida esa natijaga qaraganda jarayonga bo'lgan ustanovkaning yaqqol ifodalanganlik darajasi yuqori ekanligi kuzatildi.

Eksperimental va nazorat guruhlarida – boshlang'ich va yakuniy kesimlarning ahamiyatli parametrlari: "jarayonga yo'nalganlik", "natijaga yo'nalganlik" va "mehnatga yo'nalganlik" natijalarini solishtirganacha xulosa qilamiz, mazkur parametrlarning boshlang'ich ko'rsatkichlari eksperimental va nazorat guruhlarida statistik jihatdan ahamiyatli tarzda farqlanmaydi. Eksperimentning nazorat bosqichida olingan natijalar tahlili eksperimental va nazorat guruhlarida yuqorida sanab o'tilgan parametrlarning ishonchiligi to'g'risidagi farazni statistik jihatdan ahamiyatli darajada qabul qilish imkonini beradi, bu eksperimental ta'sirning samaradorligi to'g'risida so'zlash imkonini berishi mumkin.

Qadriyatli orientatsiyalar tahlili (eksperimentning nazorat bosqichida olingan natijalari) ko'rsatdiki, har ikkala guruhda terminal qadriyatlar orasida quyidagi shaxsiy turmush qadriyatlarini: salomatlik, muhabbat, yaxshi va ishonchli do'stlarning mavjudligi, baxtli oilaviy hayot ustunlik qiluvchi pozitsiyani egallaydi. Shaxsning madaniy-ma'naviy rivojlanishi bilan bog'liq qadriyatlar talabalarning qadriyatlar ierarxiyasida oxirgi o'rinni egallaydi. Har ikki guruh qadriyatlarini vositalari orasida vijdonlilik qadriyatini sardorlik qiladi. Keyin nazorat guruhining talabalarini tarbiyalilik va o'qimishlilik qadriyatlariga afzallik beradilar. Eksperimental guruh talabalarini mas'uliyatlilikka ikkinchi o'rinni beradilar, keyin o'qimishlilik va tarbiyalilik. Qadriyatlar: yuqori talabalar, o'zi va boshqalarning kamchiliklariga muhosasizlik har ikkala guruh talabalarining qadriyatlarini ierarxiyasida oxirgi o'rinni egallaydi. Biroq ishda samaradorlik va mahsuldorlik, mehnatsevarlik, ijrochilik kabi shaxs intilishiga taalluqli qadriyatlar eksperimental guruhda o'rtachaga yaqin pozitsiyani egalladi.

Shunday qilib, eksperimental guruhda kuzatilayotgan talaba shaxsining motivatsion sohasi va o'qishga oid faoliyati motivatsiyasini rivojlanishidagi ijobiy dinamika amalga oshirilayotgan dastur samaradorligidan dalolat beradi. O'qishga oid faoliyat motivatsiyasini rivojlantirish birinchi bosqich talabalarida motivatsiyani o'z vaqtida tashhis qilishni o'tkazishni va motivatsiyani rivojlantirish shartlarining tanlangan tizimi, ta'limiy jarayonda uning natijalarini inobatga olishga, aynan esa: ta'lim psixologining amaliy faoliyati bilan ta'lim natijalarining nisbati, T-guruhda ishlashda o'qishga oid faoliyatning motivatsion aspektlarini dolzarblashtirishga bog'liq. Talaba shaxsining motivatsion sohasini rivojlantirish darajasi oliy o'quv yurtida o'qish sharoiti va vositalari, usullariga, o'qishning shaxsiy mazmunini anglashga, ta'limga bo'lgan predmetli-refleksiv munosabatga, sub'ektiv faollik va sub'ektiv munosabatlarga bog'liq.

Talaba shaxsining motivatsion sohasini rivojlantirishning sifatli xususiyatlari shaxsiy va kasbiy yo'nalganlik, qadriyatlar yo'nalganligiga bog'liq. Shaxsning motivatsion sohasi faoliyat bilan belgilanadi. Faoliyat rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirish komponenti bo'lishi uchun nafaqat uning mazmuni xarakterini chuqur tushunish, balki shaxsning motivatsion tomonini doimo takomillashtirish muhim. Motivatsion sohani chuqur bilish va tushunish muvaffaqiyatni, talaba shaxsining

faolligini uning rivojlanishini kerakli oqimiga yo'naltirishni ta'minlashi mumkin.

Bizning nazarimizda, ushbu tadqiqot talabalar motivatsiyasining rivojlanishida: o'qishga oid motivatsiyani rivojlantirish omili sifatida talabalar guruhlari imkoniyatlaridan foydalanish, o'qishga oid motivatsiyaning shakllanishini gender o'ziga xosligini aniqlash kabi quyidagi aspektlarni o'rganishda o'z aksini topishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Айсмонтас Б.Б. “Педагогическая психология”. М.: МГППУ- 2004, 368-б.
2. Бордовская Н.В., Реан А.А., Розум С.И. “Психология и педагогика”. (Серия «Учебник нового века»). Питер-2002, 432-б.
3. Иванова Ю. “Диагностика мотивационно-ценностной сферы в профессиональном самоопределении”. Шадринск-2003, 60-б.
4. Зимняя И.А. “Педагогическая психология”. М.: “Логос” -2005, 384-б.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA VARIATIV YONDOSHUVNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Nafisa ABDULLAEVA – TDPU mustaqil tadqiqotchisi

Maqolada maktabgacha ta'lim tizimining bugungi kundagi holati, ushbu tizimni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilayotganligi, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari chuqur tahlil qilib o'tilgan. Shuningdek, maqolada maktabgacha ta'lim tizimidagi kamchiliklar batafsil ko'rsatib o'tilgan.

В статье обсуждается текущее состояние дошкольного образования, совершенствование этой системы и дальнейшее совершенствование дошкольного образования. В статье также излагаются недостатки в системе дошкольного образования. В статье подробно рассматриваются основные проблемы совершенствования системы дошкольного образования, глубоко проанализированы пути совершенствования дошкольного образования, также, автор предлагает внедрения вариативной системы дошкольного образования и обосновывает основные технологии предоставления качественного дошкольного образования. Предлагаются основные задачи и пути внедрения, управления вариативной системой дошкольного образования, критерии контроля качества вариативной системы дошкольного образования.

The article discusses the current state of preschool education, the improvement of this system, and the further improvement of pre-school education. The article also outlines the shortcomings in the pre-school education system. The article considers the alternative forms of provision of access to preschool education, have been considered the main methods of providing high-quality preschool education.

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim tizimi, maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'limning variativ tizimi, maktabgacha ta'limning variativligi, variativlik, tizimlilik, xududiy maktabgacha ta'limni boshqaruv organlarining asosiy yo'nalishlari, maktabgacha ta'limning variativ tizimi sifatini boshqarishning komponentlari.*

Ключевые слова: *Проблемы совершенствования системы дошкольного образования, вариативная система дошкольного образования, вариативность, системность, вариативность дошкольного образования, задачи и пути внедрения, управления вариативной системой дошкольного образования, критерии контроля качества вариативной системы дошкольного образования, вариативное образование; доступность дошкольного образования; качество дошкольного образования; управление развитием образования.*

Key words: *The educational system; variable education; pre-primary education; access to early childhood education; the quality of preschool education; management of development of education.*

Maktabgacha ta'lim tizimi har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashning muhim bosqichidir. Bugungi kunda ushbu tizimni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning 2016-yil 29-dekabrda "2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori asosida maktabgacha ta'lim tizimida chuqur o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli, maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olgan holda, o'tgan davrda mamlakatimizda maktabgacha ta'limni yanada rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi hamda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mavjud tizimli kamchiliklar maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Shu munosabat bilan, davlat rahbari tomonidan 2017-yil 9-sentyabrda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorda maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish,

maktabgacha ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan hamda quyidagi kamchiliklar ko'rsatib o'tilgan:

birinchidan, maktabgacha ta'limni boshqarishning amaldagi holati tizimli muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, mazkur sohada, shu jumladan, nodavlat sektorda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish imkonini bermayapdi;

ikkinchidan, maktabgacha ta'lim sohasiga investitsiyalarni jalb qilishga, shu jumladan, ijtimoiy-hammabop maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish, ularni moddiy-texnik jihatdan qayta jihozlash va ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari joriy qilinmagan;

uchinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalari infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasining amaldagi holati bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalari bilan to'liq qamrab olishni ta'minlashga imkon bermayapdi, mamlakatda aholi sonining o'sishi ayrim maktabgacha ta'lim muassasalarining haddan tashqari bandligiga olib kelmoqda;

to'rtinchidan, milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni

uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik (shu jumladan, o'yinlar va o'yinchoqlar) materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash hamda maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatiga joriy etish ishlari zamonaviy talablarga javob bermaydi;

beshinchidan, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning amaldagi tizimi maktabgacha ta'lim sohasida bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlay olmaydi;

oltinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimining past darajada ekanligi malakali kadrlarni jalb qilish imkonini bermayapti;

yettinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha hududiy sog'liqni saqlash organlari ishini tashkil etishdagi kamchiliklar bolalarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, shu jumladan, sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Demak, maktabgacha ta'limni boshqarishning amaldagi tizimi mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, mazkur sohani yanada rivojlantirish uchun innovatsion qarorlarni ishlab chiqish va joriy etish imkonini bermayapti.

Qarorda shuningdek, sohadagi dolzarb muammolarni hal qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ham tasdiqlandi. Shu bilan bir qatorda, sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etishga davlat talablari, shu jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalarni uyg'un rivojlantirish sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining amalga oshirilishi mamlakatda maktabgacha ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, maktabgacha ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishini tubdan yaxshilash imkonini beradi.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq, o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimida variativ dasturlar joriy etilmagan, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil, moslashuvchan modellar yetarli darajada rivojlanmagan hamda

taraqqiy etgan mamlakatlar singari ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof muhit bilan tanishuvga yo'naltirilgan maxsus davlat ta'lim dasturlari tatbiq qilinmagan.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bolalarni maktab ta'limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermaydi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim sifati monitoringini yuritish tuzilmaviy va tashkiliy jihatdan nazarda tutilmaganligi sababli, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini baholash zamon talablariga javob bermaydi.

Xorijiy davlatlar ilg'or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma'naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, maktabgacha yoshga oid tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilgan.

Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash zarur.

Bugun davlat, jamiyat o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim berish tizimiga yangidan-yangi talablarni qo'yimoqda, xususan, uning birinchi va eng asosiy bosqichi – maktabgacha ta'lim tizimi qo'yilgan maqsadlar ijrosining ilk bo'g'ini hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, yuqorida ko'rsatib o'tilgan vaziflarni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'limning variativ tizimini amaliyotga kiritish zarur.

Maktabgacha ta'lim variativ tizimining maqsadi – har bir bolaning sifatli va ommabop (ochiq) ta'lim olish huquqini ta'minlash. Bu tizimda ta'lim oluvchilar uchun har xil rejim ya'ni, ota-onalar talabidan kelib chiqqan holda, vaqtni belgilash, bola rivojlanishini inobatga olish, iqtidor va yo'nalishlarni hisobga olish, imkoniyati cheklangan bolalar, maxsus ta'lim talablarini inobatga olish kabilar asosiy mezon bo'ladi.

Albatta, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, avvalambor, ta'lim jarayonini sifat jihatidan o'zgarishlarga olib keluvchi innovatsiyalarni

rivojlantirishga bog'liq. Biz taklif etayotgan tizimda birinchi navbatda bu jamiyat, ota-onalarning maktabgacha ta'limning yangi shakllari bo'yicha talablari qondiriladi.

Yana shuni inobatga olish kerakki, zamonaviy ota-onalar o'z farzanlarini ertaroq rivojlantirish, ular qobiliyat va iste'dodini yoshligidan aniqlab, unga mos ta'lim yo'nalishlarini tanlashga harakat qilishmoqda.

Barchamizga ma'lumki, bugun maktabgacha ta'lim muassasalaridagi qamrovning past darajada (buning ob'ektiv va sub'ektiv sabablari bor) ekanligini inobatga olib, ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat bo'lishi shart deb hisoblaymiz. Zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarlari jamoa saviyasiga jiddiy e'tibor qaratib, ular faoliyatini monitoring qilish kabi masalalarga mas'uliyat bilan yondoshmog'i lozim.

Bugun an'anaviy maktabgacha ta'lim tizimi ya'ni, to'liq kun maktabgacha ta'lim muassasasi o'rniga alternativ ko'rinishdagi ta'lim shakllarini kiritish ko'pgina tashkiliy muammolarni hal etishga ko'mak beradi.

O'rganishlar natijasida shu aniq bo'ldiki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni amalga oshirishda "ta'lim beruvchi – ta'lim oluvchi – ota-ona" tizimi asosidagi hamkorlikni yo'lga qo'ymasdan maqsadga erishish mumkin emas.

Maktabgacha ta'lim tizimining barcha xodimlari shuni anglashi kerakki, maktabgacha ta'limning variativ tizimi har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalashning muhim shartidir.

Fikrimizcha, maktabgacha ta'limning variativligi bu – maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishni belgilab beruvchi asosiy prinsiplaridan va yo'nalishlaridan biridir.

Maktabgacha ta'lim jarayonining variativligi bu – maktabgacha ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini muvofiqlashgan faoliyati. Bu jarayon ta'lim mazmunini tanlashda (ta'lim standartlari va talablari doirasida), ta'lim vositalari, usullari va muloqot yo'llarini, umuman olganda, maktabgacha ta'lim mazmuni va jarayonini tanlashda namoyon bo'ladi.

Qolaversa, ta'lim tizimida olib borilayotgan demokratlashtirish, liberallashtirish jarayonlari, ta'limning variativligi, innovatsion jarayonlar maktabgacha ta'lim muassasasi va barcha ijtimoiy institutlar (eng avvalo oila) o'rtasida hamkorlikdagi, muvofiqlashgan faoliyatga xizmat qiladi.

Variativlik deganda nafaqat mazmun jihatdan farqlanuvchi variativ dasturlardan (umumta'lim, chuqurlashtirilgan, kengaytirilgan darajadagi) foydalanish, balki ta'lim usullari, shakllari va ta'lim texnologiyalari bilan farqlanuvchi dasturlarni ham nazarda tutish lozim. Shundan kelib chiqqan holda, variativlik ta'lim oluvchi shaxsining talablari, ehtiyojlari, imkoniyatlariga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Maktabgacha ta'limning variativ tizimining ilmiy tadqiq qilinishi va amaliyotga kiritilishi quyidagi natijalarga olib keladi:

Maktabgacha ta'limning sifati va ochiqligi barcha ijtimoiy toifadagi guruhlar, aholi hamda yashash joyi, daromadidan qat'i nazar, hamma uchun ta'minlanadi.

Maktabgacha ta'lim davrida tarbiyalanuvchining kelgusi hayotidagi o'rnini aniq belgilanadi va uning jamiyat hayotiga moslashishi va qo'shilishi imkoniyati kengayadi.

Maktabgacha ta'lim xizmatlarining kengayishi asosida maktabgacha ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Davlat va jamiyatning barcha institutlari hamkorligi asosida maktabgacha ta'lim tizimining ko'pfunksionalligi va moslashuvchanligi ta'minlanadi.

Maktabgacha ta'lim mazmuni, ta'lim modellari va texnologiyalarning takomillashuvi bola shaxsining to'liq rivojlanishiga va maktabgacha ta'limning tizimining ta'limning navbatdagi bosqichlari bilan uzluksizligiga muvofiqlashtiriladi.

Maktabgacha ta'limning iqtisodiy ta'minotiga yangicha qarashlar shakllanadi hamda innovatsion maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimi pedagoglarining innovatsion faoliyatlari sifatini kompetentlik yondoshuvi asosida baholash mezonlari va monitoring tizimi shakllantiriladi.

Maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy, jamiyat – davlat tizimi shakllanadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini boshqarish va uning iqtisodiyoti muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy-iqtisodiy sohanining eng asosiy, ustivor yo'nalishidan biridir.

Ta'lim tizimining faoliyat yuritishida bozor iqtisodiyotining ta'siri yetarli darajada o'rganilmagani, ta'lim tizimi faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishning bozor iqtisodiyotidagi texnologiyalari va metodlarini, ta'lim muassasalarining bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy samaradorligini oshirish muammolarining chuqur tadqiq etilmaganligidir.

Maktabgacha ta'limning variativ tizimini amaliyotga joriy etish uchun quyidagi asosiy talablar bajarilishi shart:

Variativlik – ota-onalar va bolalarning ehtiyojga asoslangan ta'lim talablarini qondirish;

Tizimlilik – barcha maktabgacha ta'lim tizimi ta'lim oluvchilari uchun yagona ta'lim sifatini ta'minlash.

Ushbu talablarga asosan, variativlik – bu maktabgacha ta'lim tizimida ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlarining turli-tuman bo'lishiga hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni to'liq qamrab olishga, maktabgacha ta'lim xizmatlari tizimini kengaytirishga erishishidir.

Maktabgacha ta'limning variativ tizimining zaruriyati quyidagi faktorlarga asoslanadi:

- ota-onalar va bolalarning rivojlanish darajasiga qarab ta'lim xizmatlariga talablarining turli-tumanligi;

- respublikamizda zamonaviy ta'limga bo'lgan talablarning o'rinishi va rivojlanishi;

- maktabgacha ta'lim tizimida ta'limning zamonaviy shakli va texnologiyalariga bo'lgan talabning o'rinishi.

Maktabgacha ta'limning variativ tizimini amalga oshirishda xududiy maktabgacha ta'limni boshqaruv organlari quyidagi yo'nalishlarga asosiy e'tiborlarini qaratishlari lozim:

- maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining kasbiy darajasi va kompetentligini oshirish (qisqa muddatli, maqsadli malaka oshirish kurslarini tashkil etish);

- maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarining yangi, zamonaviy (rahbarning ijtimoiy-pedagogik modelini ishlab chiqish talab etiladi) tipini shakllantirish;

- maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish choralarini ko'rish.

Maktabgacha ta'limning variativ tizimini amaliyotga joriy etish uchun albatta, maktabgacha ta'lim sifatini boshqarishning samarador tizimini yaratish lozim. Ta'lim sifati boshqa ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar kabi, stixiyali boshqarishdan yiroq bo'lishi hamda aniq tizimli boshqaruvga ega bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'limning variativ tizimi sifatini faqat adminstrativ yo'l bilan amalga oshirib bo'lmaydi, bu jarayonda yuqorida ta'kidlab o'tganmizdek jamiyatning barcha institutlari, ta'lim jarayonining barcha sub'ektlari ishtirok etishi zarur.

Maktabgacha ta'limning variativ tizimi sifatni boshqarishning quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

ta'lim sifatini nazorat qilish;

- motivatsiya;

- tashkiliy chora-tadbirlar;

- rejalashtirish, loyihalashtirish;

- tahlil;

- sifatni tadqiq qilish.

Maktabgacha ta'limning variativ tizimi sifatini boshqarish uchun quyidagilar zarur:

- boshqarish va sifatni nazorat qilish vositalari;

- maxsus bo'linmalarni o'z ichiga olgan boshqaruv tizimi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limning variativ shakli maktabgacha ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat maktabgacha ta'lim muassasalari tizimining bir bo'lagidir. Variativ ta'lim jarayoni – barcha ta'lim jarayoni qatnashchilarining ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda, davlat tablari va ta'lim standartlari asosida ta'lim mazmuni, ta'lim texnologiyalarini, faoliyat va muloqot vositalari va usullarini tanlashda hamkolikdagi faolyatini yo'lga qo'yishda muhim ahamiyaega ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021 - yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2016- yil 29- dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori. 2017- yil 19- iyul.

3. Афанасьева Т.П., Немова Н.В. "Профильное обучение: педагогическая система и управление". М.: АПК и ПРО- 2004, 73-б.

4. Баранник М.А. "Маркетинг образовательных услуг: базовые понятия." Интернет-сайт www.ооипкро.нм.ру

5. Баталов А.С. «Маркетинг образовательных услуг». Интернет-сайт www.супермаркетинг.народ.ру

O'ZBEKISTONDA BIOLOGIK VA LANDSHAFT XILMA-XILLIKNI MUHOFAZA QILISHNING MINTAQAVIY GEOEKOLOGIK JIHALTLARI

Ruslan ALLAYOROV – TDPU magistranti

Muhiddin XIDIROV – TDPU "Geografiya o'qitish metodikasi" kafedrasida laboranti

Mohinur QO'SHABOYEVA – TDPU "Biologiya o'qitish metodikasi" fakulteti talabasi

Ushbu maqolada O'zbekistonda yo'qolib borayotgan hamda noyob o'simlik va hayvonot olami vakillarini, mintaqalardagi landshaftlar xilma-xilligini muhofaza qilishning geoe ekologik jihatlari yoritilgan.

В данной статье освещены геоэкологические особенности охраны исчезающих и редких представителей растительного и животного мира, вертикальные и горизонтальные региональные свойства охраны ландшафтного разнообразия в регионах.

The article highlights the geoeological features of protecting endangered and rare representatives of plant and animal life vertical and horizontal properties of protection of landscape diversity in the regions.

Kalit so'zlar: *ekotizim, biologik xilma-xillik, landshaft, geotizimlar, landshaftlar xilma-xilligi, geoe ekologik vaziyat.*

Ключевые слова: *экосистема, биологическое разнообразие, ландшафт, геосистема, разнообразие ландшафтов, геоэкологическая ситуация.*

Key words: *ecosystem, biological diversity, landscape, geosystem, landscape diversity, geoeological situation.*

O'zbekiston Yevrosiyo materigining markazida, okean va dengizlardan uzoqda, bir qancha floristik va biogeografik o'lkalar tutashgan hududda joylashganligi uning landshaft va biologik xilma-xillikka boy ekanligi (o'simlik va hayvonot olamining nihoyatda rang-barangligi)ni belgilaydi. Cho'l va vohalardan iborat keng tekisliklar, baland tog'lar, dashtlar, o'rmonlar, yaylovlar, to'qayzorlar, suv havzalari, madaniy landshaftlarning barchasi o'ziga xos floristik va faunistik majmualarga ega ekotizimlarni tashkil etadi.

Odatda, biologik xilma-xillik deyilganda tirik organizmlarning xilma-xilligi, shuningdek, ekotizimlar, ekologik majmualar va ular mavjud bo'lgan bo'g'inlar tushuniladi. Biologik xilma-xilligi yashash joy xilma-xilligi, biosferadagi biotik jamoalar va ekologik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Landshaft (geotizim) xilma-xilligi deyilganda esa geotizimlarning makon va zamonda xilma-xilligi, geografik jarayonlar uzluksiz davom etayotgan, tabiiy imkoniyatlarini yuqori holatda saqlab qolgan tabiat komponentlari va ular ham boshqa turli xil ko'lamdagi majmualardan iboratligi tushuniladi.

Tabiat bilan jamiyat o'rtasida ma'lum ma'noda tabiatning xilma-xilligi ustuvor ta'sirga ega. Tadqiqotchilarning fikricha, tabiat va resurslarning xilma-xilligi qanchalik ko'p bo'lsa, jamiyat taraqqiyoti uchun yaxshi sharoitlar vujudga keladi va aksincha. Bu yo'nalishda moddiy tizimlar birligi va ularni o'rab turuvchi tabiiy muhit va landshaftning xilma-xilligi qonunlari o'rtasida bir paytning o'zida baravariga harakat sodir bo'ladi. Bu murakkab landshaft strukturasiga ega bo'lgan hududlarda tabiiy muhitning tezkorlik bilan katta areallarda o'zgarishlarga uchrashi yuz beradi[5, b-82-83].

O'zbekistonning tabiiy geografik sharoiti, orografik tuzilishi, iqlimining keskin o'zgaruvchanligi, o'simlik va hayvonot olamining barcha hududlarda bir xil taqsimlanmaganligiga, landshaft majmualarining turlichaligiga sabab bo'lgan. Shu boisdan O'zbekistonning barcha tabiiy geografik okruglarida va shuningdek, balandlik mintaqalarida biologik va landshaft xilma-xilligining o'ziga xos tabaqalanishiga sabab bo'lgan.

Mamlakatimiz hududidagi o'simlik va hayvonlar turlarining ko'pchiligi son jihatdan kamayib borayotganligi hech kimga sir emas. Hozirda O'zbekistonda yuksak o'simliklarning 4500 ga yaqin turi mavjud bo'lib, shundan: 3700 tasi ikki urug' pallalilar, 800 ga yaqini bir urug' pallalilarga mansub. Ikki urug' pallalilarning 138 ta oilaga mansub 3700 ta turi uchraydi. Shuning 153 turi ra'nodoshtlar oilasiga, 200 tadan tur karamdoshlar va sho'radoshlar oilasiga, 27 tur gulxayridoshlar oilasiga, 470 tur burchoqdoshlar oilasiga mansub.

Ular mintaqalar bo'yicha bir xil tarqalmagan. Masalan, O'zbekiston geobotaniklari (Granitov, 1961, 1967; Korovin, 1961, 1962) Qizilqum cho'lida 900 ga

yaqin yuqori o'simliklar turi mavjudligini aniqlashgan. P.Q. Zokirovning (1973) ma'lumoti bo'yicha Qizilqumning markaziy qismidagi past tog'lar florasida 560 turdan iborat bo'lib, ular 263 ta urug'ga va 48 ta oilaga birlashtirilgan. Janubi-G'arbiy Qizilqumda I.I.Granitov (1967) tomonidan 580 turdagi o'simlik borligi aniqlangan [1,17-18]. O'simliklar tekisliklardan tog' mintaqasiga tomon son va tur jihatdan ko'payib boradi. Ayni kunda esa ularning barcha mintaqalarda muhofazaga muhtoj turlari mavjud.

O'zbekiston "Qizil kitobi"ga 322 o'simlik turidan 180 tasi beshta (burchoqdoshlar – 57 tur (17,7 %), qoqidoshlar – 45 (14 %), yalpizdoshlar – 30 (9,3 %), ziradoshtlar – 28 (8,8 %), loladoshtlar – 20 (6,2 %)) oilaga mansub bo'lib, ular 56 % ni tashkil etadi [4,92].

Mamlakatning turli hududlarida turlicha miqdordagi o'simlik turlari muhofaza ostiga olingan. Masalan, Qashqadaryo havzasida 1430 tur, O'zbekiston florasida 1452 turga mansub yuksak o'simlik borligi aniqlangan. Shulardan 50 dan ortig'i endem turlar, 100 dan ortig'i dorivor turlar bo'lib, 15 oila, 20 turkumga mansub 35 tur O'zbekiston "Qizil kitobi" ga kiritilgan [8,40]. Jizzax viloyati hududida 17 oilaga, 30 turkumga mansub, 43 o'simlik turi kiritilgan [6, 274].

Farg'ona vodiysida qirqbo'g'imsimonlarni bir oila, bir turkum 4 turi, qirqquloqsimonlarni – 4 oila, 12 turkum, 17 turi, ochiq urug'lilarni 3 oila, 4 turkum, 14 turi, yopiq urug'lilarni 89 oila, 704 turkum, 2594 turi, jami 97 oila, 719 turkum, 2628 turi tarqalgan (249 turi vodiylar uchun endem ekanligi ma'lum). Bundan 25 yil oldin ularning O'zbekiston "Qizil kitobi" ga kiritilgan turlari 38 ta bo'lgan bo'lsa, shu kunga kelib "Qizil kitob" ga kiritilgan va kiritilishi lozim bo'lgan turlarining soni 78 taga yetdi [9,93].

Muhofaza ostiga olingan va muhofazaga muhtoj bo'lgan noyob va yo'qolish xavfi ostida turgan turlar faqatgina O'zbekiston florasida emas, faunasida ham ko'plab uchraydi.

O'zbekiston faunasida umurtqali hayvonlarning 688 turi (sutemizuvchilar – 105, qushlar – 441, sudralib yuruvchilar – 60, amfibiyalar – 3 va baliqlar – 76) mavjud, umurtqasiz hayvonlar turlari esa 15 mingdan ortiq [7,7].

O'zbekistondagi tabiiy ekologik sharoitning yomonlashuvi va inson omilining bevosita ta'sirida bir vaqtlar tabiatda erkin yashagan Turon yo'lbarasi, qizil tulki, sirtlon, xachir kabi hayvonlar butunlay yo'qolib ketdi. O'rta Osiyo qoploni, Old Osiyo qoploni, chipor sirtlon (do'lta), Ustyurt qo'yi, qora laylak, tuvaloq, qum charx iloni, O'rta Osiyo kobrasi, uzundum burgut kabi nodir hayvonlar butunlay yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi. XX asrning boshlarida G'arbiy Tyanshan, Bobotog', Ko'hitangtog', Boysuntog', Hisor tizmalarida soni keskin kamayib ketgan hayvonlardan ilvirs, qoplon, Buxoro tog' qo'yi, ko'k sug'ur, qizil bo'ri, Tyanshan oq tirnoqli ayig'i, yo'l-yo'l sirtlon, Turkiston silovsini, tog' qo'ylari, Qizilqum qo'yi

va boshqalarni tez-tez uchratish mumkin edi. Endilikda bu hayvonlarning aksariyat qismi qo'riqxonalarda maxsus ko'paytirilmoqda. Jumladan, qor barsi dengiz sathidan 2500 metrdan yuqorida yashashga moslashgan. Oxirgi yarim asrda muzliklar va doimiy qorliklarning erishi natijasida maydonning qisqarishi, yashash muhitida ozuqa manbalarining kamayishi, tog' yaylovlarining shiddat bilan o'zlashtirilishi qor barsining yashash muhiti chegarasini keskin kamaytirib yubordi va ularning hozirgi soni 30-50 taga tushib qoldi.

Yana shuningdek, ko'plab hayvonlarning yashash makoni bo'lgan tekislikdagi to'qaylarning va tog'lardagi o'rmonlarning qisqarib ketishi yovvoyi hayvonlarning qirilib ketishiga olib keldi.

Hayvonlar va o'simliklar (qaysi landshaft turida bo'lishidan qat'iy nazar) o'rtasidagi munosabat yana ham murakkab va xilma-xil bo'lishi mumkin. Bu ikki landshaft komponenti bir-biriga nisbatan changlatuvchi, urug' tashuvchi, shuningdek kasallik tarqatuvchi, tashuvchisi sifatida bo'lishi mumkin [10,90].

O'simlik va hayvonot olami vakillarining tur va son jihatdan kamayishi, ularning yashash muhitining yomonlashuvi tekislik va tog' mintaqalarida, turli geotizimlarda turlicha kechishi tabiiy.


Cho'l geotizimlarining tabiatan mo'rtligi, geografik komponentlarning o'zaro aloqadorlik darajasi va bog'lanish mexanizmini bo'shligi, tabiiy va antropogen omillar ta'sirining kun sayin kuchayib borishi ularning barqaror rivojlanib borishiga imkoniyat bermaydi. Buning oqibatida turli xil keskinlikdagi geoeologik vaziyatlar vujudga keladi [1,33].

Tog' geotizimlari esa cho'l geotizimlariga nisbatan ancha barqaror. Shunday bo'lsa-da, tog'lar tabiatidan nooqilona foydalanish oqibatida bu mintaqada ham geoeologik muvozanat o'zgarib bormoqda.

Biologik va landshaft xilma-xilligini muhofaza qilishda muhofaza etiladigan hududlarning ahamiyati yuqoridir. Masalan, birgina Hisor qo'riqxonasi hududida 81 ta oila, 384 turkum, 870 turga mansub o'simlik, tabiiy holda o'sadigan daraxtlarning 20 dan ortiq turi, butalarning 40 ga yaqin turi keng tarqalgan. G'arbiy Hisor uchun endem bo'lgan turlarga boyligi bilan ham xarakterlanadi. Umuman, hozirgi vaqtda hisobga olingan gulli o'simliklarning Hisor-Oloyga xos bo'lgan endem turlar soni 80 dan ortiq bo'lsa, shundan 42 turi, ya'ni 53 % idan ortiqroq qismi g'arbiy Hisor uchun endem turlardir. Qo'riqxonada "Qizil kitob"ga kiritilgan endem o'simliklarning 15 turi keng tarqalgan [12,99]. Lanshaftning qiyofasini belgilab beruvchi asosiy komponent sifatida o'simliklarning o'zni beqiyosdir. Shuningdek, ularning farmaseftik ahamiyati kundan kunga ortib borayotganligi ayni haqiqat.

Hozirgi vaqtda, O'zbekiston Respublikasida 112 tur dorivor o'simliklardan rasmiy tabobatda foydalanishga ruxsat berilgan bo'lib, ushbu dorivor o'simliklarning 80 % ini tabiiy holda o'suvchi o'simliklar tashkil etadi [11,88].

O'zbekiston hududida tarqalgan yovvoyi hamda, noyob va yo'qolib borayotgan o'simlik turlarini oilalar va mintaqalar bo'yicha tarqalishida tog' mintaqasi o'simliklari hukmron. Ikkinchi o'rinda adir, so'ng cho'l va yaylovga to'g'ri keladi [3,87] (1-rasm).



1-rasm. Noyob va yo'qolish arafasida turgan o'simlik turlarining mintaqalar bo'yicha taqsimlanishi.

Rasm ma'lumotlar asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

O'simlik va hayvonot dunyosi bir-birlari bilan o'zaro bog'liq. Maboda o'simlikning bir turi yo'qolsa, hasharotlarning 10-30 turi qirilib aniqlangan yoki ayrim hayvonlar o'sha joyni tark etishi mumkin ekan.

So'ngi yillarda qushlarning mavsumiy qo'nim va uyalash joylarining tez-tez o'zgarishi, baliqlarning oldingi yashash joylarini o'zgartirib daryolarning o'rta

va yuqori oqimi tomon harakatlanishi ekotizimlardagi vaziyat o'zgarayotganligini bildiradi. Masalan, baliqlardan Turkiston ko'k bo'yini, Turkiston laqqachasi, Turkiston mo'ylabdori, cho'rtansifat oqqayroq kabilar yashash joylarini daryolarning quyi oqmidan o'rta va yuqori oqimidagi joylarga o'zgartirgan.

Hayvonot olami vakillarining son va tur jihat ustunlik tekislikka nisbatan tog'larda yuqoridir. Lekin, shunga qaramay sut emizuvchi yirtqichlarning aksariyati tog' mintaqasiga to'g'ri keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tog' mintaqasining biologik xilma-xillikka boyligi uning barqarorligini ta'minlaydi. Cho'l, adir va yaylov mintaqalarida, shu jumladan tekislik yoki tog' oldidagi to'qay va qayir geotizimlari biologik xilma-xillikka antropogen ta'sirning kuchliligi natijasida bu hududlarda geoeologik vaziyat buzilib, barqarorlik pasayishi kuzatiladi.

O'zbekistonda biologik va landshaft xilma-xillikni asrash, geoeologik muammolarni oldini olish va mavjudlarini bartaraf etish uchun quyidagi ilmiy-amaliy masalalar o'z yechimini topishi lozim:

O'zbekistonning balandlik mintaqalari bo'ylab geoeologik, biogeografik va geobotanik tadqiqot ishlarini o'zaro uzviylikda olib borish;

tabiatga antropogen ta'sir kuchli bo'lgan hududlarda geoeologik yondashuv asosida ishlar tashkil qilish;

alohida muhofaza etildigan hududlar maydonini kengaytirish va faoliyatini takomillashtirish;

o'rmon xo'jaliklari maydonini kengaytirish va ilmiy hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish.

Yuqoridagi kabi amaliy chora-tadbirlarni tizimli yo'lga qo'yish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim hisoblangan biologik resurslarning xilma-xilligi saqlab qolishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abbasov S.B. "Qizilqum landshaftlari va ularning geoeologik jihatlari". T.: 2007.-39- b.
2. Hasanov I.A., G'ulomov P.N. "O'zbekiston tabiiy geografiyasi". T.: Universitet-2007.
3. Norboboyeva T., Saidmuratov Sh.X., Ishmo'minov B.B., Zokirova X.G. "Noyob va yo'qolish arafasida turgan o'simliklarning mintaqalar bo'yicha tarqalishi". Konferensiya materiallari. T: TDPU- 2015, 87-91-b.
4. Norboboyeva T., Tursunboyeva G., Ishmo'minov B.B., Eshmatova Z. "O'zbekistonning noyob va yo'qolib borayotgan o'simlik oilalari". Manba: № 3, 91-94-b.
5. Rafiqov A.A., Sharipov Sh.M. "Geoeologiya". T.: "Adib"- 2014, 104- b.
6. Rahmonqulov U.R., Mamadaliyeva E.Sh., Oxunova N. "Jizzax viloyatining "Qizil kitob" ga kiritilgan o'simlik turlari va ularning muhofazasi". Jizzax: JDPI- 2017, 273-275-b.
7. "O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi". T.: "Chinor"-2009.
8. Xo'jamqulov B.E., Choriev R.R., Raximov A.L., Omonov O.E. "Qashqadaryo florasini o'rganish tarixiga doir". QarDU xabarlari- 1(23), 2015, 40-45-b.
9. Hamidov G'.H., Maxsudova R.S. "Farg'ona vodiysining o'simlik boyliklari va ulardan samarali foydalanish". Andijon: "ADU"- 2016, 93-95-b.
10. Hamidov A.A., Amanbayeva Z.A. "Landshaftlarning ichki va tashqi o'zaro ta'sir hamda aloqadorliklarida hayvonlarning roli". Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.: 2006. 89-91-b.
11. Xo'janazarov O., Ismoilov S. "Janubi-g'arbiy Zarafshon tizmasining kamyob, "Qizil kitob" ga kirgan o'simlik turlari va ularning kimyoviy tarkibi". TDPU ilmiy axborotlari- № 1 (6), 2016, 87-91-b.
12. Omonov O. "Hisor davlat qo'riqxonasining "Qizil kitob"ga kiritilgan endem o'simlik turlari". QarDU xabarlari- 1(23), 2015, 99-101-b.

OSKAR UAYLDNING ERTAKLARIDA IJTIMOY – MADANIY MUAMMOLARNING YORITILISHI

Shahzoda Mahmudova – O'zMU xorijiy filologiya fakulteti talabasi

Maqolada Oskar Uayldning ertaklarida ifodalangan ijtimoiy-madaniy muammolar yoritilgan.

В статье изложены социокультурная проблематика в сказках Оскара Уайльда.

This article is about the coverage of socio – cultural issues in Oscar Wilde`s fairy tales.

Kalit so'zlar: *adabiyot, ertak, ertak turlari, ijtimoiy-madaniy muammo, obraz, romantik obraz, realistik obraz, jahon adabiyoti.*

Ключевые слова: *литература, сказка, типы сказок, социокультурная проблематика, образ, романтический образ, реалистический образ, мировая литература.*

Key words: *literature, story, types of story, socio – cultural issues, image, romantic image, realistic image, world literature.*

Vatanimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, barcha jabhalarda ko'pgina yutuqlarga erishildi. Jumladan, adabiyot va ta'lim sohasidagi yutuqlarimiz ham talaygina. Adabiyot-so'z san'ati, azaldan xalq

qalbining ifodachisi, qalb kuychisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib kelgan, albatta. Hozirgi kunda yoshlarning badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishi kun sayin oshib bormoqda. Nafaqat, o'zbek adabiyoti,

balki chet-el adabiyotiga ham qiziqish kuchaymoqda. Jahon ilm-u fani va madaniyatini o'rganishda jahon adabiyotining o'zni katta ahamiyatga ega. Badiiy asarlarni va ertaklarni ilmiy tahlil qilish, o'rganish biz yoshlarning ma'naviyatimizni yuksalishiga xizmat qiladi. Jahon ilm-u fani taraqqiyoti bilan hamnafas bo'lgan holda biz ham imkon darajasida ilmiy izlanishlar olib bormoqdamiz. Shu o'rinda "ertak", "obraz" atamasi va tushunchasiga qisqacha to'xtalsak.

Ertak – xalq poetik ijodining eng qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan biri bo'lib, uni bolalar sevib o'qiydilar. Ertaklar deb, shartli ravishda, fantastik hikoyalarni ataymiz. Ertaklarning xarakterli xususiyati shundaki, ularda fantastiyaga keng o'rin beriladi; mubolag'a, giperbola kabi poetik vositalardan foydalaniladi, ulardagi ijobiy qahramonlar yengilmas kuchga aylanib, har qanday yovuzlik, adolatsizlik, haqsizlik ustidan g'alaba qiladi. Chunki ertaklardagi ijobiy qahramonlar mehnatkash xalq vakillari bo'lib, umumxalq manfaatini, orzu va umidlarini o'zida ifodalagan bo'ladi. Ertaklar asosan nasr shaklida bo'lib, didaktik vazifani bajaradi.

Ertaklar turli mavzularda bo'lishi mumkin. Ular obrazlar talqini, g'oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi, tili va uslubiga ko'ra, shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklar, hajviy ertaklarga bo'linadi.

Obraz badiiy to'qima yordamida yaratilgan, estetik, qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni chog'da, aniq manzarasidir. Obraz deganda inson ongida in'ikos etilgan voqea-hodisalargina emas, balki shu bilan birga so'z vositasida san'atkor tomonidan anglangan, qayta ishlangan va tasvirlangan hayot tushuniladi.

Ijodiy metod taqozosiga ko'ra obrazlar romantik va realistik bo'ladi. Romantik obrazlarda yozuvchi turmush haqidagi orzu va umidlarini tasvirlaydi. Bunday obrazlar yuksak ko'tarinki ruhda jismoniy jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham kuch -quvvatga, mo'jizaga ega qilib tasvirlanishi mumkin. Jahon adabiyotining yorqin vakili, ingliz yozuvchisi Oskar Uayld qalamiga mansub "Gul va Bulbul" ertagi ham bu kabi romantik obrazlarga boydir.

Realistik obraz – xarakter xususiyatlari, faoliyati hayotdagi real odamlarga mos keladigan tarzda umumlashtirilib, tipik sharoitda haqqoniylashtirilib yaratiladigan obrazlardir. Uayldning "Baxil Pahlavon" hikoyasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Undagi xasis Pahlavon qahramonida biz hayotda uchrab turadigan qizg'anchiq xarakterli insonlarni ko'ra olishimiz mumkin. Ko'rkam bog'lari bilan mashhur bir shaharda faqat bir kishininggina bog'i ko'karmaydi, unda qish va muz hukmron. Bog'ning egasi Pahlavon hayron: hammaning bog'iga qishdan so'ng bahor keladi, unikida esa... abadiy qahraton. Jumboqning siri nimada?

Yana bir voqea: Oshiq Tolib o'z yoriga muhabbatining ramzi sifatida qizil atirgul taqdim etmoqchi. Biroq qizil atirgul bu yili chamanzorlarda bitmagan. Tolibning nolalarini eshitgan bulbul, uning

orzusini ro'yobga chiqarish yo'lida o'zini qurbon qiladi. Ammo bu qurbonning qadri qanday? Bulbul qoni behuda to'kilmadimi? Bu savollarga mashhur ingliz adibi Oskar Uayldning adabiy ertak shaklida yozilgan hayajonli hikoyalari orqali javob olish mumkin.

Har bir ertakda ibratli hikmat mujassam. Oskar Uayld ertaklari qiziqarli voqealari, ular zamiridagi chuqur falsafiy mulohazalari bilan kichkintoylarni hamda kattalarni ham birdek o'ziga tortadi. Adib ertaklarida tilga olingan qahramonlar talqinida ijtimoiy-madaniy muammolar, yaxshilik va yomonlik, mehr-muhabbat kabi falsafiy tushunchalarni anglab yetish hamda hozirgi davrga mos badiiy talqinda tahlil qilish kitobxon uchun muhim masala hisoblanadi.

Uayld Oskar (16.10.1854 Dublin – 30.11.1900 Parij) – bor yo'g'i 44 yil umr ko'rgan. Lekin oz va soz umr ko'rgan, salmoqli ijod namunalari: esse, ertak va hikoyalar, estetikaga oid maqolalar muallifi sifatida tanilgan bu adib va dramaturgning muborak nomi ingliz va jahon adabiyoti hamda teatri tarixidan nufuzli o'rin oldi. Bundan tashqari, u ingliz yozuvchisi, tanqidchi hisoblanadi. Hashamdor she'rlari bilan fransuz simvolistlariga yaqin turadi.

Uning ijodi, ayniqsa, ertaklari insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilganiga shubha yo'q. Uayld o'sha davr jamiyatida ko'zga tashlangan qabohatdan dili vayron bo'lib, go'zallik shaydosi yanglig' ulkan iste'dod sohibi sifatida qalam tebratdiki, bu hol uning ijodi kamyob san'at hodisasiga aylanishiga sabab bo'ldi.

Shuningdek, Uayld son-sanoqsiz aforizmlar yaratgan bo'lib, u zid fikrlar ifoda tarziga shu qadar mayldor ediki, bu uning shaxsiy hayotida ham, ijodida ham bosh yo'riqqa aylandi. U go'zallik oldida sajda qiladi, shu go'zallikni ulug'lab, o'zini buyuk "nafosatparast" (estet) deb e'lon qiladi. Shu bilan birgalikda adib qalamiga mansub "Baxtli shahzoda" va "Yulduzli bola" adabiy ertak to'plamlarida o'zi yashagan muhit urf-odatlarini tanqidiy ruhda aks ettirilgan.

1882-yilda AQSh shaharlari bo'ylab sayohatda bo'lib, estetika bo'yicha ma'ruzalar o'qigan. Bu davrda va keyinroq yaratilgan "E'tiqod va Nigilistlar", "Gersoginiya Padunskeya", "Salome" dramalarida yosh yozuvchining isyonkor kayfiyati ifodalanib, ijtimoiy hayot masalalari muhim o'rin egallaydi. Londonga qaytib, gazeta va jurnallar bilan hamkorlik qilgan. Axloqsizlikda ayblanib, ikki yil (1895-1897) qamoqda yotib chiqqach, Parijga ko'chib o'tgan. Qamoqdan so'ng Uayld hayotida ro'y bergan ruhiy tushkunlik "The Balled of Reading Gaol" (Reding qamoqxonasi balladasi-1898) avtobiografik asari hamda o'limidan keyin e'lon qilingan "Qamoqxonadagi tavba"(1905) da o'z ifodasini topgan.

Oskar Uayld umri poyonida dramaturgiyaga murojaat etmay qo'yadi. Lekin yaratgan asarlarining o'zi ham uning nomi jahon adabiyoti va teatri tarixidan o'rin olishiga munosib kafolat bo'ldi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodni ta'lim-tarbiyasiga oid izchil islohotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning tashabbusi bilan ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv – uslubiy materiallar bilan ta'minlash yanada takomillashtirilishini taqozo etadi. Zero, mamlakatning yorug' istiqbolini bugungi barkamol va har tomonlama bilimli avlodlarda ko'ramiz. Shunday ekan, har bir bilimli avlod biror bir chet tilini mukammal egallashga intiladi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimida: "Biz ta'lim tizimida o'quvchilarning

nafaqat keng bilim va professional ko'nikmalarni egallashi, ayni paytda chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi dunyoda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalar, yangilik va o'zgarishlardan atroficha xabardor bo'lish, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o'rganishlari uchun katta ahamiyat bermoqdamiz", - deya ta'kidlab o'tgan.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda badiiy asarlarning o'ri beqiyosdir. Inson tafakkurini boyitishda adabiyot asosiy vazifani bajaradi. Shuning uchun biz talaba-yoshlar o'z mutaxassisligimizni puxta egallashimiz uchun barcha fanlar qatorida tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyotini o'rganishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, jahon adabiyotining yorqin namoyondasi va mahoratli yozuvchi Oskar Uayld ijodiga qisqacha murojaat qilganimiz bejiz emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat"-2008, 52-b.
2. Umurov S. "Adabiyotshunoslik nazariyasi". T.: "Ma'naviyat"-2014, 123-b.
3. Shermuhammedov P. Tursunov J. Safarov O. Egamov X. "O'zbek bolalar adabiyoti". T.: "O'qituvchi"-1976, 22-23-b.
4. Belinskiy V.G. "Adabiy orzular". T.: "O'qituvchi"-1997, 101-b.

FIZIKA VA UNI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Gulchehra RAHMONOVA – TDPU Fizika –matematika fakulteti magistranti

Maqolada pedagogik texnologiyalarning fizika fanini o'qitishdagi tutgan o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

В статье обсуждается роль и значение педагогических технологий в преподавании физики.

This article discusses the role and importance of pedagogical technologies in the teaching of physics. Abstract: This story is about post of pedagogical technology of physics.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, o'quvchi yoshlar, o'qitish usullari, interfaol metodlar, o'qituvchi faoliyati.

Ключие слова: педагогические технологии, методы обучения, интерактивные методы, деятельность учителя.

Key words: pedagogical technology, teaching methods, inter active methods, activity of teacher.

Bugungi kunda fizika eng jadal rivojlanayotgan fanlardan hisoblanadi. Uning shakllanish va rivojlanish tarixi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Har bir fanni mukammal o'rganish uchun avvalambor fanning yaratilishi va kelib chiqish tarixini bilish dolzarb muammodir. Fizika fanining rivojlanish tarixiga nazar solsak, u bir necha ming yilni o'z ichiga oladi. Fizikaning rivojlanishi antik davr ilm-fanidan tortib, hozirgi kungacha bir necha davrlarga bo'linadi. Fizikaning fan sifatida rivojlanish tarixini esa uchta davrga ajratish mumkin:

I davr – fizikaning fan sifatida shakllanish davri (XVII asr 80-yillarigacha).

II davr – klassik fizika davri (XVII asr oxiri - XX asr boshlari).

III davr – hozirgi zamon fizikasi davri bo'lib, u 1900-yildan boshlanadi.

Insonning yer yuzida paydo bo'lganligiga arxeologlarning ma'lumotlariga ko'ra 16-12 million yillar bo'lsada, uning madaniyatini rivojlanganlik holati haqidagi dastlabki ma'lumotlarga esa uzog'i bilan 7-9 ming yil bo'ldi xolos. Insoniyat tarixidagi eng katta yutuqlardan biri, albatta, bu olov olish va uni o'z hayotida ishlatishidir. Bir necha ming yillik evolyutsion rivojlanish natijasida insonning fikrlash qobiliyati, ongi, nutqi takomillashdi, tabiat va atrof – muhiti haqida yangi bilimlar to'plandi, olam va dunyo tuzilishi haqidagi ba'zi bir tasavvurlar shakllandi va atrofda sodir bo'layotgan hodisalarga o'ziga mos (ilmiy tilda - antropomorf) tushuntirishlar aniqlandi.

Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan soha mutaxassislarini fikricha "Pedagogik texnologiya" bu o'quvchilarni o'qitish, o'rgatish va ularni har tomonlama rivojlantirish qonun-qoidalarini o'z ichiga olgan pedagogik tadbirlar tizimidan iborat. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, ta'limni texnologiyalashtirishni asosini, ta'lim oluvchilarni, uning samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasini tashkil etishdir¹.

Har bir fanda bo'lgani kabi hozirgi kunda fizika fanida ham bir qator yangiliklar, o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bu esa pedagoglardan doim o'z ustida ishlashni, yangiliklardan boxabar bo'lib borishni, faqat an'anaviy dars usullaridan foydalanmasdan o'qitishning yangicha noan'anaviy usullaridan foydalanib dars o'tishni talab qiladi. Fizika fanining o'qitishning qiziqarli va afzallik taraflaridan biri shundaki, bunda o'quvchilar fizik hodisa va jarayonlarni kundalik hayotda ko'rib, kuzatib borishlari mumkin bo'ladi. Biz bu jihatdan o'quvchilarning fizikadan nazariy va amaliy bilimlarini baravar rivojlantirib borishda foydalanishimiz mumkin. Fizika darslarida o'quvchilar maruza darsida olgan bilimlarini amaliy masala yechish darslarida yanada yaxshiroq tushunib olsalar, laboratoriya darslarida esa egallagan bilimlarini hayotda qo'llanilish jarayonini guvohi bo'ladilar.

Bugungi kunda o'qituvchilar dars jarayonida bir qancha pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanib kelishmoqda. Shu o'rinda "interfaol" so'zining ma'nosiga to'xtalib o'tsak, interfaol so'zi o'zaro faol degan ma'noni bildirib, bunda dars davomida o'quvchi va o'qituvchining faol va birgalikdagi faoliyati nazarda tutiladi. An'anaviy darslarda dars markazida o'qituvchi turgan bo'lsa, noan'anaviy darslarda esa dars markazida o'quvchi bosh turishi bilan farqlanadi. Biz hozirgacha o'qitish texnologiyalarining bir qancha turlari bilan tanishmiz. Bu texnologiyalarga "aqliy hujum", "bumerang", "baliq skeleti", "BBB" texnologiyasi, "Insert jadvali", "nilufar guli", "fikrlay olasanmi", "klaster" va h.k lar kabi turlari mavjud. Albatta bunday texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil qilish darslarni qiziqarli va samador bo'lishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari fizika fanini o'qitishda quyida keltirilgan texnologiyalardan foydalanish ham o'quvchilar qiziqishini oshirib, ularni fanni yanada chuqurroq o'rganishga undashi shubhasizdir.

"Fizik bahrubayt" texnologiyasi. Bunda sinf o'quvchilari ikki yoki uchta guruhga ajratiladi, shundan so'ng o'qituvchi bitta fizik asbob nomini aytadi, masalan: dinamometr deb aytishi mumkin. Birinchi guruh o'quvchilari esa o'sha so'z qanday harf bilan tugallangan bo'lsa, shu harf bilan boshlanadigan asbob nomini aytishlari kerak. Masalan: r harfi bilan boshlanadigan asbob-reostat, ikkinchi guruh o'quvchilari esa t harfi bilan davom ettiradilar, masalan: termometr. Shu tarzda davom

etiladi qaysidir guruh topa olmay to'xtab qolsa 5 soniya vaqt beriladi, shundan so'ng topa olmagan guruh o'z-o'zidan o'yinni tark etadi. Bu texnologiya o'quvchilarni birgalikda guruh bo'lib ishlashga o'rgatadi, bundan tashqari ulardan tez fikrlash va chaqqonlikni ham talab qiladi.

Yana bir o'yin texnologiyamiz esa o'quvchilarning mantiqiy fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bunda o'qituvchi mavzuni tushuntirib bo'lgandan so'ng o'quvchilardan "O'quvchilar menga mavzu yuzasidan savollaringiz bormi?" deb so'raydi. O'quvchilarda savollar bo'lsa ularga tushunolmay qolgan joylari tushuntirib beriladi. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga qarata shunday deydi: "O'quvchilar endi meni ham sizlarga qiziqarli savolim bor" deb, savolni aytadi. Masalan quyidagicha savol berish mumkin.

Bolalar sizlar hammangiz o'qishni bilasizlarmi? Bolalar bu savolga albatta "Ha" deb javob berishadi. Shundan so'ng o'qituvchi quyidagi sonlarni doskaga yozadi.

1
1 1
2 1
1 2 1 1
.....

Yozib bo'lgach o'quvchilardan so'raydi: "Agar o'qishni bilsangiz nuqtalar o'rniga qanday sonlar bo'lishini yozib bering". Shundan so'ng o'quvchilar birin-ketin o'z javoblarini aytadilar. To'g'ri javobni topgan o'quvchi rag'batlantiriladi. Agar ular to'g'ri javobni topa olishmasa u holda savol qo'shimcha uy vazifasi qilib beriladi. Bu savolning javobi aslida juda oson topiladi.

Birinchi bo'lib doskaga bir soni yoziladi. Tagidagi qatorga esa uni o'qilishini yozamiz. Biz 1 sonini bitta bir deb o'qidik va shuni yozdik: "1 1". Keyingi qatorga yangi qatordagi sonni o'qilishi yoziladi, 2 ta 1: "2 1". Undan so'ng yana yangi qatorni o'qilishini yozamiz, 1 ta 2 va 1 ta 1: "1 2 1 1". Shundan so'ng yana yangi hosil bo'lgan qatordagi sonlarni o'qiyamiz, 1 ta 1, 1 ta 2 va 2 ta 1: "1 1 1 2 2 1". Shu tariqa davom ettirib, xohlagancha qator hosil qilish mumkin. Bu o'yin ancha qiziqarli bo'lib o'quvchilarning faolligini va mantiqiy fikrlar qobiliyatini oshiradi.

Shunday qilib, hozirgi davrdagi ta'lim berish jarayonini quyidagi asosiy jihatlar bilan ifodalash mumkin:

O'qituvchining faoliyati nafaqat ilmiy-amaliy asosda, balki ijodiy artistik asosda ham amalga oshirilishi lozim.

O'qituvchilarga bo'lgan talab ham sezilarli darajada oshmoqda va endi ular nafaqat ilmiy, balki ma'rifiy va amaliy bilimlarni ham puxta egallashlari zarur bo'lmoqda.

Ilm, fan va texnikaning jadal rivojlanib borishi, yangi texnika va texnologiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borishi, innovatsion texnologiyalarning barcha sohalarida qo'llanilishi o'qituvchilardan uzluksiz bilim olishni talab qilyapti.

O`qituvchining faoliyati ko`p qirrali bo`lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo`naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholovchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzaahmedov B., G`ofurov N., Ibragimov B. "Fizika o`qitish metodikasi". T.: "O`qituvchi" -2017
2. Djorayev M. "Fizika va astronomiya o`qitish metodikasi". T.: "O`qituvchi" -2017
3. O`lmasova M. "Fizika" 1-qism. T.: "O`qituvchi" -2014
4. www.ziyonet.uz
5. www.TDPU.uz

PESHONAGA BITILGAN BITIKLAR

Qurdosh QAHRAMONOV – filologiya fanlari doktori

Istedodli yozuvchi va shoir, bir qator nasriy va she'riy asarlari bilan ham bolalarning, ham kattalarning ma'naviy olamini boyitishga birdek xizmat qilayotgan Abusaid Ko'chimov o'zining navbatdagi asarini chop etdi. "Binafsha" deb nomlanuvchi ushbu qissa va hikoyalar to'plami G'afur G'ulom nomli nashriyotda chop etilgan.

To'plamdan adibning so'nggi davrlarda yaratgan bir turkum hikoyalari hamda "Peshona" nomli qissasi o'rin olgan. Yozuvchi hikoyalarda ijtimoiy-ma'naviy muammolar inson taqdiri, qismati bilan bog'liq holda yoritiladi. Ularda o'tish davriga xos bo'lgan ijtimoiy-psixologik murakkabliklar, ziddiyatli jarayonlar inson kechinmalari, ruhiy holatlar fonida yoritiladi. Adibning "Binafsha", "To'y" kabi hikoyalarda bu holat yaqqolroq namoyon bo'ladi.

"Binafsha" hikoyasida yozuvchi Binafsha va Botir munosabatlari tasviri orqali insonning ijtimoiy hayotdagi o'rni, ma'naviy dunyosidagi evrilishlar xususidagi qarashlari bilan kitobxonni oshno qiladi. Avvallari faqat ishqiy munosabatlar tufayli bir-biri bilan bog'langan bu qahramonlar bir necha yillik tanaffusdan keyin Binafshaning chorlovi bilan yana aloqalarini tiklashadi. Hikoyada mana shu uchrashuv jarayonidagi o'zaro muloqot tasviri asarning asosini tashkil etadi.

Binafshaning chorloviga har xil ikkilanishlar va tahminlar bilan kelgan Botir Binafshadagi o'zgarishlarni ko'rib hayratga tushadi. U endi ilgari faqat xushtor sifatida tilga olinadigan Binafsha emas, balki yana-da go'zallashgan, yana-da dadillashgan va, eng muhimi, hayotda muayyan maqsad sari intilayotgan bilimdon, ishchan bir tadbirkorga aylangan zamonaviy ayol timsolida namoyon bo'ladi. Hayotning ming bir chig'irig'idan o'tib, taniqli aktrisaga aylangan, o'zining xususiy studiyasini ochgan Binafshaning Botirni yoniga chorlashidan maqsadi ham eski munosabatlarini tiklashgina emas, balki iste'dodli ijodkor sifatida o'zi yaratmoqchi bo'layotgan filmiga hamkorlik qilishdan ham iborat edi. Shu tariqa, ular o'rtasidagi suhbat eng avvalo, bugungi adabiyot va san'at olamida kechayotgan yaxshi-yomon jarayonlar, kino olamidagi muammolar, turli-tuman qing'ir-qiyshiqliklar haqidagi talqinlarga aylana boradi. Yozuvchi Binafsha timsolida bugungi kino san'atidagi eng og'riqli nuqtalarni bartaraf qilishga jazm etgan qahramonni yaratadi. Uni bir ideal obraz sifatida emas, balki shu jarayonning ichida yurgan, undagi fojialarni o'z boshida sinagan, lekin o'zligini saqlab qolgan obraz qiyofasida namoyon bo'ladi. Uning birdan-bir maqsadi milliy o'zlikni namoyon qiluvchi filmlar yaratish. Shu maqsad yo'lida u Botirni yoniga chorlaydi.

Adibning "To'y" nomli hikoyasida esa to'ylardagi o'z holiga qaramasdan o'triqcha dabdababozlik holatlari, soxta obro' uchun chiranish holatlari fosh

etiladi. Yozuvchi hikoya qahramoni Akangqarag'ayning imkoniyati ko'tarmasa-da, poytaxtdan katta-katta nomdor san'atkorlarni to'yga olib kelib, hammani lol qoldirmoqchi bo'lishi, shu maqsadda qo'shnilari, qarindosh-urug'larini maslahat oshiga chorlashi va to'y maslahati tasviri orqali butun qishloq ahlining, qarindosh-urug'larning o'ziga xos xarakter-xususiyatlarini yorqin detallar yordamida yoritadi. Maslahat jarayonidagi dialoglar, o'zaro muloqotlar orqali qishloq odamlariga xos bo'lgan xarakterlarni birma-bir ochish bilan ajralib turadi. Bu shunchaki to'y maslahatigina emas, odamlarning turmush-tarzi, o'y-xayollari va orzu-umidlarini namoyon qiluvchi manzaraga aylanadi. Chunonchi, shu qishloqning eng boy odami hisoblanuvchi bozorqo'm istehzoli nigohi orqali dasturxonning nochorligini, uning har-har joyiga tashlangan to'rtta non va sochilgan oddiy qand-qurs, qachonlardir somon bilan suvoq qilingan uyning nochor ko'rinishi tasvirlanadi. Bu tasvirlar Akangqarag'ayning imkoniyatlarini yaqqol namoyon qiladi. To'y haqidagi maslahatlar ham shunga yarasha. Birovi holingga qarab to'y o'tkazib qo'yaver deb maslahat bersa, boshqasi poytaxtdan "yulduz" qo'shiqchilarni olib kelasanni, deb piching qiladi. Qaysi birov esa, qishloqdan chiqqan va poytaxtda falon vazirlikda katta lavozimda ishlaydigan tog'aning yordamiga umid bog'lab, unga uchrashishni maslahat beradi. Lekin Akangqarag'ay qo'shnilarini tog'am xizmat safarida ekan, deb aldaydi. Aslida esa, u tog'aga uchrashgan, tog'a esa uning chiranma to'y qilishiga qarshi chiqib, nasihat qilib jo'natgan edi. Qo'ni-qo'shnilarining birontasi o'zlarining to'yga qo'shajak hissalarini haqida lom-lim deyishmaydi. Qo'shnilar tarqagach, rafiqasi bilan yolg'iz qolgan Akangqarag'ayning his qilgan ruhiy kechinmalarini asarning kulminatsiyon nuqtasini belgilab beradi.

Kitobdan joy olgan qissa "Peshona" deb nomlanadi. Albatta, bu gap zamirida katta ma'no mujassam. Peshona bilan bog'liq qismatlar ikki xil talqin etiladi. Hayotda ishi yurishgan, baxti kulgan kishilarni odatda, "peshonasi yarqirabdi", deyilsa, omadsiz, nochor kimsalarga nisbatan, "peshonasi sho'r ekan" kabi iboralar qo'llaniladi. Qissa qahramoni Rasul Qodir mana shunday "peshonasi sho'r"lardan. Bir vaqtlar iste'dodli jurnalist bo'lgan, qator-qator maqolalar va "Duoning kuchi" nomli kitobini chop ettirgan Rasul bugungi kunda qariyalar uyini makon tutgan va o'zining iste'dodi, bilimi, bor kuch-quvvatini sotib kun kechirayotgan g'arib kimsa sifatida namoyon bo'ladi. Qissa o'zaro muloqot-umunosabatlar asosiga qurilgan.

Asardagi qariyalar uyi o'z ma'nosidan tashqari ma'lum darajada ramziy ma'noga ham ega. U tashqi olamdan temir panjaralar bilan ajralgan, bir qarashda tinch-osuda, turmush g'ala-g'ovurlaridan tamoman holi joy sifatida taassurot qoldiradi, lekin yozuvchi shu

joyning ham o'z hayoti, o'z "o'g'ri-yu yulg'ichlari", "talon-taroj" qiluvchilari borligini ham o'rni-o'rni bilan muloqot jarayonida hikoya qilib ketadi. Asarda Rasul fojeasi butun drammatizmi bilan namoyon bo'ladi. Uning shunday holatga tushib, qariyalar uyiga kelib qolishiga eng avvalo xotini Madina sababchi. Rasulning aytishicha, bir vaqtlar nashriyotda tuppatazuzuk muharrirlik qilib yurgan Madina keyinchalik mutaasiblik yo'lga o'tib, diniy qarashlar ta'sirida tamoman o'zgaradi. Rasul bir-ikkita kursdosh do'stlarini uyga olib borganda, ularning oldida nafsoniyatiga tegib, sha'nini haqorat qiladi. Shu tariqa, uydan bosh olib chiqib ketgan Rasul yigirma yildirki, turli joylarda yashab yuradi va oxir-oqibat og'aynisi yordamida shu qariyalar uyida qo'nim topadi. Qariyalar uyida direktor bo'lib ishlagan og'aynisi Said Murod Rasulga mijozlar topib kelar, ikkalasi ijodiy hamkorlik qilib ba'zan ilmiy, ba'zan badiiy asarlar yaratib, ularni pullashardi. Ular yaratgan asarlar boshqa mualliflar nomidan chop etilaverardi. Elbek Rasulning oldiga kelgan vaqtda Said Murod vafot etgan va Rasul chorasiz holatga tushgan bir payt edi. Qariyalar uyining pullik bo'limiga joylashgan Rasulning nafaqasi to'lovni to'liq qoplamas, shu bois, qo'shimchasini o'zi ishlab topishga mahkum edi. Shuning uchun Elbekning kelishi uning uchun ayni muddao bo'lib, mijozlar topib kelishini undan iltimos qiladi.

Asarda Rasul qiyofasi rang-barang holatlarda namoyon bo'ladi. U g'ayb olamiga ishonuvchi, o'zi yaratib olgan xayolot olamida yashovchi qahramon. Uning yaratib olgan o'z olami va shu olamda yashab ijod qiluvchi qahramoni bor. Ko'm-ko'k archalarga burkangan tog' etagida, sharqirab oquvchi soy bo'yida joylashgan so'lim qishloq, qo'lida chelak ushlab soy bo'yiga tushgan, atlas ko'ylak kiygan dilbar qiz... So'lim kechki paytlari nayda "cho'li iroq"ni chalayotgan oshiq yigit. Ular o'rtasidagi ajib bir ilohiy munosabat va xayolidagi kechgan sevgi iztiroblari, ishqiy sarguzashtlari... Rasul xayolida yaratgan ushbu voqelikni o'zining haqiqiy hayotidan-da ustun qo'yadi. Eng yorqin his-tuyg'ularini, kechinmalarini mana shu yaratgan olamida ro'y-rost namoyon qiladi.

Yozuvchining mahorati shundaki, Rasul kechmishi orqali adabiyot va san'at, ilm-fan olamidagi tez-tez uchrab turadigan qing'irliklarni mohirlik bilan

asar mohiyatida fosh qilib boradi. Jumladan, quloqqa chalinadigan mish-mishlar – ilmiy va badiiy asarlarni yozib berish, yozuvchi-shoirlar, san'atkorlar orasida tez-tez sodir bo'lib turadigan turli-tuman g'iybat-u badnomlar, qasdlashishlar va boshqa illatlar asarda o'ziga xos bo'lgan bir kinoya bilan asar to'qimasiga singdirib yuboriladi. Asar voqealari, ishtirok etayotgan qahramonlar, ularning portretlari, nomlanishlaridagi o'zgarishlar, ba'zilarida asliyatning saqlanib qolishlarida hujjatlilik sezilib turadi. Bu hol ba'zi o'rinlarda asarda badiiylik bilan publisistik ruhning uyg'unlashuviga olib kelgan.

Chunonchi, tabalalarning Nizomiy nomidagi pedagogika institutining kechki bo'limida bir yil o'qib, keyin kundizga bo'limga o'tishlari, kechki bo'limda qolgan Rasulning armiyaga ketishi-yu, qaytib kelgandan keyin yangi kursdoshlariga ko'nikolmay o'qishni tashlab ketishi va 63 yoshida ham sobiq talabaligicha qolishi kabi voqealar tasviridagi aniqlik shundan dalolat beradi. Asardagi Said Murod, Rahmat Safo, Uzoqbek, Robiyabonu, Mahmud Salim, Ergash Murod, Tohir Falak, Ismoil Fayz, Hoji kabi ismlar bilan birga "Antik adabiyot tarixi" darsligi muallifi Abdurahmon Alimuhamedov, saksoninchi yillarda "Fan va turmush" jurnalida Rustam Obidni qator maqolalari bilan mashhur qilgan eksrtasens Mirzakarim Norbekov, "Siri olam", "Fan va turmush" kabi nashrlarning asl nomi bilan tilga olinishi, Juna haqidagi kitob tarjimasi haqidagi fikrlar buning yorqin dalilidir. Ta'kidlash joizki, yozuvchi qalamga olayotgan manbalarni chuqur o'rgangan, yaxshi biladi. Shu bois ham asarda adabiyot, san'at, ilm-fan, diniy masalalar haqidagi ko'plab fikrlar bayon etilgan.

Asarda Rasul qismatidan tashqari Salim Sulton qismati ham berilgan. Talabalik davrida barchada eng bilimdon, kelajagi porloq iste'dod sifatida taassurot qoldirgan Salim Sultonning keyinchalik anchayin o'rtamiyona kimsaga aylanib qolishi ham qiziqarli hayotiy epizodlar orqali ochib beriladi.

Eng muhimi, asarda tasvirlanayotgan kursdosh-u hamkasblar munosabatlari, xudo bergan iste'dodini namoyon qilgan yoxud qilolmay, pulga chaqayotgan, peshonasiga bitilganini kechirayotganlar taqdiri hech bir kitobxonni befarq qodirmaydi, ular haqida mushohada yuritish, muayyan xulosalar chiqarishga undaydi.

MUNDARIJA

ANIQ FANLAR

Komiljon NASRIDDINOV. Tezlatkichsiz astrozarralar fizikasi.....	2
Muhammadrasul DJO'RAYEV, Sherali BABAIEV. Izchillik tamoyilining fizik nazariyalar rivojlanishida namoyon bo'lishi.....	6
Турсунбой ДЖУРАЕВ, Жамшид РУЗИЕВ. Абсолютные экстензоры класса $AE(0)$	9
Lolaxon O'RINBOYEVA. Tabiiy-matematik ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish – barkamol insonni shakllantirishning omili.....	15
Davron ZIYADULLAYEV, Mirzoxid RAXMONOV, Gulruh TEMIROVA. Multimediali elektron o'quv qo'llanma yaratishda ispring suite 8 dasturni qo'llash.....	17
Gullola XO'JANIYOZOVA. Iqtisodiyot sohasidagi oliy ta'lim muassasalari talabalariga matematika o'qitish jarayonida matematik bilimlar integratsiyasi.....	20

TABIY FANLAR

Atanazar RAHIMOV. O'rta asrlarda markaziy osiyoda yashagan mutafakkirlarning tabiatshunoslik rivojiga qo'shgan hissalar va dunyoqarashlari.....	24
Zuhra MAXMATKULOVA, Saidjon ISMOILOV, Dildora ABDUAZIMOVA. "Polimerlar" mavzusini interfaol metodlar yordamida o'qitishning samaradorligi.....	27
Saidnosir FAYZULLAYEV, Shoista VOXIDOVA. Umumiy biologiya (genetika bo'limi) darslarida rivojlantiruvchi darslarni olib borish metodikasining samaradorligini oshirish.....	30

FILOLOGIYA

Sardor NAZAROV. "Faust" asari o'zbekcha tarjimalarida tasviriy vositalarning ifodalanishi.....	33
Marvarid MAMADJONOVA. Husayn Voiz Koshifiy ijodida ma'naviy - axloqiy masalalarning falsafiy talqini.....	36

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

Farhodjon ISMATULLAEV. O'zbekistonning Italiya bilan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohadagi hamkorligi.....	40
Nuriddin QALQONOV. "Temur tuzuklari" da siyosiy yetakchi imijiga oid qarashlar	41
Xushnud JUMANIYOZOV. Ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda oila-mahalla-ta'lim-nodavlat tashkilotlari hamkorligining ustuvor yo'nalishlari.....	44
Nigora EGAMBERDIEVA. O'zbekistonning qadimgi davri tarixining o'rganilishi (miloddan avv. VII-IV asrlar).....	48
Ziyovuddin ILHOMOV, Salamat OMAROV. IX-XIII asr boshlari o'zbek davlatchiligi tarixi tarixshunosligining ayrim masalalari.....	51
Valiqlul ISHQUVVATOV. Mahalla faoliyatida tarbiyaning o'rni: yangicha talqin va yondashuvlar.....	53

PEDAGOGIKA

Saidaxbor BULATOV. Ilmiy kashfiyotlardan ta'lim tizimini va uning mazmunini modernizatsiyalashda foydalanish mexanizmlari.....	56
Shavkat RAXIMOV. Umumta'lim maktablari o'quvchilarini milliy ruhda tarbiyalashda o'zbek xalq cholg'ularidan foydalanish masalalari.....	62
Sunatulla ABDIRASILOV, Oykarim BAYMURZAEVA, Moxira TO'YCHIYEVA. Umumta'lim maktablarda tasviriy san'at fanini o'qitish texnologiyasini amaliyotga tatbiq etish metodikasi....	65
Олесья БОНДАРЧУК. Зависимость социальных представлений от командного вида спорта...	73
Nigora XAMIDOVA, Zaхро САФОЕВА. Индивидуализация построения профессиональной карьеры будущего учителя.....	75
Muborak MANKAMOVA, Nilufar RASULOVA. Zamonaviy tarbiyalash texnologiyasi.....	77
Rustam MEXMONOV. Pedagogika kasb-hunar kollejlarida "Maktabgacha yoshdagi bolalarning boshlang'ich kompyuter savodxonligi" fanini o'qitish masalalari.....	79
Umida MURODOVA. Pedagogik atamalar amal qilishining didaktik kategoriyalari, tushunchalari va tamoyillari – o'qituvchi kadrlarni samarali shakllantirish garovidir.....	83

Muxayyo UMARALIYEVA. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun malaka oshirish kurslarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar.....	86
Абдукаххор АБДУКАДИРОВ, Динара Джамалядинова. Преподавание программирования в учебных заведениях с использованием метода программированного обучения при изучении темы «Одномерные массивы»	90
Dono АКВАРОВА. Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida 5-6 yoshli bolalarni jismoniy mashqlar orqali sog'lomlashtirish usullari.....	92
ПСИХОЛОГИЯ	
Nargis ATABAYEVA. Shaxsdagi altruizm – psixologik himoya mexanizmi sifatida.....	96
Nodira KAMILOVA, Zulfiya KAMALOVA. Kasbiy motivatsiya – kasbiy ta'lim muvaffaqiyatining omili sifatida.....	98
YOSH TADQIQOTCHI MINBARI	
Nafisa ABDULLAEVA. Maktabgacha ta'lim tizimida variativ yondoshuvning o'ziga xos jihatlari.....	104
Ruslan ALLAYOROV, Muhiddin XIDIROV, Mohinur QO'SHABOYEVA. O'zbekistonda biologik va landshaft xilma-xillikni muhofaza qilishning mintaqaviy geoeologik jihatlari.....	107
Shahzoda MAHMUDOVA. Oskar Uayldning ertaklarida ijtimoiy-madaniy muammolarning yoritilishi..	110
Gulchehra RAHMONOVA. Fizika va uni o'qitishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati.....	112
ЮБИЛЯРЛАР	
Qurdosh QAHRAMONOV. Peshonaga bitilgan bitiklar.....	115